O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Gulchehra G‘AFFAROVA, Farxod IBROXIMOV

JAMIYATNING AXBOROTLASHUVI VA MAFKURAVIY IMMUNITET

O‘QUV QO‘LLANMA

CHIRCHIQ - 2024

UO‘K: 94,5
KBK: 66.3 (5O‘)

G’affarova G.G’., Ibroximov F. / Jamiyatning **axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet**. / O‘quv qo‘llanma. – Chirchiq: “Zebo Prints”, 2024. – 384 bet

O‘quv qo‘llanma jamiyatning axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, talabalarda axborot oqimi jadallashgan davrda axborotlarni to‘g‘ri qabul qilish hamda ularga munosib javob qaytara olish ko‘nikmalarini shakllantirishni, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish, uni kengaytirish va himoya qila olish, turli manipulyatsion xurujlarning asl mohiyatini anglash, yosh avlod hamda keng auditoriyaga yetkazib bera olish, mafkuraviy profilaktika jarayonlarida milliy qadriyatlarimizga tayangan holda ish olib borish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib quygan.

O‘quv qo‘llanma pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalariga mo‘ljallab tayyorlangan.

Taqrizchilar:

N.A. Nazarov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Milliy g‘oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori;

I.B. Siddiqov – Farg’ona davlat universiteti Falsafa kafedrasi мудири, falsafa fanlari doktori(DSc), dotsent

O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagi 314-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv qo‘llanma *sifatida nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN

© G’affarova G.G’. va b., 2024
© “Zebo Prints”, 2024

KIRISH

XX asr insoniyat tarixida misli koʻrilmagan kashfiyot va ixtirolar asri boʻldi. Agar dastlab ixtiro va kashfiyotlarni amaliyotga joriy qilish uchun 50-100 yil sarflangan boʻlsa, axborotlashgan davrda 10-20 va hatto 2-3 yilda ulardan foydalanish imkoniyati paydo boʻldi. Mavjud bilimlar doirasi shu darajada kengaydiki, bu axborot oqimi “tezlashuvi” jarayonini paydo qildi. Mazkur jarayon “axborotlashgan jamiyat” iborasida oʻz ifodasini topmoqda. Bu ijtimoiy turmushning barcha sohalarida keng imkoniyatlarni taqdim qilishi bilan birga ayni paytda, bugungi kun kishisini “axborot hujumi”dan himoyalashni taqozo etmoqda.

Darhaqiqat, jahonda globallashuv va axborotlashuv asri ijtimoiy unifikatsiya jarayonlarini tezlashtirib yubormoqda. Shu bilan birga hal qiluvchi omillari axborot va bilim boʻlgan axborotlashgan jamiyatning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Axborotlashgan jamiyat mehnat tejamkorligini oshirish bilan birga, faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini yoʻqotgan, oʻz maqsadi yoʻlida har qanday gʻoyani qoʻllashga tayyor avlodni paydo boʻlishiga asos boʻlmoqda.

Bugunga kunda jamiyat hayoti tubdan oʻzgardi. Inson hayotida davlat va jamiyat bir butun jism sifatida taraqqiy etib boradi. Ushbu jarayonda insonning oʻziga xos roli mavjuddir. Inson hayotda komillikka intilib, bilim va ma’rifatli, ma’naviyati yuksak, axloqiy jihatdan shakllangan, oʻz ongi va dunyoqarashiga ega boʻlsa, jamiyat barqarorligi yuzaga kelib, ijtimoiy-ma’naviy jihatdan taraqqiy etib boradi. Davlatimizda islohotlar, munosabatlar yangicha qarashlar orqali zamonaviy yondashuvlar, dunyoqarash va fikrlarni oʻzgartirmoqda.

Bugungi davr yoshlardan yuksak intellektual salohiyatni talab etmoqda. Zero, Oʻzbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek “bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismonan va ma’naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun gʻoyat

muhim vazifa bo‘lib qolmoqda”[1]. Darahaqiqat, zamonaviy jamiyatimizning ijtimoiy sohalarining turli jabhalarida yuz berayotgan o‘zgarishlar, islohotlar, yangilanishlar avvalo, ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishga yo‘naltirilgan. Mazkur ijtimoiy voqeliklar, hodisalar ro‘yobga chiqishining negizida, jumladan, yoshlarda ijtimoiy faollik xususiyatlarini shakllanishi muammosi ham yotadi.

Ijtimoiy faollik yoshlarni nafaqat ijtimoiylashuvining muhim bo‘g‘ini, balki shaxsning mustahkam irodasini shakllantirish, o‘z-o‘zini anglash va baholash kabi shaxs kamolotining omillari bilan tavsiflanadi. Yoshlar kelajak egalari ekanliklarini, ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olgan holda bugungi kunda inson texnika yutuqlaridan oqilona foydalanishining alohida madaniy qolipini yaratish lozim. Taraqqiyotga xizmat qiluvchi bu manbalardan oqilona foydalanishni barchaga singdirish kun talabi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Zamonaviy sharoitlarda jahon fani va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishning, mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omili bo‘lib bormoqda”[2].

Shuni ta’kidlash kerakki, Amerika maktablarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish - o‘z milliy manfaatlarini himoya qiluvchi vosita sifatida qaraladi. Buni tushunsa bo‘ladi, zero, bugungi yosh avlodning g‘oyaviy, mafkuraviy birligi - ertaga Amerika xalqining g‘oyaviy, mafkuraviy birligini anglatadi-da!

Fan-texnikaning yutuqlari insoniyat foydasiga, ezgu maqsadlarga xizmat qilishi ijobiy holat. Lekin, virtual olamdan ayrim kuchlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirish uchun foydalanayotganligi ham ayni haqiqatdir. Bunga qarshi har bir

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2020. -B.250.
[2]

mamlakat oʻz kelajagi haqida oʻzi qaygʻurib munosib kurash olib bormogʻi bugungi kunning zaruratidir.

Albatta, axborot jamiyat va davlat rivojlanishining muhim omili. Shu bois, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari barcha sohalarga samarali joriy etilgani muvaffaqiyatlar garovi hisoblanadi. Buning asosini axborotlashuv, kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari tashkil etadi. XXI asr esa axborotlashgan jamiyat asridir.

Mazkur oʻquv qoʻllanma talaba yoshlarga jamiyatning axborotlashuvi borasidagi bilimlarni chuqur singdirib oʻz mustaqil fikrini mustahkamlashiga, mediasavodxonlik va axborot madaniyatining nafaqat oʻzi, balki atrofidagi insonlarda ham yuksaltirishiga koʻmaklashadi, deb umid qilamiz.

1-mavzu. JAMIYATNING AXBOROTLASHUVI VA MAFKURAVIY IMMUNITET FANINING PREDMETI, MAQSAD-VAZIFALARI, AMALIY AHAMIYATI

Reja

1. Fanning predmeti va maqsad-vazifalari

2. Jamiyat va axborotlashgan jamiyat tushunchalarining talqini

3. XXI asrda fanning dolzarbliligi

1.1. Fanning predmeti va maqsad-vazifalari

Dunyoda yangi shakldagi axborot makonining paydo bo‘lishi va kompyuter texnologiyalarining yuqori sur’atda taraqqiy etishi oqibatida kishilar o‘rtasidagi axborot almashinuvi jarayonining yangi bosqichga ko‘tarilishi insoniyat tafakkurida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keldi. O‘zaro axborot almashishning cheksiz kengayishi, ijtimoiy-madaniy integratsiyalashuvning chuqurlashishi va jadallashishi esa yoshlarning jamiyatga ijtimoiylashuvida o‘ziga xos murakkabliklar tug‘dirmoqda.

Albatta, XXI asrga ziyoli inson sifatida faqat axborot texnologiyalarini yaxshi bilgan taqdirda qadam qo‘yish mumkin. Chunki insonlarning faoliyati o‘z vaqtida axborotga ega bo‘lganligiga va undan foydalana olganiga bog‘liq. Barcha sohalarning zamonaviy mutaxassisi axborotlashgan oqimlarida erkin harakatlanishi uchun axborotni olishni, qayta ishlashni va uni kompyuterlar, telekommunikatsiyalar va boshqa aloqa vositalarida foydalanishni bilishi zarur. Axborotni jamiyatning strategik yo‘nalishini, mamlakat rivojlanish darajasini aniqlaydigan resursi sifatida tushunish odatiy holga aylanmoqda. Axborotlashuv jamiyatni industrial rivojlanish ko‘rinishidan axborotlashgan ko‘rinishiga o‘tishini ta’minlaydi. Axborot bozori foydalanuvchilarga barcha zaruriy axborot mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etadi. Ularning ishlab chiqilishi esa axborotlashgan industriyani ta’minlaydi.

Shu bilan birga XXI asr – zamonaviy tamaddunlar rivojlanishining o‘ziga xos bosqichi va shunga mos holda jamiyat qiyofasining o‘zgarishi davri bo‘lib bormoqda. Ijtimoiy rivojlanishda bilimning roli oshib borayotganligi yangi model – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning keng miqdorda yo‘lga qo‘yilishiga asoslangan bilim jamiyati paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Inson va uning qiziqishlari eng ustuvor qadriyatga aylandi. Bu esa ijtimoiy institutlarning faollashuviga, xususiy manfaat va intilishlarga ega bo‘lgan erkin individlarning mavjud tizim bilan aloqasi, o‘zaro ta’siri kuchayishiga, zamonaviy fuqarolik jamiyati qiyofasini va tizimini belgilovchi yangi, bunyodkor jarayonlarni rag‘batlantirmoqda.

Ma’lumki, XXI asrda insonlar ongida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar axborot oqimining kengayishi va texnika taraqqiyoti bilan bevosita bog‘lik holda namoyon bo‘lmoqda. Mazkur jarayon “axborotlashgan jamiyat” iborasida o‘z ifodasini topmoqda. Bu ijtimoiy turmushning barcha sohalarida keng imkoniyatlarni taqdim qilishi bilan birga, bugungi kun kishisini “axborot xujumi”(xavfi)dan himoyalash zaruratini ham yuzaga chiqarmoqda. Bugun bo‘lg‘usi kadrlarda axborotlarni to‘g‘ri va munosib qabul qilish hamda ularga sog‘lom aql doirasida javob qaytara olish ko‘nikmalarini shakllantirish - har bir jamiyatning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Ma’lumki, mafkuraviy immunitet - kishilarning turli hoyaviy-mafkuraviy hamda informatsion tahdidlarga qarshi bilimlari va ko‘nikmalari yig‘indisida namoyon bo‘luvchi ijtimoiy muhim omil hisoblanadi. Mazkur fan dasturida yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan bilimlar bilan qurollantirish hamda shu orqali ularda o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish, uni kengaytirish va himoya qila olish, turli manipulyatsion xurujlarning asl mohiyatini anglash, shu bilan birga yosh avlod hamda keng auditoriyaga yetkazib bera olish, mafkuraviy profilaktika jarayonlarida milliy qadriyatlarimizga tayangan holda ish olib borish, ijodiy va tanqidiy

fikrlash koʻnikmalarini shakllantirish va yuksaltirish, informatsion madaniyatning yuqori darajasini tarbiyalash maqsad qilingan.

Jamiyatning axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet **fanining maqsadi** – talabalarda axborot oqimi jadallashgan davrda axborotlarni toʻgʻri qabul qilish hamda ularga munosib javob qaytara olish koʻnikmalarini shakllantirishdan iborat. Fan mazmunini anglab yetish talabalarning oʻz mustaqil fikriga ega boʻlish, uni kengaytirish va himoya qila olish, turli manipulyatsion xurujlarning asl mohiyatini anglash, yosh avlod hamda keng auditoriyaga yetkazib bera olish, mafkuraviy profilaktika jarayonlarida milliy qadriyatlarimizga tayangan holda ish olib borish, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish kabi jihatlar uchun juda muhimdir.

Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy koʻnikmalar, tanqidiy va ijodiy fikrlash jarayoniga uslubiy-metodik yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, “mafkuraviy poligon”dagi mafkuraviy xuruj va profilaktika jarayonlari mohiyatini ochib berish hisoblanadi.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- mafkura va mafkuraviy profilaktika jarayonlarinining asosiy qoidalarini nazariy tushuntirish;
- jamiyatning axborot va unga munosabatini oʻrganish, tahlil qilish;
- shaxslarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillarni nazariy tavsiflash;
- jamiyatning ongiga salbiy ta’sir qiluvchi yangi mafkuraviy xurujlarning turli usullariga tahliliy yondoshish;
- missionerlik va prozelitistik harakatlarning asl mohiyatini ochib berish;
- jamiyat a’zolarida kuchli mafkuraviy immunitetni shallantirish ishiga koʻmaklashish muammolarini muhokama qilish;
- mafkuraviy ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish.

1.2. Jamiyat va axborotlashgan jamiyat tushunchalarining talqini

Insoniyat azal-azaldan jamoa bo‘lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma’noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o‘tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog‘liq barcha o‘zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo‘llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo‘lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a’zosi deb ataladi.

Jamiyat nima?

Jamiyat — tabiatning bir qismi, ya’ni ijtimoiy borliq bo‘lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o‘rtasida amal qiladigan juda ko‘plab munosabatlar yig‘indisi, degan turlicha ta’riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi.

Demak, jamiyat ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida shuurga-ongga til va nutqqa ega bo’lgan, birbirlarining ijtimoiy yordami, ko’magiga ehtiyoj sezuvchi insonlar ijtimoiy uyushmasining eng umumiy ilmiy-falsafiy atamasidir.

Jamiyat moddiy va ma’naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma’naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar edi. Moddiy hayot tadqiqiga ko‘proq e’tibor berilar. Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog‘liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo‘lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma’naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo‘yish mantiqqa ziddir.

Inson ma’naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi davrda aholi ma’naviyatini yuksaltirishga, milliy g‘oya va mafkura asoslarini shakllantirishga katta e’tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jihatdan qashshoq bo‘lgani uchun ilmsiz bo‘lmaydi, balki, aksincha — ilmsiz bo‘lgani uchun qashshoq bo‘ladi. Shuning uchun yurtimizda xalq ma’naviyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta’minlashga katta e’tibor berilyapti.

Jamiyat (lotincha: *socium — „umumiy“*) — kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui hisoblanadi. Ya’ni, jamiyat - odamlar jamoasi bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati odamlarning o‘zaro munosabatlari, ularning o‘zaro ta’siri va birlashma shakllari.

Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma’naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga mos keluvchi munosabatlardir.

Jamiyat moddiy ishlab chiqarishsiz bo‘lmaydi. Unda insonlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqaga bo‘lgan ehtiyojlari qondiriladi. Jamiyatda jamiyatning tabiat bilan o‘zaro ta’siri namoyon bo‘ladi. Odamlar o‘zining moddiy ishlab chiqarish faoliyatida irodasi va ongiga bog‘liq bo‘lmagan holda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadi.

Jamiyat taraqqiyoti tabiiy-tarixiy, qonuniy jarayondir. Moddiy ishlab chiqarish jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ya’ni muayyan ijtimoiy qatlam, toifa va guruhlarning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda turli qatlam va toifalarning mavjudligi mehnat taqsimoti, shuningdek, ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan mulkchilik munosabatlari, jamiyatda yaratilgan moddiy

boyliklardan oladigan ulushiga bog‘liq. Bular jamiyatdagi kishilarning faoliyati hamda daromadiga qarab turli kasbiy va ijtimoiy guruhlarga ajralishining negizidir.

Jamiyat hayoti iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy sohalarga ajraladi. Iqtisodiy soha moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilishni o‘z ichiga oladi. Unda mamlakatning xo‘jalik hayoti tashkil etiladi, uning turli tarmoqlarining o‘zaro bog‘likligi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlik amalga oshiriladi. Bu jamiyat taraqqiyoti uchun eng asosiy sohadir.

Ijtimoiy soha jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, toifalar hamda milliy birliklar, ularning ijtimoiy hayoti va faoliyatini uyg‘unlashtiradi. Siyosiy soha turli ijtimoiy toifa va guruhlar, milliy birliklar, siyosiy partiyalar va harakatlar, jamoat tashkilotlarning o‘z siyosiy faoliyatini amalga oshiruvchi makondir. Ularning faoliyati jamiyatdagi o‘rnatilgan siyosiy munosabatlar asosida o‘z siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga qaratiladi.

Ma’naviy sohada kishilar turli ma’naviy qadriyatlarni yaratadi, tarqatadi va jamiyatning turli qatlamlari tomonidan o‘zlashtiriladi. Bu sohaga adabiyot, san’at, musiqa asarlari bilan bir qatorda kishilarning bilim saviyasi, fan, axloqiy me’yor va umuman olganda, jamiyat hayotining ma’naviy mazmunini tashkil qiluvchi narsalar kiradi.

Hozir O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotining eng asosiy muammosi insonlarning, ayniqsa yosh avlodning ma’naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni istiqlol mafkurasi asosida tarbiyalash, o‘zbek xalqining boy madaniy va ma’naviy merosi, qadriyatlari, an’analari va urf-odatlarini egallashlari uchun shart-sharoit yaratishdir. O‘zbekistonda fuqarolik, huquqiy, demokratik, dunyoviy jamiyat barpo etilmoqda.

Kishilik jamiyatlari kishilar o‘rtasidagi munosabatlar (ijtimoiy munosabatlar) modeli bilan xarakterlanadi, uni uning subyektlari

oʻrtasidagi shunday munosabatlar yigʻindisi sifatida tavsiflash mumkin.

Ijtimoiy fanlarda umuman jamiyat koʻpincha tabaqalanishni namoyon qiladi. Jamiyat - bu odamlarning shaxsdan yuqori, guruhdan yuqori va institutsional birlashmasi boʻlib, u turli xil ijtimoiy tabaqalanish va mehnat taqsimoti bilan tavsiflanadi.

Jamiyatni koʻp jihatdan tavsiflash mumkin: masalan, millatiga koʻra: fransuz, rus, nemis; davlat va madaniy; hududiy va vaqtinchalik; ishlab chiqarish usuliga koʻra va boshqalar.

Jamiyat koʻpincha umumiy ijtimoiylashuv bilan ajralib turadi va odamlarning muloqot va birgalikdagi faoliyati shakllariga qisqartiriladi. Boshqa nuqtai nazardan, muloqotda boʻlgan va birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlash bilan shugʻullanadigan odamlarning oʻzlari hali sotsiologik tushunchada jamiyatni tashkil etmaydilar, chunki ular guruhga (shu jumladan jamoaga) kiritilgan odamlar boʻlib qoladilar. Agar naturalizm jamiyatni moddiy tashuvchilarga qisqartirilgan deb da’vo qilsa, u holda oʻzining fenomenologik talqinida jamiyat ong turlari va aloqa shakllariga ishora qiladi.

Jamiyatning vujudga kelishi. Kishilarni oila boʻlib, jamoa boʻlib uyushishga nima majbur qilgan, degan masala qadim zamonlardanoq ulugʻ mutafakkirlar e’tiborini jalb etgan. Bu masalani diniy tushunish — uni ilohiy kuch, xudo bilan bogʻlab izohlashdir.

Dunyoviy qarashlarga koʻra, odamlar oʻzlarining moddiy va ma’naviy extiyojlarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa boʻlib birlashishga koʻnikkan. Kishilar hayotiy tajriba, aql va tafakkur tufayli jamiyat boʻlib yashashning qulay, afzal va zarurligini tushungan. Bu jarayonda oʻzaro munosabatlarga kirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma’naviy kamolotga erishgan. Bu

kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini bergan.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari — oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o‘rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi bir so‘z bilan ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qoldirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta’lim-tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlarsiz inson va jamiyat o‘z mohiyatini yo‘qotadi.

Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o‘zini himoyalash, zurriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma’naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o‘zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san’at, g‘oya, mafkura go‘zallik bilan, ma’naviy kamolot yo‘lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirilishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma’naviy olamni uyg‘unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o‘z maqsadlariga mos ravishda o‘zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma’naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma’naviyat tufayligina o‘z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to‘laroq qoldirish imkoniga ega bo‘ladi.

Mamlakatimizda ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor berilayotganining sababi ham ana shunda. Jamiyatning moddiy va ma’naviy hayoti kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq holda vujudga keldi.

Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi:

- kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy shart-sharoitlar;

- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg‘i, kommunikatsiya vositalari;

- moddiy ne’matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish;

- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o‘rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui;

- moddiy boyliklar, tabiiy zahiralar.

Jamiyatning ma’naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to‘g‘risidagi qarashlar, nazariyalar, ta’limotlar, g‘oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta’lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi.

Jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini boshqarish, kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim o‘rin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhimdir. Kishilar tamonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o‘zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqiyos ahamiyatga ega. Mehnatning kishilarning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi natijasida muayyan kasb-kor bilan shug‘ullanadigan toifalar, guruh, qatlam va sinflar vujudga keladi va ular jamiyat strukturasida o‘ziga xos o‘rin egalaydi, jamiyat taraqqiyotiga muayyan hissa qo‘shadi.

Umuman olganda, jamiyat – kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo‘lib, o‘z tuzilishi jihatdan murakkab tizimni tashkil qiladi. Bizning hozirda yashab turgan jamiyatimizni sotsial tizimning muayyan konkret shakli sifatida, uning funksional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo‘lakchalarining, sotsietal turlarining o‘ziga xos

tomonlarini, oʻzaro munosabatlarini ilmiy jihatdan oʻrganib, toʻgʻri boshqarish muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyat, uning tizimlari oʻziga xos tarkibiy tuzilishga ega boʻlib ularning asosiy komponenti inson hisoblanadi. Kishilar ijtimoiy hayotning turli sohalarida – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, maʼnaviy, oila-turmushda faoliyat koʻrsatadilar. Ularning asosida ijtimoiy tarkiblar tuziladi. Ijtimoiy tizimlarning murakkabligi, tarkibidagi elementlarning soni koʻpligi bilan emas, asosan, bu elementlar oʻrtasidagi oʻzaro aloqa va munosabatlar harakteri bilan belgilanadi.

Jamiyat taraqqiyoti toʻgʻrisidagi nazariyalar. Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi I.Kant jamiyatning vujudga kelishini axloqning shakllanishi bilan izohlagan.

G.Gegel esa jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L.Feserbax din bilan bogʼlangan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Nemis faylasufi Hegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanish sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L.Feyyerbax din bilan bogʻlagan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Fransuz mutafakkiri O.Kont jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat maʼnaviy taraqqiyotining uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan. K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy oʻzgarishlar bilan bogʻlagan, barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sunʼiy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning bir yoqlama va xato ekanini koʻrsatdi.

Markaziy Osiyoda zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da, Mazdakning qarashlarida muʼtadil jamiyatni barpo etishni olgʼa surgan, shunday jamiyatdagi davlat ideal davlat deb

ta’kidlangan. Qadimgi turk mifologiyasida ham adolatli, faravon jamiyat va davlat haqida e’tiborga sazavor qarashlar mavjud. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun takomillashgan kishilik jamiyatini, ideal davlatni barpo qilish, lozim deb hisoblagan.

Jamiyatning kelib chiqishi, uning taraqqiy etish qonuniyatlari haqida Sharq mutaffakirlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar bir qancha ajoyib fikrlarni ilgari surganlar.

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy o’zining «Fozil odamlar shahri» asarida jamiyatning vujudga kelishi, maqsadi va vazifalari haqida ta’limot yaratgan.

Farobiy ham, jamiyat insonlarning xoxishi bilan o‘zlariga kerak bo‘lgan iste’mol mahsulotlarini birgalashib ishlab chiqarish niyatida tashkil etilgan jamoa birlashmasi deb yozadi, o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida. «Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham, odamlar insoniyat turkumiga kirganlari tufayli o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim»[1].

Forobiy fikricha “Eng yaxshi fazilat va oliy darajadagi komillikni kichik birligi shahar hisoblanadigan madaniy jamiyat ichidagina qo‘lga kiritish mumkin. To‘liqsiz jamiyatlar insonni takomillashtirishga qobil emaslar”[2]. Forobiyning bu fikrlari Aflotun va Aristotelning jamiyatga oid qarashlaridan farq qiladi, chunki u jamiyatdagi o‘zgarishlarni inobatga olgan. Jamiyatni to‘liq va to‘liqsizga ajratar ekan, Forobiy shahar to‘liq jamiyatning birinchi bosqichidir, deb e’tirof etadi. Aflotun va Aristotel esa to‘liq jamiyatni shahar bilan chegaralaganlar va shahar insoniyat jamiyati takomilining oxirgi darajasi, jamoaviy baxt saodatning bosh markazi deb ta’kidlaganlar. Forobiy esa, butun dunyodagi jamiyat haqida fikr yuritib, uning xukmdori qandaydir alohida olingan xalq, qavm yoki jamoa boshlig‘i emas, balki butun madaniy dunyodir deb ta’kidlaydi va bu fikri bilan yunon faylasuflaridan ilgarilab ketadi.

[1] Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. - Т., 1993. –Б.186.
[2] Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “Yangi asr avlod nashriyoti”, 2018.

Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi mutafakkirlar kishilik jamiyati paydo bo'lishi sabablarini insonning boshqa mavjudotlarga nisbatan ojizligi birdamlik hissining rivojlanganligi bilan izohlaganlar.

Beruniy fikricha, jamiyat insonlar tomonidan «shartnoma» asosida tuzilgan. Uningcha, «inson uz ehtiyojlarini tushunib, o'ziga xos o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi «shartnoma» tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir»[1].

Qadimgi dunyoning yana bir mashxur mutaffakkiri – Aflotun «ideal davlat» haqida ta'limot yaratib, jamiyat hayotini aql asosida tashkil qilish, inson tabiati va adolat o'rtasida aloqa o'rnatishga harakat qilgan. Ijtimoiy falsafa sohasidagi muhim g'oyalar Arastu tomonidan ilgari surilgan. U jamiyatni ma'lum ijtimoiy institutlarini qondirish maqsadida birlashgan individlarni yig'indisi deb qaraydi. Inson haqidagi ta'limotda insondagi eng asosiy xususiyatlar sifatida ma'naviyat va axlokni ta'kidlaydi.

O'rta asrlar sharoitida ijtimoiy hayotni tushuntirish diniy asosda olib borilgan. Bu davrdagi qarashlarga ko'ra, jamiyat tarixi avvaldan Xudo tomonidan belgilanib qo'yilgan. Ijtimoiy hayot unsurlari esa odamlarning aybdorligidan kelib chiqadi. F. Akvinskiy fikricha, jamiyat azaldan tengsizlikka asoslanadi va odamlar bunga itoat qilishlari kerak.

Nemis mutaffakiri Gegel bo'yicha jamiyatning mukammal tipi bo'lib, German davri hisoblanadi. Bu davrda ilgari bo'lmagan holat: ilohiy va insoniy tabiatning birlashishi, fuqaro jamiyatining intellektual ilohiy podsho-lik bilan birlashishi ro'y berdi. Bu birlashishning muhim sababchilaridan biri, barcha insonlar teng, ozod va o'z hayotlarini o'zlari belgilaydilar, kabi ta'limot beruvchi

[1] Буюк сиймолар, алломалар. Т., 1995, 51 бет.

xristianlikdir. Insonning ichki erkinligini ta’minlagan holda, xristianlik, uning ozodligi real ro‘y berishi va tadbiq etilishi lozim, deb hisoblaydi. Demak Gegel jamiyat tiplariga tarixiy jihatdan yondashib, uning asosiy mezoni sifatida inson erkinligi va uning ma’naviy kamolotini ta’minlaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar bilan tavsiflaydi[1].

Bir nemis faylasufi M.Veber boshqaruvning mazmuni jihatidan jamiyatning quyidagi tarixiy tiplarini ko‘rsatib o‘tadi: - antik jamiyat (an’anaviy boshqaruv); -feodal jamiyat (xarizmatik boshqaruv); - kapitalistik jamiyat (ratsional boshqaruv). Veberning fikricha, Antik jamiyatda hukmronlik va xokimiyat hukmronlar va itoatkorlar o‘rtasida muqaddas sanalgan va “azaldan shunday bo‘lib kelgan”, deb hisoblangan. Bunday jamiyatda hukmdor va itoatkor o‘rtasidagi munosabat ma’muriy yoki iqtisodiy qonunlar va tamoyillar bilan emas, balki an’anaviy burch va xukmdorga sodiqlik kabi hislar bilan izohlanadi.

Taniqli ingliz faylasufi Karl Popper esa jamiyatning ikki tipga: ochiq va yopiq jamiyatga ajratadi. U bundaboshqaruvning ratsional darajasini mezon qilib oladi. Uning fikricha ochiq jamiyat[2]: - fikrlar xilma-xilligi (pyuralizm); - xususiy mulkchilik; - individual erkinlik;- ratsionallikka asoslangan individual manfaatdorlik kabi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Yopiq jamiyat esa o‘zida: -totalitarizm; - kollektivizm: - irratsionalizm; - utopizm kabi sifatlarni mujassamlashtiradi.

Jamiyatning tarixiy tiplari masalasida taniqli sotsiolog E.Giddens quyidagi sxematik jadvalni keltiradi: Hozirda ko‘plab olimlar industrial va postindustrial jamiyat shakllariga a’sosiy e’tibor qaratmoqdalar. Quyida biz jamiyatning mazkur tiplari haqida to‘xtalamiz. Industrial jamiyat shakli – “Industrial jamiyat” atamasi ilk bor XIX asrda sotsiologiyaning yirik namoyandalari O.Kont, G.Spenser, E.Dyurgeymlar tomonidan qo‘llanilgan.

[1] Garb falsafasi. Sharq falsafasi // O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. – Тошкент: “Sharq” nashriyoti, 2004.
[2] Garb falsafasi. Sharq falsafasi // O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. – Тошкент: “Sharq” nashriyoti, 2004.

XX asrning 50–60 yillar G‘arbda “industrial jamiyat” nazariyasi shakllandi. Texnologikdeterminizm tamoyillariga asoslangan bu nazariya avval boshdanoq, ikki variantda shakllandi: **birinchisi** - 1956–1959 yillardan R.Aronning Sarbonnadagi ma’ruzalarida va **ikkinchisi** – Rostouning “Iqtisodiy o‘sish bosqichlari. Nokommunistik manifest” kitobida.

“Industrial jamiyat” nazariyasining mohiyati shundan iboratki, ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi tub ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar “an’anaviy” agrar jamiyatlarning “industrial” jamiyatga transformatsiyasi natijasida yuz beradi. Bunday transformatsiya sanoat revolyutsiyasi va u bilan bog‘liq tezkor va keng miqyosda texnikani jamiyatning barcha sohalariga kirib borishi natijasida amalga oshadi. Aynan texnikaning tez rivojlanishi ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotining asosiy determinanti, sababi bo‘lib qoladi.

Industrial jamiyat shakllanishining asosiy tarkibiy qismlariga uning paydo bo‘lish jarayonida yirik mashina ishlab chiqarishi (Rostou) erkin savdo va umumiy bozorga asoslangan iqtisodiyotning milliy sistemasi (Aron), timsoli korxona, mehnatning korxonalashgan shaklda tashkil etilishi (Toffler) kiradi[1].

Bellning fikricha, industrial jamiyatning ijtimoiy dinamikasini belgilovchi asosiy o‘zgaruvchan ko‘rsatkichlari - mehnat va kapital bo‘lib qoladi. Bu tezisga asoslanib, Darendorf bunday jamiyatdagi asosiy ijtimoiy konflikt (kelishmovchilik)ning sababi proletariat va kapitalistlar o‘rtasidagi ziddiyatdir, deb hisoblagan.

“An’anaviy” jamiyatlarga xos bo‘lgan qat’iy ijtimoiy chegaralar industrial jamiyatdagi faol ijtimoiy harakatchanlikning oshib borishi bilan buziladi, an’anaviy nasliy imtiyozlarning o‘rnini imkoniyatlarning tengligi egallaydi. Bu esa fuqarolar huquqlarining kengayib va boyib borishiga, ijtimoiy–siyosiy hayotning demokratlashuviga olib keladi. Industrializm qudratining oshib

[1] Nersesyans V.N. Huquq falasafasi. – Тошкент: Adolat nashriyoti, 2003.

borishi hamda mutaxassislarning boshqa sohalarni boshqarishdagi mavqei oʻsishi bilan industrial jamiyatda mulkchilikning boshqaruv jarayonidan ajralishi sodir boʻlib, haqiqiy hokimiyat, “texnostruktura” – olimlar, muhandis va texniklar, savdo, reklama, jamoatchilik bilan aloqalar boʻyicha mutaxassislardan tashkil topgan maxsus ijtimoiy tashkilot qoʻliga oʻtadi (Gelbreyt). Shunday qilib, industrial jamiyat tarkibiga keyingi taraqqiyot jarayonida barham topgan, xususiy hodisa sifatida “kapitalistik jamiyat” ham kiradigan keng qamrovli ijtimoiy kategoriya sifatida namoyon boʻladi.

XX asrning 70–90 yillari davomida industrial jamiyatga oid fikrlarda tanqidiy baho koʻproq oʻrin oldi[1]. Xususan, hozirgi ijtimoiy–siyosiy taraqqiyot industrial jamiyat qadriyatlarining inkor olib kelgani, bu jamiyat hozir inqirozga yuz tutayotgani, insoniyat esa “industrial jamiyatga nisbatan oʻzini oʻzi koʻproq oʻzgartirish qobiliyati bilan farq qiluvchi”, shartli ravishda “postindustrial jamiyat” (axborotlashgan jamiyat), deb ataladigan ijtimoiy sistemaga qarab rivojlanib bormoqda, deb koʻrsatiladi.

Yangi davr mutaffakkirlari diniy qarashlarga zid ravishda jamiyat tabiiy yoʻl bilan vujudga kelgan va shunday rivojlanadi degan fikrni ilgari surdilar. Gobbs, Russo kabi faylasuflar jamiyatni vujudga kelishida shartnoma konsepsiyasini ishlab chiqdilar. Fuqarolar jamiyati individlar yigʻindisi sifatida qaraldi va mexanik tarzda oʻrganildi.

Nemis faylasufi Gegelning koʻrsatishicha, jamiyatning tarixiy taraqqiyoti, uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy oʻzgarishlarining asosiy sababi «mutlak gʻoya»ga bogʻliqdir. Nemis klassik falsafasining yana bir yirik vakili L. Feyyerbax fuqarolar jamiyatini substansiya asosida birlashgan individlar yigʻindisi sifatida baholaydi.

[1] Berdiyev N.A. Falsafiy tengsizlik. - M., 1990. C.68, 75, 128, 131.

Yevropada yashagan sotsiologlar orasida jamiyat haqidagi fanga ilg‘or g‘oyalar qo‘shgan olimlar ingliz burjua iqtisodchilari V. Peti, A. Smit, D.Vikardo va boshqalardir.

Jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ma’lum darajada to‘g‘ri izohlash sohosida rus ilg‘or demokratlarining ham hissasi bor.

Jamiyat taraqqiyotining har taraflama materialistik talqini K.Marks va F. Engels asarlarida ilgari surilgan. Jamiyat hayotini tushuntirishda ular ijtimoiy borliq, ijtimoiy ong, ijtimoiy – iqtisodiy formatsiya, bazis va ustkurma kabi tushunchalarga murojaat qildilar. Ijtimoiy taraqqiyotning asosi sifatida marksizm klassiklari ijtimoiy ishlab chiqarishni olib qarashdi. Moddiy ishlab chiqarishning ma’lum usuliga asoslangan jamiyat taraqqiyotining tarixiy bosqichini ijtimoiy – iqtisodiy formatsiya deb nomlandi.

XX asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy reallikni konkret ilmiy bilimlar: geografiya, biologiya, kibernetika, sinergetika, psixologiya va boshqalar yordamida tushuntirishga urinishlar bo‘ldi (F.Ratsel, G.Spenser, M. Veber, Z. Freyd, Z. Piyeje). Ilmiy – texnika inqilobi sharoitida texnik – texnologik omillar asosida ijtimoiy sistemaning modelini yaratishga harakat qilinmoqda, ijtimoiy hayotning turli tomonlari muqaddaslashtirilmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmida inson muammosi birinchi o‘ringa qo‘yilgani munosabati bilan bir qator falsafiy-tarixiy va sotsiologik yo‘nalishdagi tadqiqotlar paydo bo‘ldi. G‘arb falsafasida inson faoliyatining turli sohalariga diqqatini qaratgan yo‘nalishlar vujudga keldi.

Saksoninchi yillarda informatsion jamiyat (V.Masud, Dj.Neysbi), o‘ta industrial jamiyat (A.Goffler), texnotron jamiyat (Z.Bjezinskiy) va boshqa shu kabi qarashlar keng tarqaldi. Yangi sharoitda ijtimoiy taraqqiyotning informatsiyani (ma’lumot) ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish hal qiluvchi omil bo‘lmoqda. Informatsiyaning hajmi va sifati jamiyat hayotining belgilovchi resursiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan ijtimoiy-

tarixiy nazariya va amaliyotni rivojlantirish kun tartibiga qo‘yilmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti ko‘p bosqichli jarayon ekani to‘g‘risidagi qarashlar AQSH faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko‘ra jamiyatlar taraqqiyotiga binoan, agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizatsiyali yondashuv g‘oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko‘ra har bir xalq o‘zining betakror, noyob, o‘ziga xos va o‘ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos modelini yaratadi.

Axborotlashgan jamiyat shakli – ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanish, eng avvalo, axborotni ishlab chiqarish, unga “ishlov berish”, saqlash va jamiyat a’zolariga etkazishga bog‘liq bo‘ladigan jamiyatdir. Falsafiy va sotsiologik tadqiqotlarda “Axborotlashgan jamiyat” tushunchasi yangi jamiyat sifatida, ya’ni ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy postindustrial jamiyatga o‘tilishida va unda faoliyatning oshishi axborotni uzatish va saqlashga bog‘liq bo‘ladi[1].

Jamiyat hayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo‘lgani kabi, jamiyat ham o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi.

Barqarorlik – jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko‘rsatish imkoniyatidir. U turg‘unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg‘unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashib turishi ham mumkin. Jamiyatning ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach,

[1] O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, Ozbekiston Milliy universituti, O’zFA falsafa va huquq instuti mutahasislari hamkorlikdagi “Garb falsafasi” , “Sharaq falsafasi”. “Sharq” nashriyoti 2004-yil

ijtimoiy imkoniyatlar ruyobga chiqarilib bo‘lgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo‘lida yangi muammolar tug‘iladi va ularni hal etish vazifasi paydo bo‘ladi. Jamiyat a’zolarining ma’naviy salohiyati, milliy psixologiyasi, tabiiy ravishda mavjud siyosiy tuzum kishilarni boshqarishning o‘ziga xos usullarini hayotga tadbiq etadi. Insoniyat hayoti tarixida jamiyat barqarorligini ta’minlashning monarxiyaga asoslangan, aristokratik, totalitar va demokratik usullari tajribadan o‘tgan.

Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-siyosiy tuzumga o‘tish davrida keskinlashishi mumkin. Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o‘zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo‘qolishida, g‘oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarning paydo bo‘lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o‘z ifodasini topadi.

Jahon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlash huquqiga ega bo‘lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash garovi ekanini ko‘rsatdi. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o‘z milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, o‘ziga xos va mos taraqqiyot yo‘lini tanlash, rivojlanishning o‘zbek modelini yaratish imkoniga ega bo‘ldi. Shu bilan birga mamlakatimiz jamiyat taraqqiyotining Harakatlar strategiyasi hamda Yangi taraqqiyot strategiyasi asosida rivojlanmoqda.

Yuqoridagilardan aytish mumkinki, jamiyat – obyektiv ijtimoiy qonunlar asosida rivojlanadigan ochiq moddiy sistema, kishilar faoliyatining shakli, ularni ijtimoiy uyushtirishning usulidir. Barcha ijtimoiy jarayonlarning yig‘indisi bo‘lgan ijtimoiy hayot turli ijtimoiy fanlarning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Falsafiy fanlar tizimida

jamiyat ijtimoiy falsafa tomonidan o‘rganiladi. Ijtimoiy falsafa yaxlit bir sistema bo‘lgan jamiyatni, uning umumiy bo‘lgan qonunlarini, taraqqiyotining xarakatlantiruvchi kuchlarini, tabiiy muhit va atrof olam bilan bo‘lgan aloqa va bog‘lanishlarini antronotsizm (insonni falsafaning asosiy obyekti sifatida o‘rganuvchi qarash) tamoyili asosida tadqiq qiladi.

Ijtimoiy mavjudot bo‘lgan insonni va uning yashashi uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish borasidagi kishilarning birgalikdagi faoliyatlari jamiyatning asosini tashkil etadi.

Xo‘sh ijtimoiy hayot nima? Ijtimoiy hayot – moddiy olam harakatining oliy shakli hisoblanadi. Jamiyat tabiatning revolyutsiyasi natijasida vujudga kelib, dastlabki davrdanok o‘ziga xos tuzilmaga ega bo‘lgan sistema sifatida shakllandi. Yaxlit sistema bo‘lgan jamiyat tarkibiga: moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlarning turli shakllari, bazis va ustqurma, jamiyatni ijtimoiy tuzilishi, siyosiy institutlar va boshqalar kiradi.

Jamiyat axborot o‘tkazish mexanizmi va vorislik usulining o‘ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Jamiyatning materiya harakatining boshqa shakllaridan asosiy farqi shundaki, uning tarkibi moddiy va ma’naviy jarayonlardan, ongdan iboratki, ularning o‘zaro ta’siri ijtimoiy hayotning mazmuni va darajasini belgilab beradi.

Jamiyat hayotining asosiy sohalari – moddiy ishlab chiqarish, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy hisoblanadi. Ijtimoiy hayotning bu sohalarining o‘zaro ta’sirida belgilovchi rolni moddiy ishlab chiqarish, iqtisodiy soha o‘ynaydi, ya’ni turli predmetlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish sohasidir. Moddiy ishlab chiqarish insonlarning hayot faoliyatlari uchun boshlang‘ich sharoit yaratib beradi. U har doim ijtimoiy xarakterga ega va tabiatga, tabiat materialining inson ehtiyojlarini qondiruvchi predmetga aylantirish jarayonidagi kishilarning o‘zaro ta’sirini belgilab beradi. Biroq, ijtimoiy aloqalarni amalga oshirishda,

ularning oʻziga xos tomonlarini aniqlashda maʼnaviy soha katta rol oʻynaydi.

Kishilar oʻz faoliyatini ongli yoki ongsiz ravishda amalga oshirayotganiga qarab faoliyat natijalari turlicha boʻladi. Ijtimoiy hayot moddiy va maʼnaviy sohalarning uzluksiz birligini oʻzaro taʼsiri va birini ikkinchisiga oʻtishidan iborat. Jamiyat uzluksiz rivojlanayotgan sistemadir. Oʻz evolyutsiyasida u ketma – ket maʼlum qonuniy bosqichlarni kechirgan va ular ijtimoiy fanda sivilizatsion mezonlar orqali ifodalangan. Sivilizatsiya jarayonining har bir yangi bosqichi yana ham yuksakroq texnologiyalarni oʻzlashtirish, ularni texnik jihatdan taʼminlash, jamiyatni ijtimoiy tuzilishining murakkablashuvi, atrof muhit bilan oʻzaro taʼsir koʻlamlarining kengayib borishi, jamoa ijtimoiy faoliyatining maʼlum shakllari bilan xarakterlangan. Lekin jamiyat taraqqiyotining asosiy koʻrsatkichi boʻlib, ijtimoiy munosabatlarning xarakteri, inson omilining maʼnaviy va ijtimoiy tuzilmalarning demokratiyalashuvi darajasi hisoblangan.

Hozirgi zamon jamiyatining asosiy xususiyati – moddiy va maʼnaviy ishlab chiqarish koʻlamining nihoyat darajada kengayishi, ijtimoiy munosabatlar tizimini qayta ishlab chikishning informatsion – texnik usuli, hayot faoliyatining demokratik shakllarini oʻrnatish, hayotning boshqa tomonlariga nisbatan fan va maʼnaviy madaniyatning ilgarilab rivojlanishi hisoblanadi.

Jamiyat haqidagi falsafiy qarashlar uzoq muddat davomida rivojlanib kelgan.

Jamiyat haqidagi dastlabki fikrlar allaqachon qadimgi Yunonistonda shakllangan edi. Materialist faylasuflardan Demokrit insoniyat tarixini tabiiy jarayon sifatida baholab, kishilarni hayvoniy holatdan ijtimoiy holatga oʻtishini yetishmovchilik yordamida tushuntirgan. Ijtimoiy hayot odamlarning qonun oldida tengligi, ularning aql kuchiga ishonch bilan, murakkab ijtimoiy – axloqiy muammolarni bilish va hal etish qabiliyati bilan farqlanadi.

Jamiyat tarkibidagi elementlarning rang-barangligi va murakkabligi ular bajaradigan vazifalarning o‘ziga xosligi bilangina belgilanmasdan, borlikning moddiy tomonlari bilan o‘zaro ta’sir qiluvchi ma’naviy jarayonlarining mavjudligi bilan ham xarakterlanadi. Ijtimoiy hodisalarni moddiy va ideal turlarga bo‘linishi ijtimoiy falsafaning fundamental asosi hisoblanadi.

Moddiy omillarga – bu moddiy ishlab chiqarish, kishilarni o‘zlarini takror ishlab chiqarish, ularni tartibiga bo‘lgan munosabatlari, sinfiy, milliy, oilaviy munosabatlarining moddiy tomonlari kiradi. Ular ma’naviy jarayonlarning asosini tashkil etadi va birlamchi hisoblanadi.

Ma’naviy (ideal) omil - obyektiv hodisalarning kishilar ongidagi in’ikosi hisoblanadi, ijtimoiy zarur ehtiyojlarni jamiyat a’zolari tomonidan anglanishi. Ular moddiy omillarga nisbatan ikkilamchi xarakterga ega.

Zamonaviy jamiyatda insonning ishlab chiqarish faoliyati umumlashgan ishlab chiqarish doirasida kechmoqda. Umumlashgan ishlab chiqarish bir-biri bilan uzviy bog‘liq fizik (moddiy) hamda axboriy-mantiqiy qismlardan iborat. Ishlab chiqarishning axboriy-mantiqiy qismiga kuch bergan mamlakatlar yuqori ish unumdorligi va zamonaviy, xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishga erishganliklari ma’lum. Axboriy-mantiqiy ishlab chiqarishning resurslari asosini axborot, mehnat vositalarini esa hisoblash texnikasi, uning dasturiy ta’minoti, axborot texnologiyalari va boshqalar tashkil qiladi. Axborot va axborotlashuv tushunchalari hozirgi zamon fanining eng muhim sohalaridan biriga aylanib, jamiyat taraqqiyoti tendensiyasini belgilab bermoqda.

Axborotlashgan jamiyat konsepsiyasi olimlar va mutahassislar tomonidan ancha yillardan buyon o‘rganilayotgan bo‘lsa-da, ular

axborotlashgan jamiyatni bir tomonlama: yo iqtisodiy, yo texnik, yo ijtimoiy yoki madaniy nuqtai nazardan tadqiq qilganlar. Axborotning murakkabligi, koʻpqirraligi, qoʻllash mumkin boʻlgan sohalarning kengligi, jadal sur'atlar bilan rivojlanishi "axborot" va "axborot texnologiyalari" tushunchalariga doimiy yangicha yondashuvlarda aks etadi. Shuning uchun axborot tushunchasining "axborot real olamning in'ikosi" kabi eng umumiy falsafiy ta'rifdan tortib, "axborot – obyektlar saqlashi mumkin boʻlgan barcha ma'lumot" kabi eng tor ta'rifgacha mavjud.

Axborotning eng sodda klassik ta'rifi bu – ma'lumot berishdir. N.Viner fikricha, "Axborot - tashqi olamga koʻnikish jarayonida undan olingan mazmunni ifodalashdir". Bu yerda axborot tashqi olamni aks ettirish (gnoseologik jihat) va adaptatsiya (unga moslashish) deb ifodalanadi. L.Popov "Axborot kommunikatsiya va aloqa jarayonidagi noaniqlikning bartaraf qilinishi" deb hisoblaydi. Bu ta'rifda asosan axborotning falsafiy, psixologik (kommunikatsiya, aloqa) tomoniga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, R.Eshbi "Axborot - strukturalarning meyori, yangilik, originallik" deb ta'rif beradi. L.G.Svitich "Axborot tushunchasi koʻp ma'noga ega, lekin umumiy falsafiy, metolingvistik ma'noda potensial, keng yoritilgan real mohiyatlarning majmui" - deb tushunadi. Bu fikrlar axborot tushunchasini turli mutaxassislarning oʻz ixtisosligi nuqtai nazaridan yondoshilganidan dalolat beradi.

Axborot tushunchasiga nisbatan turli yondashuvlar XX asrning 70-yillaridan boshlab fanda bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi ikki atributiv va funksional konsepsiyalarning mavjudligi bilan bogʻliq. Bizningcha, atributiv yondashuv axborotni materiyaning xossasi deb bilsa, funksional yondashuv uni oʻz - oʻzini tashkillashtiruvchi va tashkillashgan tizimlarning faoliyati bilan bogʻlaydi. A.D.Ursul "Axborot – turli tumanlikning in'ikosi" deb ta'rif bergan. Keyinroq u oʻzining axborot haqidagi konsepsiyasini turli-tumanlikni toʻldiradi va axborotni aks ettiruvchi tomonning qismi, deb tushuntiradi.

Bizning fikrimizcha, bu ta’rifning klassik va postnoklassik metodologiyada tushunilishi uchun yetarli emas. N.A.SHermuxamedova axborotni ijtimoiy va ilmiy axborot turlariga bo‘ladi. Darhaqiqat, ijtimoiy boshqaruvda ijtimoiy axborot turli jarayonlarning o‘zaro muvofiqlashuvidir. M.N.Abdulleva, A.F.Fayzullayev, R.Imomaliyeva, Z.Davronov, K.Tulenova axborotlashuvning gnoseologik jihatlarini, M.A.Usmanova, O.A.Lanseva, A.K.Turashbekovalar esa o‘z ilmiy - tadqiqot ishlarida axborotlashgan jamiyat rivojlanishida ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy omillarning rolini tahlil qilganlar.

Axborotlashgan jamiyat haqida olimlar turlicha fikr yuritadilar. Masalan, yapon olimlarining hisoblashicha, axborotlashgan jamiyatda kompyuterlashtirish jarayoni odamlarga ishonchli axborot manbaidan foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirishning yuqori darajasini ta’minlashga imkon beradi.

Jamiyatni rivojlantirishda esa harakatlantiruvchi kuch moddiy mahsulot emas, balki axborot ishlab chiqarish bo‘lmog‘i lozim. Axborotlashgan jamiyatda nafaqat ishlab chiqarish, balki butun turmush tarzi, qadriyatlar tizimi ham o‘zgaradi. Barcha harakatlar tovarlarni ishlab chiqarish va iste’mol etishga yo‘naltirilgan sanoat jamiyatiga nisbatan axborotlashgan jamiyatda intellekt, bilimlar ishlab chiqariladi va iste’mol etiladiki, bu hol aqliy mehnat ulushining oshishiga olib keladi. Insondan ijodiyotga qobiliyat talab etiladi, bilimlarga ehtiyoj oshadi.

Axborotlashgan jamiyatning moddiy va texnologik negizini kompyuter texnikasi va kompyuter tarmoqlari, axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya aloqalari asosidagi turli xil tizimlar tashkil etadi. Axborotlashgan jamiyat — jamiyatning ko‘pchilik a’zolari axborot, ayniqsa, uning oliy shakli bo‘lmish bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va amalga oshirish bilan band bo‘lgan jamiyatdir. Axborotlashgan jamiyatga o‘tishda

kompyuter va telekommunikatsiya axborot texnologiyalari negizida yangi - axborotni qayta ishlash sanoati yuzaga keldi.

Hozirgi paytda shu narsa ravshan bo‘lib qolmoqdaki, u yoki bu mamlakat XXI asrda munosib o‘rin egallashi va boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy musobaqada teng qatnashishi uchun o‘z iqtisodiy tuzilishi, ustuvorliklari, boyliklari, institutlarini qayta qurishi va sanoatini axborot tizimlari talablariga moslashtirishi lozim. Begonalashish avvalo jamiyat a’zolari o‘rtasidagi samimiy muloqot salmog‘ining kamayishi jarayoni bilan kechadi. Axborotlashgan jamiyatda kishilar vazifalarining katta qismini tobora texnika egallab borishi, shu texnika vositalari yordamida yangi axborotga egalik qilish, qolaversa undan zarur o‘rinlarda foydalanish ko‘nikmasining yetishmasligi yoki umuman yo‘qligi insonning shu axborot va texnikaga qattiq bog‘lanib qolishiga, yaqinlariga nisbatan befarqlik hissini orttirib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Jamiyatning axborotlashuvi masalasi esa olimlarning ikki asosiy nazariy-metodologik yondashuvida namoyon bo‘ladi:

- texnokratik yondashuvda axborot texnologiyalaridan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vositasi sifatida ishlab chiqarish va boshqarish sohalarida foydalanishni o‘zida aks ettiradi;

- gumanitar yondashuv esa axborot texnologiyalari nafaqat ishlab chiqarishda, balki inson hayotning muhim qismi - ijtimoiy sohani ham qamrab oladi, deb ta’kidlangan. Aynan shu yondashuvlar nuqtai nazaridan axborotlashuv konsepsiyasi o‘ziga, eng avvalo, strukturalashgan axborot texnologiyalarini umumlashtiruvchi katta ko‘lamni yaratishni talab qilib o‘zida izlash, yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va faoliyatni axborot bilan ta’minlash vazifalarini qamrab oladi.

1.3. XXI asrda fanning dolzarbligi

Axborot tushunchasi kundalik turmushda juda keng qo‘llanilmoqda. Shuning uchun har bir kishi intuitiv holda uning

nima ekanligi haqida tasavvurga ega. Axborot va axborotlashuv tushunchalari hozirgi zamon fanining eng muhim sohalaridan biriga aylangan bo‘lib, axborotlashtirishning yagona tizimi o‘z oldiga ta’limning keng doiradagi hamda mutaxassislikka doir yaratilgan dasturini o‘zlashtirish orqali mustahkam fundamental bilimga ega bo‘lgan va ularni o‘z faoliyatida qo‘llay oladigan kadrlar tayyorlash maqsadini qo‘yadi.

Hayotning fan oldiga qo‘ygan vazifalarni samarali hal qilish zaruriyati, shuningdek fanning ichki ehtiyojlari fanni axborotlashtirishni taqozo etdi. Ilmiy tadqiqot jarayoniga hamda uning natijalarini saqlash, ularga ishlov berish va ularni taqdim etishga axborot texnikasini joriy etish, fanni kompyuterlashtirish olinayotgan ilmiy bilim hajmi bilan undan samarali foydalanish imkoniyati o‘rtasidagi qarama-qarshilikni hal qilish vositasiga aylandi. Bundan tashqari, axborot texnikasi ilmiy bilim olish va undan amalda foydalanishni jadallashtirishning asosiy omili bo‘lib qoldi. «Hozirgi zamonning eng muhim xususiyatlaridan biri – inson turmush tarzining barcha sohalariga ilmiy-texnika yutuqlarining tezkorlik bilan kirib, turmushning barcha jabhalari baynalminallashuviga kishilar faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini kuchaytirayotan bo‘lsada, o‘z navbatida, odam uchun dahshatli xavf-xatarni ham vujudga keltirmoqda».

Axborotlashuv konsepsiyasi o‘ziga eng, avvalo strukturalashgan axborot texnologiyalarini umumlashtiruvchi katta ko‘lamni yaratishni talab qilib o‘zida izlash, yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va faoliyatni axborot bilan ta’minlash uchun zarur bo‘lgan jami axborot bilan ta’minlash jarayonini qamrab oladi.

Jamiyat o‘z rivojining barcha bosqichlarida axloqiy qoidalar ishlab chiqqan va ulardan foydalanib kelgan. Ma’lumki, insonning rivojlanishi uchun axborot juda zarur. Shuning uchun ham axborot – to‘rtinchi hayotiy zarur elementdir. Axborot tobora ko‘p jihatdan davlatning strategik resursi, ishlab chiqaruvchi kuchi va

qimmatbaho mahsuloti bo‘lib bormoqda. Insoniyat turmush tarzining rivojlanishi yangi-yangi kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bo‘lmoqda. Inson yangilik yaratish jarayonida har xil to‘siqlarga duch keladi va shu to‘siqlarni engib o‘tish mobaynida yana yangi ixtirolar vujudga kelaveradi. Lekin hayot tajribalaridan ma’lumki, ko‘pincha yangi kashfiyot ma’lum bir muammoni hal qilish jarayonida vujudga keladi. Biz so‘zsiz kompyuter XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri desak yanglishmaymiz. Davr talabiga ko‘ra, bugunga kelib, kompyuter texnologiyasi juda rivojlanib ketdi.

“Zamonaviy insonning o‘qish jarayoni faqat bog‘cha, maktab, litsey yoki kollej, oliy o‘quv yurti bilan tugamaydi. Inson butun umri davomida ta’lim olishi zarur, ya’ni ta’lim uzluksiz bo‘lishi kerak. Demak, uzluksiz ta’lim - davr talabidir. Shuning uchun ham zamonaviy axborot texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyoj shakllandi.

XXI asr axborotlashtirish asrida ta’lim sohasini axborotlapggirish, har bir ta’lim muassasasida:

- o‘qitish va o‘qish jarayonining;
- ta’lim muassasasi boshqarilishining;
- ta’lim muassasasi bo‘linmalarining;
- ta’lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi”[1][4, 14].

“Axborot sohasining tez o‘sishi kompyuter yaratilishiga va jamiyatning shiddat bilan kompyuterlashuviga olib keldi. Yalpi axborotlashtirilgan tizimning vujudga kelishi xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog‘lab qo‘ydi”[5, 206].

Hozirgi jamiyatni axborotlashgirish jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biri ta’limni axborotlashtirishdir. Ta’limni axborotlashtirish - keng ma’noda ta’lim sohasini metodologiya, o‘qitish maqsadlarining psixologik-pedagogik tadbig‘iga yo‘naltirilgan yangi axborot texnologiyalari vositalarini samarali foydalanish va yaratish (qayta ishlash) amaliyoti bilan ta’minlash

[1]

sifatida qaraladi. Bundan tashqari, axborotlashtirish masofali oʻqitish tizimining taraqqiyoti uchun baza boʻlib xizmat qiladi.

Axborotlashtirish jarayonida ta’lim tizimida yangi axborot texnologiyalari vositalaridan keng koʻlamda foydalanish amalga oshiriladi. Fanni axborotlashtirish zaruriyati xususan shu bilan belgilanadiki, hozirgi zamon fanida ilmiy inqilob uchun shart-sharoit yaratayotgan katta oʻzgarishlar, chunonchi, fanlarning birlashishi va tabaqalanishi sodir boʻlmoqda, ilmiy bilimning yangi sohalari vujudga kelmoqda, ularga inson va uning hayoti haqidagi fanlar, eng avvalo biologiya yetakchilik qilmoqda. Fan jonli materiya bilan bogʻliq murakkab hodisa va jarayonlarni tadqiq qilmoqda, ular toʻgʻrisida olingan axborotning aniqlik darajasi oshib bormoqda.

Fanlar sohasining axborotlashuvi, oʻquv faoliyatining takomillashuvi, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida bilish jarayonining integratsiyalashuviga, fanlar sohasining kengayishiga, chuqurlashuviga va ularning integratsiyasiga sabab boʻladi. Bu esa, oʻz navbatida, oʻquv materiallari mazmunini tanlash mezonlariga oʻzgartirishlar kiritishni taqozo qiladi. Shunday qilib, ta’limni axborotlashtirish jarayonining rivojlanishi, oʻquv materiallarining mazmuni va hajmini oʻzgarishiga, oʻquv predmetlari (kurslari) dasturlarini qayta ishlab chiqishga, alohida mavzular yoki predmetlarning integrallashuviga sababchi boʻladi. Bu esa, oʻquv fanlarining mazmuni va strukturasini oʻzgarishiga, binobarin, ta’limning mazmuni va strukturasini oʻzgarishiga olib keladi.

Hozir informatika usullari va vositalari insonning butun fikrlash tizimiga katta ta’sir koʻrsatmoqda - nazariy-informatsion yondashuv va kompyuterlar odamlar turmushiga kirib bormoqda. Informatik nazariya, obyektiv borliqqa yangicha nazar va texnika vositalari majmui sifatida ilmiy bilishga, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etishga va ularning natijalarini amalga tatbiq qilishga juda katta ta’sir koʻrsatmoqda. Qadimdan meros qolgan ilmiy fikrlashning eski

oqilona usuli, abstrakt tushunchalar va deduktiv mulohazalarga asoslangan dalillar oʻzgarmoqda.

Murakkab nazariyalarni bevosita tekshirish hamda bunday tekshiruv natijalarini son koʻrinishida ifodalash imkoniyati paydo boʻlmoqda, turli fanlarda tadqiq qilishga nisbatan miqdoriy yondashuv doirasi kengayib bormoqda. Fan juda katta axborot toʻplamiga katta tezlikda ishlov berish imkoniyatiga ega boʻldi. Dunyo miqyosidagi axborot tizimlari, chunonchi, Internet orqali ilmiy faoliyatning baynalmilallashuvi sodir boʻlmoqda. Shaxsiy kompyuterlar ilmiy faoliyatning cheklanganligini bartaraf etishga imkoniyat yaratmoqda. Bilimlarga qat'iy mantiqiy ishlov berish uchun ularni formalizatsiya qilish usullari fanga joriy etilmoqda.

Fanni axborotlashtirish ilmiy bilish jarayonida ham katta oʻzgarishlar yasaydi. Fanni axborotlashtirish kerakli axborotni yigʻish uchun zarur vaqtni tejash imkonini beradi. Vaholanki, axborotlashtirishsiz tadqiqotchi oʻz ish vaqtining yarmini, ba'zan undan ham koʻprogʻini axborot yigʻishga sarflagan boʻlar edi.

Hozirgi zamon fanining rivojlanishi, xususan, ilmiy tadqiqot usullari va vositalari muttasil murakkablashib borishida namoyon boʻladiki, bu axborot texnikasini qoʻllashni taqozo etadi. Bunday holat ilmiy tadqiqotning barcha darajalariga – empirik darajasiga ham, nazariy darajasiga ham xos. Empirik tadqiqot bosqichida informatika ilmiy eksperimentni hunarmandchilik koʻrinishidagi faoliyatdan katta-katta axborot toʻplamlarini avtomatlashtirilgan yoʻsinda olish va ularga ishlov berishga yoʻnaltirilgan zamonaviy ilmiy tahlilning alohida turiga aylantirish uchun imkoniyat yaratadi. Nazariy tadqiqot bosqichida axborot texnikasi har xil ilmiy gipotezalarni tekshirish vositasi boʻlib xizmat qiladi, tartibga keltirilmagan ma'lumotlar yigʻindilarini ilmiy-nazariy qoidalarga aylantirishga yordam beradi.

Axborotni kiritish, unga ishlov berish, uni saqlash va berish uchun fanda avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlari –

mantiqiy, matematik, lingvistik, axborot va texnik vositalarning oʻzaro bogʻliq majmuidan keng foydalanilmoqda. Bunda avtomatlashtirilgan axborot- qidiruv tizimiga qoʻyiladigan talablar yo tadqiqot obyekti tomonidan, yo mazkur fan sohasining nazariy negizi va axborot-texnika vositalari yordamida yuklanadi. Bunday tizimlar matematik usullar va algoritmlar majmui shaklida matematik ta’minlash vositalariga ega boʻladi.

Mazkur vositalar eksperimentlarning natijalariga ishlov beradi, qarorlar qabul qilish usullari va algoritmlarini belgilaydi. Oʻta murakkab hodisalar va jarayonlarni tadqiq qilishga fanning oʻtishi, qisqa muddatda aniq natijalarga erishish talabining qoʻyilishi fandan eksperimentlar oʻtkazish va ularning natijalariga ishlov berishni avtomatlashtirishni taqozo etadi. Fanni axborotlashtirish murakkab tizimlar va jarayonlarni tadqiq qilishning yangi usuli – hisoblash yoki mashinali eksperiment usulining paydo boʻlishiga olib keldi. Eksperimentning bu turi amaliy matematikaga va oʻrganilayotgan obyektlarning modellarini yaratish uchun axborot texnikasi vositalaridan foydalanishga asoslanadi. Hisoblash eksperimenti oʻrganilayotgan hodisa yoki jarayonlarning oʻziga xos modelini yaratishni nazarda tutadi. Bunday modellar obyektning xossalarini aks ettiruvchi matematik tenglamalar yordamida tuziladi. Binobarin, hisoblash eksperimenti matematik modelga va hisoblash matematikasi usullariga asoslanadi.

Axborot texnologiyasida faol ishtirok etuvchi ilmiy bilimning integratsiyalashuvi jarayoni faqat ilmiy bilimning yangi shakli – kompleks bilimning paydo boʻlishiga emas, balki turli fanlar yangi ilmiy yoʻnalishlariga va ilmiy bilimning yangi sohalariga birlashishiga ham olib keladi. Kelajakda axborotlashtirish jarayoni ijtimoiy hayotga yanada kuchliroq ta’sir koʻrsatadi. Bu axborot haqidagi fanlarni jamiyat haqidagi fanlar bilan sintez qilish uchun asos boʻladi. Axborot resurslarini, jamiyatning axborot salohiyatini va axborot jarayonlarining kechishini, ijtimoiy jarayonlarga, shu

jumladan insonning rivojlanishi, uning jamiyatdagi o‘rniga axborot jarayonlarining ta’sirini, axborotlashtirish ta’sirida jamiyat ijtimoiy tuzilmalarining o‘zgarishini o‘rganuvchi ijtimoiy informatika aynan shu negizda vujudga keldi.

Shunday qilib, axborotlashtirish ilmiy bilishning barcha sohalariga – uning empirik darajasiga ham, nazariy darajasiga ham kirib boradi, turli fan sohalarining birlashishida, yangi fanlarning vujudga kelishida ishtirok etadi. Axborotlashtirish hozirgi zamon fanining rivojlanishi va faoliyatiga katta turtki beradi, uni sifat jihatidan o‘zgartirish, fanda inqilob yasashning hal qiluvchi omili bo‘lib xizmat qiladi. Bu ilmiy inqilob jarayonida eski ilmiy paradigma o‘rniga dunyoning yangi manzarasini shakllantirishga yo‘naltirilgan yangi paradigma keladi. Ijtimoiy mo‘ljallar yangi paradigmaning o‘zagini tashkil etadi. Bu paradigma ta’limning ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvini nazarda tutadi.

Tayanch so‘z va iboralar: jamiyat, axborot, jamiyatning axborotlashuvi, mafkura, mafkuraviy faoliyat, mafkuraviy poligon, sog‘lom fikrli zamonaviy shaxs.

Nazorat uchun savollar:

1. Jamiyat va fuqarolik jamiyati tushunchalarining mazmunini tahlil qiling.
2. Fanning ahamiyati va dolzarbliligi nimalarda ko‘rinadi?
3. Mustaqil fikrli shaxs deganda qanday fazilatlarni o‘zida shakllantirgan insonni tushunasiz.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг

кундалик қоидаси бўлиши керак. –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. – 104 б

2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – Toshkent: O`zbekiston", 1997. – 384 bet.

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat – 2016, – 123 бет.

4. Otamurodov S. Globallashuv va millat. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. - 304 bet.

5. Siddiqov I., Ibrohimov F. Mustaqil O`zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida yoshlar faolligini oshirishning ijtimoiy-ma'naviy omillari. - Farg`ona, 2015. - 88 bet.

6. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. - Toshkent: Movaraunnahr, 2016. -373 bet.

2-MAVZU. MAFKURAVIY IMMUNITET – BARKAMOL INSON XUSUSIYATLARINING ASOSIY SHARTI

Reja

1. G‘oya va mafkura nisbati. “Mafkura – qudratli qurol” iborasining mazmuni.

2. Mafkuraviy immunitet tushunchasi, tarixiy taraqqiyotda turli mafkuralar hukmronligi.

3. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish mexanizmlari.

4. Milliy qadriyatlar - mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda asosiy vosita sifatida.

1. G‘oya va mafkura nisbati. Mafkura – qudratli qurol.

G‘oya tushunchasi. Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g‘oyalar muhim o‘rin tutadi. Shu ma’noda, insoniyat tarixi g‘oyalar tarixidir.

Xo‘sh, g‘oya nima, nega unga bu qadar katta e’tibor va ahamiyat beriladi? Ma’lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o‘z manfaatlari, maqsad-muddaolari, orzu-intilishlarini ko‘zlab harakat qiladi.

Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g‘oyalar va ta’limotlar yaratadi. Binobarin, g‘oyalar ham inson tafakkurining mahsulidir. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g‘oya bo‘la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta’sirchan, zalvorli fikrlargina g‘oya bo‘la olishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda g‘oya, mafkura, ideya va ideologiya tushunchalari ishlatilmoqda. Ideya va ideologiya ko‘proq G‘arb davlatlarida hamda rus ilidagi manbalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi idea so‘zidan olingan, ideologiya uchun o‘zak bo‘lib hisoblanadi va tushuncha yoxud fikr ma’nosini anglatadi. Ideologiya

(Idea – g‘oya, tushuncha, logos – ta’limot) atamasi esa g‘oyalar to‘g‘risidagi ta’limotni anglatadi va iqqi xil ma’noda ishlatiladi:

g‘oyalarning mohiyat-mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha bo‘lib hisoblanadi;

muayyan g‘oyani amalga oshirish, maqsadga yetish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.

G‘oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, bular garchi tafakkurda paydo bo‘lsa-da, inson (va jamiyat) ruhiyatiga, xatto tub qatlamlariga ham singib boradi. G‘oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni harakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy-aqliy kuchga aylanadi.

G‘oya mohiyatan ijtimoiy xarakterga ega. Muayyan g‘oyalar odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g‘oyalar ta’sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g‘oyalarni o‘z e’tiqodiga singdiradi, o‘z navbatida yangi g‘oyalarni yaratadi va targ‘ib etadi.

Har bir narsaning o‘z ibtidosi va intihosi bo‘ladi. G‘oyalar ham o‘z «umri»ga ega. Ular ham ma’lum makonda va zamonda paydo bo‘lishi, jamiyat rivojiga muayyan hissa qo‘shishi, kishilarning ongi va qalbidan joy olishi, o‘z umrini yashab, joziba kuchi va quvvatini yo‘qotgach, tarixiy xotiraga aylanishi ham mumkin. G‘oyaga ta’rif berish uchun uning mohiyatini namoyon etadigan asosiy xususiyatlarni sanab o‘tish lozim bo‘ladi. G‘oyaning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari yetaqlaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, g‘oya deb, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni maqsad-muddao sari yetaklaydigan ulug‘vor fikrga aytiladi.

G‘oyalarning turlari. Tafakkurning mahsuli sifatida g‘oya tevarak olamni o‘rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari – ilm-fan, din, falsafa, san’at va badiiy adabiyot, axloq, siyosat va huquq – muayyan bir g‘oyalarni yaratadi, ularga tayanadi va ularni rivojlantiradi. Ma’lum ma’noda aytish mumkinki, har bir ong sohasining o‘z g‘oyalari mavjud bo‘ladi.

Mazmuni va namoyon bo‘lish shakliga qarab, g‘oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin. Masalan:

diniy g‘oyalar;

ilmiy g‘oyalar;

falsafiy g‘oyalar;

badiiy g‘oyalar;

ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar;

milliy g‘oyalar;

umuminsoniy g‘oyalar va hokazo.

Diniy g‘oyalar deb, har bir diniy ta’limot va oqimning asosini, diniy iymon-e’tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytiladi.

Ibtidoiy dinlar har bir narsaning jonli ekani, jonning abadiyligi, but va sanamlarning, tabiiy jism va xodisalarning ilohiy quvvatga egaligi to‘g‘risidagi qarashlarga asoslangan edi. Masalan, hindlarning diniy tasavvurlariga ko‘ra, jon ko‘chib yuradi, bu hayotda u insonda bo‘lsa, keyingi hayotda boshqa jonzotga o‘tishi mumkin.

Ilohlarning ko‘pligi haqidagi fikrga tayanadigan politeizm dinlari vaqti kelib monoteistik – yakkaxudolik g‘oyasi asosidagi dinlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergan.

Yakkaxudolik g‘oyasi milliy dinlarda (masalan, iudaizmda), ayniqsa jahon dinlari – xristianlik va islomda o‘z ifodasini yaqqol topgan. Xususan, islom dinida Allohning yagonaligi g‘oyasi asosida uning barcha aqidalari, ruknlari, talab va majburiyatlari shakllangan.

Ilmiy g‘oyalar – fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo‘ladigan, turli fan

sohalarining asosiy tamoyillari (prinsiplari), ustuvor qoidalarini (postulatlarini) tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir.

G‘oyalarning «hayoti», ularning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, boshqa g‘oyalar bilan o‘zaro munosabati, kurashi va nihoyat, eskirgan g‘oyalarning yangilari bilan almashinishi, ayniqsa, ilmiy g‘oyalar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qadimgi yunon faylasuflari tabiiy jismlarning eng kichik, bo‘linmaydigan zarrasi, deb «atom» tushunchasini kiritgan edilar. Ptolemey-Aristoteldan tortib, o‘rta asr Ulug‘bek astronomiyasigacha dunyoning markazi Yer deb hisoblab kelganlar; Yevklid geometriyasi, Nyuton mexanikasi, Darvin ta’limoti ham o‘z davrining eng ilgor ilmiy g‘oyalariga asoslangan edi.

Ilm-fan taraqqiyoti atomning bo‘linishini, koinot markazi Yer emasligini ham ishonchli dalillar bilan isbotladi; kvant mexanirasi, irsiyat nazariyasi va boshka ko‘plab kashfiyotlar qilindi.

Dunyoga A.Eynshteyn, N.Bor, F.Rezerford, M.S.Kyuri va boshqalarning nomlarini mashhur qilgan yadro fizikasi sohasidagi kashfiyotlar ham ilmiy g‘oyalar asosiga kurilgan. XX asrda insoniyat nihoyatda ko‘p ilmiy g‘oyalarni amaliyotga aylantirdi. Kosmik raketalar, kompyuter va uyali telefonlar, televideniye va boshqa sohalardagi yutuqlar bunga yorqin misol bo‘ladi.

Fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksizdir. Bu jarayonda amaliyot tasdiqlanmagan, eskirgan qarashlar yangi ilmiy g‘oyalar bilan o‘rin almashaveradi.

Falsafiy g‘oyalar har bir falsafiy ta’limotning asosini tashkil etadigan, olam va odam to‘g‘risidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir. Ular bizni o‘rab turgan dunyoni bilish jarayonida, kishilik jamiyatining taraqqiyoti mobaynida to‘plangan bilimlarni umumlashtirish, inson hayotining ma’no-mazmuni, uning baxt-saodati kabi masalalar ustida mulohaza yuritish asosida shakllanadi.

Insoniyat tarixida turli xalqlarning aql-zakovat sohiblari, dono faylasuf va ilohiyotchilari turfa xil g‘oyalar yaratganlar. (Siz bular

bilan falsafa tarixini oʻrganish paytida batafsil tanishgansiz.) Ammo falsafiy gʻoyalar xaqida gap ketganda, jahon falsafiy fikri rivojiga beqiyos hissa qoʻshgan oʻzbek mutafakkirlari yaratgan merosni yodga olmaslik mumkin emas.

Forobiyning fozil shahar toʻgʻrisidagi, tasavvuf daholarining komil inson xaqidagi, Ibn Sinoning tana va ruh munosabatiga oid, Alisher Navoiyning adolat va insoniylik borasidagi teran fikrlari falsafiy gʻoyalarning yorqin namunasidir.

Badiiy gʻoyalar – adabiyot va sanʼat asarining asosiy maʼno-mazmunini tashkil etadigan, undan koʻzlangan maqsadga xizmat qiladi. Ular hayotdan olinadi, badiiy talqinlar asosida bayon etiladi, oʻquvchida muayyan taassurot uygʻotadi. Adabiy qahramonlarni sevish, ularga ergashish hollari ham ana shu asosda roʻy beradi.

Badiiy taʼsir vositalari juda katta kuchga ega. Inson va jamiyat ongini oʻzgartirishda, shaxs ruhiyatiga taʼsir oʻtkazishda, odamlarni harakat va junbushga keltirishda badiiy adabiyot va sanʼatning ahamiyati beqiyosdir. Milliy istiqlol gʻoyasini targʻib etish, xalqning ongi va qalbiga singdirishda ham ular muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy gʻoyalar har bir xalq va umuman bashariyatning orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi. Ozodlik va mustaqillik, adolat va xaqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik gʻoyalari shular jumlasidandir. Asrlar mobaynida bunday buyuk, oʻlmas gʻoyalar xalqlarga kuch-quvvat va ilhom bagʻishlab, ularni oʻz erki uchun kurashga safarbar etib kelgan.

Ozodlik gʻoyasi – mazlumlarni oʻz erki uchun kurashga chorlaydigan, qullik va qaramlikning har qanday koʻrinishini inkor etadigan gʻoyadir.

Mustaqillik gʻoyasi – eng ulugʻ va ezgu gʻoya. Har bir xalq istiqlol tufayli oʻziga yot va begona tuzumdan, ijtimoiy tazyiqlardan

xalos boʻladi, oʻz salohiyatini toʻla-toʻkis ishga solish, oʻzi istagan va oʻzi tanlagan yoʻldan borish imkoniyatini qoʻlga kiritadi.

Adolat va haqqoniyat gʻoyalari – insonning tabiati va ijtimoiy tuzumning mohiyatini belgilaydigan, qudratli kuchga ega boʻlgan gʻoyalardir. Odamlar asrlar mobaynida odil jamiyatni orzu qilib, haqikat tantanasi uchun kurashib kelgan. Adolat buzilgan yerda umidsizlik va tushkunlik hukm suradi. Adolat tantana qilgan jamiyat yuksaklikka koʻtariladi.

Har bir tarixiy davrda uning ruhini aks ettiradigan, xalqning qadriyatlari va orzu-istaklariga mos keladigan gʻoyalar kishilarning ongi va qalbidan joy olgan. Ta'kidlash joizki, bashariyatning ziddiyatli tarixi mobaynida hayotbaxsh gʻoyalar bilan bir qatorda, soxta va tuban niyatlar, tajovuzkor va gʻarazli fikrlar ham koʻp boʻlgan. Binobarin, xalqlar va davlatlar taqdiriga ta'siri, oʻzining sifatlariga koʻra gʻoyalar yuksak yo tuban, bunyodkor yoki vayronkor, buzgʻunchi yoxud ekstremistik, tajovuzkor boʻlishi ham mumkin.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, millat taraqqiyotiga, uning yuksalishiga xizmat qiladigan, xalqlarni jipslashtirib, oliy maqsadlarga safarbar etadigan gʻoyalar yuksak gʻoyalardir. Odamlar orasiga nifoq, xalqlar oʻrtasiga nizo soladigan, kishilarni turli taraflarga ajratib, adovat qoʻzgʻaydigan tuban fikrlar buzgʻunchi gʻoyalarga misol boʻladi. Aslida bunday qabix niyat va soxta shiorlarni gʻoya deb atash ham shartlidir. Qaysi ijtimoiy birlik yoki qatlam orasida tarqalgani, qanday aholi guruhlari yoki elat-millatlarni harakatga keltirayotganiga qarab ham gʻoyalarni turlarga ajratish mumkin.

Sohiblari, ya'ni gʻoyani moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch kim ekaniga qarab, sinfiy gʻoya, milliy gʻoya, umumxalq gʻoyasi, umuminsoniy gʻoyalar ham mavjud boʻlishi mumkin. Albatta, muayyan bir xalq ommasini ma'lum bir tarixiy sharoitda harakatga undayotgan gʻoya mazmunan umuminsoniy

bo‘lishi ham yoki tor manfaatlarni ko‘zlaydigan sinfiy g‘oya jamiyat va inson manfaatlariga zid bo‘lishi ham mumkin.

Milliy g‘oya xalqning tub manfaatlarini ifoda etadigan, uni o‘z oldiga kuygan maqsadlari sari birlashtiradigan va safarbar etadigan g‘oyadir. O‘z tarixi va taraqqiyotining tub burilish davrlarida har qanday millat va xalq kelajagini belgilaydi, unga yetishning o‘ziga mos yo‘llarini tanlaydi. Ana shu jarayonga xos ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yo‘nalishlar bilan barcha g‘oyaviy tamoyillarini ham belgilab oladi. Bunda butun millat uchun umumiy bo‘lgan g‘oyalar nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, «Vatan ravnaqi», «Yurt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Komil inson», «Ijtimoiy hamkorlik», «Millatlararo hamjihatlik», «Diniy bag‘rikenglik» kabilar ana shunday umummilliy g‘oyalar qatoriga kiradi.

Mafkura tushunchasi. Har qanday nazariya yoki ta’limot bir tizimga solingan g‘oyalar majmuidan iborat bo‘ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e’tiqodning asosini ham g‘oya tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g‘oyalarda ifoda etiladi. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo‘llar va vositalar bilan erishmoqchi bo‘layotgani xaqidagi g‘oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh va qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma’naviy tamoyillarini ifoda etadigan g‘oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlamlarning mafkurasi turlicha bo‘lishi tabiiy. Buning asosida manfaatlarning turlichaligi, ularni qondirish imkoniyatlari va uslublarining har xilligi yotadi. Sinfiy qutblashuv kuchaygan, sinfiy kurash avj olgan (yoki sun’iy ravishda keskinlashtirilgan)

tuzumlarda mafkura oʻta siyosiylashadi, aholini oʻzaro qarama-qarshi qilib qoʻyadi.

Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demoqratik jamiyat barpo etishni koʻzlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yoʻlida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi.

Oʻzbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi aynan jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yoʻlida yakdil harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning oʻziga xos oʻrni boʻlishiga erishishga safarbar etadi.

Birinchi Prezidentimiz I.Karimov mafkuraga shunday ta’rif bergan: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini koʻzlagan va uning dunyodagi oʻrnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni oʻrtasida oʻziga xos koʻprik boʻlishga qodir gʻoyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman». Binobarin, milliy mafkura har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan, uning yoʻli va maqsadlarini aniq-ravshan charogʻon etadigan mayoqdir.

Insoniyat tarixi mobaynida turli shakldagi juda koʻplab mafkuralar yaratilgan, behisob ijtimoiy-siyosiy kuchlar oʻz gʻoyalari va ta’limotlari bilan maydonga chiqqan, maqsad va niyatlariga yetishmoq uchun harakat qilgan. Biz har qanday mafkurani gʻoyalar tizimi sifatida talqin qilar ekanmiz, shuni unutmaslik keraqqi, biror bir-mafkuraning mohiyatini anglab yetish uchun faqat uning tarkibidagi gʻoyalarni taxlil qilishning oʻzi yetarli emas. Oʻtmishda turli kuchlar va guruhlar oʻz gʻarazli niyatlariga erishish, asl maqsadlarini yashirish uchun yuksak va jozibali gʻoyalardan foydalangan. Eng yovuz bosqinchi va eng razil guruhlar ham oʻz kirdikorlarini ezgu gʻoyalar bilan niqoblashga oʻringan.

Demak, mafkuraning mohiyati faqat uning asosiy g‘oyalari vositasida emas, shu g‘oyalarga erishish usullari va vositalari, umume’tirof etilgan tamoyillari, ularning aksariyat omma manfaatlariga mosligi orqali ham namoyon bo‘ladi. O‘zining mudhish talab-ehtiyojlari va yovuz niyatlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirishni ko‘zlab harakat etuvchi mafkuralar xalokatga mahkumdir.

Mafkuralar, ma’no-mohiyatiga ko‘ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta’limotlar asosida yaratiladi. Xilma-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlar o‘z mafkuralarini yaratishda siyosiy g‘oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanadi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanadi.

Mafkuraning falsafiy ildizlari haqida fikr yuritganda, uning falsafa ilmi xulosalariga asoslanishi nazarda tutiladi. Bunga G‘arbdagi Uyg‘onish davrini hamda o‘rta asrlarda o‘z milliy davlatchiligini tiklay boshlagan Yevropa xalqlarining har biri o‘ziga xos mafkurasini yaratganini misol keltirish mumkin.

Mazkur mafkuralar Rim imperiyasi parchalanganidan keyin o‘z davlatchiligiga ega bo‘lgan xalqlarning o‘ziga xos qadriyatlari va mentaliteti zaminida vujudga kelgan milliy falsafalari asosida shakllandi. Shu bois o‘sha davrdagi italyan, ingliz, fransuz falsafasi o‘zi mansub bo‘lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta’limotlar, ma’rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Kant, Gegel, Feyyerbax kabi mutafakkirlar nomi bilan shuhrat topgan nemis falsafasi xususida ham shunday fikrni aytish mumkin. Jumladan, haqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo‘lgan Gegel falsafasi Avstriya imperiyasidan ajralib, mustaqillik yo‘lini tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilgan edi.

Mafkuraning dunyoviy ildizlari ma’rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir.

Insoniyat asrlar mobaynida bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume'tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Bunday jamiyatda insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo‘li bilan kafolatlanadi. Ana shunday jamiyat mafkurasi «Dunyoviylik – daxriylik emas» degan tamoyil asosida rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va ahamiyatini aslo inkor etmaydi.

Mafkuraning diniy ildizlari deganda, u inson ongi va ruhiyati bilan uzviy bog‘liq ekani va shu bois uning g‘oyaviy ildizlari diniy ta'limotlarga borib taqalishi tushuniladi. YA'ni, ko‘pgina mafkuralarda Avesto, Veda va Upanishadlar, «Zabur», «Tavrot», «Injil» va «Qur'on» kabi ilohiy kitoblarda zikr etilgan ezgu g‘oyalar muayyan darajada o‘z ifodasini topganini ko‘ramiz.

Xitoy xalqining taraqqiyot yo‘lini asoslab bergan Kon-fu-siy va Lao-szining ta'limotlari ham diniy qarashlarga asoslangan edi. Bu ta'limotlar asrlar mobaynida Xitoy xalqining milliy mafkurasi bo‘lib kelgan.

Dunyoviy va diniy g‘oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko‘tariladi. Bunga bashariyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayxon Beruniy, Imom G‘azzoliy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yonma-yon yashab faoliyat ko‘rsatgan davr yorqin misol bo‘la oladi.

Bunday jarayon bugungi dunyoda amaliyot falsafasi deb tan olingan pragmatizm, hayot falsafasi bo‘lgan ekzistensializm kabi dunyoviy va diniy g‘oyalardan oziqlangan ta'limotlar misolida ham ko‘zga tashlanmoqda.

Ilmiy kashfiyotlar ham mafkura rivojiga katta ta'sir o‘tkazadi. Zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika, kibernetika sohasidagi olamshumul yangiliklar, klonlashtirish, insonning gen-

nasl xaritasini aniqlash kabi buyuk kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin oʻzgartirmoqda.

Ayni vaqtda yuksak ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, globallashuv jarayonlari, bir tomondan, inson aql-idrokining imkoniyatlariga, kelajaqqa ishonchni orttirayotgan boʻlsa, ikkinchi tomondan, Xirosima, Nagasaki, Chernobil fojialari, ommaviy qirgʻin qurollari, ekologik halokatlar, maʼnaviy tanazzul kabi umumbashariy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Shunday ekan, ilm-fan va madaniyat borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish uchun ham jamiyatga sogʻlom gʻoya, sogʻlom mafkura kerak.

Gʻoya va mafkuralarning shakllari. Insoniyat tarixi turli gʻoyalarning ezgulik va yovuzlik, ozodlik va istibdod, maʼrifat va jaholatga xizmat qilgan mafkuralar shaklida namoyon boʻlganidan dalolat beradi. Gʻoya mafkuraga asos boʻladi, mafkura esa muayyan gʻoyani amalga oshirishga xizmat qiladi.

Qadimgi sivilizatsiyalar tarixidan maʼlumki, oʻsha davrlarda odamlarning dunyoqarashi, qabila va elatlarning mafkurasi afsona va rivoyatlar vositasida ifoda etilgan mifologik qarashlar sifatida mavjud boʻlgan. Jumladan, totemizm, animizm, fetishizm kabi ibtidoiy dinlar jonning abadiyligi, tabiatdagi narsa va xodisalarning ilohiy quvvatga ega ekani toʻgʻrisidagi xilma-xil gʻoya va qarashlarga asoslangan. Bu toʻgʻrida «Dinshunoslik» fanida kengroq maʼlumotlar berilgan.

Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida milliy asosdagi xinduizm, iudaizm, konfutsiylik singari diniy mafkuralar shakllangan. Yaponlar esa oʻzlarining milliy dini – sintoizmni yaratgan. Ularda diniy tamoyillar bilan birga muayyan millatning oʻziga xosligi, qadriyatlari, mentaliteti oʻz aksini topganligi yaqqol koʻzga tashlanadi. Bu dinlar millat tarixining u yoki bu davrida davlat dini va mafkurasi darajasiga koʻtarilgan. Masalan, konfutsiylik bir necha yuz yillar davomida Xitoyda ana shunday mavkega ega boʻlgan.

Taraqqiyot jarayonida falsafiy g‘oyalar ham muayyan tizim shaklini olgan. Masalan, olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari, uning asosini nima tashkil etishi kabi masalalarni Qadimgi odamlar xilma-xil hal qilganlar. Ularni falsafiy talqin etish natijasida monizm va dualizm kabi, idealizm va materializm singari oqimlar vujudga kelgan. Ularning har biri o‘z ma’no mazmuniga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Xususan, monizm – olamning asosini bitta mohiyat tashkil etadi deb ta’lim beruvchi yunalish bo‘lsa, dualizm – olamning ibtidosi ham ruhiy-ilohiy, ham moddiy asosga ega ekanini e’tirof etuvchi oqimdir.

Olam va odamning yaralishi, borliqning yashashi va rivojlanish qonuniyatlari, borlik hamda yo‘qlik masalalarida ruhiy va ilohiylik tamoyillarini ustuvor deb bilish, mutlaqlashtirish idealizmning asosini tashkil qiladi.

Undan farq qiladigan materializm aynan ana shu masalalarda modda (materiya) va uning xossalarini ustuvor deb bilish, mutlaqlashtirish asosida shakllangan.

Bugungi kunda diniy fundamentalizm, aqidaparastlik kabi buzg‘unchi g‘oyalar jahon hamjamiyati taqdiriga xavf solmoqda. Muayyan tarixiy davrlarda ba’zi mafkuralar davlat ideologiyasi darajasiga ko‘tarilgan. Zamonlar o‘tishi bilan ularning ayrimlari o‘z mavkeini yo‘qotgan, lekin millat ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida saqlanib kolgan. Xalq ulardan quvvat olgan, ma’naviy oziqlangan, ular orqali o‘z qadriyatlarini saqlagan.

Shu bilan birga bir-biridan farq qiladigan mafkuralar o‘rtasidagi bahs-munozara hamda ularni murosaga keltirishga intiluvchi g‘oyalar mavjudligi ham qadim zamonlardan buyon davom etib kelmoqda. Xuddi shunday bir-biridan farq qiladigan, ya’ni xudo va ilohiy qadriyatlarni tamomila rad etuvchi ateizm va aynan shu xaqikatlarni mutlaqlashtiruvchi teizm o‘rtasidagi bahs-munozara ham uzoq tarixga ega. Bu bahs – munozara hozir ham davom etmoqda.

XIX asrning 30-yillarida Fransiyada imperator Napoleon shaxsiga siginish va faranglarni ulug‘lash bilan bog‘lik shovinizm g‘oyalari keng yoyildi. Keyinchalik u bir hukmron millatni boshqa xalqlardan ustun qo‘yadigan, yoki boshqa biror ijtimoiy subyektni mutlaqlashtiradigan mafkuraviy aqidaga aylanib ketdi. Bugungi kunda «Buyuk millatchilik shovinizmi», «Buyuk davlatchilik shovinizmi», «Irqiy shovinizm» kabi iboralar uchrab turadi.

Insoniyat tarixida o‘z talab-ehtiyojlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirish istagi talonchilik va bosqinchilik, buyuk davlatchilik va tajovuzkor millatchilik, fashizm va ekstremizm g‘oyalarini yuzaga keltirgan. Bunday g‘oyalar xalqlar boshiga ko‘p kulfat va musibatlar solgan.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ba’zan buzg‘unchi mafkura o‘zining soxta jozibasi, aldov makri bilan omma ongini zax, jamiyatda hukmron mavqeini egallab olishi mumkin. Masalan, XX asrning 30-yillarida Italiya va Germaniyada fashizmning g‘alaba qozonishi nafaqat italyan va nemis xalqining, balki dunyodagi millionlab insonlarning boshiga cheksiz kulfat solgani tarixning achchiq saboqlaridan biridir. Holbuki bu g‘oyalar mazkur davlatlarda asr boshidanoq namoyon bo‘la boshlagan edi.

Masalan, Italiyada 1910 yildan «Milliy g‘oya» nomli jurnal chiqa boshlagan, unda ko‘proq agressiv millatchilik targ‘ib qilinar edi. Afsuski, o‘z davrida bunga kam e’tibor berildi va u oxir oqibat hukmron g‘oyaga aylandi. Ana shu sababdan ham bugungi kunda butun dunyodagi taraqqiyparvar gumanistik kuchlar bunday fojiali va noxush holatlar takrorlanmasligi uchun hamjihatlik bilan kurash olib borishi ijtimoiy zarurat bo‘lib koldi.

Fashizm misoli g‘oya va mafkura insonparvarlik va taraqqiyot tamoyillarini, xalq taqdiridagi yuksalish zaruratini, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida aks ettirmasa, aksincha, bu intilishlarni rad etsa, mohiyatiga ko‘ra ularga zid bo‘lsa, u jamiyat tanazzuliga sabab bo‘lishini yaqqol ko‘rsatadi.

Oʻz tarixini, asosan XIX asrdan boshlagan ana shunday mafkuralardan biri – sinfiy antogonizm gʻoyalarni mutlaqlashtirgan va hokimiyatni kurol kuchi bilan egallab olgan sobiq kommunistik tuzum mafkurasi edi. Sinfiy kurash gʻoyasi asosiga kurilgan va millionlab kishilar taqdirida mash'um iz qoldirgan bu mafkura jamiyatni bir-biriga zid taraflarga ajratib yubordi.

Sinfiy kurash chizigʻi nafaqat ijtimoiy guruh va qatlamlar orqali, hatto oilalar va insonlar ruhiyati orqali ham oʻtkazildi. Oqibatda «fuqarolar urushi»ga nazariy poydevor qoʻyildi. Inson tabiatiga, uning mohiyati va ruhiyatiga zid boʻlgan birodarkushlik holati yaratildi. Oʻgʻil otaga, uka akaga, doʻst oʻz birodariga qoʻl koʻtarishi yoqlab chiqildi, ragʻbatlantirildi. Bular mardlik va sinfiy onglilik namunasi deb talqin etildi. Natijada milliy qadriyatlar toptaldi, millionlab kishilar halok boʻldi, butun – butun xalqlar oʻz vatanidan badargʻa qilindi.

Zoʻrlik asosiga qurilgan va ziddiyatli tizimga asos boʻlgan bu mafkura dunyoning oltidan bir qismini egallagan ulkan saltanat va sotsialistik lager hududida yetmish yil hukm surdi. Oxir-oqibat oʻzining gʻayri insoniy va gʻayri milliy mohiyati, mustabid tabiati tufayli tanazzulga yuz tutdi. Oʻzi tayangan davlatni ham oʻzi bilan birga olib ketdi.

Yovuz gʻoya va unga asoslangan mafkuralarning eng koʻp tarqalgan shakllaridan biri diniy aqidaparastlikdir. Bunday gʻoyalar muayyan davrlarda Gʻarbda ham, Sharqda ham hukmronlik qilgan, odamlarga koʻpdan-koʻp qabohatlar keltirgan.

Afsuski, bu ijtimoiy illat insoniyat XXI asrga kadam kuyayotgan hozirgi davrda ham dunyodagi tinchlik va taraqqiyotga takdid solmoqda, muayyan xududlarni egallab olmoqda. Afsuski, bu gʻoyalar ortidan ergashadiganlar hozir ham bor. Ular bunday gʻoyalarga asoslanib tinch aholiga qarshi terrorchilik, zoʻravonlik kabi jinoyatlarni amalga oshiradilar, oʻz niyatlarini qabih harakatlar orqali namoyon qildilar. Keyingi 15 yilda aqidaparastlar terrori

natijasida 140 ming kishi halok bo‘lgan Jazoir yoki 20 yildan ortikroq urush borayotgan Afg‘oniston bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Xullas, aqidaparastlik, qanday shaklda bo‘lmasin, hamma zamonlarda ham jamiyat uchun birdek xatarli bo‘lib, odamlar boshiga ko‘plab kulfatlar keltiradi. Hozirgi davrda ham hamma narsani inkor etishga, hech qanday ijtimoiy meyor va qonun-qoidalarni tan olmaslikka da’vat etuvchi nigilizm, yoki ko‘p hollarda vatansizlikni mutlaqlashtiradigan kosmopolitizm kabi mafkuralar turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda.

G‘oya va mafkuralarning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o‘rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi. YA’ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarama-qarshi o‘laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g‘oyalari uzluksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog‘iga aylangan.

G‘oya va mafkuraning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati. G‘oyaning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o‘zi g‘oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi, o‘zi yaratgan g‘oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e’tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi.

Yuksak g‘oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari yetaklaydi. G‘oyasi yetuk, e’tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko‘rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To‘maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari – buyuk g‘oya sohiblaridir.

Ming yillar o‘tsa ham, buyuk ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o‘chmaydi. Chunki ular yuksak

g‘oyalar – Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu urfon rivoji yo‘lida jon fido qilganlar. Axmad Yassaviy 60 yildan ziyod umrini yer ostida o‘tkazganida ham, Najmiddin Kubro mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug‘vor g‘oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan. Jordano Bruno jismu jonini egallagan buyuk g‘oya tufayli gulxan alangasida ham o‘z e’tiqodidan qaytmagan, Nasimiy, tovonidan so‘ysalar ham, ishqi ilohiy deb jon bergan.

Jahon tarixidan, jumladan xalqimizning o‘tmishidan ham, qaysi sohada bo‘lmasin, mardlik va jasorat ko‘rsatish uchun insonga albatta ulug‘vor g‘oya kerak ekaniga ko‘plab misollar topiladi.

Muayyan bir g‘oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo‘ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo‘lgani, jamiyatning taraqqiyot yo‘lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan nazariy ta’limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste’dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zaxmat chekkanini ko‘ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardo‘sht, Alisher Navoiy va Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig‘idir.

Ularning har biri o‘z davrida o‘zi mansub xalqni birlashtiradigan ulkan ahamiyatga molik g‘oyalarni yaratganlar. Bu g‘oyalarga tayanib bunyodkorlik yo‘lida, ezgu maqsadlarga erishish uchun hormay-tolmay mehnat qilganlar. Bu borada insoniyatga «o‘zini anglamoq buyuk saodat» ekanligini anglatgan Suqrot ham, «xalqni yakqalam qildim», deya qoniqish hissini tuygan Navoiy ham, Hindiston va Pokiston ozodligi yo‘liga umrini baxshida aylagan Maxatma Gandi ham bugungi avlodlar uchun ibrat namunasi bo‘lgan ulug‘ insonlardir.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda iqqi kuch – bunyodkorlik va buzgunchilik g‘oyalari hamisha o‘zaro kurashadi.

Bunyodkor g‘oya insonni ulug‘laydi, uning ruhiga kanot baxishlaydi. Sohibqiron Amir Temurning parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu g‘oyalar asos bo‘lgan.

Buzg‘unchi g‘oya va mafkuralar esa xalqlar boshiga so‘ngsiz kulfatlar keltiradi. Bunga olis va yakin tarixdan ko‘plab misollar keltirish mumkin. O‘rta asrlardagi salib yurishlari, diniy fanatizm va ateizm, fashizm va bolshevizmga asos bo‘lgan g‘ayriinsoniy g‘oyalar shular jumlasidandir.

Toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg‘or g‘oyalar tug‘ilaveradi. Buzg‘unchi g‘oyalarning vujudga kelishiga esa vayronkor intilishlar sabab bo‘ladi. Shunday ekan, ularga qarshi kurashga tayyor turish, ya’ni doimo hushyor va ogoh bo‘lib yashamoq hayotning asosiy zarurati bo‘lib qolaveradi.

Milliy g‘oya va mafkura o‘zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyat va imkoniyatlarni to‘la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo‘ladi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasi «milliy davlatchilik tizimi» (kokutay), «fuqarolik burchi», «yapon ruhi», «tadbirkorlik», «umummilliylik», «fidoyilik», «vatanparvarlik», «paternalizm», «jamoaga sadoqat», «modernizatsiya» kabi g‘oya va tushunchalar ushbu mamlakatning bugungi kunda erishgan yuksak natijalarga poydevor bo‘ldi.

G‘oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur yetkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi. Masalan, Chingizxon bosqini, chor istilosi davrlarida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib kurashga safarbar etmagani o‘lkamizning qaramlik changaliga tushib kolishiga sabab bo‘lgan.

Xullas, insoniyat tarixi xilma-xil g‘oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayondir. Bu jarayonda turli g‘oyalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilishi, o‘ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon yetaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi. Ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g‘oyalar asos bo‘lsa, vayronkor g‘oyalarga tayangan mafkuralar xalqlar va davlatlarni tanazzulga yetaklaydi, odamlar uchun son-sanoqsiz kulfatlar keltiradi. Bu esa, o‘z navbatida, g‘oyaviy jarayonlar tarixini o‘rganish, ular zamiridagi mazmun-mohiyatni bilib olishni zaruriyatga aylantiradi.

2.2. Mafkuraviy immunitet tushunchasi, tarixiy taraqqiyotda turli mafkuralar hukmronligi

Xo‘sh mafkuraviy immunitet nima? Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari nimadan iborat? Umuman immunitet nima?

Immunitet (lot. immunita - ozod bo‘lish, qutilish) tibbiy tushuncha bo‘lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o‘zini turli ta’sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo‘lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Sodda qilib aytganda, immunitet - kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. YA’ni, immunitet inson vujudining turli infeksion kasalliklarga bo‘sh kelmaslik holatini ifodalaydi.

Darhaqiqat, biz immunitet deganda har qanday tashqi ogohlantirishlarga qarshi turish sifatida tushunishga odatlanganmiz. Ushbu tushunchani falsafiy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, immunitet deganda tashqaridan boshqariladigan g‘oyaga yoki aytiladigan voqea-hodisaga qarshi himoya, nimanidir oldini olish, unga qarshi kurashish ko‘nikmasining hosil bo‘lishini tushunish mumkin.

Mafkuraviy immunitet insonning diniy qaramlikda milliy mustaqillik ustunlik qiladi degan ishonchiga asoslanadi. Tashqi stimul xususiyatini beruvchi omillarni (yoki hatto kasalliklarni) ma’lum darajada diniy ekstremizm kabi buzg‘unchi g‘oyalar deb atash mumkin. Ular zaiflashgan odamlarning ongiga kirib boradi, ularning immuniteti keladigan "infeksiya" bilan kurashishga qodir emas. Shu sababli turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalash, ijodiy g‘oyalarni, vatanparvarlik va kelajakka bo‘lgan ishonchni ularning nozik va tashqi ta’sirida bo‘lgan ongiga singdirish orqali shakllanadi. Ushbu jarayonda ta’lim juda muhim rol o‘ynaydi, chunki johillik buzg‘unchi g‘oyalarning asosiy sababi hisoblanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, immunitet tug‘ma bo‘ladi, mafkuraviy immunitet esa – shakllanadi.

"Mafkuraviy immunitet" tushunchasini birinchi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ishlatgan va uning mazmuni quyidagicha izohlangan: "ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, inson tanasida ushbu kasallikka qarshi immunitetni yaratish zarur. Shuningdek, farzandlarimiz qalbida ularning g‘oyaviy immunitetini mustahkamlash uchun Vatanga, boy tariximizga, ajdodlarimizning muqaddas diniga bo‘lgan sog‘lom munosabatni singdirishimiz kerak» [4, 481]. Demak, mafkuraviy immunitet - shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimidir.

Darhaqiqat, mafkuraviy immunitet - bu shaxsni, ijtimoiy guruhni, millatni, jamiyatni turli yot g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan murakkab tizim deyish mumkin. Shu sababli, mafkuraviy immunitet tizimi «bilim, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy sohalardagi aniq mo‘ljal va maqsadlar tizimi bilan bog‘liq».

M.Quronov fikricha, mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida quyidagilarga alohida e’tibor berish kerak, ya’ni «o‘smirning fiziologik yosh xususiyatlariga; o‘smirning aqliy imkoniyati, his-tuyg‘ularining rivojlanganligiga; egallagan bilim va malakasi darajasiga; g‘oyaviy shakllanishi uchun mavjud shart-sharoit, uning turmush tarziga» [5, 31].

SH.Shakirov maqolasida harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetining nazariy jihatlari, uning harbiy xizmatchilarning kasbiy fazilatlarini shakillanishiga ta’siri, harbiy xizmatchilarga xos bo‘lgan mafkuraviy immunitetning tarkibiy qismlari va ustuvor yo‘nalishlari hamda ularning xatti-harakatlarida, yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishda namoyon bo‘lishi tahlil qiladi [6]. Shuningdek, harbiy xizmatchining g‘oyaviy immunitetining mazmuni va tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: kognitiv, hissiy, intellektual-irodali va konativ. Ushbu tuzilishga asoslanib, harbiy xizmatchining g‘oyaviy immunitetining har bir nomlangan tarkibiy qismining mazmunini aniqlash mumkin [6].

Xo‘sh, mafkuraviy immunitetning mohiyati nimada?

Mafkuraviy immunitetning asosiy va birinchi elementi bu bilimdir. «Bilim - obyektiv reallikning subyekt ongida tizimli aks etishidir. Epistemologik nuqtai nazardan esa, bilim – obyektiv ma’noga ega bo‘lgan va haqiqatning mohiyatini ochib berishga yordam beradigan hodisa. Bunda bilim to‘g‘ri tanlansa, ezgu maqsad va faoliyatga yo‘naltirilsagina obyektiv ma’no-mazmun kasb etadi» [9, 15]. Darhaqiqat, insonning ijtimoiy turmush taraqqiyoti asosida bilim yotadi, ya’ni bilim ijtimoiy tajribani harakatlantiradi. Shu sababli jamiyatda to‘plangan ilmiy bilimlar o‘z dalillari bilan birgalikda odamlarning xilma-xil amaliy harakatlariga asos bo‘lgan umumiy boylikni tashkil etadi. Bunda birinchidan, mafkuraviy immunitet tizimini bilish obyektiv bo‘lishi, haqiqatni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishi, insonning ma’naviy dunyosini boyitishi va ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchidan, bu bilimlar mohiyatan Vatan va xalq manfaatlari, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Darhaqiqat, yoshlar dunyoqarashining umumiy tizimida sog‘lom e’tiqod, ishonch va milliy qadriyatlar tizimining ustuvorligi yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy qismi bilimlar asosida shakllangan qadriyatlar tizimidir. Darhaqiqat, bilim qanchalik obyektiv va chuqurroq bo‘lsa, ularning asosida shakllangan qadriyatlar shunchalik ishonchli bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitet imkoniyatlarini belgilaydi va mafkuraviy tahdidlarga qarshi ishonchli qalqon bo‘lib xizmat qiladi.

Ammo bilim va qadriyatlar tizimi ham mafkuraviy immunitetning mohiyatini to‘liq aks ettira olmaydi. Zero, mafkuraviy immunitetning ushbu ikki elementi uning uchinchi muhim elementi, ya’ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma’rifiy sohalardagi aniq maqsadlar tizimi bilan bog‘liqdir. Ushbu maqsad ongli bo‘lishi kerak va unga erishish uchun qat’iylik talab etiladi. Bunday aniq tizimsiz na shaxs, na millat yoki jamiyat ochiq yoki yashirin tabiatning mafkuraviy tahdidlariga dosh berolmaydi.

Yuqoridagilardan shuni ta’kidlash kerakki, mafkuraviy immunitet - bu ma’naviy, ma’rifiy, iqtisodiy bilimlarni ongli ravishda idrok etish va shu asosda zamonaviy ijtimoiy voqealarga o‘z munosabatini bildirish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shu bilan birga mafkuraviy immunitet tashqi yoki ichki mafkuraviy ta’sir mavjudligida namoyon bo‘ladi. Bunda yangi, notanish g‘oyani tanlash uchun odam uni o‘z manfaatlarini "ko‘rish" orqali o‘tkazadi. Agar g‘oya ma’lum bir davrda inson manfaatlariga mos keladigan bo‘lsa, u holda boshqa g‘oyalarning takliflarini mag‘lubiyatga uchratib, uning harakatlariga rahbarlik qiladi. Demak, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillariga quyidagilarni

kiritish mumkin: bilim, qadriyatlar, ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’rifiy sohalardagi maqsadlar tizimi bilan bog‘liq qarashlar.

2.3. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish mexanizmlari

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, milliy qiyofa, milliy xarakter kabi jihatlarning aloxida ahamiyatga ega. qida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, mafkuraviy immunitetning tarkibiy qismi asosini tashkil qiluvchi insonparvar g‘oyalar, e’tiqod, o‘zini-o‘zi qaror toptirish kabi jihatlarga xam e’tibor berish lozim.

Mafkuraviy immunitetni rivojlantirish muhim psixologik masala sifatida e’tirof etilayotgan bugungi kunda, ayniqsa, shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishiga xizmat qiladigan psixologik mexanizmlarni o‘rganishimiz, bu mexanizmlarning tarkibiy qismi hisoblanmish milliy g‘urur, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy ong singari yuksak insoniy fazilatlarning shakllanishi zamonaviy yo‘llari va barqarorlashishiga xizmat qiluvchi jihatlarni tadqiq qilishimiz ayni muddaodir. Shu maqsadda shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlarini o‘rganish va tahlil qilish tadqiqotimizning maqsadi sifatida belgilandi.

Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

– shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishida muhim ahamiyatga molik psixologik omillar xususiyatlarini o‘rganishda asos bo‘luvchi psixologik mexanizmlarni ilmiy-nazariy jihatdan qiyosiy va tahliliy xususiyatlarini tadqiq qilish; – shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishida psixologik bilim, ko‘nikma, ustanovka va motivlar rolini aniqlash;

– shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari bilan bog‘liq empirik ma’lumotlar to‘plash va uning natijalarini tegishli psixologik mezonlar asosida tahlil qilish;

– shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlariga taalluqli konsepsiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq qilish. Shaxslarda mafkuraviy immunitetning mavjud holati tahlili ushbu muammoni aynan psixologik jihatdan o‘rganishni taqozo etmoqda, binobarin, mafkuraviy immunitetni o‘rganish muammosi nafaqat psixologiya fani taraqqiyoti uchun, balki o‘quvchi-yoshlarning o‘sib borayotgan ma’naviy ehtiyojlarini o‘rganish va milliy istiqlol g‘oyasiga nisbatan ularda qiziqish hamda ijobiy munosabatni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan g‘oya inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatiga ko‘ra juda muhim hisoblanadi. Inson o‘zi g‘oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O‘zi yaratgan g‘oyalar insonning ongi va shuuri, tafakkuri va e’tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Yuksak insonparvar g‘oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari yetaklaydi. Bizning tadqiqotimizda ham g‘oyalari aniq va sog‘lom yetuk va insonparvar, e’tiqodi butun, qadriyatlari yuksak shaxslarni bugungi o‘ta tezkor globallashuv muhiti uchun zarurligi va ular kelajak avlod uchun shaxsiy ma’naviy namuna bo‘lishlari, shu asosida har qanday yot g‘oyalarga qarshi kurashuvchan mafkuraviy immuniteti barqaror shakllangan shaxslarni tarbiyalash masalasiga psixologik jihatdan yondashilgan. Insoniyat taraqqiyotga intilar ekan, unda bunyodkorlik hissi mavjud ekan, ilg‘or g‘oyalar dunyoga kelaveradi. Bosqinchilik, talonchilik intilishlari buzg‘unchilik g‘oyalari ta’sirida yuzaga chiqadi. Shu boisdan ham bunday zararli g‘oyalarga qarshi kurashga doimo tayyor turish, yot g‘oya va mafkuralardan ogoh bo‘lish har jihatdan hayotiy zarurat bo‘lib qolmoqda.

Mamlakatimizning ko‘p millatli xalqi ongida «O‘zbekiston – yagona Vatan» degan tushunchani qaror toptirishning psixologik mohiyati milliy istiqlol mafkurasining muhim vazifalaridan biridir. Bunda «Yagona Vatan» g‘oyasi o‘zining tub mohiyati bilan milliy

mustaqilligimizga putur yetkazadigan mahalliychilik, oshna-og‘aynigarchilik illatlarini tag-tomiri bilan yo‘qotish, yurtimizda yashayotgan turli xalq va millat vakillarida yagona vatan farzandi ekanligi bilan faxrlanish tuyg‘usini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy istiqlol mafkurasi donishmand xalqimizning «kuch – birlikda», «birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar» kabi maqol va hikmatli so‘zlarining mohiyat va mazmunini teranroq anglashga yordam beradi, shaxslarda vatanparvarlik, insonparvarlik, qonunni hurmat qilish, el-yurt xizmati uchun doimo shay turish, iymon-e’tiqodli, insof-diyonatli, saxiy va halol bo‘lish kabi olijanob fazilatlarni tarbiyalaydi. Vatanning sajdagoh singari muqaddasligini teran anglash, fidokorona mehnati bilan rizq-ro‘z bunyodkori bo‘lgan zahmatkash xalq, ona-zamin, tarix va madaniy meros, ajdodlar merosiga hurmat hissini tarbiyalaydi.

Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun fidoyilik iymon-e’tiqodli ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan buyuk merosdir. Mafkuraviy ta’sirning yana bir muhim xususiyati borki, u ham bo‘lsa, muayyan qarashlar tizimini birdan, bir vaqtning o‘zida ifoda etishga intilmaslik. Chunki psixologik jihatdan qaralganda oddiy tinglovchi ayrim-alohida fikrlar orqali o‘sha mafkuraviy tizimning tub mohiyatini anglab olishi mumkin. Biz tadqiqotimiz davomida mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlaridan biri hisoblangan shaxslardagi ezgu g‘oya va e’tiqodni shakllantiruvchi omillar haqida ham ma’lumotlarni psixologik jihatdan tahlil qildik. Inson e’tiqodsiz, g‘oyasiz, fikrlashsiz yasholmaydi. Shaxs va uning e’tiqodi masalasi muhim muammolardan biri bo‘lib, uning shakllanishi mohiyatan ijtimoiy-psixologik omillarga bevosita bog‘liq deb qaraladi. Bu masalaga e’tiborning ortib borayotgani boisi shundaki, shaxsdagi mafkuraviy immunitet shakllanishida undagi ezgu g‘oya va iymon-e’tiqod muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar biz yoshlarimizda bolalikdan boshlab sog‘lom e’tiqod va yuksak dunyoqarashni shakllantira olsak, ular kuchli, barqaror mafkuraviy immunitetga ega, ma’naviyati boy, mustaqil fikrli va olijanob shaxslar bo‘lib kamolga yetadi. Shu ma’noda, shaxs e’tiqodi undagi shunday barqaror va teran fikr, tasavvurlar, bilimlar majmuiki, mafkuraviy dunyoqarash hamda milliy g‘oyalar aslida ana shunday e’tiqodlar asosida shakllanadi. Shaxs ma’naviyatini belgilovchi boshqa ko‘plab psixologik birliklardan farqli o‘laroq, e’tiqod va dunyoqarash nisbatan barqaror va uyg‘un bo‘lib, uni osonlikcha, tez fursatda o‘zgartirib bo‘lmaydi. Shuning uchun uning tabiatini o‘rganish uning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatish omillarini aniqlash masalasi bilan bevosita bog‘liqdir.

Shaxs kamoloti jarayonida uning turli ziddiyatlar va zararli e’tiqodlarga berilish holati ham kuzatiladi. Masalan, psixologiyada etnik ziddiyatlar hamda diniy e’tiqodlar shakllanishi va o‘zgarishiga katta e’tibor berib, ushbu jarayonga xos umumiy konuniyatlarni tadqiq va tahlil qilish umumiy psixologiya, etnopsixologiya, shaxslararo munosabatlar psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, ochiq axborot tizimlarida axboriy psixologik xavfsizlik kabi psixologiya sohalarining asosiy o‘rganish predmeti hisoblanadi. Masalan, psixologiya fanlari doktori, professor E.G‘oziyev o‘zining «Psixologiya metodologiyasi» deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasida etiqodning shakllanishi, shaxslarni e’tiqodga nisbatan munosabatlarining shakllanish iyerarxiyasi, shaxslar mafkurasining namoyon bo‘lishi kabi tushunchalarni ilmiy tahlil qiladi.

Shaxslarda e’tiqod shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni quyidagicha tasniflash mumkin:

– shaxsning psixologik jihatdan o‘zligini anglaganlik darajasi;

– shaxsning individual psixologik xususiyatlari;

– shaxsning ideal muhitlari; – ta’sir ko‘rsatuvchi manba – shaxs yoki guruh, boshqacha qilib aytganda, kommunikatorlar; – ta’sir mazmuni yoki ma’lumotlar; – ta’sir vositasi yoki ma’lumot

yetkazuvchi tarmoqlar; – ta’sirni qabul qiluvchi yoki auditoriya. Xullas, mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlarini tadqiq qilganimizda insoniyat tarixi xilma-xil g‘oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, birbiri bilan munosabatidan iborat uzluksiz jarayon ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Bu jarayonda turli g‘oyalar u yoki bu kuchlarga xizmat qilishi, o‘ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon yetaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi. Ezgu maqsadlarga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g‘oyalar asos bo‘lsa, vayronkor g‘oyalarga tayangan mafkuralar xalqlar va davlatlarni tanazzulga yetaklaydi, odamlar uchun son-sanoqsiz kulfatlar keltiradi. Bu esa, o‘z navbatida, g‘oyaviy jarayonlar tarixini o‘rganish, ular zamiridagi mazmun-mohiyatni bilib olishni zaruriyatga aylantiradi. Shunday qilib, shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlarini o‘rganish orqali yosh avlod qalbiga milliy g‘urur, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy ong kabi yuksak insoniy fazilatlarni singdirish uchun g‘oyaviy chiniqtirishning ayrim psixologik mexanizmlarini maxsus tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish va tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanishiga guvoh bo‘lamiz. Zero, shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlarini o‘rganish muammosi nafaqat psixologiya fani taraqqiyoti uchun, balki o‘quvchi-yoshlarning o‘sib borayotgan ma’naviy ehtiyojlarini o‘rganish va milliy istiqlol g‘oyasiga nisbatan ularda yuksak qiziqish hamda ijobiy munosabatni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Milliy istiqlol g‘oyasini yoshlar ongiga singdirishning psixologik yo‘llari, ularda kuchli, barqaror va sog‘lom mafkuraviy immunitetni hosil qilish juda ham muhim davr talabi ekanligini tushungan va to‘g‘ri anglagan holda tadqiqotlarni kuchaytirishimiz maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonni amalga oshirishda har bir kishining faolligi, fidoyiligi, o‘z burchini mas’uliyat bilan ado etishi talab

qilinadi. Uning amalga oshirilishi esa bugungi globallashuv davrida yoshlarimiz ongini zaharlovchi ta’sirlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni barqarorlashtirish va shu asosida ma’naviyati yuksak, o‘z tarixi, o‘tmishi, milliy istiqlol yo‘lini bilgan, milliy iftixor hissini anglagan, milliy qadriyatlariga sodiq, milliy urf-odatlarini hurmat qiladigan, milliy an’analarini kelajak avlodga yetkazishga qodir, ijtimoiy meyorlarga yuksak hurmat bildiradigan barkamol shaxsni tarbiyalashni taqozo qiladi.

Shaxs ma’naviy yetukligining asosiy mezoni o‘zi mansub bo‘lgan millat va xalq tomonidan erishilgan yutuqlarni o‘zlashtira olish, ulardan faxrlanish, shuningdek, millat taraqqiyoti va Vatan ravnaqi yo‘lida mehnat qilish, kurashishda namoyon bo‘ladi. Ta’lim tizimida mafkuraviy immuniteti shakllangan shaxslar ma’lum muddatdan so‘ng faol ijtimoiy mehnat hamda yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida ishtirok eta boshlaydilar. Bu esa ma’naviyintellektual jihatdan yetuk mutaxassisning yaratuvchanlik, g‘ayrat, shijoat, fidoyilik, o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishini taqozo etadi. Yot g‘oyalardan saqlanish, milliy madaniyatni saqlab qolish uchun yoshlarning yuksak darajadagi barqaror mafkuraviy immunitetga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari masalasining zamonaviy psixologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri ekanligini amalga oshirilgan tadqiqot natijalari yaqqol tasdiqlamoqda. Zero, bir tuzumdan ikkinchisiga o‘tish, taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarilish hamma vaqt, har qanday jamiyat a’zolari, ayniqsa, yoshlarning o‘zligi, o‘tmishi va bugunini chuqur anglash, shunga asosan, kelajagini belgilashga undaydi. Bunday sharoitda barqaror mafkuraviy immunitet bilan qurollangan, o‘zligini to‘g‘ri qaror toptira olgan, o‘zligini anglab yetgan barkamol yoshlarni tarbiyalab yetishtirish XXI asr psixologiyasining asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda. Bu vazifani

muvaffaqiyatli hal qilish shu jamiyatda yashayotgan barcha insonlarning hamda har bir soha vakllarining mafkuraviy immunitet shakllanishiga qo‘shayotgan xizmat imkoniyatlari, bu sohadagi ziddiyatlarni bartaraf etish yo‘llari, shakl, usul va metodlari bilan qurollangan bo‘lishini taqozo qiladi. Shuning uchun ham kuzatishlarimiz natijasida yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari mazmuni, vosita, shakl, usul va metodlarini belgilash, bu sohada mavjud bo‘lgan tarixiy tajribalarni umumlashtirish nihoyatda dolzarb ekanligiga ishonch hosil qildik.

Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlarining asosiy vazifalaridan biri – ular o‘rtasida keng ko‘lamli yuksak psixologik ta’sir kuchiga ega ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish asosida ularda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar, jumladan, barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish yo‘lidagi barcha imkoniyatlardan samarali, unumli foydalanish hisoblanadi. Shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlarining asosiy omillaridan biri shaxslararo munosabatlarni vujudga keltiruvchi ko‘pqirrali faoliyatdir. Mafkuraviy immunitet tarbiyasi yoshlarning maqsadga muvofiq tashkil qilingan amaliy faoliyat shakli deb tushunilishi shaxsning o‘zligini anglash, milliy g‘ururlanish, milliy iftixor tuyg‘usining psixologik omillarini aniqlash zaruratini tug‘dirdi. Shaxslarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishni ilk bolalik yoshidan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishi chog‘ida barqaror ideallarni shakllantirish, hayotiy maqsadlarni belgilash uchun qulay obyektiv va subyektiv omillar yuzaga keladi. Ularda xalqning o‘tmishi, yutuqlarini bilish, bugungi kunda o‘z o‘rni, mavqei va milliy mansubligini chuqur anglab olishga intilish kuchayadi. Oqibatda yoshlarimizda milliy madaniyat yutuqlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortadi. Mafkuraviy immunitet shakllanishida yoshlarning

hissiyotida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar ulardagi milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, milliy iftixor ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim subyektiv omillaridir. Bundan tashqari, yoshlarda mafkuraviy immunitetning barqaror shakllanishida milliy mansubligiga hurmat, unda millatning yutuqlaridan g‘ururlanish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘z ustida ishlashga rag‘bat uyg‘otish, mustaqil ta’lim olishga intilishni shakllantirish va yo‘naltirish kabi qator subyektiv-psixologik omillar ham mavjudki, ularni uyg‘unlashtirish va ko‘zlangan maqsadga yo‘naltirish tarbiyaviy ish samaradorligini belgilaydi, psixologik ta’sirni kuchaytiradi.

Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda psixologik sharoit-sharoitlar va omillarning ahamiyati katta. Barkamol avlod tarbiya lashda sog‘lom muhit, yoshlar va pedagoglarning umumiy fikri, uning shakllanganlik darajasi, o‘zaro yordam, jamoa nazorati va hokazolar yoshlarda mafkuraviy immunitetning barqaror shakllanishida samarali psixologik ta’sir ko‘rsatishi, uning yo‘nalishini belgilab berishi mumkin. Shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik muhim omillaridan yana biri mazkur sohada oila, ta’lim muassasasi va mahalla hamkorligining ta’siridir. Shu sababli bu uch tarbiya subyektining mazkur sohadagi pedagogik maqsadlarini uyg‘unlashtirish va yagona tizimga keltirish yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitetni shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Oila, ayniqsa, mahallaning mafkuraviy immunitetni tarbiyalashdagi ta’siri alohida ahamiyatga ega. Shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik shakl va usullari turlituman bo‘lib, pedagoglar ulardan o‘z ish uslubiga moslarini tanlab olishlari maqsadga muvofiq. Mafkuraviy immunitetni barqaror shakllanganlik darajasini aniqlashda kuzatish, tahlil qilish, yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanganlik darajasini belgilash, individual psixologik yondashuv, baholash, rag‘batlantirish va hokazolar samarali usullar sanaladi.

Shaxslarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlari yuzasidan auditoriyadan tashqarida ham keng imkoniyatlar mavjud. Deylik suhbat, bahs-munozara, badiiy kecha va anjumanlarni rejali tarzda uyushtirish, sayohatlarni tashkil qilishda mazkur vazifa yechimiga bevosita yondashilsa (muayyan mavzu doirasida o‘tkazilsa), to‘garaklar, sport mashg‘ulotlari, musobaqalar, ko‘rik-tanlovlar, ijtimoiy foydali mehnat va boshqa faoliyat turlarida ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirish mumkin. Shaxslarda mafkuraviy immunitetni barqaror shakllantirish vositalari ichida asosiy o‘rinlardan biri shaxsning o‘zligini to‘g‘ri qaror toptira olganligi, o‘zligini anglaganlik darajasi, o‘z ustida ishlash, mustaqil bilim olishi, mustaqil fikrlay olishidan iboratdir.

Ta’lim tizimida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan o‘quv fanlari, ayniqsa, ijtimoiy va gumanitar fanlar bo‘yicha yaratilayotgan yangi avlod o‘quv adabiyotlari (o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv va metodik qo‘llanmalar) mazmunida shaxslarda mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi materiallarning yanada chuqurroq o‘rin olishiga e’tibor qaratish;

– O‘zbekiston Respublikasining Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi, Respublika Ma’naviyat targ‘iboti va «Ijtimoiy fikr» markazlari, O‘zR FA qoshidagi institutlar, O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, «O‘zbeknavo» birlashmasi, «O‘zbekkino» milliy agentligi, «Vatanparvar» tashkiloti, shuningdek, Respublika xayriya jamg‘armalari («Navro‘z», «Nuroniy», «Mahalla») o‘rtasida amaliy hamkorlikni kuchaytirish asosida yoshlarda mafkuraviy immunitetni barqaror shakllantirishning falsafiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarini keng ko‘lamda tadqiq etish;

– mavjud imkoniyatdan kelib chiqqan holda yoshlarda zamonaviy uslublar asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga oid adabiyotlarni yaratish boʻyicha tanlov oʻtkazish;

– xorijiy mamlakatlar hamda respublika ta’lim tizimida yoshlarda uzluksiz ravishda mafkuraviy immunitet barqarorlashuvining shakllanishi borasida qoʻlga kiritilgan tajribalarni oʻrganish, ularni umumlashtirish hamda ommalashtirish chora-tadbirlarini belgilash va uni amaliyotga tatbiq qilish;

– yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik mexanizmlarini oʻrganishga imkon beruvchi oʻquv mashgʻulotlari va tarbiyaviy tadbirlar (muzeylar faoliyati bilan tanishish, tarixiy obidalar hamda me’moriy yodgorliklarni oʻrganish, ma’naviyat gʻoyalarini oʻzida ifoda etgan san’at asarlari (milliy kino, teatr, qoʻshiqchilik, haykaltaroshlik, milliy hunarmandchilik namunalari va sirk tomoshalarining gʻoyaviy mazmunini anglashga yoʻnaltirilgan tadbirlar)ning amalga oshirilishiga e’tiborni qaratish;

– yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida ta’lim tizimidagi ijtimoiy va gumanitar fanlar (Milliy gʻoya va ma’naviyat asoslari, ijtimoiy psixologiya, ochiq axborot tizimida axboriy psixologik xavfsizlik, etnopsixologiya, Oʻzbekiston tarixi, klassik adabiyot, zamonaviy oʻzbek adabiyoti, xalq amaliy san’ati, milliy qoʻshiqchilik, pedagogika, falsafa, madaniyat tarixi, etika, estetika, din tarixi va boshqa) kafedralarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash;

– ta’lim muassasalari miqyosida, shuningdek, ta’lim muassasalari oʻrtasida «Ommaviy madaniyatning inson ma’naviyatiga ta’siri» mavzusidagi koʻrik-tanlov hamda «Mafkuraviy tahdidlarni bartaraf qilaylik» mavzusidagi ijodiy ishlar tanlovini tashkil etish;

– oʻquv fanlarining psixologik imkoniyatlari va oʻziga xos xususiyatlariga tayangan holda yoshlarda mafkuraviy immunitet

shakllanishining psixologik mexanizmlari jarayoni monitoringini olib borish;

– ta’lim tizimida yoshlarda mafkuraviy immunitetni barqaror shakllantiruvchi xususiyatga imkon beruvchi doimiy harakatdagi psixologik seminar-treninglar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

– ta’lim muassasalari qoshidagi Respublika «Kamolot» ijtimoiy harakatining boshlang‘ich tashkilotlari ish rejasida uzluksiz tarzda yoshlar mafkuraviy immunitetining barqaror shakllanishiga xizmat qiladigan tadbirlar majmuasini kuchaytirish;

– ommaviy axborot vositalarida (televideniye, radio, matbuot) shaxslarda mafkuraviy immunitetning barqaror shakllanishining psixologik mexanizmlari, yot g‘oyalarga qarshi tura olishning psixologik yo‘llari, ommaviy madaniyatning inson ma’naviyatini tanazzulga olib kelishi ijtimoiy-psixologik kutilmasi, ochiq va yashirin mafkuraviy tahdidlarga qarshi yoshlarimizni tayyorlashning psixologik xususiyatlari kabi holatlarning pedagogik, psixologik korreksiyasiga yordam beruvchi materiallarning berib borilishiga erishish.

Mafkuraviy immunitet ma’naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni, har qanday reaksion, buzg‘unchi xarakterdagi g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo‘l keladi. U davlat va millatning ma’naviy birligi, ma’naviy sog‘lomligini himoya qiluvchi g‘oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Yoshlar tarbiyasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayoni muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Uzluksiz ta’lim tizimida milliy mafkurani shakllantirishga har bir bosqichning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, maktabgacha tarbiya muassasalarida va boshlang‘ich ta’lim jarayonida yosh avlodning pedagogik va psixologik xususiyatlariga asoslanib mashg‘ulotlar, «Odobnoma» darslarida va darsdan tashqari tadbirlar davomida milliy g‘oya haqida dastlabki tushunchalar berib boriladi. Ayni shu davrning, ya’ni o‘smirlik

davrining oʻziga xos ekanligi va bu davrda inson kelajagini belgilab beruvchi xususiyatlar shakllanishini inobatga olgan holda 7–9-sinf oʻquvchilarida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida eʼtibor qaratish lozim. Chunki oʻsmirlik davrida oʻquvchilar yangiliklarga, oʻzgacha turmush tarziga intiluvchan boʻladilar va ularni turli yot gʻoyalar taʼsiridan faqat taqiqlar bilan emas, balki milliy mafkurani shakllantirish, mafkuraviy immunitet orqaligina asrab qolish mumkin boʻladi.

Milliy mafkura oʻquvchilar ongu shuurida asriy milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning bugungi va kelgusidagi manfaatlarini ifodalovchi eng sogʻlom fikrlar tarzida oʻz ifodasini topishi lozim. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil gʻoyani zoʻr berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish, zararli gʻoyalarga qarshi hushyor va ogoh boʻlish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. Manfaatlar bor yerda muqarrar ravishda gʻarazli, nopok gʻoyaviy niyatlarni amalga oshirish uchun intilishlar ham boʻladi. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni tarbiyalashda ijtimoiy fanlar muhim rol oʻynaydi.

Gʻoyaviy immunitetni shakllantirish gʻoyaviy tarbiyaviy ish samaradorligining muhim mezoni hisoblanadi. Mafkuraviy immunitet insonning Vatan va xalq manfaatlari yoʻlidagi faoliyatida namoyon boʻladi. Mafkuraviy immunitet erkin, mustaqil fikrlashni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni, insonparvarlikni kundalik hayotiy faoliyatga aylantirishni taqozo etadi. Hozirgi kunda diniy ekstremizm mafkurasiga, qoʻporuvchilik-terrorchilikka qarshi kurashdagi asosiy vazifa – aholi oʻrtasida, ayniqsa, yoshlar bilan olib boriladigan targʻibottashviqot va tarbiyaviy ishlarni izchil, chuqur oʻylangan tizim asosida tashkil etish va ularning taʼsirchanligini keskin kuchaytirishni bugun boshimizdan kechirayotgan hayotning oʻzi taqozo etmoqda.

Har bir kishi yoki jamoa, jamiyat mafkuraviy immunitetni besh darajaga bo‘lib o‘rganish, baholash, uni shu asosda takomillashtirishi mumkin:

1. Mafkuraviy immunitetning quyi darajasi – shaxs, jamoa, jamiyat yuqoridagi bilimlardan xabardor emas, buzg‘unchi mafkuraviy g‘oyalarga befarq, loqayd.

2. Bilimlar bor, lekin ular his qilinmagan, tizimlashmagan, shu sababli odamlar ularni buzg‘unchi mafkuraviy g‘oyalarga qarshi ishlatishga tayyor emas.

3. Kishilar mafkuraviy bilimlarga ega, lekin ularni qo‘llashga qiynaladi.

4. Shaxs asosli bilimlarga ega, vaziyatni to‘g‘ri baholay oladi, ichki va tashqi siyosiy, mafkuraviy ta’sirlarga qarshi immunitet shakllangan va uni ongli ravishda ishlatadi.

5. Oliy darajali inson – mukammal g‘oyaviy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarga ega va bu bilimlarni bemalol amalda qo‘llab, buzg‘unchi mafkuraviy, siyosiy g‘oyalarni doimo hamma joyda fosh qila oladi.

Ta’lim jarayonida interfaol usullardan keng foydalanish, shuningdek, ma’naviyma’rifiy ishlarni zamon talabida tashkil etish, targ‘ibot-tashviqotning eng samarali yo‘llaridan foydalanish o‘quvchilarning mafkuraviy immunitetini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, targ‘ibot-tashviqotning ta’sirchanligini oshirishda quyidagi usullarni qo‘llash kutilgan samarani berishi mumkin: - birinchidan, targ‘ibotda murakkab, chalkash, mavhum fikrlardan foydalanish samarasizdir. Mazmun qanchalik sodda, aniq tushuntirilsa, ta’siri shunchalik yuqori bo‘ladi; - ikkinchidan, inson ko‘proq hissiy ta’sirga moyil bo‘ladi, shuning uchun uning aqlidroki bilan bir qatorda, his-tuyg‘ularga ham murojaat qilish yaxshi samara beradi; - uchinchidan, dars uchun foydalaniladigan materiallar chuqur o‘ylangan, mantiqiy izchil, ijodkorona ishlab chiqilgan bo‘lishi darkor; - to‘rtinchidan, bilim o‘zlashtirishdagi qudratli usul – takrorlashdan foydalanish zarur; -

beshinchidan, mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishlarining samarasini oshirish uchun noan’anaviy usullarni qo‘llash va ilg‘or tajribalarni keng yoyish talab etiladi.

Yana bir fikr: mutaxassislarning ta’kidlashicha, kishilarni faollikka chaqiradigan, harakatga undaydigan tashviqot ko‘proq samara beradi. Shuning uchun «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» yoki «Vatanni sevmoq iymondan», «Vatan ostonadan boshlanur» g‘oyalari bilan bir qatorda «Vatan uchun xizmat qilish mening burchimdir» degan g‘oyani ham targ‘ib qilish zarur. Hozirgi paytda yoshlarga qaratilgan mafkuraviy tahdidlarning turlari ko‘payib borayotgan paytda ma’naviy-ma’rifiy ishlarga tizimli yondashuv asosida ma’rifiy natijani kafolatli loyihalashtirish va amalga oshirish vazifasi bajarilishi lozim. Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta’limtarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniye, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va haykaltaroshlik san’atigacha, bir so‘z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta’sir o‘tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma’naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur.

Tizimli yondashish ma’naviy-ma’rifiy ishlar dasturlarida ko‘zda tutilgan, loyihalashtirilgan natijani kafolatlashga qaratilgan pedagogik operatsiyalar, vositalar, metodlar zanjiri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tizim mavjud holatni ma’naviy diagnostik o‘rganish, mazmunan boyitib, takomillashtirib borish orqali zamon talablariga to‘la javob bera olishini ta’minlash tamoyiliga asoslanadi. Bu esa amalga oshiriladigan har bir ta’lim-tarbiyaviy chora-tadbirning aniq natijasini kafolatlay olishiga e’tiborni qaratish, maqsadga muvofiq amalga oshirilishini nazorat qilish va samaradorligini aniq qayd qilib borishni talab etadi. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi tizimning asosiy tavsiflari sifat va samaradorlik hisoblanadi. Tizim samaradorligini ta’minlash uchun

javobgarlik har bir ta’lim muassasasi rahbari zimmasiga yuklatiladi va tizim amaliyoti natijalari izchil ravishda ilmiy, pedagogik kengashlar yig‘ilishlarida muhokama qilib boriladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, mafkuraviy immunitetni shakllantirish siyosiy tarbiya, mehnat tarbiyasi va axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Mafkuraviy faoliyat ana shunday yaxlit tizim shakliga keltirilgandagina mukammallik kasb etadi.

Tayanch so‘z va iboralar.

G‘oya, g‘oya shakllari: diniy, badiiy, ilmiy, falsafiy g‘oyalar, ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar, milliy g‘oya, mafkura, mafkuraning tarixiy shakllari, monizm, dualizm, plyuralizm, materializm, idealizm, shovinizm, fashizm, bolshevizm, aqidaparastlik, immunitet, mafkuraviy immunitet, milliy qadriyat.

Tavsiya qilingan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. – 104 б

2. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин. – Т.: «Ўзбекистон», 1998.

3. Каримов И.А. Миллий мафкура – давлатимиз ва жамиятимиз қурилишида биз учун руҳий-маънавий куч-қувват манбаи. – Т.: «Ўзбекистон», 2000.

4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008.

5. Ўраев Ж.Н. Мафкуравий иммунитет. – Т.: «Маънавият», 2001.

6. Каримова В. Тарғиботнинг психологик услублари. – Т.: «Маънавият», 2001.

7. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya.- Toshkent.: Movaraunnahr, 2016. -373 bet

8. Отамуротов С., Мамашокиров С., Холбеков А. Марказий Осиё: ғоявий жараёнлар ва мафкуравий таҳдидлар. – Т.: «Янги аср авлоди», 2001.

9. Чориев А., Мансуров А. Ғоя, тарих ва миллий тафаккур. – Т.: «Янги аср авлоди», 2002.

10. Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. – Т.: «Ўзбекистон», 2012.

11. Ғозиев Э.Ғ. Психология методологияси. Ўқув қўлланма. – Т.: «Ношир», 2013.

3-MAVZU. MAFKURAVIY TARBIYA YO‘NALISHLARI VA FUNKSIYALARI

REJA

1. Targ‘ibot va tashviqot tushunchasi. Milliylik.

2.Zamonaviy multimedia va OAV lari – ijobiy va xatarli jihatlari.

3. Mafkuraviy tarbiya va unga bo‘lgan ehtiyojning ortishi.

4. “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir”.

Jahonda yuz berayotgan turli jarayonlar, raqobat muhitida mafkuralar o‘rtasidagi kurash tobora keskinlashayotgan vaqtda ma’naviyat va ma’rifat masalasi dolzarb ahamiyat kasb etayotgani sir emas. Shuni chuqur anglagan holda mamlakatimizda mazkur yo‘nalishda turli loyihalar, islohotlar amalga oshirilmoqda, yangi qarorlar e’lon qilinmoqda. Ziyolilar ogohlikka chaqirilib, kelajak avlod tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashishi kerakligi bot-bot ta’kidlanmoqda. Yanada aniqroq aytsak, ma’naviyat hayot-mamot masalasiga aylanib ulgurdi.

Shu bois Prezidentimizning bu yil 26 martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini olim va ziyolilar, yurt kelajagiga befarq bo‘lmagan ham bir odam katta xursandlik bilan kutib oldi. Mazkur qaror ijrosi bilan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan qator tizimli muammolarga yechim topiladi.

Kelajagini o‘ylagan har qanday davlat yoshlariga imkoniyat bilan birga shart-sharoit ham yaratib beradi. Shuningdek, ularning ma’naviyatini yanada oshirish, ma’rifatli, ziyoli bo‘lib voyaga yetishida ham ko‘makchi bo‘ladi. Mazkur qarorda ham aynan shu jihatlarga alohida e’tibor qaratilgan. Ta’lim tashkilotlarida madaniy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha yangi tartib joriy etilishi ko‘zda tutildi. Har bir umumta’lim muassasasida ijtimoiy-

madaniy masalalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimi joriy etilyapti. Ularga davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 0,5 ish birligi ajratiladi. Ish haqi miqdori esa oliy ma’lumotli o‘qituvchi uchun o‘rnatilgan ba’zaviy tarif stavkasi miqdorida belgilanadi. Xo‘sh, bu bizga nima beradi? Avvalo, har bir ta’lim dargohidagi bolalar e’tiborda bo‘ladi. Yosh avlod ma’naviyatini yanada oshirishga mas’ul hisoblanadi. Shu bilan birga o‘g‘il-qizlarning muammolari bilan ham qiziqib, yechim topishda ularga ko‘maklashadi.

Qarorda bu kabi ko‘ngilni ko‘taradigan, ma’naviyatimizni yuksak darajaga olib chiqish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar, yo‘l-yo‘riqlar ko‘p. Muhimi, endi soha vakillari ham tashabbusni kuchaytirishi, boshqalarni ergashtira olishi zarur. O‘z ustida ishlashi, yangi metodlarni o‘rganib, hayotga tatbiq etishi ham muhim. Albatta, bu borada o‘z yechimini kutib turgan masalalar talaygina. Binobarin, odamlar ongiga milliy g‘oyaning mohiyatini to‘liq va samarali usul bilan yetkazish ham oldimizda turgan dolzarb masalalardan biri. Ayniqsa, yangilanishlarga yuzaki qaraydiganlar dunyoqarashini o‘zgartirish, shukronalik hissini yanada kuchaytirish ham zarur. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: bunga qanday erishish mumkin?

Bu borada Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi qoshida tashkil etilgan “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Jamiyatda barcha vazirliklardan tavsiya qilingan nomzodlar, davlat va jamoatchilik vakillari, olim-ziyolilar, mutaxassislar, madaniyat va san’at arboblaridan iborat maxsus targ‘ibotchilar, guruhi shakllantirilgan. Respublika miqyosida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot va tashviqot ishlariga jalb etish, sohaga yangicha yondashuvni tatbiq qilish, targ‘ibotchilarni moliyaviy va ma’naviy rag‘batlantirib borish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, ularning ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot tadbirlaridagi ma’ruzalariga haq to‘lash hamda “Yilning eng faol ma’naviyat targ‘ibotchisi” ko‘rik-tanlovi,

“Ma’naviyat fidoyisi” ko‘krak nishoniga tavsiya etish tizimi ham yaxshi samara bermoqda.

Ko‘pchilikning xabari bor: jamiyat tomonidan “Ma’naviyat festivali” o‘tkazib kelinmoqda. 2019 yilda festival doirasida respublikamizning barcha hududida ish olib borildi. O‘ndan ortiq loyiha hayotga tatbiq etildi. “Ma’rifat tur” loyihasi yettita viloyatda tashkil qilindi. “Ma’naviyat targ‘ibotchisi” respublika ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi. “Jonajon O‘zbekistonim, mangu bo‘l omon!” shiori ostida to‘rt yuzga yaqin davra suhbati tashkil etildi. Videoroliklar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoq hamda televideniye orqali yoritildi.

To‘g‘ri, bugunga qadar ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar asosan tashkilot, korxona, ta’lim muassasalarida tashkil etilganini rad etolmaymiz. Shuningdek, hayotda bo‘layotgan haqqoniy voqelikdan ham qocha olmaymiz. Masalaning yana bir tomoniga e’tiboringizni jalb etsam. Tadbirlar ko‘p bo‘lgani yaxshi, biroq son sifat ko‘rsatkichini belgilamaydi. Bu jarayonda asosiy maqsadimiz tanlangan auditoriyaga maqsadimizni yetkazib, ularning ongiga singdirishga qaratiladi. Belgilangan mavzudagi suhbatdan so‘ng odamlarga ham fikr-mulohazalarini bildirish imkonini qoldirish shart, deb o‘ylayman. Shunday qilish kerakki, tadbirdan so‘ng qatnashuvchilarda mavzu bo‘yicha savol tug‘ilmasin. Balki ular olgan taassurotlarini qarindosh-urug‘lariga, qo‘shnilariga yetkazib, targ‘ibotchilarning ko‘makchisiga aylansin. Albatta, yuqoridagi kabi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bugungi islohotlarning mazmun-mohiyatini yetkazishga ham xizmat qilishi shart. Bularning barchasi esa samarali va ta’sirchan targ‘ibot texnologiyasini yaratish orqali amalga oshadi.

Buni yaxshi bilgan, anglagan “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati tashkil etilayotgan har bir aksiya, ma’rifiy tadbirlarda yuzakilikdan voz kechib, odamlarga qalban yaqin bo‘lishga harakat qilmoqda. Avvalo, tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilgan har bir hudud o‘rganilib, odamlar tabiati, o‘sha yerdagi ijtimoiy muammolardan kelib chiqib,

qaysi loyiha amalga oshirilishi belgilanmoqda. Bu jarayonda ziyolilar, olimlar, mutaxassislar ko‘magiga tayanilmoqda. Prezidentimizning yuqorida keltirilgan qarorida ham sohalar va hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda aniq maqsadga yo‘naltirilgan targ‘ibot-tashviqot dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish zarurligi ko‘rsatilgan. Tajribadan kelib chiqib aytishim mumkinki, odamlar bir xillikdan, ma’ruza tinglashdan charchagan. Ularga tadbir maqsadini yangicha uslubda, axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda yetkazish ham yaxshi natija beradi.

Joriy yilda ham milliylik va zamonaviylik uyg‘unlashgan “Ma’naviyat festivali”ni o‘tkazishga katta tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Bunda ham Prezidentimizning mazkur qarorida belgilangan vazifalarga alohida urg‘u berilmoqda. Shuningdek, jamiyatimizdagi ma’naviyatga oid barcha masalaga jiddiy qarab, kelgusidagi chora-tadbirlarni shunga mos ishlab chiqamiz.

2.Zamonaviy multimedia va OAV lari – ijobiy va xatarli jihatlari.

Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining muhim elementi:

- Fuqarolarni ular uchun ahamiyatli voqealar haqida dolzarb va ishonchli axborot bilan ta’minlaydi
- Shaxsni ijtimoylashuviga xizmat qiladigan ma’rifiy, ta’lim va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshiradi
- Ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi mavjud muammolar haqida jamoatchilik fikrini umumlashtirish va ifoda qilishda ishtirok etadi
- Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyatini tanqid va nazorat qiladi.
- OAV fuqarolik jamiyatida turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida muloqat vositasi hamda ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilish quroli hamdir

 Ommaviy axborot vositalari jamiyatni uyushtirish, jipslashtirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish imkoniyatiga ega.

Mustaqillik yillarida erkin ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun zarur bo‘lgan huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitlar shakllandi. OAVning fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlantirish yo‘lidagi islohotlar izchil davom etmokda. Diqqatga sazovor muhim tomoni shundaki, erkin OAVni rivojlantirmay turib, fuqarolik jamiyati qurish va inson erkinligi, huquqlarini ta’minlash mumkin emasligini jamoatchilik anglab etdi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda so‘z va matbuot erkinligini ta’minlash masalasi alohida o‘rin egallashini nazarda tutib Birinchi Prezident Islom Karimov shunday deydi: «Jamiyatimizni yanada rivojlantirish va sifat jihatidan yangilash borasidagi eng muhim ustuvor yo‘nalish - bu inson huquqlari va erkinliklarini, so‘z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda o‘tkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta’minlaydigan demokratik tamoyillarni so‘zda yoki qog‘ozda emas, amaliy hayotda joriy qilishdir, desak, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi».

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi axborot sohasini liberallashtirish, so‘z erkinligini ta’minlashda ham yangi bosqichni boshlab berdi. O‘tgan yillar davomida ushbu sohada keng qamrovli islohotlar, ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu borada axborot vositalarifaoliyatiga oid mukammal huquqiy baza yaratilganligini va u insonlar uchun axborot olish sohasida erkinlik va huquqlarini ta’minlashda muhim rol o‘ynayotganligini alohida qayd etish zarur.

Avvalo, mamlakatimizda axborot sohasida olib borilayotgan siyosat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan ommaviy axborot vositalari erkinligi va qonunlarga muvofiq faoliyat yuritishihar kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligiga, hamda o‘zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga egaekanligi

haqidagi meyorlarni izchillik bilan va to‘laligicha ta’minlanishi asosida amalga oshirilishini qayd etish zarur.

Shu ma’noda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyatidagi roliga alohida to‘xtalib: “Ochiq va kuchli fuqarolik jamiyatini bugungi kunda erkin ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlangan tizimisiz tasavvur etib bo‘lmaydi... ularning faoliyati samaradorligini oshirishni ta’minlaydigan zarur meyoriy-xuquqiy baza, iqtisodiy va huquqiy kafolatlar yaratilgani ham bu sohadagi katta ishlarimizdanbo‘ldi”, deb ta’kidlagani bejiz emas. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarning tahlili bu sohaga oid huquqiy bazani takomillashtirish izchil va tizimli tarzda amalga oshirib borilganligini ko‘rsatmoqda. O‘tgan yillarda mamlakatimizda yaratilgan huquqiy makon va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida bosma nashrlar soni ko‘paydi, xususiy gazeta va telestudiyalar tizimi yuzaga keldi.

1. Fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida axborot sohasini isloh qilish, so‘z va axborot erkinligi.

Axborot erkinligini ta’minlaydigan konstitutsiyaviy meyorlar ommaviy axborot vositalari faoliyatini va umuman axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa qonunlarda ham takomillashtirilgan.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, demokratik jarayonlar ancha chuqurlashgan, bunga mos matbuotga ega bo‘lgan rivojlangan mamlakatlarda so‘z va fikr erkinligi asta-sekin o‘z oqimi bilan kirib kelgan. Jamiyatni tubdan isloh qilish, asrlar mobaynida shakllanib qolgan tushunchalarni sindirish, hur fikrlilikni turmush tarziga aylantirish maqsadida ana shunday qonunlarning qabul qilinishi O‘zbekiston uchun katta siyosiy, madaniy, qolaversa, huquqiy voqea bo‘ldi. Ayni paytda u axborot sohasini jahon andozalariga moslashtirish, fuqorolarni erkin fikrlashga o‘rgatish va shu asosda

jamiyatni sog‘lom fikrlar asosida qaytadan qurish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligini ko‘rsatadi.

Mustaqillik davrida mamlakatimizdagi OAV larining qiyofasi, tizimdagi tarkibiy o‘zgarish va yangilanishlar quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

OAVning soni va sifati keskin ortib bormoqda. 1991 yilda OAV umumiy soni 395 ta bo‘lgan bo‘lsa,1994 yilda Respublikada 475 ta OAV, ulardan 384 ta gazeta, 66ta jurnal, 19 ta telestudiya, 3 ta kabel televideniyasi, 2 ta radiostudiya va bitta agentlik faoliyat ko‘rsatgan. bugunga kelib, 1,4 mingtaga yaqin ommaviy axborot vositalari O‘zbekiston matbuot va axborot agentligida ro‘yxatga olinganligini aytish zarur. Ulardan 709 gazeta, 289 jurnal, 95 TV i radio. Bosma nashrlar, tele- i radiokanallar bilan bir vaqtda publitsistik faoliyatni veb-saytlar hamolib bormoqdalar.

Mustaqillik yillaridamamlakatimizda davriy bosma nashrlarning internet versiyalari, internet jurnalistika vujudga keldi va u jadallik bilan rivojlanib bormoqda. So‘nggi besh yil ichida ularning soni 2 barobardan ortdi.1 yanvar 2015 yil holatiga ko‘ra, internet ommaviy axborot vositalari 304 tani tashkil etdi.

So‘nggi o‘n yil ichida mustaqil bosmaOAV larining soni 2,5 marta, mustaqil elektron OAVlarning soni esa 7 barobar oshdi.5 Mavjud barcha telekanallarning qariyb 53 foizi, radiokanallarning esa 85 foizinodavlat ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Bu esa erkin axborot bozori, bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan mustaqil nashrlar soni ko‘payib, raqobat muhiti shakllanganlidan dalolat beradi.

Respublikamizda istiqomat qilayotgan ko‘p millatli mushtariylarning talab va istaklari inobatga olingan holda bosma ommaviy axborot vositalari 12 ta tilda nashr etilmokda, televidenie va radioda ham bu amaliyot qo‘llanilmokda, eshittirish va ko‘rsatuvlar qardosh xalqlar tillaridan tashqari rus, ingliz tillarida

ham efirga uzatilib, veb-saytlar o‘zbek, rus va ingliz tillarida faoliyat yuritadi;

Bugun respublikamizdagi ommaviy axborot vositalari siyosiy - ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, ta’lim-tarbiya, xotin-qizlar, ijtimoiy-ma’rifiy, iqtisodiy-ijtimoiy, sport, ma’naviy-ma’rifiy va shu kabi boshqa ko‘plab sohalar bo‘yicha chiqarilmokda.

Davlat va jamoat tashkilotlari ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda nodavlat ommaviy axborot vositalari va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qancha tashkilotlar tizimi yaratildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini ko‘llab-kuvvatlash Jamoat fondi, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi, O‘zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Jurnalistlarni tayyorlash xalqaro markazi shular jumlasidandir.

Xalqaro hamjamiyatni mamlakatimiz hayoti, islohotlarni amalga oshirish borasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar to‘g‘risida xabardor qilish, aholining axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hamda fuqarolar va davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni kuchaytirish maqsadida hozirgi kunda internet tarmog‘ida deyarli barcha davlat organlarining veb- saytlari joylashtirilgan. Davlat organlari veb-saytlaridan tashqari boshqa veb-saytlarning soni ham oshib borayotganligini alohida qayd etish zarur. Xususan, veb-saytlarning soni 2002 yildagi587dan 2010 yil fevral oyida milliy internet makonida 10 mingta veb - sayt ro‘yxatga olingan, 2015 yil iyun oyi holatiga ko‘ra esa, ularning soni 21,86 mingtaga etdi.

Sohaga zamonaviy texnologiyalar izchil joriy etilishi natijasida tizimga raqamli, mobil va internet televidenie kabi mutlaqo yangi mediatuzilmalar kirib kelmoqda. Global tarmoqda 200 ga yaqin nashrlarning elektron versiyalari mavjud.

Veb-saytlarning soni oshib borayotganligi nafaqat fuqarolarimizning, balki boshqa mamlakatlarda ham Respublikamizda oʻzkazilayotgan islohotlar haqida toʻla ma’lumotga ega boʻlish uchun imkoniyatlar yaratmoqda.

Bu misollar mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini liberallashtirishga oid siyosat tizimli asosda, bosqichma-bosqich va aniq maqsadga yoʻnaltirilgan holda amalga oshirilayotganligidan dalolat beradi. Ayni chogʻda, mamlakatimizda ijtimoiy hayotning turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar oxir oqibatda ommaviy axborot vositalari ishida yangi yoʻnalishlarning paydo boʻlishi va sohaga oid qonunchilik bazasini takomillashtirishga olib keldi.

Mamlakatimizda yaratilgan qonunchilik bazasi va amalga oshirilayotgan ishlar xalqaro-huquqiy meyorlarga toʻla mos kelishini alohida qayd etish kerak. Xususan, OAV faoliyatiga oid qonunlarning tahlili ularning Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 19-moddasidagi “har kim davlat chegaralaridan qat’iy nazar har qanday axborotni olish va tarqatish huquqiga ega ekanligi”hamda boshqa halqaro hujjatda “oʻzaro tenglik va turli madaniyatlarni hurmat qilish asosida barcha davlatlar oʻrtasida ikki va koʻp tomonli axborot almashish muhim”ligi toʻgʻrisidagi meyorlarga hamohang ekanligini namoyon qilmoqda.

Mamlakat rahbari jamiyatimiz rivojida ommaviy axborot vositalarining roli haqida toʻxtalib:’Butun hayotning oʻzi oldimizga fuqarolik jamiyati institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarining oʻrni va rolini yanada mustahkamlash vazifasini qat’iy qilib qoʻymoqda. Ommaviy axborot vositalarining yanada erkinlashtirish,... olib borilayotgan islohotlar siyosatining ochiqligi va oshkorligini ta’minlashga, kuchli fuqarolik jamiyatning izchil shakllanishiga madad berishi darkor” deb ta’kidlagan.

Shu ma’noda Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da axborot sohasini isloh qilish borasidagi qonunchilik tashabbuslari ushbu sohada bosqichma- bosqich amalga oshirilayotgan tadrijiy islohotlarning uzviy davomi bo‘ldi.

Unda Yurtboshimiz axborot sohasini taraqqiy toptirish, so‘z va axborot erkinligini ta’minlashni mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab bergan.

Ma’lumki, fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini ta’minlash sanaladi. Shu nuqtai nazardan Konsepsiyada “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilish taklif etildi. 2014 yilning 6 mayida qabul qilingan bu qonunning hayotga joriy etilishi davlat hokimiyati organlari faoliyati xaqida jamoatchilikni xabardor qilib borishning huquqiy mexanizmlariniyaratib, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiqligi va oshkoraligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida jamoatchilik fikrining roli tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Fuqarolarning axborot vositalari orqali siyosiy qarorlarni qabul qilinishga ta’siri va keng ishtiroki natijasida dasturlarni amalga oshirish jarayonida OAVga murojaatlar oshib boradi. Bu esa ommaviy axborot vositalari yordamida fuqarolar va davlat boshqaruvi organlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yanada yaqinlashuvi, rivoji uchun imkoniyat yaratadi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi fuqarolarni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to‘g‘risida xolis, tezkor va to‘la-to‘kis xabardor qilishga, fuqarolarning davlat va jamiyat

qurilishi jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qilib, bu organlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda barcha zarur sharoitlarni yaratib beradi.

Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish haqidagi taklifi ham bu muammoning echimi jamiyat taraqqiyoti uchun nechog‘lik dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Bir so‘z bilan aytganda, qonunning qabul qilinishi natijasida, axborot vositalari bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o‘rtasida aloqalarni mustahkamlash orqali mediamakonni tezkor va mukammal axborot bilan to‘ldirish hamda ushbu ma’lumotlardan fuqarolarning erkin foydalana olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

XXI asrda taraqqiyotning axborot bosqichiga qadam qo‘ygan jahon hamjamiyati har sohani modernizatsiyalash va axborotlashtirish yo‘lidan bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning inqilobiy ta’siri davlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati institutlari, iqtisodiy va ijtimoiy soha, ilm-fan va ta’lim, madaniyat va odamlarning turmush tarzida kuzatilmoqda. Kompyuter texnologiyalari insonlarga o‘z salohiyatidan yanada to‘liq foydalanish imkoniyatini beradi, farovonlik darajasini oshirish, demokratiya, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadlariga erishishiga yordam beradi.

Respublikamiz ham mazkur jarayonlardan chetda qolayotgani yo‘q va global axborot jamiyatini shakllantirishda faol ishtirok etmokda. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da axborot sohasiga oid belgilangan vazifalar ham O‘zbekistonga jahon axborot makonida o‘zining munosib o‘rnini topishiga yordam bermoqda.

Ayni chog‘da, axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari va elektron kommunikatsiyaning rivojlanishi hozirgi

zamon jamiyati boshdan kechirayotgan global oʻzgarishlarni keltirib chiqarmokda. Jamiyatning asosiy institutlari hisoblangan hokimiyatlar, sogʻliqni saqlash, oila va nikoh, madaniyat, ta’lim va fan kabilar jiddiy transformatsiyaga yuz tutmoqda.

Axborot texnologiyalari asosida davlat hokimiyati organlari faoliyatining shakli va mazmuni tubdan oʻzgarmokda, davlat boshqaruvining innovatsion tizimi - elektron hukumatlar, elektron davlatlar tashkil topmokda, demokratik boshqaruvning tartib-taomillari (elektron demokratiya, toʻgʻridan-toʻgʻri foydalanish yoki tanishish demokratiyasi) takomillashib bormokda.

Axborot jamiyatida ijtimoiy institutlar jiddiy oʻzgarib borar ekan, yuz berayotgan oʻzgarishlarni oʻrganish va mushohada qilishga boʻlgan ehtiyoj ham shunga yarasha ortib boradi.

Hozirgi zamon jamiyati axborot makonining oʻzgarishi qadriyatlarning yangi tizimi, bilish va amaliyotning eng yangi ustuvorliklari shakllanishiga olib keladi. Bunday qadriyatlar va ustuvorliklar oʻz navbatida insonning jamiyatdagi xulq-atvoriga, siyosiy va iqtisodiy tizimni rivojlantirishga, deyarli barcha ijtimoiy institutlar faoliyat koʻrsatishiga jiddiy ta’sir oʻtkazadi.

Ayni bir vaqtda siyosat, iqtisodiyot va madaniyat axborotdan muayyan guruhlar manfaatlarida foydalanilishi yoki axborotni ongli ravishda buzish bilan bogʻliq turli xavf va tahdidlarga duchor boʻladi. Bunday muammolar elektron kommunikatsiyalar hukmronligi sharoitlarida rivojlanish istiqbollarini qayta mushohada qilishning dolzarbligini kuchaytiradi, shuningdek yangi turdagi axborot makoni imkoniyatlariga tegishli baho berish va uning ijobiy salohiyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga taqozo qiladi.

Shunday qilib, axborot bilan ta’minlangan jamiyat madaniyati hokimiyatning yangi turini - ilmiy bilimga asoslangan hokimiyatni shakllantiradi. Bunday hokimiyat axborot bilan ta’minlangan jamiyatning muhim, ajralmas xususiyati boʻlib, uni siyosiy, iqtisodiy,

madaniy va ijtimoiy-texnik jihatdan rivojlantirish yo‘nalishlari va parametrlarini ko‘rsatib beradi.

Mazkur vazifalarni, shuningdek o‘zgarishlar borishining butun jarayoniga jiddiy ta’sir qiluvchi muammolarni hal etish uchun davlat tomonidan axborot siyosati amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda axborot milliy resurs bo‘lib, uni saqlash, rivojlantirish va undan oqilona foydalanish davlat ahamiyatiga molik vazifa ekanligi to‘la-to‘kis anglab etilgan. Shunday qilib, hozirgi bosqichda jamiyat axborot sohasini rivojlantirishga qaratilgan va nafaqat telekommunikatsiya vositalarini, balki axborotning (ishchanlikka qaratilgan, tomoshabop, ilmiy-ta’lim yangiliklaridan xabardor qilish va shu kabi) turlarini yaratish, saqlash, ular ustida ishlash va ularni tarqatish bilan bog‘liq ishlab chiqarishlar hamda munosabatlarning butun jamlamasini qamrab oladigan soluvchi davlat siyosati shakllanib bormokda.

Shunday qilib, jahon hamjamiyatida ilg‘or mavqelarni egallashga intilayotgan davlat samarali milliy axborot siyosatini ishlab chiqishi va amalga oshirishi hamda bunday siyosatga nisbatan axborotlashgan demokratik va fuqarolik jamiyatga o‘tishni ta’minlashga davlat boshqaruvining ustuvor vazifasi sifatida qarashi kerak.

O‘zgargan axborot muhitida davlat va jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi yangi konfiguratsiya - raqamli hamishtirokchilik konfiguratsiyasi tusini kasb etmokda. Bu hol hokimiyat tuzilmalari bilan fuqarolar muloqotining hozirda amalda bo‘lgan, an’anaviy tus olgan shakllarini modernizatsiya qilish imkoniyatini, shuningdek hokimiyatlar o‘zaro munosabatlarining sifat jihatidan yangi turi - elektron hukumat va elektron demokratiyapaydo bo‘lishi imkoniyatini ham beradi. Bunday o‘zaro munosabatlarning qaror topishi davlat boshqaruvi qadriyatlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni, hokimiyat organlari faoliyatini fuqaroviy va ilmiy

ekspertizasi samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga koʻmaklashadigan ochiq demokratik jamiyat moʻljalida faoliyat olib borishni anglatadi. Hozirgi zamon siyosiy hokimiyati jamiyat taraqqiyotining avvalgi tarixiy davrlarida mavjud boʻlmagan yangi resursga - shaxs va jamiyatga mafkuraviy ta'sir koʻrsatadigan axborot-kommunikatsiya resursiga ega boʻlmoqda.

"Elektron hukumat" tizimi joriy etilishi natijasida hozirgi kunda biz davlat boshqaruvining mutlaqo yangi mexanizmlari shakllanishiga. guvoh boʻlib turibmiz.

2015 yil 18 noyabrda Oʻzbekiston Respublikasining "Elektron hukumat toʻgʻrisida" gi qonununi qabul qilindi. Bu esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida aholi manfaatlariga xizmat qiluvchi, davlat organlari bilan qulay va samarali munosabatlarni oʻrnatuvchi "elektron hukumat" tizimi izchil tatbiq etish uchun imkoniyat yaratdi.

Elektron demokratiya hozirgi kunda oʻz rivojining boshlangʻich pallasida turibdi, uning salohiyati juda katta va butun dunyoda keng muhokama qilinmoqda, elektron demokratiyani madaniyatning yangi fenomeni sifatida nazariy jihatdan mushohada qilish esa, borgan sari dolzarb ahamiyatkasb etmoqda. Raqamli hukumat, kibersiyosat, elektron ovoz berish, raqamli demokratiya, kompyuter vositasidagi siyosiy kommunikatsiya qaror topishi imkoniyatining oʻziyoq axborot jamiyati sharoitlarida siyosiy, iqtisodiy va madaniy mexanizmlar shakllarining tubdan oʻzgarishidan dalolat beradi. Insoniyat madaniyat jihatdan tub burilishga yaqinlashmokda. Bunda fuqarolarning demokratik tartib-taomillardan foydalanish borasida keng imkoniyatlarga ega boʻlishi, qarorlar qabul qilinishidafuqarolar ishtirok etishining kengayishi tufayli hokimiyat yanada sifatli, shaffof va pirovard natijada yanada samarali boʻladi.

Davlat oʻz xizmatlarini elektron vositalar orqali taqdim etish yoʻli bilan oʻz sa'y-harakatlarini oddiy fuqarolar hayoti sifatini yaxshilashga qaratayotganidan dalolat beradigan misollar koʻp.

Bugun davlat organlari tomonidan o‘z faoliyatiga axborot tizimi hamda resurslarini joriy qilish bo‘yicha jadal olib borilgan ishlar natijasida 320 dan ortiq davlat axborot resurslari va 465 dan ziyod davlat axborot tizimi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, 2013 yilda joriy etilgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali aholining uzog‘ini yaqin, og‘irini engil qiluvchi 250 turdan ortiq davlat xizmatlari elektron shaklda ko‘rsatilayotir. O‘tgan davr mobaynida ulardan 380 mingdan ziyod aholi masofadan turib foydalangan.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama etishda fuqarolarning keng ishtirokini ta’minlash maqsadida maxsus portal faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Unda ayni paytga kelib, foydalanuvchilar tomonidan 73 ta davlat organining 237 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi bo‘yicha 350 dan ortiq taklif va mulohazalar bildirilgan. Bu esa qabul qilinayotgan hujjatlarning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Axborot bilan bu kabi erkin tanishish hamda undan foydalanish tabiiy ravishda fuqarolarda siyosat va boshqaruvda muntazam ishtirok etish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bu o‘rinda elektron hukumatga nisbatan muammolarning nafaqat navbatdagi amaliy echimi, amal qilib turgantuzilmalar va ijtimoiy munosabatlarni modernizatsiya qilish, balki davlatni boshqarishning yangi usuli sifatida ham qaraladi.

Shu munosabat bilan bir qator mamlakatlarda hozirgi zamon axborot kommunikatsiyalari sharoitlariga mos keladigan qonunchilik bazasi va ma’muriy tartibga solish qoidalari (intellektual mulk, shaxsga doir ma’lumotlar, shaxsiy hayotning daxlsizligiga bo‘lgan huquqni himoya qilish vositalari) ni yanada takomillashtirishning huquqiy, siyosiy, tashkiliy va institutsional chora-tadbirlari amalga oshirilmokda. Bu borada hokimiyatning jamoatchilik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotini rag‘batlantirishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratiladi, hokimiyatning o‘zi bunday

muloqotning tashabbuskori bo‘ladi. Bugungi kunda davlat hokimiyati organlarining tuzilmasida jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bo‘linmalar mavjudligi shu bilan izohlanadi.

Siyosiy muloqotda elektron texnologiyalardan foydalanish bunday muloqot ishtirokchilaridan yuksak darajadagi axborot madaniyatiga hamda birgalikda interfaol harakat qilish madaniyatiga ega bo‘lishni talab qiladi. Ayni chog‘da, ta’lim qadri oshadi, axborot mehnatiga, “jamiyat- hokimiyat” interfaol muloqotining yangi shart-sharoitlariga eng ko‘p darajada tayyor bo‘lgan professional tahlilchilarga bo‘lgan qiziqish kuchayadi. Elektron demokratiyaning qaror topishi shaxs mediamadaniyati oshishini taqozo etadi, fuqarolarning axborot makonida taklif etilayotgan medianomalarni tanqidiy tahlil etish va ularga xolis baho berish, axborot plyuralizmining, to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish demokratiyasi amal qilishining ijtimoiy-madaniy va siyosiy qonuniyatlarining xos xususiyatlarini tushunish borasidagi qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Bu borada Davlatimiz rahbarining “Elektron hukumat” tizimini, shu jumladan, boshqaruv jarayonlari, shuningdek, biznes sohasiga va fuqarolarga davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini shakllantirish konsepsiyasi va kompleks dasturini ishlab chiqishni jadallashtirish, Axborot tizimlarining idoralararo va idoraviy komplekslarini integratsiya qiladigan milliy tizimni yaratishga alohida e’tibor qaratish lozim”degan fikrini alohida qayd etish zarur.

Fuqarolik jamiyati boshqaruv mexanizmlari takomillashuvida zamonaviy axborot texnologiyalarining roli

Shiddat bilan kechayotgan hodisa-voqealar oqimida katta hajmdagi axborotning mazmunini anglash, uni to‘g‘ri talqin etib xulosalar chiqarish nihoyatda muhimdir. Bu esa axborotni tanlash, saralash, uni to‘g‘ri idroketish madaniyatini shakllantirishkabi

insonning bevosita dunyoqarashi, salohiyati, tajribasi bilan bog‘liq xususiyatlarni kamol toptirish masalalarining dolzarbligini oshiradi.

Shu munosabat bilan global tarmokdan foydalanuvchilar auditoriyasining ko‘pchiligi yoshlar ekanligini, ularning ongini va dunyoqarashini yot mazmundagi g‘oyalar bilan zaharlashga qaratilgan ma’lumotlar Internet kontentning katta qismini tashkil etishini qayd etish zarur. Turli ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, tanishuv saytlarining faoliyat yuritishi yoshlarni o‘ziga tezda jalb qilmoqda. Hozirgi kunda turli tillarda so‘zlashayotgan yoshlar uchun Internet tarmog‘i keng imkoniyatlar yaratmokda. Ayniqsa, mobil Internetdan foydalanuvchilar auditoriyasining ortib borishi turli mazmundagi axborotlarni ochiq olish imkoniyatini yanada oshirmoqda.

Buning natijasida, hozirda dunyodagi axborot inqilobi sharoitida vujudga kelayotgan global tarmoq jamiyatlari mutasaddi va mutaxassislarni jiddiy tashvishga solayapti. Bu turdagi jamiyatlar o‘zlarini «kiberinternatsional KET», «Internet bolalari», «Internet fuqarolari (peygesh)» deb nomlashmokda. Chet ellarda ular Internet orqali yoshlarni birlashtirib, davlatning rasmiy xabarlariga qarshi chiquvchi xalqaro kiberuyushma sifatida siyosiy maydonga chiqmokda. Albatta, bunday jamiyatlarning faolligi oshib borar ekan, jahonda kechayotgan jarayonlarga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatishi aniq.

Jahon telekommunikatsiya tarmoqlari va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilayotgan xilma xil tahdidlar turli mamlakatlarda tashvish uyg‘otmokda. Ular o‘z madaniyati, an’analari va ma’naviy qadriyatlarini yot axborot ta’siridan himoya qilish uchun maxsus choralar ko‘rishga majbur bo‘lmokdalar. Bu borada jahonning ko‘pgina mamlakatlarida aholini va avvalo, yoshlarni Internetning salbiy ta’siridan himoyalash uchun normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinayotganini qayd etish zarur. Misol tariqasida xalqaro amaliyotda “Kiber jinoyatlar to‘g‘risida”

Konvensiya, “Voyaga etmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to‘g‘risida” Evropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, “Bola huquqlari to‘g‘risida” BMT Konvensiyasi mavjud.

Mamlakatimizda ham bu sohada tizimli ravishda tashkiliy-huquqiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 sentabrdagi "O‘zbekiston Respublikasiningjamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida"gi qaroriga muvofiq ta’lim va yoshlar bo‘yicha yaratilayotgan axborot resurslari yagonamilliy ta’lim tarmog‘iga birlashtirildi. Bu tarmoqning tashkil etilishi axborot xurujlariga qarshi turishda muhim omil bo‘lmoqda.

Shu bilan birga milliy qonunchiligimizda yoshlarni nosog‘lom axborotlardan himoyalash mexanizmlari mavjud. Misol uchun, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi, “Bola hukuklarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlarda yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, pornografiya, shafqatsizlik va zo‘ravonlikni namoyish etuvchi, huquqbuzarliklar sodir etilishiga tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etilishi belgilab qo‘yilgan.

Shu asosda, yoshlarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini yanada kengroq ruyobga chiqarish, ularni axborot xurujlaridan himoyalashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish borasida zarur choralar ko‘rilmoqda. Jumladan, bugungi kunda “Bolalarni ularning sog‘lig‘i va ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi tayyorlanmoqda. Ubolalarning ruhiyatiga zarar etkazadigan, jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan axborotlardan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, ommaviy axborot manbalarida zo‘ravonlik, axloqsizlik hamda

shafqatsizlikni targ‘ib qilishga. yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan amaliy-tashkiliy va huquqiy mexanizmlarni nazarda tutadi.

Xullas, yuqorida zikr etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ommaviy axborot vositalarining fuqarolikjamiyati institutlari tizimidagi o‘rni va rolini yanada mustahkamlashga, fuqarolarning so‘z erkinligini ta’minlashga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlarini yanada to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizda OAV larning barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati tamoyillarini qaror toptirishning muhim omillaridan biriga aylantiradi.

Inson, jamiyat, ijtimoiy guruh, millat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarini ifoda etadigan g‘oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga qaratilgan jarayon – mafkuraviy tarbiya deyiladi. Jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o‘z manfaat va maqsad-intilishlarini ifoda etuvchi g‘oyalar tizimini yaratgach, boshqa guruhlarni ham shu g‘oyalar ta’siriga tortishga, o‘z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qiladi. G‘oyalar adolatli va haqqoniy bo‘lib, ko‘pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari, ta’sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Jamiyat, xalq hali o‘z manfaatlarini anglab yetmagan, o‘z mafkurasini shakllantirib, maqsadlari sari safarbar bo‘lmagan hollarda begona va zararli g‘oyalar ta’siriga berilish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g‘oyaviy tarbiyani yo‘lga qo‘yish, sog‘lom mafkura tamoyillarini aholi qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi. O‘zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifalari – xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi asosiy orzu- istaklari, maqsadlarini, milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirishdir, va ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir.

Mafkuraviy tarbiya jamiyatda, avvalambor, oila, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, litsey, kollejlar, oliy o‘quv yurtlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi faoliyatini taqozo etadi. Uzluksiz ta’lim tizimi mafkuraviy tarbiyani olib boruvchi asosiy bo‘g‘indir, zero mafkuraviy maqsadlarni kishilar, ayniqsa yoshlar ongiga singdirish vazifasi, asosan ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Mafkuraviy tarbiya haqida gap ketar ekan, uning mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy ta’sir tushunchalarining o‘zaro aloqadorligini nazardan qochirmaslik lozim. Mafkuraviy profilaktika oldingi mavzularda ta’kidlanganidek, ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakldagi g‘oyaviy-tarbiyaviy, ma’naviy mafkuraviy ishlar majmui bo‘lib, u butun mafkuraviy tarbiya tizimini qamrab oladi. Xususan, ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot tizimi mafkuraviy profilaktikani amalga oshirishda yordam beradi. O‘z o‘rnida mafkuraviy profilaktika mafkuraviy tarbiyani ta’minlashda faol ishtirok etadi. Bu qisqa ta’rifdan anglash mumkinki, mafkuraviy tarbiya va mafkuraviy profilaktika tushunchalari bir-birini taqozo etadigan va to‘ldirayotgan aloqadorlikda bo‘lib, o‘zaro obyekt-subyekt, subyekt-obyekt munosabatida bo‘ladigan jarayon deyish mumkin.

Mafkuraviy ta’sir – mafkuraviy tarbiyaning eng muhim xislatlaridan biridir. Mafkuraviy ta’sirsiz (turli xil shakllari, usullari, vositalari) mafkuraviy tarbiya haqida fikr yuritish tabiiy ravishda mantiqsizlikdir. Mafkuraviy tarbiyaning samaradorligini oshirishda mafkuraviy ta’sirning obekti va subyektiga ko‘p narsa bog‘liq. Chunonchi, mafkuraviy ta’sir samaradorligi mafkuraviy ta’sir o‘tkazilishi lozim bo‘lgan kishilarning (obyekt) bilim darajasi, madaniy saviyasiga bog‘liq bo‘lsa, o‘z navbatida mafkuraviy ta’sir o‘tkazayotgan idoralar, tarbiyaviy muassasalar, targ‘ibot va tashviqotlar (subyekt) amalga oshirayotgan mafkuraviy tadbirlar mazmuni va shakliga, mafkura xodimlarning professional

mahoratiga insoniy fazilatlariga, xislatlariga bog‘liq bo‘ladi. Demak, aytish mumkinki, mafkuraviy ta’sir tushunchasi mafkuraviy tarbiyani harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Bunday o‘zaro aloqadorlik mafkuraviy tarbiyaning mag‘zini tashkil etib, mafkuraviy ta’sir doirasiga tushadigan har bir kishi o‘sha ta’sir asosida faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

XXI asrni axborot asri, axborot texnologiyalari asri deb atash tobora rasm bo‘lmoqda. Chunki asrimizda keng qamrovda va jadal sur’atlarda tarqalayotgan informatsiyalar insonning istaklarini, didini o‘zgartirishga, fikriga ta’sir qilishi aniq va muqarrar. Tan olish kerak, tomosha qilinayotgan teleserialdan tortib, bolakaylarga aytib berilayotgan ertakkacha, o‘qiyotgan kitoblarimiz ham qandaydir mafkuraviy ta’sir samarasiga ega - ularda muayyan g‘oyalar targ‘ib qilinadi.

Puxta ishlab chiqilgan strategik yo‘nalish davlatning istiqbolini belgilaydi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning taqdiri, so‘zsiz, har bir fuqaro, aniqrog‘i, insonning faolligiga bog‘liq. Bu esa islohotlarning mohiyatini xalqqa tushuntirishni talab qiladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda mafkuraning targ‘iboti «hukumat siyosatining tashviqoti» ko‘rinishida amalga oshiriladi. Davlatning bosh islohotchi ekanligi ham O‘zbekiston hukumatining siyosatini maxsus targ‘ib qilishni talab etadi. Bunday targ‘ibot islohotlarini mafkuraviy asosda ta’minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda inson ongi va qalbini zabt etish uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun yot g‘oyaviy ta’sirlarga qarshi kurashda uzilishlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday sharoitda begona g‘oyalarning qo‘poruvchi ta’siriga qarshi doimiy va uzluksiz aksiltarg‘ibotni tashkil etish muhim sanaladi. Chunki bunday mafkuraviy kurashni nafaqat mamlakatimiz ichkarisida, balki xalqaro maydonda ham olib borish talab etiladi.

Milliy istiqlol g‘oyasini singdirishning usullari, texnologiyalari, ustuvor yo‘nalishlari XXI asrda insoniyat o‘z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo‘yganligi bilan baholanishi lozim. XXI asrda ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini misli ko‘rilmagan darajada o‘stirib yubordi. Biroq, yangi texnologiyalar faqat sanoat va qishloq xo‘jaligida qo‘llanilmayapti, balki ma’naviy-mafkuraviy jarayonlarda ham shu nuktai-nazardan yondashish milliy istiqlol g‘oyasini targ‘ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko‘rsatadi. Milliy g‘oyani xalq qalbi va ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganda tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi, meyori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi. Ularning muhimligi shundaki, targ‘ibotda meyorning buzilishi, milliy mafkura to‘g‘risida hadeb va noo‘rin gapiraverish meyorni bilmaslik teskari samara berishi mumkin. Targ‘ibot texnologiyasini milliy mafkura mazmun-mohiyatiga mos bo‘lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

O‘zbekistonda mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishni ustuvor yo‘nalishlari qo‘yidagilardan iborat:

- belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o‘tkazilishini ta’minlash;
- milliy istiqlol g‘oyasining targ‘iboti sifatini muntazam oshirib borish;
- davr talabidan kelib chiqqan holda mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo‘llarini izlash;
- bu sohada eski uslublarni mutlaqlashtirishga, andozalashtirishga yo‘l qo‘ymaslik;
- mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish;
- mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatchilik, majlisbozlik ko‘rinishlariga barham berish;

- mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganligini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.

Milliy g‘oyaning targ‘ibot-tashviqotini tashkil etishda quyidagi tashkiliy tamoyillariga amal qilishi maqsadga muvofiq:

- keng kamrovlilik, bunda jamiyatning barcha a’zolariga g‘oyalar xilma-xilligi asosida mafkurani singdirish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi;

- uzluksizlik – milliy istiqlol g‘oyasining targ‘iboti makonda va zamonda doimiyligini, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi. Bu ta’lim tizimidagi o‘quv rejalari, dasturlar, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, sinf va auditoriyalar, ko‘rgazmali qurollar milliy istiqlol g‘oyasiga uyg‘un bo‘lishni talab etadi;

- ketma-ketlik – har bir bosqich uchun taraqqiyot va inson kamolotiga xizmat qiladigan qadriyatlarni singdirish maqsadida mafkuraviy tashviqot rejalashtiriladi;

- bosqichma-bosqichlik – milliy mafkurani targ‘ib qilishning ruhiy jihatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ham targ‘ib qiluvchi, ham qabul qiluvchining muayyan tayyorgarlik bosqichidan o‘tishini taqozo qiladi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga milliy mafkuraning falsafiy va etnik ildizlari to‘g‘risida gapirish noo‘rin bo‘lishdan tashqari mutlaqo samarasiz hamdir. Shuning uchun bog‘chada, boshlang‘ich sinflarda, yuqori sinflarda, litsey kollejlarda, oliy o‘quv yurtlari va mehnat jamoalarida mafkuraviy ishlar tinglovchi va o‘quvchilarning yoshi, saviyasi, ma’lumoti kabi jihatlarini hisobga olib, aniq belgilangan reja asosida olib borilishi kerak;

- meyoriylik – aksiltarg‘ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishga olib keladigan balandparvozlik, rasmiyatchilik va takrorlanishga yo‘l qo‘ymaydi.

Mafkuraviy tarbiyani shakllantirishda mafkuraviy plyuralizm va mafkuraviy bag‘rikenglik tushunchalari katta ahamiyatga ega. Mamlakatda ilg‘or g‘oyalar, mafkuralar qancha ko‘p bo‘lsa, jamiyat

taraqqiyotining samarali yo‘lini tanlab olish uchun imkoniyat shuncha ko‘p bo‘ladi. Mafkuraviy plyuralizm taraqqiyotga xizmat qiladigan yangidan-yangi g‘oyalarni paydo bo‘lishiga, turli xalqlar, elatlar, millatlar va siyosiy guruhlarning manfaatlari asosida, umumiy tarzda ro‘yobga chiqishga sharoit yaratadi. U muqarrar sur’atda ko‘ppartiyaviylik tizimini taqozo etadi. Shu ma’noda aytish mukinki, bugun O‘zbekistonda bir necha siyosiy partiyalar faoliyat ko‘rsatib mamlakatimiz siyosiy-hayotida faollik ko‘rsatmoqdalar.

Oldingi mavzularda ta’kidlanganidek, hozirgi davrda mafkuraviy bag‘rikenglik jamiyatdagi barcha qatlam, ijtimoiy guruh va millatning ezgulik yo‘lidagi hamkorligini nazarda tutadi va mamlakatda tinchlik, barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. O‘zbekiston xalqi dunyoviy davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurmoqda. Bularning barchasi mafkuraviy tarbiya jarayonda o‘z aksini topmog‘i lozim.

Kishilarni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash mafkuraviy jarayonlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Bunga oila, mahalla, muassasa va tashkilotlarda olib borilishi lozim bo‘lgan tadbirlar amaliy ahamiyat kasb etadi. Mafkuraviy targ‘ibot ishlarida bulardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Ma’lumki, o‘zbek oilasida bola ongida sog‘lom g‘oya va bilimlarning shakllanishi jarayonida oilaning kattalari – bobolar, momolar, yaqin qarindosh-urug‘lar ham bevosita ishtirok etadi. Ular oiladagi ma’naviy muhitning boshqaruvchilari hisoblanadi.

Xullas, ota-ona o‘z bolasining ahloqi va madaniyati uchun jamiyat oldida javobgardir. Ota-onalik burchiga e’tiborsiz qarash, fuqarolik ma’suliyatini his etmaslik muhim ijtimoiy burchni bajarmaslik bilan tengdir. Chunki bolani dunyoga keltirishdan ko‘ra, uni jamiyatga nafi tegadigan, sog‘lom e’tiqodli, solih farzand qilib tarbiyalash mushkulroqdir.

Mahalla – o‘zini o‘zi boshqarishning milliy modeli bo‘lib, u xalqimizning azaliy udumlari, an’analariga tayangan holda, ulkan

tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida odamlar ongida ezgulik g‘oyalari singdirilib boriladi.

Mahalla, avvalo, sog‘lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta’siriga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o‘zaro munosabatlarini adolat va ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma’noda, mahalla haqiqiy demokratiya darsxonasidir.

Ta’lim-tarbiya sohalari milliy istiqlol g‘oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yo‘nalishlaridir. Ta’lim tarbiyaning har bir alohida bosqichi o‘z navbatida g‘oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o‘ziga xos omillarini nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim muassasalari, bevosita ta’lim beruvchi muassasalar (maktablar, litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari) makfuraviy tarbiyaning asosiy o‘choqlaridir.

Mafkuraviy tarbiyaning ma’naviy-ma’rifiy vazifalari haqida gap borganda, ommaviy axborot vositalari, fan, adabiyot, san’atning bunyodkor g‘oyalarni amalga oshirishdagi o‘rni, barkamol avlodni tarbiyalash va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning g‘oyaviy omillari nazarda tutiladi.

Ommaviy axborot vositalari – eng asosiy, qudratli va ta’sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommani o‘ziga xos tarbiyachisi bo‘lib, dolzarb muammolarni hal qilishning ta’sirchan quroli bo‘lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlar, milliy g‘oya va demokratik tamoyillar targ‘ib-tashviq qilinadi. Totalitar tuzumda ommaviy axborot vositalari axborot uzatish vositasi va yakkahukmron g‘oyani singdirish quroli bo‘lib xizmat qilganligini ham yaxshi bilamiz.

Oxirgi paytlarda informatsion xurujlarning tez-tez uyushtiralayotgani aslida urushga munosabatning o‘zgarganidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol – axborotdir. Shu ma’noda aksiltarg‘ibot «g‘oyaga qarshi g‘oya bilan

kurashish» tamoyiliga mos ravishda olib borilishi kerak. Bunda davlatimiz siyosatiga qarshi kuchlarning g‘oyaviy hujumlarini qaytarish talab etiladi. Bunda ommaviy axborot vositalarining roli beqiyosdir.

Mafkuraviy tarbiyani shakllantirishda fanning, xususan, ijtimoiy fanlar alohida o‘rin tutadi. Bu o‘rinda ijtimoiy fanlar milliy va umuminsoniy qadryatlar ezgu va bunyodkor g‘oyalar, jahon sivilizatsiyasining ilg‘or ilmiy namunalari aks etgan bilimlarni yoshlar tarbiyasida unumli qo‘llashlari kerak. Adabiyot va san’at sohalarida ham odamlar ongiga kuchli ta’sir etgan va real voqelik tamoyiliga asoslanadigan, bunyodkor g‘oyalar zamirida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar kabi g‘oyalarni o‘zida aks ettiradigan asarlar ham shular qatoriga kiradi.

Barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan ekan, bunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi dolzarb xarakter kasb etib, barkamol avlod tarbiyasi g‘oyasiga asoslangan bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi. Ayni zamonda ta’lim muassasalarining barcha bug‘inlarida olib boralayotgan dastlabki natijalarni sanab o‘tish mumkin. Quvonarlisi shuki, bugungi yoshlarda mustaqil dunyoqarash, erkin fikrlash milliy meros va qadryatlarga bo‘lgan ijobiy o‘zgarishlar o‘zini namoyon qilmoqda.

Hozirgi voqelikda milliy istiqlol g‘oyasi va yot mafkuralar orasidagi munosabatlar mafkuraviy kurash, mafkuraviy qarshi turish, psixologik urush shakllarida kechmoqda. Yot mafkuralar mafkuraviy kurashning ming yillik uslublarini, shuningdek, zamonaviylashtirilgan uslublari: axborot maydonini egallab olish, mafkuraviy infiltratsiya mafkuraviy diversiya, dezoriyentatsiya, mafkuraviy qo‘poruvchilik harakatlarini qo‘llash orqali xalqimizda O‘zbekistonning buyuk kelajagiga ishonchsizlik uyg‘otishga, davlat siyosatini obro‘sizlantirishga, odamlarning o‘zini Vatan, millat himoyasidan chetga tortishga, loqaydlikka erishishga intiladilar. Bunda biror xususiy faktni umumlashtirishga (ekstropolyatsiya),

yolg‘onni haqiqatga o‘xshatib tasvirlash, kichik muammodan katta yolg‘on yasash, bir narsani takrorlayverish, tuyg‘uni aqldan ustun qo‘yish, tinglovchining shaxsiy manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yib (unga do‘st bo‘lib ko‘rinish), «hasratlashish», hukumatlarni xalqlarga yomon ko‘rsatish, millat dushmanlariga rahmdillik, hamfikrlik tuyg‘usini o‘yg‘otish, odamlarga tanish ma’lumotlarni ishlatib «falon joyda falon voqea bo‘ldi», deb rostga yolg‘onni ulab yuborish uslublardan mafkurviy kurashda foydalanayapti.

Har qanday jamiyat bunday makkor tahdidlarni yengish uchun o‘zida ogohlik, mafkuraviy xafvsizlik, to‘kislik, jangovarlik, safarbarlik, umumilliy birlik kabi ijtimoiy sifatlarga bo‘lish kerak. Buning uchun milliy istiqlol mafkurasining yot mafkuralarga qarshi kurash uslublari, jumladan, buzg‘unchi g‘oyalar mohiyatini fosh etishga qaratilgan targ‘ibot, mafkuraviy monitoring va tahdidlar mohiyatini xalqimiz ongi va qalbiga yetkazish, jaholatga qarshi ma’rifat tarqatish uslublaridan doimo va hamma joyda foydalanish taqozo qilinadi.

Bizga tahdid solayotgan mafkuralar «maftunkor» va «ommabop» bo‘lib, ko‘rinsada, ular puxta, ilmiy-texnologik asosga qurilganini anglash qiyin emas. Chunki, ularning targ‘iboti oldingi va hozirgi zamonaviy mafkuraviy kurash usullariga ega. Faqat g‘oya va maqsadning shakli o‘zgargan. Masalan, ana shunday g‘oyalardan biri «xalifalik davlatini tuzish» g‘oyasidir. Bu g‘oyaning mazmun va mohiyat jihatdan zararli ekanligini chuqur anglash zarur.

“Xalifa” so‘zining lug‘aviy ma’nosi – «o‘rinbosar», terminologik ma’nosi «musulmon jamoasi va musulmon davlatining diniy hamda dunyoviy borligi» deb talqin qilinadi. Xalifalik davlati mutlaq monarxiya tipidagi davlat bo‘lib, davlatni xalifa boshqaradi. Xalifalik davlatining boshqaruv tizimi islom-shariat qonunlari bilan belgilanadi. «Hizbut-tahrir» da’vo qilgan xalifalik davlati esa «Islom nizomi» nomli kitobda bayon etilgan qonunlarga asosan boshqariladi. Vaholanki, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) dan

rivoyat qilingan Hadisi sharifda aniq aytilgan: «Xalifalik mendan so‘ng ummatim ichida 30 yildir, undan keyin podsholik bo‘ladi”. Bu mo‘tabar sahih Hadis Imom Termiziy va Abu Dovuddan rivoyat qilingan. Hozirda «Hizbut-tahrir» tarafdorlari minglab begunoh kishilarning qoni to‘kilsada, xalifalik barpo etilishini majburiy, deb da’vat etmoqdalar.

Bu harakatlar mohiyati haqida Birinchi Prezidentimiz I.Karimov “insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo‘lgan odamlardagi e’tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki buzg‘unchi kuch, hatto fanatizm (o‘ta ketgan mutaassiblik) sifatida foydalanganligini ko‘rsatuvchi misollar ko‘p. Aynan fanatizm illatiga yo‘liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to‘lqinini keltirib chiqarishga qodir bo‘ladilar”,1 deya alohida ta’kidlaydi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi o‘rnini hisobga olib, ular diniy oqimlar O‘zbekistonda rivojlantirilsa, buning ta’siri tezda Mrkaziy Osiyoning boshqa hududlariga yoyilishiga umid qiladilar. Chunki diniy al-lomalar ayni Movarounnahrdan chiqqanligi, bu o‘lka xalqi milliy xarakte-ri, ma’naviyatining shakllanishiga sezilarli hissasini qo‘shganini biladi-lar. Shu asosda ular diniy niqob ostida yoshlarning mafkuraviy immunite-tini susaytirib, ularga davlatimizning demokratik siyosiy tamoyillarini qoralab, davlat va xalq o‘rtasida ziddiyat keltirib chiqarishga umid qiladilar.Mafkuuraviy tarbiya samaradorligini avvalo jamiyatni mafkuraviy tarbiyalashdan natijasi qanday bo‘lishi kerak ekanligini aniq belgilanishiga bog‘liq. Shu ma’noda, odamlarni u yoki bu maqsadga yo‘naltirish, tarbiyalash ikki tomonlama jarayon. Ilgari ta’kidlanganidek, bunda targ‘ibot-tashviqot ishlarini bir zum bo‘lsada, to‘xtatib turib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda, targ‘ibot subyektlari (targ‘ibotchilar, ta’lim-tarbiya tizimi, oila, mahalla, TV, radio, matbuot) va targ‘ibot obyektlari (shaxs, aholi) ishtirok etadi. Turg‘ibot va tashviqot ishlarining samaradorligi xalq, jamoa siyosiy

ongida targʻibotgacha va targʻibotdan keyingi darajalar orasidagi farqda bilinadi. Jamoa mafkurasidagi oʻzgarishlar ilmiy yutuqlarga asoslangan holda olib borilsa, targʻibot va tashviqot samarasini aniqlash va takomillashtirish mumkin boʻladi.

Shunday qilib, milliy mafkuraviy immunitet har bir yigit-qiz, fuqarodagi mustaqillikning siyosiy mohiyati, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov asarlarida koʻtarilgan siyosiy gʻoyalar, islohotlar yutuqlari va muammolari, ichki va tashqi siyosatga doir chuqur bilimlarga tayanishi lozim.

Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandimizni ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun, kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishning asosiy shartlaridan biri boʻlib qolaveradi.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. – 104 б
2. Karimov I.A. "Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi" – Toshkent.: O`zbekiston", 1997. – 384 bet.
3. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Том 3. Тошкент, 1996.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent.: Ma'naviyat – 2016, – 123 бет.
5. Otamurodov S. Globallashuv va millat. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. - 304 bet.
6. I.Siddiqov, F.Ibrohimov. Mustaqil O`zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida yoshlar faolligini oshirishning ijtimoiy-ma'naviy omillari. Farg`ona-2015. - 88 bet.
7. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya.- Toshkent.: Movaraunnahr, 2016. -373 bet

4-mavzu. MA’NAVIY TAXDIDLAR, ULARNI OLDINI OLISH ZARURATI. GLOBALLASHUV DAVRI VA MANAVIY TAHDIDLAR.

Reja:

1. Globallashuv jarayonlari. Global jarayonlarning ma’naviy qiyofaga ta’siri.

2. Tahdidlar va ma’naviy hurujlar. Informatsion, g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlar.

3. “Fikrga qarshi - fikr, g‘oyaga qarshi – g‘oya, jaholatga qarshi - ma’rifat” g‘oyasining ahamiyati.

4. “Ommaviy madaniyat” va “Ommaviy madaniyatsizlik” nisbati.

Tayanch tushunchalar:

Mafkuraviy vositalar, urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma’naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm, globallashuv, baynalminallashuv, integratsiya, totalitarizm, demokratlashtirish, insonparvarlik, ilmiy-texnikaviy inqilob, atom energiyasi, gen muhandisligi, elektronika, fazoviy televidenie, informatsion kommunikatsiya, internet, siyosiy fazo, gumanizm, «Buyuk davlatchilik», «buyuk millat», g‘ayriinsoniylik, vayronkorlik, «Irqchilik»,«Tajovuzkor millatchilik», fanatizm, ateizm, «Milliy davlatchilik tizimi» «fuqarolik burchi», «jamoaga sadoqat». Ma’naviy tahdid, “Ommaiy madaniyat”, yevropalashtirish, egotsentrizm, individualizm.

Bugun biz tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechir-gan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta’riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida

izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma’lum ma’noda haqiqat, ratsional mag‘iz bor. Chunki ularning har biri o‘zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi-alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko‘pchilikning ongi-da bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda. Bunday ta’rif, menimcha, ko‘p tomondan masalaning mohiyatini to‘g‘ri ifoda-laydi. Nega deganda, hozirgi paytda er yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zud-lik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Ana shunday globallashuv fenomeni haqida gapirganda, bu atama bugungi kunda - ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida juda keng ma’noni anglatishini ta’kidlash lozim. Umumiy nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma’no-mazmundagi xo‘jalik, ijtimoiy-siyosiy, tabiiy-biologik global muhitning shakl-lanishini va shu bilan birga, mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obyektiv tan olish kerak - bugungi kunda har qaysi davlat-ning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘shnilar, balki jahon miqyosida boshqa min-taqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Shu ma’noda, globallashuv — bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demaqdir.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo‘lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g‘oyat o‘tkir va keng qamrovli ta’sirini deyarli barcha sohalarda ko‘rish, his etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqyaar o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi,

xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, koʻplab yangi ish oʻrinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uygʻunlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida oʻzaro yordam koʻrsatish imkoniyatlarining orti-shi — tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Ayni paytda hayot haqiqati shuni koʻrsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda - ezgulik va yovuzlik yoʻlida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda koʻzdan kechiradigan boʻlsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu gʻoya va taʼlimotlar bilan yovuz va zararli gʻoyalar oʻrtasida azaldan kurash mavjud boʻlib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini koʻramiz.

Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tigʻiz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yoʻq, deb beparvo qarab boʻlmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas. Globallashuv jarayonining yana bir oʻziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy taʼsir oʻtkazishning nihoyatda oʻtkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sogʻlom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar.

Taʼbir joiz boʻlsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham koʻproq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh boʻlishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq boʻlsa, buni sezish, qoʻrish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning taʼsiri va oqibatlarini tezda ilgʻab etish nihoyatda qiyin.

Mana shunday vaziyatda odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviy taxdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko‘plab voqealar misolida yaqqol kuzatish mumkin va ularning qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishini uzoq tushuntirib o‘tirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman. O‘tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro‘y bergan, biz bevosita o‘z boshimizdan kechirgan voqealar, mafkuraviy jarayonlarning rivoji bu xulosaning to‘g‘ri ekanini qayta-qayta isbotlamoqda.

Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quydar-gohlarida, balki radio-televideniye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atro-fini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga qat’iy maqsad qilib qo‘yganmiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz.

Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o‘z qobig‘imizga o‘ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar taj-ribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqa-ruvini erkinlashtirish, inson huquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o‘z hayoti-mizga yanada kengroq joriy qilishda ko‘ramiz. Biz butun ma’rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish taraf-dorimiz. Biz uchun shunday yo‘l ma’qul, uning boshqa muqobili yo‘q.

Muxtasar qilib aytganda, yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur.

Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin.

Hammamiz yaxshi bilamizki, har qaysi davlatning chegaralarini daxlsiz saklashda harbiy kuch-qudrat, qurolli kuchlar suv bilan havodek zarur. Ammo xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimiz ma’naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerak, degan savol butun barchamizni o‘ylantirishi tabiiy.

Men, hayotda ko‘p bora o‘z tasdig‘ini topgan haqiqatdan kelib chiqqan holda, bu masalada shunday degan bo‘lardim: tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lib yashashimiz zarur. Bunday taxdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o‘ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma’naviy tarbiya bilan javob berish mumkin.

Barchamizga ayon bo‘lishi kerakki, qaerdaki be-parvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha erda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha — qayyerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha erda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi.

Ayniqsa, bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o‘zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun «Erkinlik va demokratiyani olg‘a siljitish» niqobi ostida amalga oshirayotgan,

uzoqni koʻzlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini oʻz vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi.

Shu borada ayrim qudratli davlatlar tomo-nidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, er osti, er usti boyliklariga ega boʻlgan hududlarga nisbatan olib borilayotgan ana shunday gʻarazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga aynan oʻsha davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bogʻliq misollarda koʻrish qiyin emas.

Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va yana bir bor xalqimizning maʼnaviy olami-ni bunday tahdidlardan asrash, hozirgi oʻta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir boʻlayotgan jarayonlarning tub mohiyatiga etib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega boʻlish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato boʻlmaydi.

Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida eʼtibor be-rishimiz lozim. YAʼni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan soʻng jamiyatda paydo boʻlgan gʻoyaviy boʻshliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot boʻlgan, maʼnaviy va axloqiy tubanlik illatlarini oʻz ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuklik va zoʻravonlik, indi-vidualizm, egotsentrizm gʻoyalarini tarqatish, kerak. boʻlsa, shuning hisobidan boylik ortti-rish, boshqa xalqlarning necha ming yillik anʼana va qadriyatlari, turmush tarzining maʼnaviy negizlariga bepisandlik, ularni qoʻporishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qoʻymaydi.

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl maʼnaviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bogʻliq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmokda va

koʻpchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda. Bu haqda fikr yuritganda, bizning ulugʻ aj-dodlarimiz oʻz davrida komil inson haqida bu-tun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamona-viy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash oʻrinli, deb bi-laman. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuygʻu va tushunchalar bu kodeksning asosiy maʼno-mazmunini tashkil etadi, desak, oʻylaymanki, xato qilmagan boʻlamiz.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, uyat — oʻlimdan qattiq, degan gaplar xalqimiz tilida oʻz-oʻzidan paydo boʻlmagan, aksincha, bunday iboralar el-yurtimizga mansub ezgu va goʻzal axloqiy qadriyatlarning asl mazmunini ifoda etadi.

Darhaqiqat, uyat va or-nomusini yoʻqotgan odam, Ahmad Yassaviy bobomiz aytganidek, xuddiki hayvon jinsiga aylanib qoladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning:

Oldigʻa qoʻyganni emak — hayvon ishi,

Ogʻziga kelganni demak — nodon ishi,

—degan chuqur maʼnoli soʻzlari ham bu fikrni tasdiqlab beradi.

Oʻz-oʻzidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq koʻz bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon-atrofimizda mavjud boʻlgan, toborakuchayib borayotgan maʼnaviy tahdid va xatarlarni toʻgʻri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda. Shu bois yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz oʻyinlari toʻgʻrisida biryoqlama va soxta tasavvur boʻlmasligi kerak.

Fikrga qarshi fikr, gʻoyaga qarshi gʻoya

Hozirgi vaqtda koʻz oʻngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kom-munikatsiya manzarasida chuqur oʻzgarishlar roʻy berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus

olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta’bir joiz bo‘lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib etishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning «da’vati» ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi.

Yosh avlodimizni turli ma’naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug‘laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma’qul odatlar haqida ham ochiq so‘z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug‘chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to‘g‘risida o‘ylashimiz lozim. Men bu o‘ta muhim vazifa keng jamoatchiligimizning, ayniqsa, ziyolilarimiz, olim va adiblarimiz, san’at va madaniyat ahli, o‘zini ma’naviyat sohasiga bag‘ishlagan barcha insonlarning doimiy diqqat markazida bo‘lishini istardim.

Bu o‘rinda ana shunday salbiy xususiyatlarning eng xunuk ko‘rinishi bo‘lmish hasad to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish joiz deb o‘ylayman. Odamzot va jamiyat hayotida og‘ir asoratlar qoldiradigan hasad tuyg‘usi avvalambor boshqalarni ko‘rolmaslik, ularning yutug‘idan quvonish o‘rniga, qandaydir kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo bo‘ladi.

Shuning uchun ham muqaddas kitoblarimizda hasad insoniylikka mutlaqo zid bo‘lgan jirkanch odat sifatida qattiq qoralanadi. Jumladan, muborak hadislarda «Birovga hasad qilishdan saqlaning, chunki olov o‘tinni qanday kuydirib tugatsa, hasad ham qilgan savob ishlaringizni xuddi shunday kuydirib tugatadi», deb aytilgani bejiz emas.

Azal-azaldan ochiqko‘ngil, samimiy va mehnatkash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi. Lekin, ming afsuski, umr yo‘llarida hasad balosiga ko‘p duch kelamiz. Olis va yaqin tariximizda ne-ne buyuk zotlar hasad va baxillik, ko‘rolmaslik tufayli qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirgani, sog‘lig‘i, hatto hayotidan judo bo‘lganini achchiq misollarda ko‘rish mumkin.

O‘zbek nomini, o‘zbek ilm-fani va madaniyatini, bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanini dunyoga namoyish qilishda yurtimiz zaminidan etishib chiqqan yuzlab ulug‘ zotlar fidoiylik namunalarini ko‘rsatib kelgan. Bunday insonlar diyorimizda hozir ham ko‘plab topiladi va bundan keyin ham ularning saflari kengayib boraveradi. Hamma gap ana shunday insonlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lish, ularni qo‘llab-quvvatlashda. Agar biz mamlakatimizning qaysi shahar yoki qishlog‘ida bo‘lmasin, yilt etgan iste’dod uchqunini ko‘rganda, hammamiz uni o‘z vaqtida payqab, ardoklab, parvona bo‘lib, unga yo‘l ochib bersak, barcha sa’y-harakat va intilishlarimizni ana shunday oli-janob maqsadga qaratsak, muxtasar aytganda, hasad qilib emas, havas qilib yashashni hayotimiz qoidasiga aylantirsak, hech shubhasiz, biz milliy taraqqiyot bobida yanada yuksak marralarni egallashga erisha olamiz.

Bu haqda gapirar ekanmiz, ma’naviy hayoti-mizga jiddiy xavf soladigan yana bir illat haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman. Shaxsan o‘zim bu il-latdan jirkanaman. Shu illatga chalingan odam-ni

koʻrarga koʻzim yoʻq. Bu — sotqinliqdir. Men har qanday yovuzlikni sotqinliqdan koʻraman. Ezgulik va haqiqatga sadoqati boʻlmagan, ularga ishonmagan odam qoʻrqinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati boʻlgan odam rahbarlik kursisiga oʻtirib qolsa bormi, u erda osoyishtalik yoʻqoldi, deyavering. Ikkita odamning, ikkita mamlakatning oʻrtasidagi urushni ham aynan shunday odamlar boshlab beradi. Shu bois bunday odamlardan ogoh boʻlishimiz, ularga yonimizda oʻrin boʻlmasligi lozim. Agar tevarak-atrofimizdagi birorta kishida shunday alomatlar sezilayotgan boʻlsa, ularni darhol tarbiyamizga olib, toʻgʻri yoʻlga boshlashimiz kerak.

Shu munosabat bilan tarixda koʻp marta oʻz tasdigʻini topgan, men ham oʻz tajribamda sinagan hayotiy bir haqiqatni yana bir bor takrorlashni zarur deb hisoblayman: agar biz ahil boʻlsak, el-yurt manfaati yoʻlida bir tanu bir jon boʻlib yashasak, oʻzimizdan sotqin chiqmasa, oʻzbek xalqini hech kim hech qachon enga olmaydi.

Bu hayotda odam baʼzan oʻzini yoʻqotib qoʻyadigan gʻoyat murakkab muammolarga duch keladi. Keskin vaziyatdan chiqishning iloji yoʻqsek tuyuladigan holatlar bor. Shunday paytda, ishda va hayot-da, jamiyatda ogʻir savdolarga duch kelganda kim oʻzining yoʻlini yoʻqotmasligi mumkin? Oʻylaymanki, birinchi navbatda oʻz kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, maʼnaviy olami baquvvat boʻlgan odamgina bunday vaziyatdan yorug yuz bilan chiqa oladi. Maʼnaviy boylik shunday paytda odamga katta kuch va madad beradi.

Shu maʼnoda, insonning maʼnaviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak, yanglishmagan boʻlamiz. Iroda — bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam oʻziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham oʻz zimmasiga olishdan qoʻrqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Bunday kishilar boshingizga biror-bir tashvish yoki muammo tushgudek boʻlsa, loqayd qarab turolmaydi. Hech ikkilanmasdan, yoningizda turib, qoʻlidan kelgancha yordam

berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda engishga harakat qiladi.

Lekin birovning hayotiga, yon-atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo‘lib yashaydigan odamdan qo‘rqish kerak. Ulardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iymon, na iroda bo‘ladi. Ular hatto o‘z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi. Azaldan ma’lumki, beparvo odam dushmandan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma’lum bo‘ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo‘lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi.

Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur taxlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: «Dushmanlardan qo‘rqma — nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma — nari borsa, ular sen-ga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq — ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli er yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi».

Har bir inson hayotida g‘oyat muxim ahamiyatga ega bo‘lgan ana shunday fikrlarni unib-o‘sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir.

Bu boradagi eng dolzarb vazifamiz — yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o‘quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo‘nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat.

Buning uchun avvalambor taraqqiyotimizning har bir yoʻnalishi — jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Albatta, bu masala boʻyicha ijtimoiy fanlar sohasida maʼlum ishlar qilinmoqda, ammo xolisona aytadigan boʻlsak, bu borada chop etilgan koʻpchilik darsliklar, oʻquv qoʻllanmalari, ommabop adabiyotlarning ham, aksariyat soha mutaxassislarining ham saviyasi talab darajasida emasligini qayd etishga majburmiz. Bunday noxush holatlarga barham berish vaqti keldi.

Hech shubhasiz, yurtimizda erkin, adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham oʻziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha maʼno kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas.

Binobarin, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik prinsiplar mohiyatiga, oʻz turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor.

Bu boradagi eng muhim vazifa shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, maʼnaviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga boʻlgan oʻz burchi va masʼuliyatini aynan ana shu asosda aniklab olishi zarur.

Bu masala haqida chuqurroq oʻylab koʻradigan boʻlsak, shu tamoyillarga tayangan jamiyatning oʻziga xos ijtimoiy shakl-shamoyili, uning qiyofasi, rivojlanish yoʻllari, ustuvor xususiyatlari toʻgʻrisidagi aniq tasavvur turli fikr, bahs-munozaralar orqaligina

ayon bo‘lishini e’tirof etishimiz va buni o‘zimizga mezon qilib olishimiz zarur.

Bunday keng ko‘lamli va o‘ta muhim masala-larni hal qilishda davlatimiz va jamiyatimiz ijtimoiy fanlar sohasida faoliyat olib borayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o‘quv yurtlari, turli ijtimoiy markazlar, avvalam-bor, Ma’naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan har tomonlama asoslangan chuqur taklif va tavsiyalarni kutishga to‘la haklidir.

Ayniqsa, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo‘nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta’-sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alo-hida ahamiyat kasb etadi.

Faqat ana shunday asosda yoshlarni o‘z fikriga ega, turli ma’naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo‘lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu borada ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ta’sirchanligini ta’minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qara-tilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo‘llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur.

Ommaviy madaniyat va shaxs ma’naviy olamining shakllanishi

Shaxs ma’naviy olamining shakllanishi ma’naviy qadriyatlar muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, bizning sharqda xalqning ming yillik milliy qadriyatlari uning uchun qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Xalqimizning yaqin o‘tmishidagi uzoq davom etgan

kuchli mafkuraviy tayziqqa qaramay, O‘zbekiston xalqi avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganligi boisi ruhida, qalbida doimiy ravishda umumbashariy qadriyatlarga sodiq bo‘lganlar.

Yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalab, “ommaviy madanyat”ning zararli ta’siriga qarshi kurashish mumkin. “Ommaviy madaniyat” deganda omma tomonidan yaratilgan, ommaga mo‘ljallangan, ommaning kundalik turmushida qo‘llanilayotgan moddiy va ma’naviy qadriyatlar, ushbu qadriyatlarni konsentratsiyalash, transformatsiyalash, ajdodlardan avlodlarga yetkazish mexanizmi anglanadi. Ommaviy madaniyat elitar madaniyatdan farqli o‘laroq, aniq elementlarni qat’iy maqsad va manfaatlarni o‘zida mujassam qilmaydi va tez o‘zgaruvchan, asosan emotsional xarakterga ega bo‘ladi. “Ommaviy madaniyat”ni G‘arb madaniyati bilan bog‘liq hodisa deb tushunish, unga g‘oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan. XX asrda va XXI asr boshlariga kelib radio, kino, televideniye, video kompyuter, internet tizimining paydo bo‘lishi va rivoji soxta “ommaviy madaniyat” namunalarining dunyo bo‘ylab yoyilishiga sabab bo‘ldi.

Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e’tibor berishimiz lozim. YA’ni kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so‘ng jamiyatda paydo bo‘lgan g‘oyaviy bo‘shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun” mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak”.

Hozirgi kunda dunyoda insoniyatga xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, SPID va narkoagressiya kabi xavf-xatarlar tahdid solib

turibdi. Ayni paytda “ommaviy madaniyat”, egotsentrizm va erkinlik niqobi ostidagi axloqsizliklar ta’siri ham zo‘rayib bormoqda.

Ayniqsa, milliy ma’naviyat, yoshlar dunyoqarashiga teskari ta’sir o‘tkazishda “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’siri ortib bormoqda. “Ommaviy madaniyat” dunyoda ko‘plab ishchilarning “mavhum dunyo”, virtual dunyoga ongsiz ravishda kirib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Kuzatuvchi tadqiqotchilar, olimlarning hisob-kitobiga ko‘ra, hozirgi kunda yer yuzi aholisining 10 foizi virtual dunyoga kirib bo‘lgan. Boshqacha aytganda, ular internet qaramligiga duchor bo‘lishgan. Shularning 70 foizini erkaklar tashkil etadi. Tadqiqotchilar mazkur internet qaramligiga tushib qolganlarni 5 guruhga bo‘lishadi. Xullas, hozirgi zamonda inson ana shunday virtual dunyoga tushib qolmasligining oldini oluvchi ham, agar u shunday makonga tushib qolgan bo‘lsa, uni qutqarib olishning ham yagona yo‘li bu shaxsning ma’naviy olamini yuksaltirishdir.

Hozirgi kunda G‘arb dunyosida erkinlikni niqob qilib olgan ayrim kimsalar nafaqat bizning milliy ananalarimiz, balki barcha xalqlar uchun qadrli bo‘lgan insoniylik aqidalariga to‘g‘ri kelmaydigan turli buzg‘unchiliklarni ommoviy axborot vositalari orqali ochiqdan – ochiq targ‘ib etayotganini ko‘rib turibmiz. Natijada bugun odamlarni, xususan, yoshlarni buzg‘unchi illatlar tasiridan himoya qilish masalasi davrimizning dolzarb muommosiga aylangan. Afsuski, bugun jamiyatimzda bazan bu tasirlar girdobiga tushib qolib, o‘z hayotini izdan chiqargan, jaholat, buzg‘unchiliklar tuzog‘iga tushib qolgan kimsalarning paydo bo‘layotgani sir emas.

«Hozirgi vaktda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha asl ma’naviy kadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb karash bilan bog‘liq holatlar bugungi tarakkiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko‘pchilik butun jaxonda bamisoli balo – qazodek tarqalib

borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanligini anglab olmoqda».

Bugungi kunda dunyodagi soglom manaviyatli insonlarni tashvishga solib kelayotgan illatlar sifatida buzg‘unchi kuchlar tamonidan targ‘ib – tashviq qilinayotgan « ommoviy madaniyat», induvidualizm, egotsentrizm singari illatlarni misol keltirishimiz mumkin.

Shu o‘rinda «ommoviy madaniyat» tushunchasining kelib chikishiga bir nazar tashlasak, ushbu tushuncha XIX asr oxiri XX asr boshlarida g‘arb mamlakatlarida paydo buldi. «Ommoviy madaniyat» insonning intim xoxishlarini va ko‘proq lazzatlanish g‘oyasini targ‘ib etishga asoslanadi. U sevgi, moda va ko‘ngilxushlik vositalari yordamida insonning nafsoniy tuyg‘ularini qondirishni nazarda tutadi. Masalan, XX asrning 50 – 60 yillariga qadriyat sifatida qaraldi. Oqibatda g‘arbning o‘zida bir qator muommolar paydo buldi: tug‘ilishning keskin kamayib ketishi, oilaning muqaddasligiga putur yetishi va ayolga bo‘lgan hurmatning yuqolishiga olib keldi. Bugun g‘arbda « ommoviy madaniyat » tasirida oila degan muqaddas dargohga ziyon yetmokda. Hatto bir qator g‘arb mamlakatlarining « qariyotgan mamlakatlar » qatoridan joy olishida ham « ommoviy madaniyat »ning tasiri, hissasi yo‘q emas.

Yer yuziga balo – qazodek yoyilib, yopirilib borayotgan, afsuski, minglab yoshlarni o‘z domiga tortayotgan, milliy axloq va demokratik qadriyatlarga zid g‘oyalar, hatto insoniylikka teskari illatlar va hatti - harakatlarni o‘zida mujassam etgan, g‘arbona tilda aytganda « ommoviy madaniyat » bugun turli munozara mavzusidir. « Olimlar va ziyolilar bu iborani ijobiy va salbiy manoda ishlatadilar. Ijobiy manoda bu tushuncha xalq og‘zaki ijodi, anana va qadriyatlarining ko‘rinishini ifodalaydi. Salbiy manoda esa g‘araz kishilar tamonidan o‘ylab topilgan g‘oyalar, meyorlar, odatlar majmui bo‘lib, u o‘zgalar ongiga zo‘rlab tiqishtiriladi. Shu manoda «

ommoviy madaniyat » tushunchasi qoʻshtirnok ichida ishlatilganda manaviy tahdidlarni qamrab oluvchi omil sifatida tushuniladi ».

I. Karimov « ommoviy madaniyat » tushunchasiga izoh berar ekan: « ommoviy madaniyat » niqobi ostida axloqiy buzuqlik, zoʻravonlik, induvidualizm va egotsentrizm gʻoyalarini tarqatish, kerak boʻlsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalklarning necha ming yillik anana va qadriyatlari, turmush tarzining manaviy negizlariga bepisandlik, ularni qoʻporishga qaratilgan xatarli tahdidlardir », – deganda haq gapni aytgan edi.

“ Ommoviy madaniyat “ning eng xunuk illatlari, olgʻa surgan gʻarazli gʻoyalaridan biri bu, koʻngilxushlik gʻoyasidir. Koʻngilxushlik gʻoyasi deganda, insonning turmush tashvishlaridan bir oz boʻlsa-da chalgʻish, oʻzining bush vaqtini mazmunli oʻtkazishni tushunish ham mumkin, agar buni xolis, samimiy izohlasak. Har qanday sogʻlom manaviyatli insonlar oʻz hayotining har bir daqiqasidan oqilona foydalangani holda, oʻzi va boshqalarga foyda keltiradigan fayoliyat bilan shugʻullanishga intiladi. Sof niyatda, ezgu mashgʻulotlar bilan oʻzining boʻsh vaqtini fayzli, oʻz talant, qobiliyatidan unumli foydalanishga harakat qiladilar. Ammo biz ushbu mavzuda tilga olayotgan koʻngilxushlik gʻoyasi tamomila boshqa, insonning insonligiga zid, manaviy olamini tubanlikning eng chuqur jarliklari sari yetaklashga qaratilgan, aqlsiz koʻngilning tuban mayllarini qondirishga intilgani bilan oʻziga xos xarakterlanadi.

Bugungi «ommoviy madaniyat», buzgʻunchi kuchlar tamonidan ogʻiz koʻpirtirib jar solinayotgan koʻngilxushlik gʻoyasi insonning hayot lazzalaridan xoxlagan vaqt, istagan yerda va istagancha lazzatlanish, huzur qilish, bu yulda hech narsadan qaytmaslikni targʻib qilish orqali maishatga izn beradi. Oqibatda gʻarbni manaviy tubanlik sari undab jar yoqasiga yetaklab kelgan koʻngilxushlik gʻoyasi bugun sharqqa ham manaviy tahdid boʻlib turibdi.

Tomas Vulfning «Manmanlik oʻti » romanida yosh moliyachi « shahvoniy hirslarga choʻkib ketgan » Nyu – York farzandi boʻlganligi

uchun ham xotini va qizining hayotiga zomin boʻladi. Ayrim malumotlarga koʻra, bugun Britaniya bolalarining 34 foizi nikohsiz tugʻilmokda, taxminan shuncha mikdordagi katta yoshlilar ajrashish alamidan aziyat chekmoqda. AKShda kamalganlarning yarmidan koʻpi buzilgan oilalar farzandlaridir. Bunday statistik malumotlarni uzoq davom ettirish mumkin. Mana kungilxushlik gʻoyasi bergan mevalar.

“Ommoviy madaniyat “ ning koʻngilxushlik gʻoyasi insonni manaviy tubanlik sari yetaklaydi. Gʻarbda uning makoni sershovqin musiqalari, turli – tuman rangli chiroqlar bilan bezalgan tungi barlar. Minglab yoshlarni oʻziga ohangrabodek chorlayotgan bu tungi barlarning mijozlari, afsuski, kundan – kunga koʻpayib bormoqda. Tungi barlar. Balki ular kimlarningdir iqtisodiy manfaati uchun, xolis maksadda tashkil etilgandir. Ammo bugungi tungi barlarning aksariyat muxlislari bu yoshlar, hali ona suti ogʻzidan ketmagan, kayfu – safoga berilgan, koʻngilxushlikka mukkasidan ketgan yosh yigit – qizlardir. Eng achinarli tamoni shundaki, tungi barlar ichkilikbozlik, turli tartibsizlik va giyoxvandlik kuchasidagi bekat vazifasini oʻtamokda.

Gʻarbda tungi barlarlarda sangʻish aksariyat ota – onalar tamonidan tabiiy hol sifatida qabul qilinadi. Y. Xabermas kabi sogʻlom fikrli odamlar fikricha: **«Gʻarb mamlakatlaridagi yomgʻirdan keyingi qoʻziqorindek tungi barlarning koʻpayishi odamlarda mardlik, jasorat va halollik kabi sifatlarning yuqolishiga olib keldi ».**

Bugun koʻngilxushlik gʻoyasiga griftor boʻlgan gʻarbning bazi yoshlari **maishiy buzuqlik** kasaliga mubtalo boʻlgan. Biz maishiy buzuqlik deb atayotgan holat ular uchun balki shaxsiy erkinlikdir. Chunki soʻngi yillarda gʻarbda maishiy buzuqlik, **meyorsiz erkinlik** - saddizmni inson hayoti uchun foydali deguvchilar ham koʻpayib qolgan. Shu oʻrinda saddizm tushunchasiga qisqacha izoh berib oʻtsak, “ **saddizm** “ atamasi fransuz yozuvchisi Markiz de Sad nomi

bilan bog‘liq tushuncha. Yozuvchining “Sadomda 120 kun“, “Fohishaxonalar falsafasi“ singari tubandan – tuban mazmundagi kitoblarida insonning eng tuban illatlarga giriftor bo‘lishi mumkinligi tasvirlanadi. Sad o‘z asarlarida odamlarni manaviy buzuqlik xoxlagan izmiga solish mumkin, faqat ularning manaviyatini egallasak bas, kerak bo‘lsa biz o‘zga yurt odamlarini shunday o‘z ta’sirimizga olishimiz kerakki, toki, ularning o‘zlari bizga yalinib kelsin, degan qarashlarni ilgari suradi. Natijada bugun «Markiz de Sad asarlarining qayta –qayta nashr etiliyotgani, maishiy buzuqlikka bag‘ishlangan kinolar va asarlarning ko‘payib boriyotgani, hatto, ba’zi mamlakatlarda fohishaxonalar ochishga ruxsat borligi, har yili badavlat arab mamlakatlariga Osiyodan 4 millionga yakin ayollar «uy xizmatchisi» niqobi ostida keltirilayotgani saddizmning ommoviy hodisa bo‘lib qolayotganidan dalolat beradi».

Bugun insoniyatning taraqqiyotiga salbiy tasir qiluvchi shunday buzg‘unchi g‘oyalar yaratilmokdaki, bu g‘oyalar inson manaviyatini faqat zalolat sari yetaklashga xizmat qiladi, xolos. G‘arb dunyosidagi sog‘lom fikrli insonlarni tashvishga solayotgan, o‘ziga xos karashlarni mujassam etgan bir xil jins egalarining o‘zaro oila qurayotganligi achinarli holdir. Sharqda bunday holat azaldan qoralanib kelingan. Ahmad Yassaviy aytganlaridek, bunday buzuq qarashdagi odamlarning hayvondan nima farqi qoladi. **«...besaqolbozlik jahannamga elitadi. Har doimdagiday, g‘urur yerga urilganda eng yaramas illat yuzaga chiqadi. Insoniyatning jinslarga bo‘linishi koinotning tabiat qonunlariga kura qutblanishi tajassumidir. Erkaklar va ayollar qo‘shimcha ilk sabablardir. Jinsiyat ularning ilohiy va nasl qoldirish bo‘yicha o‘zaro kelishuvidir. Shuning uchun ham bir jinsga mansub kishilarning oila qurishi tabiiy tartib buzilishining eng dahshatli ko‘rinishidir».**

G‘arbning o‘zida ham sog‘lom manaviyatli odamlar allaqachon bunday illatarni qoralab kelgan: Insonda u yoki bu sifatlarning shakllanishi uning manaviy qiyofasining qay darajada ekanligiga bog‘liq. Bugun insoniyat tafakkuri taraqqiyotini kuzatsak, odamzod bir tamondan aql bovar qilmas ixtirolarni ijod etayotgan bo‘lsa, ikkinchi tamondan odamzod hatto hayvondan-da battar ahvolda, chirkin tabanliklar botqog‘iga botgan, bazi kimsalar o‘z nopok illatlari bilan faqat o‘zinigina emas, o‘zgalar hayotini ham zaharlamoqda, hatto kelajak avlod hayotini ham xarob etmoqda. Insoniyat manaviy tanazzul girdobiga uchragan. Xushsurat axloqning o‘rnini badsifat xislatlar egallagan, olijanob maqsadli hayot tarzi bemani axloq va illatlar bilan bulg‘angan, inson manaviyati tubanlikka yuz tutgan. Buyuk tabiatning mo‘jaz xilqati o‘z aqlu tafakkuri bilan tabiatning barcha tirikligi orasida tengsizligi bo‘laturib, shu aqlu tafakkurini o‘z qo‘li bilan xiralashtirib, o‘zini manaviy tubanliklar girdobiga otmoqdaki, bu har qanday aqli raso kishini hayratlantirmay iloji yo‘q. Masalan, malumotlarga ko‘ra, Buyuk Britaniyada mashhur qo‘shiqchi Elton Jon bir xil jins vakillarining nikohdan o‘tib, oila qurishini erkinlik namunasi sifatida butun dunyoga ko‘z – ko‘z qilmoqda. Eng yomoni shundaki, bunday odamlarning yoshlar o‘rtasida ming – minglab muxlislari bor va ularning bu kabi jirkanch ishlari ana shu yoshlar ongini zaharlamasdan qolmaydi albatta.

Asrlar davomida Sharkda, xususan, uzbek xalqida o‘z farzandlari ayniqsa, qizlar tarbiyasi, odob - axloqi bilan jiddiy shug‘ullanib kelingan, avlodninng har tamonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishiga katta ahamiyat berilgan. Shu bois, o‘zining tafakkuri, odob – axloqi va buyuk xizmatlari bilan dunyoni hayratga solgan A. Navoiy, Bobur Mirzo, Ulug‘bekdek buyuk shaxslar, Nodirabegim, Zebuniso va Uvaysiy singari o‘nlab oqilalar xalqimiz manaviyatini boyitgan.

«Bizning ulug‘ ajdodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq koddeksini ishlab chiqqanlarini eslash o‘rinli. Ota – bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or – nomus, uyat va andisha, sharmu – hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalar bu koddeksning asosiy mano – mazmunini tashlkil etadi». Ammo bugun bazan yoshlar o‘rtasida milliy mintalitet, qadriyatlarimiz va turmush tarzimizga xos bo‘lmagan yot va begona g‘oyalar, buzg‘unchi illatlar tasiriga tushib qolgan holatlarga ham duch kelib turibmiz.

Bugun yoshlar manaviyati va madaniyati bilan bog‘liq muommolardan biri **kiyinish madaniyati** va unda g‘arb madaniyatiga taqlid, ergashish masalasi dolzarb mavzu bo‘lib turibdi. Milliy talim – tarbiya olgan, manaviyatida milliy madaniyatimizga hurmat va etiqod shakllangan, kiyinishda ham o‘z milliy qiyofasini yo‘qotmagan yoshlarimiz ko‘p, albatta. Lekin bazan ko‘chada, jamoat joylarida ochiq – sochiq kiyinib yurgan yoshlarimizni uchratish mumkin. Bu uning uchun “moda”, “zamonaviylik” yoki ochiq aytadigan bo‘lsak, bugun “ommoviy madaniyat “ deb atalgan g‘arb madaniyatiga taqlid. Zamonaviy yashash yaxshi, dunyo taraqqiyotidan orqada qolish kerakmas, ammo biz kim, qaysi millat vakili ekanligimizni unutmasligimiz kerak. Insonning tashqi qiyofasi ham uning qaysi millatga tegishli ekanligi va qanday manaviyat egasi ekanligini ko‘rsatib turuvchi belgilardan hisoblanadi. I. Karimov ” Yoshlik “ talabalar shaharchasida talabalar bilan bo‘lgan uchrashuvda kiyinish madaniyati haqida fikr bildirib, shunday degan edi: **“kiyinish madaniyatida albatta milliylik bo‘lishi kerak. Qolaversa, kiyim tanlash va kiyinishda yoshlarimiz milliy turmush tarzimizga, O‘zbekiston sharoitiga, iqlimimizga mos jihatlarni inobatga olishsa, foydadan xoli bo‘lmaydi “.**

«Ommoviy madaniyat » targ‘ib qiliyotgan moda insonning xoxlagan alfozda, istagan kiyimda jamoat joyida bemalol yurishini targ‘ib qilishga asoslangan qarashlar majmui hamdir. Yoki buni qo‘pol tarzda bayon etadigan bo‘lsak, «xayosizlik»ni targ‘ib etish. Bu balki birovlar nazarida shaxsiy «erkinlik», «demokratiya »dir, ammo bu bizning asrlar davomida shakllangan urf – odat, udumlarimiz, milliy qadriyatlarimizga mutloqo tug‘ri kelmaydi. Buzg‘unchi kuchlar moda deganda, bugun shunday modalarni yaratilmoqdaki, ular o‘zlarining bejirim, rango – rangiligi bilan yosh yigit - qizlarimiz diqqat – etiborini o‘ziga tortmokda. Yarimyolong‘ochlikka asoslangan ushbu modalarning olimlar bir kator zararli tamonlarini aniqlaganlar:

1. Odamlar, ayniqsa, yoshlarning tarbiyasi buziladi.

Inson hayvonat olamiga yaqinlashib boradi.

3. Kishilarning, ayniqsa, ayollarning latofati yo‘qolib boradi.

Ayol tabiatning bebaho mujizasi. U o‘zining nozikligi, nafosati, latofati va go‘zalligi bilan o‘ziga qarama – qarshi jins vakili – erkaklardan ajralib turadi. Shunday ekan, ayol kishi tabiatning bu inyomini asray bilishi va o‘z manaviyatini hayo, ibo, iffat fazilatlari bilan boyitib borishi kerak, shunda u yanada go‘zallashadi. Olloh ham go‘zallikni sevguchidir.

Har bir xalqning o‘z kiyinish madaniyati, odob – axloq meyorlari mavjud. Xalqimizning bu sohada ham asrlar davomida sayqallangan tajribasi bor, nima uchun bugun biz g‘arbning palak otib borayotgan yarimyalong‘och kiyinish madaniyatini qabul qiliyapmiz? Moda deb yarashsa – yarashmasa turli bo‘lmag‘ur, milliy qiyofamizga nomutanosib kiyimlarni yelkamizga ilib olsak, unda milliy, sharqona qiyofamizga putur yetmaydimi? Milliy qiyofamizni saqlashga o‘zimiz harakat qilmasak, kim bu uchun jon kuydiradi, bundan tashqari bunday kiyimlarni yelkaga ilish bilan o‘zgalarning milliy qiyofamizga doxl kilishlariga o‘z qo‘limiz bilan yo‘l ochib bermaymizmi ? Zero, kishining kiyimi, tashki ko‘rinishi ham uning

ichki olami, manaviyatini aks yettiruvchi belgilardan sanaladi. Inson oʻzining kimligi, qaysi millatga mansubligini bilishi va unga sodiq kqlishi bugungi kunda muhim, bu milliy oʻzlikni anglash, milliy mansublikdir. Albatta, har sohada boʻlgani kabi, umumjahon taraqqiyotidan orqada qolish kerak emas. Ammo bunga milliy qiyofamizni qurbon qilish evaziga emas, aksincha, milliy manaviyatimizni asos qilgan holda, taraqqiyot sari yuz tutmoq kerak. Shundagina xalqni xalk, millatni millat sifatida saqlab qolish mumkin.

Hozirgi paytda liboslar sanoati bilan shugʻullanuvchi gʻarbning « Kristian dior », « Versache », « Pol Makkarti », « Shanel » kompaniyalari mahsulotlari dunyo bozorida eng yuqori oʻrinlarni egallaydi. Bugungi kunda shu va shunga oʻxshash kompaniyalar mahsulotlari, turli liboslari juda tezlik bilan urfga aylanayapti. Buning sababi nimada? Buning birinchi sababi, suniy yoʻldoshlar, ommoviy axborot vositalari, internet orqali jahonda paydo boʻlayotgan kiyinish yangiliklari haqida axborotga ega boʻlish. Ikkinchisi, hozirgi paytda erkinlikka intilish hamda madaniyatlarning oʻzaro yaqinlashuv jarayoni bilan bogliq.

Bugungi yoshlarimiz esa juda qiziquvchan, yangilikka oʻch. Ular har bir voqea – hodisani etiborsiz qoldirmaydilar. Ayniqsa, dunyoda paydo boʻlayotgan modalar hamisha ularning diqqat markazida. Toʻgʻrisi, bazi yoshlarimiz qaysi joyda qanday kiyimni kiyish kerakligi, oʻzining boʻy – basdiga nima yarashishini oʻylamaydilar ham. Yoshlarimiz kiygan kiyimlari ularning muomalasi, yurish – turishi, hatti –harakatlari, oʻzini tutishi, ogʻizlaridan chiqayotgan soʻzlariga ham tasir etmay qolmaydi. Afsuski, buning mohiyatini tushunmagan bazi ota – onalar esa farzandlariga kiyinish madaniyatidan oʻgit berish oʻrniga aynan ularning oʻzlari farzandlariga gʻarbona, yarimyalongʻoch kiyimlarni kiyishni tavsiya etish orqali farzandidan «zamonaviy» boʻlishni talab etayotganlari afsuslanarlidir.

Faqat modada kiyinish kishining zamonaviyligini bildirmaydi. Zamonaviylik, avvalo, insonninig ichki va tashqi qiyofasining zamonga uyg‘unlashishi demakdir. Shu manoda har bir kastyum, libosning o‘z mazmuni bor. Rivojlangan mamlakatlarda oiladan tashqari maktabda, o‘kuv yurtlarida insonning turli davralarda o‘zini tutishi, o‘zi uchun munosib kiyim tanlash borasida maxsus bilimlar beriladi. Bizda bunday bilimlar maktabda « Odobnoma », « Oila psixologiyasi », oliy o‘quv yurtlarida « Etika », « Estetika » kabi fanlarda umumiy o‘qitiladi. Bugungi yoshlarimizning g‘arb modasiga mukkasidan ketayotgani, ular milliy kiyinishni unutdilar, degani emas. O‘zbek xalkining milliy kiyimlari hamisha ezozda, atlas, adras, banoras va beqasam matolar yana urfga kirmokda. Zamonaviylik va milliy uyg‘unlik aks etgan andozalarda tikilgan liboslar keng yoyilmokda. Bugun mamlakatimizda va butun jahonda zamonaviy kiyinishning milliy va zamonaviy uyg‘unlashgan ko‘rinishlari xam rivojlanib bormoqda. Mamlakatimizda istiqloldan so‘ng tadbirkorlik, insonning o‘z istyedodini rivojlantirishga qaratilgan imkoniyatlari natijasida yoshlarimiz orasida zamonaviy kiyimlarning tarix, milliylik bilan uyg‘unlashgan dizaynerlari yetishib chikmoqda. Albatta bu quvonchli hol. Ular bugun bu liboslarni faqat to‘yu – tantanalarda emas, ish sharoiti uchun ham moslashtirish niyatida izlanmoqdalar. Bu ham o‘zlikni anglash, milliy – manaviy tiklanish jarayoni davom etayotgan jamiyatimiz taraqqiyoti va xalqimiz milliy - manaviy qiyofasini tiklashdagi muhim qadamdir. Shunday ekan, har birimizning did, farosatimizda sharqona tarbiyaning bo‘lishi, tashqi qiyofamizda ham milliylik muhimdir.

«Ommoviy madaniyat »ning bugun butun dunyo bo‘ylab tarqalib borayotgan, insonlarning manaviyatini o‘z maqsadi sari yetaklashga urinayotgan manaviy tahdidlaridan biri individualizm g‘oyasidir.

Individualizm lotincha so‘z bo‘lib, bo‘linmas demakdir. Ushbu g‘oya negizida shaxsning jamoadagi avtonomiyasi, uning o‘z

manfaatlarini boshqalardan alohida, hatto ustun koʻyish, oʻz qobigʻiga oʻralib yashashiga asoslangan qarashlari tashkil etadi. « Hozirgi paytda ommoviy bir xillik hukumron boʻlib borayotgan, kishilar dunyoqarashini boshqarish, ularning xulqiga muayyan standart qoliplarni singdirish yoʻlidagi urinishlar tabora avj olayotgan va keng miqiyos kasb etayotgan bir paytda individualizm uzining ham nazariy, ham amaliy koʻrinishida ana shu hodisalarga oʻziga xos javob reaksiyasi sifatida namoyon boʻlmoqda ».

Individualizmda shaxsning odomoviligini tushunish mumkin. Uning tasiriga tushgan har qanday yigit - qiz oʻzbilgicha yashashga, koʻngliga nima kelsa, shuni amalga oshirishga harakat qilishga urinadi. U uchun ota – ona, qarindosh - urugʻ, mahalla – koʻyning ahamiyati yoʻq, ularning oʻz hayotiga aralashishini ham istamaydi. Individualizm tasiriga tushgan kishi uchun atrofdagilarning hayoti, tashvishi begona. Ular faqat oʻz hayoti, oʻz tashvishlari bilan band boʻlib, oʻzgalar hayoti bilan qiziqmaydilar, hatto buni ortiqcha, deb hisoblaydilar va oʻzgalarning ham u uchun qaygʻurishini istamaydilar. Bunday odamlarning mavjudligi albatta jamiyatga foyda emas, chunki manaviyatida loqaydlik, befarqlik kayfiyati ustun boʻlib oʻsgan har bir yigit – qiz oʻzini oilada mustaqil tutishga urinadi. Oʻz fikrini oʻzi maqullab, har doim oʻzini haq, deb biladilar. Bu holat gʻarb uchun shaxsiy erkinlik, jamiyatda shaxsning alohida mustaqil individ sifatida namoyon boʻlishi, deb etirof etiladi. Koʻpchilik bu holatni ijobiy baholaydi. Shaxsning oʻz erki, mustaqil qarashlarga ega boʻlishi yaxshi, albatta. Ammo gʻarbda shaxs fikri ustun boʻlgani kabi, sharkda, jamoa fikri ustun turadi. Bu holatni hisobga olsak, individualizm gʻoyasi bizning manaviy muhit, turmush tarzimiz, milliy anana va qadriyatlarimizga tugʻri kelmaydi. Asrlar davomida davom etib kelayotgan ota –onaga hurmat, qon – qarindoshlik rishtalari, mahalla – koʻyga boʻlgan munosabat, mahalla – koʻyga boʻlgan munosabat bizda individualizm qarashlariga zid holat sifatida shaxsning alohida, hech kimni tan

olmasligiga izn bermaydi. Bizda shaxsdan shaxs sifatida va undan koʻprok jamoa vakili sifatida namoyon boʻlish talab etiladi. Ammo bugungi kun mafkuraviy jarayonni hisobga olsak, individualizm odamlar, yoshlar qalbini egallab olmaydi, deb aytaolmaymiz. Boshqa buzgʻunchi gʻoyalar kabi individualizm ham xalqimiz, xususan, yoshlarimiz uchun manaviy xatardir. Individualizmdek xatarlarning kuchayib borishi odamlarni oʻzi tugʻilib oʻsgan yurti va xalqidan bezishiga, ular qalbida vatanparvarlik, yurtga sadoqat tuygʻularining barham topishiga va eng xatarlisi odamlarni hamma narsaga loqayd boʻlib qolishiga olib keladi. Donishmandlardan biri loqaydlik haqida shunday degan edi: « Dushmanlardan qoʻrqma, nari borsa ular seni oʻldiradi. Doʻstlardan qoʻrkma, nari borsa ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qoʻrk, ular seni oʻldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va befarq qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir boʻlaveradi ».

Turli manaviy tahdidlarning koʻpayib borishi bugungi kunda dunyoning bazi hududlarida katta manaviy yoʻkotishlarga olib keliyotgani sir emas. Millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, buning oqibatida inson manaviyati bilan bogʻlik turli muommolarning kelib chiqayotgani, axlok – odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi izdan chiqayotganligini kuzatish mumkin. Shu oʻrinda I Karimovning ushbu suzlarini iqtibos tariqasida keltirish maqsadga muvofiq:

«Manaviyatimizga karshi karatilgan har kanday xuruj – bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga utib kelayotgan oʻziga xos va oʻziga mos xususiyatlarga, milliy gʻurur, milliy iftixor tuygʻusiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yoʻldagi barcha asorat va illatlardan xalos boʻlib, ozod va farovon xayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf – xatarlarni anglatadi ».

Individualizm kabi inson manaviyatiga yopishayotgan illatlardan yana biri egotsentrizm balosidir. Individualizm qarashlariga yaqin, insonning o‘z maqsadlarini hamma narsadan ustun ko‘yishi, o‘z huzur – halovoti yo‘lida hech narsadan tap tortmasligi, nimadan foyda kelsa, shunga mukkasidan ketishlik, o‘zi va faqat o‘zini o‘ylash kayfiyati egotsentrizmga xos holat. Egotsentrizm odamzod manaviyatidagi illatlardan biri sifatida insoniyatga yetkazgan zarari nuqtai nazaridan bu illat jaholat va aqidaparastlikdan aslo qolishmaydi.

Egotsentrizmga berilgan kishi atrof – muhit, ota – ona, qarindosh - urug‘ va boshqalar bilan munosabatda faqat o‘zining shaxsiy manfaati, maqsadini ko‘zlab ish yuritadi. O‘zgalar dardi, tashvishi uning uchun begona. Eng xatarli tamoni, o‘z manfaati yo‘lida u hatto har qanday pastkashlikdan ham toymaydi. Bunday odamlarda vijdon, burch, masuliyat, halollik, vatanparvarlik va yurtga sadoqat tuyg‘ulari bo‘lishi dargumon. Jamiyatda bunday odamlarning mavjudligi esa xatardan boshka narsa emas.

Egotsentrizm inson manaviyatida o‘z – o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, albatta. To‘g‘ri tarbiya topgan, xalqning azaliy qadriyat va ananalari tasirida tarbiyalangan kishi manaviyatida egotsentrizm ildiz otmaydi Xalqning azaliy qadriyatlariga eskilik sarqiti sifatida munosabatda bo‘layotgan g‘arbning bazi yoshlari esa egotsentrizm tasiriga tushib qolgan, ular uchun oila qurish, farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanish ortiqcha tashvish. O‘z huzur – halovotidan voz kechishni istashmaydi, oila ular uchun hayotdagi to‘siq, xalaqit beruvchi, ortiqcha yuk. Natijada, bugun g‘arbning bazi mamlakatlarida tug‘ilish darajasi borgan sari pasayib ketmokda.

Bugun insoniyat ulkan yutuqlarga erishdi. Uning tafakkuri cheksizlik sari intilmoqda. Olis koinotu tubsiz yer qaridan yangilik axtaradi. Ong va tafakkuri o‘sgan sari, afsuski, insonlar manaviyatida turli illatlar, o‘zgalar hayotini izdan chiqarishga qaratilgan buzg‘unchiliklar ham davom etmoqda, degan fikrni mavzumizning

boshidayoq takidlab oʻtgan edik. Bu haqda fikrimizni davom ettirib, shuni aytish mumkinki, aslida bu qarama – qarshilik, ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi azaliy kurash. Inson esa bu ikki qutb oʻrtasidagi azaliy kurashning qurbonidir. U allaqachon dunyoning ezguligi va buzgʻunchiligi oʻrtasidagi bu kurashni anglab yetgan, ammo anglab yetgani holda, afsuski, uning oʻzi bu kurashda faol ishtirokchiga aylangan, bir – birini yoʻq qilishga shay, bir – birini tanazzul sari yetaklaydi. Inson tamonidan yaratilayotgan buzgunchi goyalar yer kurrasini bir emas, bir necha marta yuk kilib tashlashga kodir. Shunday taxlikali, xavf – xatarga toʻla dunyoda yashar ekanmiz, avvalombor, inson ekanligimizni, tiriklik biz uchun oliy nemat ekanligini chukur anglab yetishimiz zarur. Manaviyatmizga boʻlayotgan har bir xatar, tahdidni koʻraolishimiz va unga nisbatan ogoh boʻlib yashashimiz kerak. I. Karimov aytganidek: **« Manaviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid – oʻzidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sogʻlom avlod kelajagini taminlash yoʻlidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir – oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin ».**

Insoniyatning buzgʻunchi gʻoyalari tufayli atrof – muhit, tabiat bulgʻangan, nafas olish mushkullashgan. Bugun insoniyat hayoti oʻzi yaratgan illatlardan xavf ostida. Mana inson manaviyatining buzgʻunchiligi oqibati.

Bugun juda ham extiyotkorona qadam qoʻymok kerak. Ayniksa, hali suyagi qotmagan farzandlarimizni yovuz kuchlar hujumidan asrab, avaylab tarbiyalashimiz zarur. Toki, ularning musaffo, murgʻak qalblarida turli buzgʻunchiliklar ildiz otmasin. Zero, ular kelajagimiz, bugungi taraqqiyotning ertangi egalaridir. Yoshlar qalbida ezgulikni tarbiyalash ular manaviyatining sofligi va milliy manaviyatini asrab qolish garovi. Oʻz milliy manaviyati, madaniyatiga ega xalqgina oʻzini xalq, millat sifatida saqlab qola oladi.

5-MAVZU. INTERNET: KECHA VA BUGUN.

REJA

1. Internetning paydo bo‘lish tarixi.

2. Internetni xalqaro miqyosda tartibga solish masalalari.

3. Internetda axborot xavfsizligi.

4. Ijtimoiy tarmoqlar va inson ongi.

1. Hozirgi kunda Internet dunyo bozorini o‘rganishda va savdo-sotiq ishlarini tashkil etishda zamonaviy biznesning eng muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Internet o‘zaro aloqa bogiash yoki ma’lumotlar almashish tarmog‘i bo‘libgina qolmasdan, unda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar ombori majmuyi dunyo bilimlar omborini tashkil etadi. Internetning kompyuterlar bilan bog‘hq bo‘lgan narsalardan muhim farqi shundaki, u o‘zi haqidagi ma’lumotlarni ham o‘zida saqlay olishidir. 1992-93-yillarda axborot texnologiyasining rivojlanishi sababli tasviriy va tovushli axborotlarni olis masofalardan qisqa vaqtda uzatishning shunday imkoniyati yaratilganki, u World Wide Web deb nomlangan.World Wide Web ning yarati lishiga 1989-yil Shvetsariyadagi Yevropa Yadroviy Tadqiqotlar Kengashining loyihasi asos bo‘ldi.

2. 1996 yil. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida BMTning O‘zbekistonda Internetni rivojlantirish loyihasi tashkil etildi. Keyinchalik bu UzNet nomi bilan tanilgan. Telekommunikatsiya bozorida UzPAK kompaniyasi faoliyatini boshladi.

3. Internet deganda ko‘pchilik WWWni tushunadi. Aslida WWW Internetni bir qismi bo‘lib, xalqaro o‘rgimchak to‘ri ma’nosini anglatadi. WWW multimedia (rasm va matnli axborotni tovushli va harakatdagi shakllardan iborat axborot bilan birlashtirish texnologiyasi) imkoniyatlariga ega bo‘lgani uchun foydalanuvchilar e’tiborini juda tez qozondi.

4. Internet xalqaro tarmog‘i bilan ozirgi paytlarda keng tarqalgan kiberfazo, virtual borliq kabi tushunchalar ham bevosita bog‘langan. Mazkur tushunchalarning muhim xususiyati shundan iboratki, ularga biror fan tushunchalari yordamida aniq bir ta’rif berish mumkin emas. Ular badiiy obraz bo‘lib, ilmiy tushuncha hisoblanmaydi.

5. INTERNET TARIXI.

6. Hamma Internet haqida eshitgan va undan foydalanishni xohlaydi. Malumki, Internet axborotni soniyalar ichida uzoq masofalarga uzatish imkonini beradi. Shuning uchun bu darsda Internetni kelib chiqishi, uning tarkibi, unda axborot qanday qoidalar asosida uzatilishi va qabul qilinishi haqida ma’lumot beriladi. Internet tarixi o‘zgarib va rivojlanib turuvchi olam yoki jamiyat haqida turli xil ko‘rinishdagi katta hajmli axborotlar dunyoning deyarli hamma mamlakatlarida yig‘ilib bormoqda. Bu ma’lumotlardan foydalanish zamonaviy axborot texnologiyasi vositalarisiz katta mablag‘ va vaqt talab etadi. Bunday muammolar Internet (Xalqaro informatsion tarmoq)ning tashkil etilishi bilan hal etildi. Internet "sovuq urush" mahsuli hisoblanadi. Uni yaratilishiga yadro zarbalaridan qisman zararlanganda ham ishlay olishga mo‘ljallangan tajribaviy aloqa sistemasi sifatida XX asrning 70-yillari boshlarida AQSH Mudofaa Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ARPANet aloqa tarmog‘i asos bo’Igan. ARPANet — buzilgan aloqa bo‘g‘inlarni avtomatik ravishda aylanib o‘tishga va tarmoqdagi kompyuierlarning ma’lumot almashishiga imkon yaratuvchi kommunikatsiyalar paketidir. ARPANet tarmog‘i birinchi marta ishga tushirilganda 4 ta kompyuter orasida maxsus kabel orqali bor-yo‘g‘i 2 minut davomida axborot almashinilgan. Avvaliga bu tarmpq maxfiy hisoblangan. Keyinchalik, modem va telefon tarmog‘i orqali axborot almashish imkoniyati yuzaga kelgandan so‘ng bu tarmoqqa turli korxona va tashkilotlar ulanib olgan. Shu tariqa bu tarmoq Internet tarmog"iga aylangan. Internet tarmog‘i biror tashkilotga

bo‘ysunmaydi, lekin davlatlar, ilmiy va ta’lim tashkilotlari, kommersiya strukturasi va millionlab xususiy shaxslar tomonidan moliyalashtiriladi. Tarmoq taklif etilgan ko‘ngillilar tomonidan tashkil etilgan "Internet arxitekturasi bo‘yicha kengash" tomonidan boshqariladi.

7. Internet — dunyo bo‘ylab joylashgan va yagona tarmoqqa birlashtirilgan minglab kompyuter tarmoqlarining majmuidir. Internetda axborot almashish standart qoidalar asosida amalga oshiriladi. Internetdagi ma’lumotlarni uzatish qoidalari protokollar (masalan, tcp/ip —transmisson control protokol/internet protokol) deb ataladi.TCP/IP protokolining axborotni uzatish usuli quyidagicha: TCP protokoli axborotni paketlarga ajratadi; IP protokoli orqali barcha paketlar qabul qiluvchiga uzatiladi va TCP protokoli tomonidan barcha paketlarning qabul qilinganligi tekshiriladi; barcha paketlar qabul qilingandan keyin TCP protokoli ularni tartibga soladi va yaxlit ko‘rinishga keltiradi.Kompyuterlarning axborotlarni telefon tarmoqlari orqali yubora olishiga imkon beruvchi modem deb ataluvchi qurilmaning yaratilishi (1979-yil Nayes kompaniyasi) va rivojlanishi sababli faqatgina shaxsiy kompyuteri va telefoni bor millionlab kishilar tarmoqning maxsus quril-malarisiz ham Internetdan foydalana olish imkoniyatiga ega bo’Idilar. Hozirgi kunda Internet dunyo bozorini o‘rganishda va savdo-sotiq ishlarini tashkil etishda zamonaviy biznesning eng muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Internet o‘zaro aloqa bogiash yoki ma’lumotlar almashish tarmog‘i bo‘libgina qolmasdan, unda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar ombori majmuyi dunyo bilimlar omborini tashkil etadi. Internetning kompyuterlar bilan bog‘hq bo‘lgan narsalardan muhim farqi shundaki, u o‘zi haqidagi ma’lumotlarni ham o‘zida saqlay olishidir.1992—93-yillarda axborot texnologiyasining rivojlanishi sababli tasviriy va tovushli axborotlarni olis masofalardan qisqa vaqtda uzatishning shunday imkoniyati yaratilganki, u World Wide

Web deb nomlangan.World Wide Web ning yaratilishiga 1989-yil Shvetsariyadagi Yevropa Yadroviy Tadqiqotlar Kengashining loyihasi asos boʻldi. Bu loyihaning maqsadi Internetda axborot tarqatishning samarali usullarini izlash va uning oqibatlarini kuzatishdan iborat edi. Hozirgi kunda World Wide Web Internetning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri boʻlib qoldi.Internet deganda koʻpchilik World Wide Web (qisqacha Web yoki WWW) ni tushunadi. Aslida World Wide Web Internetning bir qismi boʻlib, xalqaro oʻrgimchak toʻri maʼnosini anglatadi. World Wide Web multimedia (multimedia — rasm va matnli axborotni tovushli va harakatdagi shakllardan iborat axborot bilan birlashtirish texnologiyasi) imkoniyatlariga ega boigani uchun foydalanuvchilar eʼtiborini juda tez qozondi.

8. INTERNET TUSHUNCHASI.

9. Internet bu yagona standart asosida faoliyat koʻrsatuvchi jahon global kompyuter tarmogʻidir. Uning nomi ikki xil talqin qilinadi, yaʼni “International Network” – xalqaro tarmoq va “Interconnected networks” «tarmoqlararo» degan maʼnoni anglatadi. U mahalliy (lokal) kompyuter tarmoqlarni birlashtiruvchi axborot tizimi boʻlib, oʻzining alohida axborot maydoniga ega boʻlgan virtual toʻplamdan tashkil topadi.

10. Internet tarmoqgʻi, unga ulangan barcha kompyuterlarning oʻzaro maʼlumotlar almashish imkoniyatini yaratib beradi. Internet tarmogʻining har bir mijozi oʻzining shaxsiy kompyuteri orqali boshqa shahar yoki mamlakatga axborot uzatishi mumkin. Masalan, Vashingtondagi Kongress kutubxonasi katalogini koʻrib chiqish, Nyu-Yorkdagi Metropoliten muzeyining oxirgi koʻrgazmasiga qoʻyilgan suratlar bilan tanishish, xalqaro anjumanlarda ishtirok etish, bank muomalalarini amalga oshirishi va hatto boshqa mamlakatlarda istiqomat qiluvchi Internet tarmogʻi mijozlari bilan shaxmat oʻynash mumkin.

11. Internet (lotincha: inter – aro va net – tarmoq) – standart internet protokoli (IP) orqali ma’lumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchun ochiq to‘plamidir. Bu ma’lumotlarning asosiy tashuvchi protokoli TCP/IP dir. TCP/IP o‘zaro bog‘liq protokollar yig‘indisi bo‘lib, internetda ma’lumot tarqalishida asosiy o‘rin egallaydi. Internet tarmog‘ini minglab akademik, davlat, tijorat va xonadon tarmoqlari tashkil etadi. Internet elektron pochta, chat hamda o‘zaro bog‘langan sahifalar va boshqa Butunjahon o‘rgimchak to‘ri servislaridan tashkil topadi.

12. Internet — katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o‘zaro bog‘lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o‘rni, zamon va makondan qat’iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o‘zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi. Qaydnomalar tizimi bilan boshqariladigan barcha hosila tarmoqlar hamkorlikda iste’molchilarga ma’lumotni saqlash, e’lon qilish, jo‘natish, qabul qilish, izlash va ma’lum bo‘lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va b. ko‘rinishlar) da axborot almashinishga imkon yaratadi.

13. Internet tizimi 20-asr. 60-yillarida paydo bo‘ldi. O‘sha paytlarda Amerika mudofaa departamenti tashabbusi bilan kompyuterlar telefon tarmoqlariga ulana boshladi. Dastlab, bunday faoliyat takomillashtirilgan loyihalar agentligi (AKRA) tadqiqotlari doirasida olib borildi. Bu tadqiqotlar sovuq urush avj olgan davrga to‘g‘ri keldi. AQSH mudofaa departamenti urush bo‘lib qolgan taqdirda oddiy kommunikatsiya vositalari ishdan chiqqudek bo‘lsa, o‘rniga yangi qo‘shimcha kommunikatsiya vositalarini izlash bilan faol shug‘ullandi. 60-yillar oxiri va 70-yillarda Internet tarmog‘i uncha keng rivojlanmadi. Dastlabki o‘n yillik xalqaro tarmoq, asosan, harbiylar va yirik olimlarning shaxsiy elektron liniyalari faoliyati doirasi bilan cheklandi. Internetning beqiyos rivojlanish

sur’ati davlat, ta’lim, akademik va ijtimoiy tuzilmalarning o‘ziga xos umumiy moliyaviy va intellektual ulushiga bog‘liq bo‘ldi.

14. 20-asr 70-yillarida turli tarqoq kompyuterlar tarmoqlari orasida informatsiyani uzatish va almashinish qoidalari tizimi ishlab chiqildi. Bular o‘zaro hamkorlikka doir qaydnomalar – Internetworking protocols (IP) bo‘lib, global tarmoqni takomillashtirish uchun qulay muhit yaratdi. IP o‘rnatgan tartibga ko‘ra, har qanday alohida tarmoq informatsiyani ko‘p tarmoqlar orqali "birinchi punktdan to oxirgi punktgacha" yetib borishini nazorat qilishi lozim. Shuning uchun Internet negizini tashkil qiladigan qaydnomalar tizimi, xususan, Transmission Control Protocol (TCP), File Transfer Protocol (FTP) ichida IP muhim qaydnomalardan biri hisoblanadi.

15. Internet rivojlanishining dastlabki bosqichida uni, asosan, AQSH mudofaa departamenti mablag‘ bilan ta’minlagan. 70-yillar oxiriga kelib esa, asosan, uch ta’minlash manbai ajralib turdi: xukumat, un-tlar va tadqiqot laboratoriyalari (shu jumladan mustaqillari ham).

16. 80-yillarda Internet o‘ziga xos tarzda universal ko‘lamlargacha rivojlana boshladi. O‘sha davrda Internet vositasida uzatiladigan informatsiyaning o‘sishi "oyiga 20 foizdan ko‘paytirib borish" shiori ostida bordi. Mac, AQSH ning asosiy tarmog‘i bir sekundda 165 mln. bayt informatsiyani qayta ishlaydi va uzatadi. Bu sur’at bir sekundda "Brittanika" ensiklopediyasi"ni uzatish uchun yetarli. 80-yillar o‘rtalarida Internetni jamoat va tijorat tarmoklariga ulash natijasida Internet tizimi ham ko‘lam, ham sifat jihatidan rivojlandi. 90-yillarda Internet tizimini boshqarish borasida tub o‘zgarishlar yuz berdi.

17. Internet standartlar tizimi hisoblanadi. U o‘z faoliyatida o‘zini o‘zi rostlab turish, o‘zini o‘zi boshqarish falsafasiga rioya qilib foliyat yuritadi. Hozirgacha uni boshqarib turadigan yagona tashkilot yo‘q. Uning faoliyatiga doir qoidalar kirish mezonlari

sifatida ishlab chiqilgan. Texnik masalalar esa "Internet Engineering Forse (IETL) kompaniyasining faol ishtirokida hal qilinadi, barcha standartlar "Internet Architecture Board" (IAB) kompaniyasi tomonidan qabul qilinadi. 20-asrning oxirgi o‘n yilligida Internet tizimi beqiyos darajada o‘sdi. Agar 80-yillar oxirida Internet tizimiga taalluqli 28000 dan ortiq asosiy kompyuterlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 90-yillar oxiriga kelib ularning soni o‘nlarcha mln.ga yetdi. Internet xizmatidan foydalanuvchilar soni butun yer yuzi bo‘yicha 160 mln. kishini tashkil qildi (1999).

18. Shveysariyadagi yadro tadqiqotlari markazlaridan biri multi-media tizimining tarqoq kompyuterlarini yagona tarmoqqa "bog‘lash"ning ancha takomillashgan usulini ishlab chikdi. U "World Wide Web" ("Jahon o‘rgimchak uyasi") tizimida o‘z aksini topdi. Bu tizim Internetni o‘ziga xos ommaviy axborot vositasiga aylantirdi hamda u informatsiya texnologiyalari, radio eshittirish va telekommunikatsiya imkoniyatlariga ega bo‘ldi. Endi Internet faqat matnni emas, balki tasvirni, suratlarni, rasmlarni, tovush va videotasvirlarni ham uzatishga, voqea yuz berayotgan joydan to‘g‘ridanto‘g‘ri olib berishga ham qodir.

19. Internet barcha an’anaviy informatsiya tizimlari – telekommunikatsiya, teleradioeshittirish, informatsiyalarni xalqaro miqyosda faol almashtirish va h. k.ning texnologik imkoniyatlarni uyg‘unlashtirib qo‘llanganligi uchun u bir necha vazifani – informatsiya va bilimlar manbai; ommaviy axborot vositasi, insoniyat faoliyatining barcha sohalari (shu jumladan, ta’lim-tarbiya, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, sayyohlik va h. k.) ga taalluqli informatsiya xizmatlari tizimi; istiqbolli bozor va milliy kompaniyalarning xalqaro informatsiya maydoni va jahon bozoriga eng tejamli va tezkor usulda qo‘shilish imko-nini beradigan vosita vazifasini o‘taydi.

20. Jamoat va tijorat tuzilmalari uchun Internetdan foydalanish imkoniyati oshgan sari provayderlar (Internet bilan

aloqa oʻrnatishga xizmat koʻrsatadigan kompaniyalar), Internet informatsiyasi isteʼmolchilari soni ham koʻpaymoqda, informatsiya manbai va ommaviy axborot vositasi sifatida Internet ommalashmoqda. Bularning barchasi noshirlar, jurnalistlar, informatsiya agentliklari, i. ch. xamda savdo kompaniyalari va firmalari muhitida raqobatning shakllanishiga ijobiy taʼsir qiladi. Telefon simlaridan tashqari, optik tolali kabellar, radio tarmogʻi yoki sunʼiy yoʻldosh orqali Internetga chiqish mumkin boʻldi. Buning uchun Internet bilan aloqa oʻrnatishga xizmat koʻrsatadigan kompaniyalar – provayderlar boʻlishi lozim. Oʻzbekistonda Internetga ulashga doir informatsiya xizmatlari 1997-yildan koʻrsatila boshladi. Dastlab Naytov (http://www.naytov.com), Uznet (http://www.uznet.net Arxivlandi 2013-02-16 Wayback Machine saytida.) yoki Istlink (http://www.eastlink.uz Arxivlandi 2020-06-12 Wayback Machine saytida.) kabi provaydkompaniyalar faoliyat boshladi (1999). Oʻzbekistonda jadal rivojlanayotgan kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish sohalari Internet tarmogʻining aloqa funksiyasidan keng foydalanishga imkon beradi. Internetga ulangan abonent uydagi yoki ishxonadagi kompyuter orqali, aytaylik, AQSH, Avstraliya yoki Afrikadagi kompyuterlarga kiritilgan xilma-xil mavzudagi maʼlumotlarni matn, surat yoki videotasvir koʻrinishida olishi mumkin. Bu maʼlumotlar Internet tizimiga oldindan kiritiladi. Dunyoning turli chekkalarida joylashgan maxsus ixtisoslashgan kompaniyalar qidiruvni tezlashtirishga yordam beradi. Ular "qidiruv dvigateli" deb ataladi, maʼlumotlarning mundarijasini maʼlumotnoma (spravochnik) kabi saqlaydi va oʻsha maʼlumotlar joylashgan "Internet adresi"ni abonentga beradi. Mazkur adres boʻyicha maʼlumotlar "Internet varaqchalari" da saqlanadi. Abonent biror maʼlumotni, mas, "paxta" soʻzini qidiruv dvigateli orqali qidirsa, shu soʻzga tegishli maʼlumotlarni, paxta bilan ish olib boradigan kompaniyalar roʻyxatini yoki jahon birjasida paxtaning narxini abonent kompyuterida chiqarib beradi. Internet

varakchalari shaxsiy va rasmiy bo‘lishi mumkin. Shaxsiy varaqchalar alohida shaxslar tomonidan tuziladi va shu shaxslar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Rasmiy varaqchalar idoralar, tashkilotlar, kompaniyalarga tegishli bo‘ladi, ularda hukumat idoralariga doir ma’lumotlar saqlanadi. Internet orqali savdo-sotiq ishlari, kom-paniyalar xizmatlarini yoki mahsulotlarni reklama qilishni keng yo‘lga qo‘yish, Internet varaqchalarida suratlar bilan berilgan mahsulotlarni harid qilish mumkin.

21. Xalqaro Internet tizimida O‘zbekiston haqida ham ma’lumotlar bor. Rasmiy varaqchalardan O‘zbekiston hukumati varaqchalari, O‘zbekistonning AQSH dagi elchixonasi varaqchalari va b. ko‘plab rasmiy varaqchalar mavjud. Ularda O‘zbekiston Respublikasiga tegishli deyarli barcha ma’lumotlar bor. Bulardan tashqari, O‘zbekistonga taalluqli shaxsiy varaqchalar ham mavjud: "Umid" varaqchasi, o‘zbek estradasi haqidagi varaqcha va boshqa 2000-yil fevral oyidan boshlab Internet efiriga O‘zbekiston televideniyesi (O‘z TV)ning "Axborot" dasturi chiqa boshladi, O‘z TV sayti tuzilgan va takomillashtirilmoqda. Informatsiya resurelariga oid ko‘p masalalarni respublikadagi yirik kutubxonalar shu sohadagi Internet tarmog‘i ko‘lamiga suyangan holda hal qiladi. Mas, Tibbiyot kutubxonasi, Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi, O‘zbekiston fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasi va boshqa.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Internet"ning xalqaro axborot tizimlariga kirib borishni ta’minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori (2001) O‘zbekistonning bu borada xalqaro miqyosda o‘z mavqeiga ega bo‘lishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda ma’lumotlarni uzatish milliy tarmog‘i O‘zPAK Davlat kompaniyasi va O‘zNET tarmog‘idan iborat.

23. Internetdan foydalanuvchilar soni, mas, AQShda 55 mln., Xitoyda 55 mln., Yaponiyada 8 mln. dan oshib ketdi. Keyingi o‘rinlarni Angliya, Kanada, Germaniya davlatlari egallagan, RF

millionli chegarani egallamoqda. O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida xalqaro Internet tarmog‘iga ulanish O‘z PAK Davlat kompaniyasining xalqaro kanallari orqali ta’minlanadi. Respublikada 50 ga yaqin Internet-provayder ro‘yxatga olingan. O‘zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni 300000 dan ortiq. Internet tizimida O‘zbekistonning 300 dan ortiq sayti faoliyat ko‘rsatmoqda (2002).

24. Internet yaratilish tarixi

25. 1950-chi yillar davomida barcha kompyuterlarni yagona kommunikatsion tarmoqqa ulash ehtiyoji tug‘ildi. Bu ehtiyoj markazlashmagan to‘r, navbat nazariyasi va paketlar kommutatsiyasi kabi sohalarda tadqiqotlarni olib borishga olib keldi. Bu voqealarning natijasida AQShda ARPANETning paydo bo‘lishi voqealarning keyingi rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

26. Dastlabki TCP/IP protokoliga asoslangan tarmoq tizimi 1984-yil AQSH Milliy Fanlar Akademiyasida yaratilib, keyinchalik u NSFNet loyihasiga aylandi. 1995-yil internetning tijorat versiyalari paydo bo‘la boshladi.

27. 1991-yil CERN Butunjahon o‘rgimchak to‘ri loyihasini e’lon qildi. Bu voqea Tim Berners-Leye tomonidan HTML, HTTPlarning yaratilishi va CERNda dastlabki veb-sahifalarni paydo bo‘lishidan 2 yil keyin sodir bo‘ldi. 1993-yil birinchi internet brauzer Mosaicning 1.0 versiyasi paydo bo‘ldi va 1994-yilda internetga ommaviy qiziqish tug‘ila boshladi. 1996 yildan internet so‘zidan keng foydalana boshlandi, biroq u asosan, Butunjahon o‘rgimchak to‘rini anglatadi.

28. Shu bilan birga internet 10 yil ichida juda tez tarqalib ketdi, uning ochiq arxitekturaga asoslanganligi, birovning mulki emasligi, markaziy boshqaruvning yo‘qligi uni organik rivojlanishiga sabab bo‘ldi. hozirda internet insoniyatning eng katta texnologik yutuqlaridan biri sifatida tan olindi.

29. Axborot xavfsizligi muammosi

30. Internet texnologiyalarining yaratilishi turli manbalardan tez va oson yo‘l bilan axborot olish imkoniyatlarini hamma uchun-oddiy fuqarodan tortib yirik tashkilotlargacha misli ko‘rilmagan darajada oshirib yubordi. Davlat muassasalari, fan-ta’lim muassasalari, tijorat korxonalari va alohida shaxslar axborotni elektron shaklda yaratib-saqlay boshladilar. Bu muhit avvalgi fizikaviy saqlashga nisbatan katta qulayliklar tug‘diradi: saqlash juda ixcham, uzatish esa bir onda yuz beradi va tarmoq orqali boy ma’lumotlar bazalariga murojaat qilish imkoniyatlari juda keng. Axborotdan samarali foydalanish imkoniyatlari axborot miqdorining tez ko‘payishiga olib keldi. Biznes qator tijorat sohalarida bugun axborotni o‘zining eng qimmatli mulki deb biladi. Bu albatta ommaviy axborot va hamma bilishi mumkin bo‘lgan axborot haqida gap borganda o‘ta ijobiy hodisa. Lekin pinhona(konfidensial) va maxfiy axborot oqimlari uchun Internet texnologiyalari qulayliklar bilan bir qatorda yangi muammolar keltirib chiqardi. Internet muhitida axborot xavfsizligiga tahdid keskin oshdi:

31. Axborot o‘g‘irlash

32. Axborot mazmunini buzib qo‘yish, egasidan iznsiz o‘zgartirib qo‘yish

33. Tarmoqqa va serverlarga o‘g‘rincha suqulib kirish

34. Tarmoqqa tajovuz qilish: avval qo‘lga kiritilgan transaksiya (amallarning yaxlit ketma-ketligi)larni qayta yuborish, "xizmatdan yo axborotga daxldorlikdan bo‘yin tovlash" , jo‘natmalarni ruxsat berilmagan yo‘l orqali yo‘naltirish.

35. Axborot xavfsizligini ta’minlash quyidagi uch asosiy muammoni yechishni nazarda tutadi. Bular:

36. Pinhonalik(Confidentiality)

37. Butunlik(Integrity)

38. Qobillik(Availability)

39. AQSH dagi kompyuter xavfsizligi instituti va FBR tomonidan kompyuter jinoyatlari bo‘yicha 1999 yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra so‘rovda qatnashgan tashkilotlarning 57 foyizi Internet bilan ulanish joyi "ko‘pincha tajovuzlar tashkil etiladigan joy" deb, 30 foyizi ularning tarmog‘iga suqulib kirish yuz berganini, 26 foyizi esa tajovuz vaqtida pinhona axborotni o‘g‘irlash sodir bo‘lganini ma’lum qilishgan. AQSH kompyuter jinoyatlariga qarshi kurash Federal markazi - FedCIRC ma’lumotlariga ko‘ra 1998 yilda 1100000 kompyuterli 130000 ga yaqin davlat tarmoqlari tajovuzga duchor bo‘lgan.

40. "Kompyuter tajovuzi" deganda kishilar tomonidan kompyuterga beruxsat kirish uchun maxsus dasturni ishga tushirishni nazarda tutiladi. Bunday tajovuzlarni tashkil etish shakllari har xil. Ular quyidagi turlarga bo‘linadi

41. Kompyuterga olisdan kirish: Internet yoki intranetga kimligini bildirmay kirishga imkon beruvchi dasturlar

42. O‘zi ishlab turgan kompyuterga kirish: kompyuterga kimligini bildirmay kirish dasturlari asosida.

43. Kompyuterni olisdan turib ishlatmay qo‘yish: Internet (yo tarmoq) orqali olisdan kompyuterga ulanib, uning yoki uni ayrim dasturlarining ishlashini to‘xtatib qo‘yuvchi dasturlar asosida(ishlatib yuborish uchun kompyuterni qayta ishga solish yetarli).

44. O‘zi ishlab turgan kompyuterni ishlatmay qo‘yish: ishlatmay qo‘yuvchi dasturlar vositasida.

45. Tarmoq skanerlari: tarmoqda ishlayotgan kompyuter va dasturlardan qay biri tajovuzga chidamsizligini aniqlash maqsadida tarmoq haqiqatda axborot yig‘uvchi dasturlar vositasida.

46. Dasturlarning tajovuzga bo‘sh joylarini topish: Internetdagi kompyuterlarning katta guruhlari orasidan tajovuzga bardoshsizlarini izlab qarab chiquvchi dasturlar vositasida.

47. Parol ochish: parollar fayllaridan oson topiladigan parollarni izlovchi dasturlar vositasida.

48. Tarmoq tahlilchilari (snifferlar): tarmoq trafikini tinglovchi dasturlar vositasida. Ularda foydalanuvchilarning nomlarini, parollarini, kredit kartalari nomerlarini trafikdan avtomatik tarzda ajratib olish imkoniyati mavjud.

49. Eng koʻp yuz beradigan tajovuzlar quyidagi statistikaga ega:

50. 1998 yili NIST tomonidan oʻtkazilgan 237 kompyuter tajovuzining tahlili Internetda e'lon qilingan:

51. 29 % tajovuzlar Windows muhitida yuz bergan. Saboq: Faqat Unixgina xatarli emas ekan.

52. 20% tajovuzlarda tajovuz qilganlar olisdan turib tarmoq elementlari(marshrutlovchilar, kommutatorlar, xostlar, printerlari brandmauer) gacha yetib borganlar. Saboq: xostlarga olisdan turib bildirmay kirish bot-bot yuz beradi.

53. 5% tajovuzlar marshrutlovchilarga va brandmauerlarga qarshi muvaffaqiyatli boʻlgan. Saboq: Internet tarmoq infrastrukturasi tashkil etuvchilarining kompyuter tajovuzlariga bardoshi yetarli emas.

54. 4% tajovuzlarda Internetda tajovuzga bardoshi boʻsh xostlarni topish uchun uyushtirilgan. Saboq: Tizim administratorlarining oʻzlari oʻz xostlarini muntazam skanerlab turganlari ma'qul.

55. 3% tajovuzlar web-saytlar tomonidan oʻz foydalanuvchilariga qarshi uyushtirilgan. Saboq WWWda axborot izlash xavfsiz emas.

56. Internetda 1999 y. mart oyida eng ommaviy boʻlgan kompyuter tajovuzlari. Sendmail(eng eski dastur), ICQ(murakkab "Sizni izlayman"dasturi, undan 26 millionga yaqin kishi foydalanadi), Smurf(ping- paketlar bilan ishlaydigan dastur), Teardrop(xatolarga sezgir dastur), IMAP(pochta dasturi), Back

Orifice(troyan ot, Windows 95/98ni olisdan boshqarish uchun), Netbus(Back Orifice ga o‘xshash), WinNuke (Windows 95ni to‘la to‘xtatib qo‘yaoladi)i Nmap(skanerlovchi dastur) bilan bo‘lgan.

57. WinNuke, Papa Smurf i Teardrop dasturlari vositasida niyati buzuq kimsalar sizning kompyuteringizga tajovuz qilib ziyon yetkazishlari mumkin.

58. ^ 3. Axborot xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishlari

59. NIST 7498-2 xalqaro standarti asosiy xavfsizlik xizmatlarini belgilaydi. Uning vazifasiga ochiq tizimlar aloqasi modelining xavfsizlik yo‘nalishlarini aniqlash kiradi. Bular:

60. Autentifikatsiya. Kompyuter yo tarmoq foydalanuvchisining shaxsini tekshirish;

61. Kirishni boshqarish(Access control). Kompyuter tarmog‘idan foydalanuvchining ruxsat etilgan kirishini tekshirish va ta’minlash;

62. Ma’lumotlar butunligi. Ma’lumotlar massivi mazmunini tasodifiy yo qasddan beruxsat usullar bilan o‘zgartirishlarga nisbatan tekshirish;

63. Axborot pinhonaligi. Axborot mazmunini iznsiz oshkor bo‘lishdan himoyalash

64. Inkor eta olinmaslik(Neoproverjimost). Ma’lumotlar massivini jo‘natuvchi tomonidan uni jo‘natganligini yoki oluvchi tomonidan uni olganligini tan olishdan bo‘yin tovlashining oldini olish.

65. Ko‘plab qo‘shimcha xizmatlar (audit, kirishni ta’minlash) va qo‘llab-quvvatlash xizmatlari (kalitlarni boshqarish, xavfsizlikni ta’minlash, tarmoqni boshqarish) mazkur asosiy xavfsizlik tizimini to‘ldirishga xizmat qiladi. Web tugunining to‘la xavfsizlik tizimi barcha yuqorida keltirilgan xavfsizlik yo‘nalishlarini qamrab olgan bo‘lishi shart. Bunda tegishli xavfsizlik vositalari (mexanizmlari) dasturiy mahsulotlar tarkibiga kiritilgan bo‘lishi lozim.

66. Autentifikatsiyalashni takomillashtirish qayta ishlatiladigan parollarga xos kamchiliklarni bartaraf etishni, shu maqsadda bir martagina ishlatiladigan parol tizimidan tortib identifikatsiyalashning yuqori texnologik biometrik tizimlarigacha qo‘llashni nazarda tutadi. Foydalanuvchilar o‘zlari bilan olib yuradigan predmetlar, masalan, maxsus kartochkalar, maxsus jeton yoki disketa ancha arzon ham xavfsiz. Noyob, modul kodi himoyalangan dastur moduli ham bu maqsadlarda qulay.

67. Oshkor kalitlar infratuzilmasi ham Web – tugun xavfsizligining ajralmas qismi. Autentifikatsiya, ma’lumot butunligi va axborot pinhonaligi(konfidensialligi)ni ta’minlash uchun ishlatiladigan taqsimlashga n tizim (odamlar, kompyuterlar), Ochiq kalit infrastrukturali (sertifikat nashrchisi) elektron sertifikatni e’lon qiladi.

68. Unda foydalanuvchi identifikatori, uning ochiq kaliti, xavfsizlik tizimi uchun qandaydir qo‘shimcha axborot va sertifikat nashr etuvchisining raqamli imzosi bor.

69. Ideal variantda bu tizim Yer yuzining har qanday ikki nuqtasidagi foydalanuvchi uchun sertifikatlar zanjirini tuzib beradi. Bu zanjircha kimgadir maxfiy xatni imzolash, hisob bo‘yicha pul o‘tkazish yoki elektron kontrakt tuzish uchun, boshqa kishi uchun – hujjat manbaini va imzolovchi shaxsning aslini tekshirib bilish imkonini beradi. NIST bir necha boshqa tashkilotlar bilan bu yo‘nalishda ish olib bormoqda.

70. Internetga ulangan tarmoqlar xakerlarning tajovuzi tufayli ochiq muloqotga xalal bersa xam brandmauerlar o‘rnatib oldilar.

71. PGP ga o‘xshash mukammal dasturlar bo‘lmaganda ochiq tarmoq bo‘lishi ham mumkin bo‘lmas edi.

72. Tarmoqni kompyuter tajovuzlaridan himoyalash doimiy va o‘z-o‘zidan yechilmaydigan masaladir. Lekin qator oddiy himoya vositalari yordamida tarmoqqa suqulib kirishlarning ko‘pchiligini

oldini olish mumkin. Masalan yaxshi konfiguratsiyalangan tarmoqlararo ekran va harbir ish stansiyalari(kompyuterlar)da o‘rnatilgan virusga qarshi dasturlar ko‘pchilik kompyuter tajovuzlarini barbod etadi.

73. Quyida Intranetni himoyalash bo‘yicha 14 amaliy tavsiya bayon etilgan.

74. Xavfsizlik siyosati lo‘nda va aniq qo‘yilishi lozim. Intranet tarmog‘i xavfsizligi bo‘yicha yorqin va sobit qadamlik bilan qo‘yilisini ta’minlaydigan qoidalar va amallar bo‘lishi lozim. Tarmoq xavfsizligi tizimi uning eng bo‘sh joyi qanchalik kuchli himoyalangan bo‘lsa shu qadar kuchlidir. Agar bir tashkilot doirasida turli xavfsizlik siyosatlariga ega bo‘lgan bir necha tarmoq mavjud bo‘lsa bir tarmoq boshqa tarmoqning yomon xavfsizligi tufayli obro‘sini yo‘qotishi mumkin. Tashkilotlar shunday xavfsizlik siyosatini qabul qilishlari lozimki, kutilgan himoya darajasi hamma yerda bir xil amalga oshsin. Siyosatning eng ahamiyatli tomoni brandmauerlar orqali o‘tkaziladigan trafiklarga yagona talab ishlab chiqilishidir. Shuningdek siyosat tarmoqda qaysi himoya vositalari (masalan, tajovuzlarni payqash vositalarimi yoki qaltis joylar skanerlarimi)va ular qanaqa ishlatilishi lozimligini belgilashi, yagona xavfsizlik darajasiga erishish uchun kompyuterlarning har xil turlari uchun standart xavfsiz konfiguratsiyalar belgilanishi shart.

75. Brandmauer (Tarmoqlararo ekran, inglizcha-firewalls,) qo‘llash lozim. Bu tashkilotning eng asosiy himoya vositasidir. Tarmoqqa kiruvchi, undan chiquvchi trafik(axborot oqimi)ni nazorat qiladi. U trafikning biror turini to‘sib qo‘yishi yo tekshirib turishi mumkin. Yaxshi konfiguratsiyalangan bradmauer kompyuter tajovuzlarining ko‘pchiligini qaytarishi mumkin. brandmauerlar, intellektual kartalar va boshqa texnikaviy-dasturiy himoya vositalaridan oqilona foydalanish lozim.

76. Brandmauer va WWW-serverlarni ularning ishini to‘xtatib qo‘yish tahdidlariga qarshi bardoshliligini testdan o‘tkazib turish lozim. Internetda kompyuterning ishini to‘xtatib qo‘yishga yo‘naltirilgan tajovuzlar tarqalgan. Tajovuzkorlar doimo WWW-saytlarni ishdan chiqaradilar, kompyuterlarni ortiq vazifalar bilan yuklab qo‘yadilar yoki tarmoqlarni ma’nosiz paketlar bilan to‘ldirib tashlaydilar. Bu turdagi tajovuzlar juda jiddiy bo‘lishi mumkin, ayniqsa tajovuzkor davomli tajovuzlarni uyushtirish darajasida aqlli bo‘lsa. Chunki buning manbaini topib bo‘lmaydi. Xavfsizligi haqida qayg‘iruvchi tarmoqlar bunday tajovuzlardan ko‘riladigan zararni chamalab ko‘rish uchun o‘zlariga o‘zlari tajovuzlarni uyushtirishlari mumkin. Bunday tahlillarni faqat katta tajribaga ega tizim administratorlari yoki maxsus maslahatchilar o‘tkazishi maqsadga muvofiq.

77. Kriptotizimlardan keng foydalanish lozim. Tajovuzkorlar ko‘pincha tarmoqqa uning ahamiyatga molik joylaridan o‘tuvchi trafigini tinglash orqali trafikdan foydalanuvchilarni va ularning parollarini ajratib olish yordamida suqulib kiradilar. Shuning uchun olisdagi mashinalar bilan bog‘lanishlar parol bilan himoyalanganda shifrlanishi shart. Bu ayniqsa, bog‘lanish Internet kanallari orqali amalga oshirilganda yoki ahamiyatli server bilan bog‘lanilganda zarur. TCP/IP (eng mashhuri SSH) trafigini shifrlash uchun tijoratli va bepul dasturlar mavjud. Bulardan foydalanish tajovuzlarning oldini oladi. Internet muhit bilan birlashgan Intranetda axborot oqimini va resurslarni eng ishonchli himoyalash vositasi– nosimmetrik va simmetrik kriptotizimlardan birgalikda foydalanishdir.

78. Kompyuterlarni xavfsizlik nuqtai-nazaridan savodxonlarcha konfiguratsiyalash kerak. Kompyuterda amal tizimlari yangitdan o‘rnatilganda ko‘pincha tajovuzlarga qaltis bo‘ladilar.Buning sababi amal tizimi dastlab o‘rnatilganda barcha tarmoq vositalaridan foydalanishga ruhsat beriladi va ulardan to‘g‘ri

foydalaniladi deb bo‘lmaydi. Bu tajovuzkor uchun mashinaga tajovuz uyushtirishda ko‘p usullardan foydalanishga yo‘l ochadi. Shuning uchun barcha zarur bo‘lmagan tarmoq vositalari kompyuterdan uzib qo‘yilishi lozim.

79. Dasturiy ta’minotga tuzatishlarni operativ kiritishni tartibga solish(Patching). Kompaniyalar bot-bot o‘z dasturlarida topilgan xatolarni yo‘qotish uchun tuzatishlar kiritib boradilar. Agar bu xatolar tuzatilmasa tajovuzkor undan foydalanib dasturingizga va u orqali kompyuteringizga tajovuz uyushtirishi mumkin. Tizim administratorlari avvalo o‘zlarining eng zarur tizimlaridagi dasturlarga tuzatishlarni o‘rnatib zarur xostlarni himoyalashlari zarur. Chunki tuzatishlar tez-tez yuzaga kelib turadi va ularni barcha kompyuterlarda o‘rnatib chiqishga ulgurmay qolish mumkin. Odatda tuzatishlar faqat dastur ishlab chiqargan korxonadangina olinishi shart. Intranet-tarmoq xavfsizligida uchratilgan defektlarni albatta tuzatish. Shuning bilan birga quyida keltirilgan boshqa himoya vositalaridan ham foydalanishlari zarur.

80. Tajovuzni payqash vositalari (Intrusion Detection)dan foydalanish lozim. Tajovuzni payqash tizimlari tajovuzlarni operativ payqab aniqlaydilar. Tarmoq ichkarisidan bo‘ladigan tajovuzlarni payqash uchun ular brandmauer orqasiga qo‘yiladi, branmauerga bo‘ladigan tajovuzlarni aniqlash uchun esa- uning oldiga o‘rnatiladi. Bunday vositalar turli imkoniyatlarga ega. Quyidagi saytdan bu xaqda qo‘shimcha ma’lumotlar olish mumkin. http://www.icsa.net/services/consortia/intrusion/educational_material.shtml

81. Viruslar va "troyan ot" dasturlarini o‘z vaqtida payqashga intilish kerak. Harqanday tarmoqning xavfsizligi uchun virusga qarshi dasturlar himoyaning ajralmas qismidir. Ular kompyuter ishini nazorat qilib zarar keltiruvchi dasturlarni topib beradilar. Ular tufayli yuzaga keladigan yagona muammo shundaki, himoya maksimal samara berishi uchun ular tarmoqning barcha

kompyuterlariga oʻrnatilgan boʻlishlari va muntazam yangilanib turilishlari shart. Buning uchun koʻp vaqt ketadi, lekin aks holda vosita kutilgan samarani bermaydi. Kompyuterdan foydalanuvchilarga buni qanday amalga oshirishni oʻrgatib qoʻyish kerak, ammo faqat ularga bu ishni toʻla topshirib qoʻymaslik zarur. Virusga qarshi dasturlar bilan bir qatorda pochta serverida elektron xatlarga ilovalarni skanerlash ham lozim. Bu yoʻl bilan foydalanuvchilar kompyuteriga yetib borishi mumkin boʻlgan viruslarning yoʻli toʻsiladi.

82. Bardoshi boʻsh joylarni skanerlab turish lozim. Bunday skanerlovchi dasturlar aniq biror turdagi tajovuzlarga qaltis (bardoshi boʻsh) kompyuterlarni topish uchun tarmoqni skanerlaydi. Ular qaltis joylar haqida kattagina ma'lumotlar bazasiga ega boʻlib, undan u yo boshqa kompyuterda qaltis joy bor-yoʻqligini topishda foydalaniladi. Tijoratli va bepul skanerlar mavjud. Tizim administratorlari davriy tarzda bunday dasturlarni oʻzlarining tarmoqlariga nisbatan oʻz vaqtida bardoshi boʻsh kompyuterlarni oʻzlari topib tegishli chora koʻrib qoʻyishlari lozim. Alohida qurilmalarni himoyasidagi zaif boʻgʻinlarni payqab olish uchun qaltislik darajasini baholash lozim.

83. Tarmoq topologiyasini aniqlash va port skanerlarini ishga solib turish lozim. Bunday dasturlar tarmoq qanday tuzilganligi, unda qanaqa kompyuterlar ishlashi, har bir mashinada qanday xizmatlar bajarilishii haqida toʻla manzarani ochib beradi. Hujumkorlar bu dasturlarni qaltis kompyuterlar va dasturlarni aniqlash uchun ishga soladilar. Tarmoq administratorlari ham bunday dasturdan ularning tarmoqlarida qanday dasturlar qaysi kompyuterlarda ishlayotganini aniqlashtirish uchun foydalanadilar. Notoʻgʻri konfiguratsiyalangan kompyuterlarni topib ularga tuzatishlar kiritish uchun bu yaxshi vositadir.

84. Parol ochuvchilar (Password Crackers)ni ishlatib turish lozim. Xakerlar koʻpincha parollar bilan shifrlangan fayllarni

oʻgʻirlash uchun kompyuterlarning bardoshi boʻsh joylaridan foydalanishga intiladilar. Soʻngra parol ochuvchi maxsus dasturlarni ishga soladilar va ular orqali shu shifrlangan fayllardagi bardoshi boʻsh parollarni topib oladilar. Bunday parol qoʻlga kirishi bilan kompyuterga odatdagi foydalanuvchi kabi kompyuterga va tarmoqqa bildirmay kirishning turli usullaridan foydalanadilar. Garchi bu vosita niyati buzuq kimsalar tomonidan ishlatilsa ham bu tizim administratori uchun ham foydalidir. Tizim administratorlari davriy tarzda bunday dasturlarni oʻzlarining shifrlangan fayllariga nisbatan oʻz vaqtida bardoshi boʻsh parollarni oʻzlari topib tegishli chora koʻrib qoʻyishlari lozim.

85. Jangovor muloqot oʻrnatuvchilar (war dialer)ga nisbatan ziyrak boʻlish lozim. Foydalanuvchilar koʻpincha tashkilot tarmogʻi himoyasi vositalarini chetlab oʻtib oʻz kompyuterlariga keladigan telefon qoʻngʻiroqlari qabul qilib olishga ruxsat beradilar. Ular ba’zan Ishdan qaytish oldidan modemni ulab kompyuterni uydan turib modem orqali unga ulanib tarmoqdan foydalanishni koʻzlab oʻz dasturlarini shunga sozlab ketadilar. Tajovuzkorlar jangovar muloqot oʻrnatuvchi dasturlardan foydalanib koʻplab telefon nomerlariga qoʻngʻiroq qilib koʻradilar va shu tariqa chetdan modem orqali kirishga yoʻl qoldirgan bunday tarmoqlarga suqulib kirib tajovuz uyushtiradilar. Foydalanuvchilar koʻpincha oʻz kompyuterlarini oʻzlari konfiguratsiyalashlari tufayli bunday kompyuterlar tajovuzlardan yomon himoyalangan boʻladilar va tarmoqqa tajovuz qilishga yana bitta imkoniyat tugʻdiradilar. Tizim administratorlari jangovor muloqot oʻrnatuvchilardan muntazam suratda foydalanib oʻz foydalanuvchilarining telefon raqamlarini tekshirib turishlari va unga mos qilib konfiguratsiyalangan kompyuterlarni oʻz vaqtida topib chorasini koʻrishlari lozim. Tijoratli va bepul tarqaltiladigan jangovor muloqot oʻrnatuvchi dasturlar mavjud.

86. Xavfsizlikka oid tavsiyalar (security advisories)dan o‘z vaqtida xabordor bo‘lib, ularga amal qilish lozim. Xavfsizlikka oid tavsiyalar – kompyuter jinoyatlariga qarshi kurash guruhlari va dastur ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaqin orada payqalgan dasturning qaltis joylari haqida e’lon qilinadigan ogohlantirishlar. Tavsiyalar juda foydali bo‘lib, o‘qish uchun juda kam vaqt oladi va payqab qolingan qaltis joylar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan eng jiddiy xavf-xatarlardan ogoh etadi. Ular xavf-xatarni ifodalab uning oldini olish uchun maslahatlar beradi. Ularni qator joylardan olish mumkin. Ikkita eng foydali bo‘lgan tavsiyalar kompyuter jinoyatlariga qarshi kurash guruhi e’lon qilib turadigan tavsiyalar bo‘lib CIAC va CERT saytlaridan olish mumkin.

Xavfsizlik bilan bog‘liq hodisalarni tekshirish guruhi muntazam faoliyat olib borishi lozim. Har qanday tarmoqda ham xavfsizlik billan bog‘liq hodisalar sodir bo‘lib turadi (yolg‘on trevoga bo‘lsa ham). Tashkilot xizmatchilari avvaldan u yo bu holda nima qilishni bilishlari shart. Qaysi hollarda huquqiy-himoya organlariga murojaat qilish kerak, qaysi hollarda kompyuter jinoyatlariga qarshi kurash guruhini chaqirish va qaysi hollarda tarmoqni Internetdan uzib qo‘yish kerak va ahamiyatli serverning qulfi buzilganda nima qilish kerak. CERT AQSH doirasida bu borada maslahatlar beradi. FedCIRC AQSH jamoat va davlat tashkilotlariga maslahatlar berish uchun mas’uldir. Harbir davlatda bunday maslahat olish joylari bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Kompyuter tajovuzlariga oid qo‘shimcha ma’lumotlar tajovuz uyushtirish mo‘ljallangan ayrim dasturlarga bag‘ishlangan quyidagi maqola dan topilishi mumkin.

Global tarmoq tushunchasi.

Internet tarmog‘ining asosiy yacheykalari (qismlari) bu shaxsiy kompyuterlar va ularni o‘zaro bog‘lovchi lokal tarmoqlardir. Internet tarmog‘i – bu global tarmoq vakili hisoblanadi.

Internet alohida kompyuterlar oʻrtasida aloqa oʻrnatibgina qolmay, balki kompyuterlar guruhini oʻzaro birlashtirish imkonini ham beradi. Agar bironbir mahalliy tarmoq bevosita internetga ulangan boʻlsa, u holda mazkur tarmoqning har bir ishchi stansiyasi (kompyuteri) Internet xizmatlaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, Internet tarmogʻiga mustaqil ravishda ulangan kompyuterlar ham mavjud boʻlib, ularni xost kompyuterlar (host – asosiy hisoblash mashinasi) deb atashadi. Tarmoqqa ulangan har bir kompyuter oʻz manziliga ega va u yordamida dunyoning istalgan nuqtasidagi istalgan foydalanuvchi bilan muloqot qila olish mumkin.

Internet tarmogʻining tuzilishi. Internet oʻz - oʻzini shakllantiruvchi va boshqaruvchi murakkab tizim boʻlib, asosan uchta tarkibiy qismdan tashkil topgan:

texnik; dasturiy; axborot.

Internet tarmogʻining texnik ta’minoti har xil turdagi kompyuterlar, aloqa kanallari (telefon, sun’iy yoʻldosh, shisha tolali va boshqa turdagi tarmoq kanallari) hamda tarmoqning texnik vositalari majmuidan tashkil topgan. Internet tarmogʻining dasturiy ta’minoti (tarkibiy qismi) tarmoqka ulangan xilma-xil kompyuterlar va tarmoq vositalarini yagona standart asosida (yagona tilda) ishlashni ta’minlovchi dasturlar. Internet tarmogʻining axborot ta’minoti Internet tarmogʻida mavjud boʻlgan turli elektron hujjatlar, grafik rasm, audio yozuv, video tasvir, veb-sayt va hokazo koʻrinishdagi axborotlar majmuasidan tashkil topgan.

Internetning ikkita asosiy vazifasi boʻlib, buning birinchisi axborot makoni boʻlsa, ikkinchisi esa kommunikatsion vositasidir. Internetga bogʻlanish. Internet tarmogʻiga ulanish ajratilgan aloqa kanali (optik tola, sun’iy yoʻldosh aloqasi, radiokanal, ajratilgan kommutatsiyalanmaydigan telefon liniyasi) boʻyicha doimiy ulanish, shuningdek kommutatsiyalanadigan, ya’ni uzib-ulanadigan ulanish (Dial-ur access, Dial-ur) koʻrinishida amalga oshiriladi.

"Ijtimoiy tarmoq" tushunchasi 1954 yilda paydo boʻlgan boʻlib, oʻtgan asrning 30-yillarida oʻrganish boshlangan. Ushbu kontsepsiyani sotsiolog Jeyms Barns kiritgan: "ijtimoiy tarmoq" bu ijtimoiy obyektlar (odamlar yoki tashkilotlar) va ular oʻrtasidagi aloqalar (ijtimoiy munosabatlar) boʻlgan tugunlar guruhidan iborat boʻlgan ijtimoiy tuzilishdir. Oddiy qilib aytganda, bu tanish odamlarning ma'lum bir guruhi, bu yerda odam oʻzi markaz boʻlib, doʻstlari esa filiallardir. Kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda birinchi ijtimoiy tarmoq 1971 yilda ARPA Net-da harbiylar tomonidan ishlatilgan elektron pochta texnologiyasi edi. Keyin, 1988 yilda fin talabasi Yarko Oykarinen real vaqtda muloqot qilish imkoniyatini yaratgan «IRC» texnologiyasini (inglizcha Internet Relay Chat – uzatiladigan internet-suhbat) ixtiro qildi. 1991 yilda ingliz olimi Tim Berners-Li tufayli ommalashgan Internet ixtirosi muhim voqea boʻldi.

1995 yilda Rendi Konrad Classmates.com - zamonaviy ma'noda birinchi ijtimoiy tarmoqni yaratdi. Kontsepsiya juda katta talabga aylandi hamda shu yil Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarning jadal rivojlanishi boshlanadi. Bugungi kunda ushbu tarmoq hali ham dunyodagi eng mashhur tarmoqlardan biri boʻlib, 50 milliondan ortiq foydalanuvchiga ega. Ijtimoiy tarmoqlarning keng miqyosida ommalashuvi 2004 yildan keyingi davrga toʻgʻri keladi. Shu yili AQSH da keyinchalik dunyoga mashhur boʻlgan ―Fasebook‖ jamoatchilik tarmogʻiga asos solindi. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, axloqiy taqdirni belgilash va umumbashariy insoniy qadriyatlarni dunyoga joriy etish muammosi koʻplab avlod tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan abadiy masalalardan biridir. Ma'naviyat mavzusini qamrab olgan ilmiy adabiyotlar juda koʻp, turli xil ta'riflar, talqinlar va tadqiqot yoʻnalishlarini oʻz ichiga oladi. Ushbu muammoni oʻrganishga yondashuvlarning xilma-xilligi, asosan, ma'naviyatning umumlashtirilgan nazariyasining yoʻqligi bilan bogʻliq. Jamiyatning maxsus guruhi sifatida yoshlarga ilmiy

yondashish, yoshlarning turmush tarzi va madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, gumanitar fanlar bo‘yicha ko‘plab mahalliy olimlarning asarlarida o‘z aksini topgan.

Hozirgi prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning — Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari‖ asarida yoshlarni ma’naviy yetuk inson etib tarbiyalash, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotish ehtiyojga aylanishi, yoshlar bilimi, saviyasini oshirish uchun ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerakligi ilgari surilgan. M.Quronov, A.Qodirov, Sh.Akramovalar tomonidan —Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish‖ monografiyasida yoshlarni etib tarbiyalash, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ijtimoiy tarmoqlardagi yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishining oldini olish kabi masalalar tahlil etilgan. G.G‘affarova ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tafakkuri va faolligiga ta’siri, axborotlashgan jamiyatda ma’naviyatdagi o‘zgarishlar, yangilanayotgan O‘zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ma’naviyatning o‘rnini yoritib bergan.

XXI asrda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internetning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati shiddat bilan oshib bormoqda. Albatta, internet orqali dunyoning istalgan nuqtasi bilan tezkor aloqa o‘rnatish, zudlik bilan zarur axborot va ma’lumotlarni olish, bilim va ma’rifatni oshirishda uning beqiyos o‘rni va ahamiyati bor. Shuningdek, Internetning paydo bo‘lishi bilan hayotning juda ko‘p sohalarida, jumladan, kundalik maishiy xizmatlardan tortib, biznes va menejment, yuridik va konsullik xizmatlari va xatto davlat boshqaruvigacha birin-ketin virtual dunyoga ko‘cha boshladi. Mutaxassislarning fikricha, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning asosiy ustunligi muloqot erkinligi hisoblanadi. Darhaqiqat, bugun ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy barcha-barcha sohalarda global tarmoqning cheksiz-chegarasiz imkoniyatlarini hisobga olmaslik, undan ma’lum maqsadlar yo‘lida foydalanmaslik, ta’bir joiz bo‘lsa, zamondan

orqada qolish, deganidir. Bu masala bevosita yoshlar faoliyati va ma’naviyatiga ham daxldor.

Xo‘sh, ijtimoiy tarmoqlar nima? U yoshlar tafakkuri va faoliyatiga hamda yoshlar ma’naviyatiga qanday ta’sir qiladi? Vikipediya saytida ta’kidlanishicha, ijtimoiy tarmoq «muloqot qilish, tanishish, qiziqishlari o‘xshash yoki oflayn aloqada bo‘lgan odamlar o‘rtasida ijtimoiy aloqalarni yaratish, shuningdek ko‘ngil ochish (musiqa, filmlar) va ish uchun ishlatiladigan onlayn platforma»dir. Darhaqiqat, ijtimoiy tarmoqlar virtual olam internetdagi xuddi shunday «ari uyasi»dir. Ular paydo bo‘lganiga unchalik ko‘p bo‘lgani yo‘q. Ushbu tarmoqda dastlab qiziqishlari yoki kasblari bo‘yicha birlashgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu g‘oya kengayib, do‘stlar, tanishlar, hamkasblar ularga qo‘shila boshladilar.

Hozirda yirik ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar soni millionlab, milliardlab kishiga yetgan. Ular o‘zaro muloqot qiladilar, saytlarga o‘zlarining, yaqinlarining fotosuratlari, videolarini qo‘yadilar, u yoki bu mavzuda fikr almashadilar. Kimlardir bu saytlarda o‘zlarining unut bo‘lib ketgan tanishlarini, bolalikdagi do‘stlarini topadilar. Darhaqiqat, ijtimoiy tarmoqlarda faqat do‘stlar, tanishlarnigina emas, xatto mashhur insonlarni ham uchratish mumkin. Yulduzlar o‘z sahifalarini ochib, unda hayotlaridagi qiziqarli voqealarni yozadilar, suratlarni berib boradilar. Shu bilan birga tarmoqlar ichida ko‘plab hamjamiyatlar ochilgan – ularni istalgan foydalanuvchi o‘z qiziqishiga qarab ochishi va do‘stlarini taklif qilishi mumkin.

Hamjamiyatlarning mavzulari xilma-xil – futbol, tikuvchilik, avtomobil va h.k. Shunday qilib, insoniyat nimaga qiziqsa, hammasi mavjud. Hamjamiyat ichida uning a’zolari o‘zaro fikr almashadilar. Ba’zi hamjamiyatlarga istagan kishi a’zo bo‘lishi mumkin, ba’zilari esa yopiq sanalib, unga faqat a’zolardan birining tavsiyasi bilan yoki hamjamiyat ma’muri ruxsati bilan qo‘shilsa bo‘ladi.

Aytish kerakki, ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunimizning eng asosiy vaqt oʻtkazuvchi omili hisoblanadi. Ayniqsa yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kasaliga uchrashgan. Bizning diyorimizda dastlab eng asosiy ijtimoiy tarmoq sifatida ―odnoklasniki‖ ijtimoiy tarmoq keng ommalashgan. Darhaqiqat, Odnoklassniki ijtimoiy tarmogʻi sinfdoshlarni - litsey (kollej) kursdoshlarni, institut (universitet) kursdoshlarni, qarindoshlarni, hamkasabalarni xullas yaqin doʻstlarni topib, ular bilan gaplashishga imkon beruvchi koʻptillik tarmoq hisoblanadi. Bu ijtimoiy tarmoq 2006 yilda ishga tushgan. Uning tuzuvchisi rossiyalik veb-dasturchi Albert Popkov hisoblanadi. Sayt foydalanuvchilarning asosiy yoshi 14-55 yoshni tashkil qiladi. Dastlab bu saytdan roʻyxatdan oʻtish pullik boʻlgan, keyinrok 2010 yildan bu xizmat bepul deb e'lon qilingan. Eng muhimi, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning an'anaviy muloqot shaklini tubdan oʻzgartirib yubordi. Olis masofadan turib nafaqat eshitib, balki koʻrish imkoniyatining yuzaga kelishi virtual suhbatlarni keskin ommalashtirdi. Keyingi 15-20 yil davomida dunyo mamlakatlari aholisi, shu jumladan, oʻzbekistonlik yoshlar hayotida mobil aloqa urf tusini olgan boʻlsa, hozirgi davrga kelib mobil uskunalardagi WhatsApp, ICQ, MSN Messenger va Telegram orqali matnli muloqot ommaviylik kasb etmoqda. Ayniqsa, fasebook tarmogʻidagi turli guruhlar foydalanuvchilar orasida obroʻ qozondi. Bu tarmoqdagi guruhlarda odamlar orasidagi turli vaziyatlar, muammolar koʻrib chiqilib, ma'lum vaqtda hal qilinmoqda. Shu bilan birga instagram ham yoshlar orasida mashhur boʻlib, unda asosan yoshlar kundalik hayotidagi voqealarni foto va video orqali yoritish urf boʻlgan. Qayd etish kerak, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb yarmi – ya'ni 3 mlrd.ga yaqin kishi turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda. Shulardan eng katta qismi – 2 mlrd. odam ―Facebook‖da. https://napoleoncat.com sayti bergan ma'lumotga koʻra, Oʻzbekistonda ―Facebook‖ tarmogʻidan foydalanuvchilar 1 millionga yaqinlashib qolgan. Ular oʻrtacha 25-34

yoshda bo‘lib, 65,5 foizini erkaklar, 34,5 foizini xotin-qizlarimiz tashkil etar ekan. Ayni paytda dunyoda 1 mlrd.lik auditoriyaga ega Instagram O‘zbekistonda 1.586.500 nafar foydalanuvchiga ega. 2.476.590 lik Facebook esa mamlakatimizda 686.400 kishini birlashtirgan. 200 mln.lik Telegram – O‘zbekistonda 18 mln. kishiga xizmat ko‘rsatmoqda. Aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoq deganda ko‘z oldimizga hozirgi kun ta’rifi bilan aytadigan bo‘lsak Virtual olam degan tushuncha keladigan bo‘lib qoldi. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarning soni ko‘paygandan ko‘payib bormoqda, bu o‘z navbatida jamiyatga katta ta’sirini berib kelmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar shunday kuchga ega bo‘ldiki uzoqdagi do‘stingni yaqinlashtirib, yaqindagi do‘stingni uzoqlashtirishga olib keldi. Bu o‘z navbatida jamiyat a’zolari orasida sarosima va betartiblikni keltirib chiqarmoqda. Lekin ijtimoiy tarmoqlar hozirgi kunda yoshlarga keng imkoniyatlarni ham yaratib bermoqda. Jumladan, turli davlat yoshlari birbirlari bilan fikr almashib savollariga javob topishda, katta yutuqlarga erishishda ijtimoiy tarmoqlarning beqiyos yordamlari foyda berib kelmoqda. Shu sababli yoshlarning ongini va niyatini to‘g‘ri yo‘naltira olishni o‘rgatsak ijtimoiy tarmoqlardan ham kerakli natijalarni olsak bo‘ladi. Darhaqiqat, bugungi kunda hamma YouTube, Facebook, Instagram, Telegram, Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlarni biladi, hech bo‘lmaganda bittasidan foydalanadi. Ayniqsa, yoshlar bu masalada faoldir va aynan shuning o‘zi muammodir. Nima uchun? Sababi bitta: ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlar har doim ham to‘g‘ri va obyektiv emas. Tabiiyki, uning ma’naviyatiga, ruhiyatiga, axloqiga tahdid solmaydi degan kafolatlar yo‘q. Shuni tan olish kerakki, ijobiy tomonlari bilan bir qatorda uning salbiy tomonlari ham mavjud. Chunki ommaviy aloqa vositalari orqali ongni va aqlni egallash tahdidi mavjud ekan, jiddiy qo‘rquv uchun asoslar mavjud. Muammoni, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda salbiy ma’lumotlar oqimining ko‘payishi kuchaytirmoqda. Sababi, yoshlar o‘zlarining

tajribasizliklari sababli kelgan ma’lumotlarni tahlil qilish va sintez qilishga qodir emaslar. Ehtimol, yolg‘on va xolis ma’lumotlar uni osonlikcha yo‘ldan ozdirishi mumkin. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, Nega ijtimoiy tarmoqlarda asossiz yangiliklar va g‘iybat tarqatilmoqda? Nima uchun aholi, asosan yoshlar, ularga ishonishadi? Bunda davlat organlari, muassasa va tashkilotlarning matbuot xizmatlari ham aybdor.

Agar biror joyda biror narsa yuz bersa, bu jarayon haqidagi ma’lumotlar guvohlar, kuzatuvchilar tomonidan Internet orqali tarqatiladi. Aslida, bunday vaziyatlarda aynan matbuot xizmatlari ma’lumot berishlari kerak. Ular tunu kun faol ishlashlari kerak. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarning odamlar hayotiga ta’siri juda katta, ko‘pchilik bu hodisaning ko‘lamini to‘liq anglamaydilar va axir ijtimoiy tarmoqlar allaqachon Internetdagi eng ommabop faoliyatdir. Bugungi kunda dunyodagi eng ko‘p tashrif buyuriladigan 100 ta saytdan 20 tasi klassik ijtimoiy tarmoqlar, yana 60 tasi u yoki bu darajada ijtimoiylashmoqda.

Dunyo bo‘ylab kompaniyalarning 80% dan ortig‘i o‘z ishlarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar. Odamlarning 78 foizga yaqini ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlarga ishonadi. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviyati va tafakkuriga ko‘rsatayotgan ham ijobiy ham salbiy jihatlarini ta’kidlash lozim. Birinchidan, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishga ta’sir etadigan ijobiy xususiyatlariga xayriya tadbirlari tashkil etish, yoshlarni uyushtirish, imkoniyati bor kishilarni shu ishga jalb etish, do‘stlar orttirish, yoshlar o‘zlarining faoliyatlariga tegishli ma’lumotlarni olish, uzatish kabilarni kiritish mumkin. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishga ta’sir etadigan salbiy xususiyatlariga axloqsizlik, fahsh, buzuqlikni targ‘ib qiluvchi saytlar va ularning sahifalari keng yoyilgani; mish-mish, yolg‘on, uydirmalar, buzg‘unchi g‘oyalar, soxtalashtirish, tarafkashlikning yoyilgani; e’lon qilingan ayrim maqolalarda

ishonchli manbalarning yo‘qligi, qaysi kitob yoki saytdan olinganligi, kim yozganligi haqida ma’lumotning yo‘qligi, birovlarning haqlarini poymol etish, ularning yozgan maqolalarini o‘zlashtirib olib, ma’naviy, intellektual huquqlarning buzilishi sodir bo‘lishi; ushbu tarmoqlarda insoniy aloqalar zaiflashadi, yuzma-yuz ko‘rishish bo‘lmagani uchun o‘zaro mehr kamayadi, voqelikdan uzilib qolish yuz beradi, oilaviy ahillikka salbiy ta’sir qilishi; yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan noto‘g‘ri foydalanishi vaqtning isrof bo‘lishiga, keragidan ortiq foydalanish esa, unga o‘rganib qolishi; maqtanchoqlikning yoyilgani, ya’ni ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari kiygan kiyimlari, yegan ovqatlarini o‘z sahifalariga joylashtirishlari oqibatida maqtanchoqlik, barchaning e’tiborida, diqqat markazida bo‘lish xohishi kuchayib, kambag‘al, nochor ahvolda yashayotganlarning his-tuyg‘ulari e’tiborga olinmaydigan kayfiyat yuzaga keladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar quyidagi xavfli ta’sirlarga ega: internet tarmog‘iga bog‘lanib qolish; o‘qish va bilim olishga yengiltaklik bilan munosabatda bo‘lish (Internetdan tayyor dars ishlanmalari, matematik masalalar yechimlarini osongina topish hisobiga dars topshiriqlarini mustaqil bajarmaslik); jismoniy rivojlanishiga salbiy ta’sir xavfi, ya’ni bolaning faol harakatda bo‘lmay, uzoq vaqt monitor ro‘parasida o‘tirishiga to‘g‘ri kelishi va boshqalar.

Albatta, ijtimoiy tarmoq manbalarida bolalarga haqiqiy hayotdagi kabi virtual olamda ham tartib-intizom qoidalari mavjudligini tushuntirib borish eng birinchi navbatdagi vazifadir. Shu bilan birga ijtimoiy tarmoqlar hozirgi kunda yoshlar tafakkuriga ijobiy ta’sir etishi bilan birga juda ko‘plab yoshlarni ijtimoiy tarmoqlar vaqtini o‘g‘irlamoqda, internetklublarda, mobil telefonlarda yoshlar ayni o‘qib ilm hosil qiladigan paytlarida vaqtlarini bekorchi o‘yinlarga, axloqiy buzuq xarakatlar, estetik jihatdan saviyasi ancha past bo‘lgan foto suratlar va video fayllarni ko‘rish bilan umrini xazon qilmoqda. Shunday qilib, Internetdagi

ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ma’naviyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda, ya’ni shaxsiy manfaatlar yoshlar uchun ustuvor ahamiyat kasb yetadi va shu bilan birga jamiyat, ijobiy shaxslararo muloqot, hamkorlik va o‘zaro yordam hamda ijtimoiy meyorlar va asosiy umuminsoniy qadriyatlarga befarq munosabat shakllantiradi. Shu sababli yoshlar orasida to‘liq jonli aloqa asta-sekin qadrsizlanib bormoqda, o‘zining bevosita hissiyotlari bilan haqiqiy kommunikativ harakat o‘rnini sezilmaydigan quruq xabarlar, kitoblarni o‘qish - qidiruv saytlaridan shubhali ma’lumotlar, psixologik salomatlik - IT-texnologiyalarga, gadjetlar va shaxsiy kompyuterlardagi virtual axborot maydoniga bog‘liqlik egallamoqda.

Ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda amalga oshiriladigan barcha demokratik islohotlar jarayonida ham yoshlar masalasiga hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish, yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimiga alohida e’tibor beriladi. Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari: yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash; yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash; yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash; iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish; yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; yosh oilalarni ma’naviy va moddiy

jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish kabilardan iborat.

Albatta, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda mutloqa notanish shaxslar bilan tanishishga urinayotgani tashvishli xolat. Bu esa jamiyatda ilmsizlik johillikning, axloqsizlikni tomir yoyilishiga hamda yoshlar ongi va madaniyatiga salbiy ta’sir qiladi. Bularning oldini olish uchun, yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, ta’lim muassasalarida yoshlarni o‘qishdan tashqari bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun sport to‘garaklari, musiqa to‘garaklari, fan to‘garaklari davomiy tarzda va eng asosiysi yoshlarni qiziqtira oladigan darajada tashkil etish, shu bilan birga yoshlarni iqtidorlisini topish va ularni tarbiyalash zarur. Buning uchun ―Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida‖gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar birgalikda, xususan nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan yoshlarni qiziqishi va yosh xususiyatidan kelib chiqib turli xil formlar tashkil etish lozim. Shuningdek, sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

Tavsiya qilinadigan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. –Тошкент, Ўзбекистон, 2017. – 104 б

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4 jild. – Toshkent: «O'zbekiston», 2020. – 453 b. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent.: Ma’naviyat – 2016, – 123 бет.

3. Otamurodov S. Globallashuv va millat. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. - 304 bet.

4. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya.- Toshkent.: Movaraunnahr, 2016. -373 bet

5. “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 24 avgust // http://www.lex.uz/.

6. Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli – Beruniy Alimov http//beruniyalimov.uz/archives/705

7. G. Makhmudova, G. G’affarova, G. Jalalova (2020). O‘zbekistonda islohatlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi. 176 b.

8. Quronov M., Qodirov A., Akramova Sh. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish. – Toshkent: «Ma'naviyat», 2018. -112 b.

6-mavzu. HOZIRGI DAVRNING ASOSIY MANIPULYATSION VOSITALARI VA ULARGA QARSHI CHORA-TADBIRLAR

Reja

1. “Overton oynasi yohud yo‘q qilish dasturi”.
2. OAV larining ta’sirchanlik mexanizmidagi o‘zgarishlar.
3. Reklama va seriallarning yoshlarga ta’siri.
4. O‘zbekistonda axborot xafvsizligi masalalari.

Overton oynasi - bu nazariya bu ba’zi fikrlarning jamoatchilik fikri oldida qanday qonuniylashtirilishini tushuntirishga yordam beradi va bundan qanday qilib bir guruh fuqarolar ushbu g‘oyalarga moslashadi. Bu Qo‘shma Shtatlardagi eng muhim davlat siyosat markazlaridan biriga rahbarlik qilgan Jozef Overton tomonidan ishlab chiqilgan metafora.

Overton oynasi: bu nima?

Overton oynasi g‘oyani ishlab chiqqan shaxs uchun shunday nomlangan: Jozef Overton (1960-2003). U Michigan shtatida joylashgan AQShning eng yirik siyosat tadqiqot instituti - Mackinac Public Policy Center vitse-prezidenti edi.

Overton fikrini etkazish niyatida deraza metaforasidan foydalangan tor va aniq belgilangan makon, bu orqali biz boshqalarga emas, balki ba’zi narsalarga qarashimiz mumkin. Har qanday oyna kabi, bu kimdir tomonidan qasddan va strategik ravishda qurilgan inshootdir.

Masalan, dengizga qaragan derazani qo‘yish, uni ichki verandaning ko‘rinishi bilan qo‘yish bilan bir xil emas. Kim uni qurib, uni bir joyga joylashtirsa, ma’lum bir niyat bilan qiladi.

Agar davlat siyosati va ularning atrofidagi fikrlar bo‘lsa, derazani quradigan odamlar bu guruhlardir ma’lum darajadagi vakolat va siyosiy nazoratga ega bo‘lish. Boshqacha qilib aytganda,

aynan shu guruhlar derazalarni quradi va koʻchiradi, ular orqali biz atrofimizda sodir boʻlayotgan barcha narsani kuzatamiz.

Gap avvaliga nomaqbul koʻrinsa ham, uni himoya qilish va ramkalashtirish mumkin boʻlgan gʻoyani taqdim etishdan iborat boʻlib, u asta-sekin oʻylab topiladigan gʻoyaga aylanadi. Shunday qilib, ushbu fikrga ta’sirlangan yoki unga qiziqqanlarning fikri oyna chegaralari va ayrim siyosiy guruhlarning manfaatlari doirasida boʻlishi mumkin.

Overtonning tarixi.

Bu konsepsiya amerikalik huquqshunos Jozef Overton nomi bilan atalgan. Overton siyosatchilarning diskursini (saylovchilar va raqiblar bilan boʻlgan muloqot uslubi, dasturi, kun tartibi, soʻzlashuv majmuasi) belgilash maqsadida jamoatchilikning baholash modelini koʻrsatgan. Ommaning turli gʻoyalarga munosabati bir necha darajada boʻladi, ularga qabul qilib boʻlmas, keskin, maqbul, oqilona, standart va majburiy oʻlchovlar kiradi. Sodda qilib aytganda, siyosatchi oʻz fikr-qarashlarini ilgari surishdan oldin ularning jamoatchilik ongida qanday baholanishini aniq bilishi kerak.

Jozef Overton 43 yoshida toʻsatdan halok boʻladi. Uning yangi gʻoyasi ba’zi amerikalik neokonservator mafkurachilar ijodiy ishloviga tushib, butunlay boshqacha uslubiyatga oʻgiriladi. Jumladan, yuqorida aytilgan maqbullik diapazoniga oʻzgaruvchanlik talqini qoʻshiladi va unga «Overton oynasi» (Overton window) degan nom beriladi.

Unga koʻra ba’zi faktlar va gʻoyalarga boʻlgan munosabatni nomaqbullik darajasidan chidamlilik darajasiga va hatto majburiy holatga olib chiqish mumkin. Misol uchun, odamxoʻrlikning mutlaqo nomaqbul ishligi hammaga ma’lum, ammo, bir oz manipulyasiya bilan odamxoʻrlikka nisbatan chidamlilikni shakllantirish, unga yana ishlov berib, odatiy meyor darajasigacha koʻtarish mumkin degan qarash vujudga keladi.

«Overton fitnasi».

Konspirologlar (fitna nazariyalari ishqibozlari) darhol bu faraziy modelni iste’molga oldilar. Ular «Overton oynasi»dagi baholash harakati tabiiy ravishda emas balki atayin uyushtirilgan amaliyotlaridan deb qaraydilar. YA’ni, qaysidir «qora kuchlar» atayin OAV, ommaviy madaniyat, san’at, propaganda vositalari bilan nomaqbul ishlarni maqbulga aylantiradi degan g‘oya ilgari surildi. Insoniyatning ko‘pgina narsalarga bo‘lgan baholarning o‘zgaruvchanligi uzoq tarixdan beri kuzatiladigan voqelikdir. O‘zgaruvchanlik turli ijtimoiy, psixologik va fiziologik qonuniyatlarga bo‘yso‘nadigan murakkab jarayondir. Uni oddiy «Overton oynasi» doirasiga joylab tushuntirish ilmiy faktlar bilan tasdiqlanmadi va shu sabab, bu konsepsiya ko‘p tanqidlarga uchraydi.

Albatta yovuzlikka nisbatan odamlar munosabati o‘zgarib qolishi e’tiborga loyiq masala. Misol uchun qanday qilib axloqli, ma’lumotli, ziyoli nemis odami konslagerda vahshiy jallodga aylanib qolganligi 20-asr psixolog, sotsiolog va faylasuflarga tinim bermagandi. Buni «Overton oynasi» bilan tushuntirib qo‘yib, masalani yopish mumkin edi. Lekin «Overton argumenti» ichki psixik jarayonlarni tushuntirmaydi va amaliy yechimlar taklif qila olmaydi.

«Overton texnologiyasi»?

Nazariyaning jozibadorligiga qaramay uning amaliy tatbig‘ini detallarda kuzatish juda mushkul. Shunga qaramay konspirologlarimiz «Overton oynasi»ni texnologiya deb atab yubordilar. Agar «Overton oynasi» real ishlaydigan uslub bo‘lganida uni ezgu maqsadlarga ham qo‘llasa bo‘larmidi?

Masalan, to‘yni 20-30 kishilik qilib o‘tkazish g‘oyasini o‘zbeklar ommasi mutlaqo qabul qilmaydi. Marhamat, mazkur g‘oyani «Overton oynasi»da siljitib yangicha to‘yni meyoriy va ommaviy an’anaga aylantirish texnologik xaritasini taqdim etib ko‘ring.

Kichik tavsiyalar.

Internet saytlarida uchrab qolgan har qanday jozibali nazariyalarga ishonib ketavermay, ularning kelib chiqish tarixi va ularga nisbatan berilgan tanqidiy maqolalar bilan tanishishni tavsiya qilaman.

Shuningdek, real ilmiy materiallar bilan tanishish yaxshi amaliyotdir: amerikalik psixologlar Milgrem va Zambordo kabi qator tadqiqotchilar va ilmiy markazlar bir-biridan mustaqil ravishda insonning muhit va vaziyatga qarab o‘lchovlari o‘zgarishi fenomenlarini o‘rganib, jamoatchilikka qiziqarli xulosalar taqdim qilganlar. Lekin izlanishlar to‘xtamagan, masalaga neyrofiziologlarning aralashuvi yanada chuqur mulohazalarni keltirib chiqardi.

Qo‘yilgan savollarga yakuniy javoblar yo‘q va hali beri bo‘lmasa ham kerak. Ammo mavjud eng oxirgi nazariyalarni bilish aqliy salohiyatimizni kengaytiradi. Buning uchun ko‘proq ilmiy kitob va maqolalarni o‘qib borish kerak bo‘ladi.

Siyosiy nazariya

Overton ushbu metafora orqali taklif qilgan narsa shu Amalga oshiriladigan deb hisoblangan siyosatlar, avvalambor, siyosatchilarning qulayliklariga qarab hisobga olinadi, sizning shaxsiy manfaatlaringizdan tashqarida.

Ushbu siyosat jamiyat fikri qanchalik xilma-xil bo‘lishiga qarab ozroq yoki tor doirada taqdim etilishi mumkin. A) Ha, ularning maqbulligini kengaytirish yoki kamaytirishga qarab vertikal diapazonda harakat qilish. Umumiy qoida tariqasida, deraza shakli ma’lum bir g‘oyaviy tendensiyaga ishonadiganlar faqat ba’zi g‘oyalarga e’tibor berishlarini va qarama-qarshi bo‘lganlarning ahamiyatini e’tiborsiz qoldirishini yoki minimallashtirishni anglatadi.

Overton oynasi hozirgi qiziqish va ko‘pchilik tomonidan qabul qilinishi mumkinligiga qarab ko‘chirilishi mumkin. O‘zingizning jamoatchilik fikri uchun o‘zini oqlamoqchi bo‘lgan fikringizga qarab,

uning chegaralari yanada kengroq yoki torroq boʻlishi mumkin. Shuning uchun u "imkoniyatlar oynasi" va "qabul qilinadigan oyna" deb ham nomlanadi.

Tegishli maqola: "Kognitiv dissonans: oʻz-oʻzini aldashni tushuntiradigan nazariya"

Jamoatchilik fikri va siyosiy gʻoyalar

Shunga oʻxshab, siyosatchilarga tegishli individual maʼlumotlardan tashqari, biz ularning gʻoyalarining siyosiy hayotiyligini qabul qilishga moyilligimizni tushuntiradigan ushbu siyosiy nazariya, chunki ular bizga juda tor imkoniyatlar bilan taqdim etiladi.

Ushbu diapazonda davlat siyosati (masalan, Meksikadan AQShga koʻchishni boshqarish uchun qabul qilingan chora) "aqlga sigʻmaydigan", "maqbul", keyin "oqilona", "ommabop" va nihoyat, zaruriy siyosat sifatida oʻzgaradi.

Oʻz navbatida, bu imkoniyatlar doirasi u fuqarolarning xususiyatlariga va jamoatchilik fikrining hozirgi holatiga qarab moslashtirilgan, shuning uchun ularni taklif qiladigan kishi vakolatli siyosatchi sifatida qabul qilinadi yoki hech boʻlmaganda juda radikal emas.

Strategik jihatdan baʼzi gʻoyalar radikal sifatida taqdim etilishi mumkin, shuning uchun "derazadan tashqarida" boʻlgan narsalar oʻrtacha va maqbul deb hisoblanadi. Shunday qilib, deraza oʻz chegaralarini va biz qayerga murojaat qilganimizni va hatto biz kuzatayotgan narsalarning idrokini ham oʻzgartirishi mumkin.

Bu manfaatdor siyosiy guruh tomonidan mantiqiy, axloqiy va hissiy mezonlar bilan himoya qilinib, jamiyatlarning vaqt oʻtishi bilan qandaydir gʻoyalarni qabul qilishi va ulardan voz kechishini tushunish uchun qoʻllanilishi mumkin. Ushbu metafora orqali turli xil ijtimoiy voqealarni tahlil qilish mumkin edi va ularning har qanday ideallari va amaliyotlari qanday qilib qonuniylashtirildi.

Ommaboplik va unga oid asarlar

Overton Window hozirda juda mashhur nazariya boʻlsa-da, bu ayni paytda juda yaqin gʻoyadir. Jozef Overton vafot etganidan keyin bu oʻzi uchun nazariya boʻldi. aviahalokatda olingan jarohatlar natijasida.

Uning hamkasbi Jozef Leman 21-asrning birinchi oʻn yilligida uni suvga choʻmdirgan va tarqatgan odamlardan biri edi. Ushbu gʻoya asosida hatto nomli roman ham bor Overton oynasi, soʻnggi oʻn yil ichida amerikalik va siyosiy sharhlovchi Glenn Bekning eng koʻp sotilgan asarlaridan biri.

"Overton Oyna" - Bu Nazariya Nima?

Nisbatan yaqinda kompaniyasi boshqaruv nazariyasi birining mohiyatini bayon maqolalar chop boshladi. Ushbu metodik tadqiqotchisi u deyiladi yaratilgan, deb aytilardi »Overton Oyna". nazariyasi etarlicha va ishonarli bayon qanday oʻtgan asrda jahon hokimiyat Evro-Atlantika markazi ishlatiladigan bir butun, deb odamlar va jamiyatning ijtimoiy va axborot boshqarish. Bunday harakatlar asosiy maqsadi barcha ijtimoiy qatlamlari insanlıktan orqamga, korrupsiya, Oʻzbekiston Respublikasi Omurilik Felçlileri va razchelovechivanie hisoblanadi.

"Overton Oyna" - bu usul nima? Bu jamiyat tomonidan imkon qabul uchun gʻoyalar chegaralarini belgilaydigan, bir siyosiy nazariya hisoblanadi. mavjud imkoniyatlardan kesish va derazadan bir xil boʻladi.

Bu nazariya bir gʻoya siyosiy xayotni ishora. Bu davlat arbobi iltimosiga odamlar emas mumkin fikrlarini magʻlub qilish uchun chiqadi. Har qanday fikr "oyna" tushib faqat Kompaniya tomonidan tasdiqlangan boʻladi. Biroq, u odamlar tomonidan qabul qilinadi, bir vaqtning oʻzida boʻlgan tushunchalar, roʻyxatida paydo boʻladi. Keyinchalik, bu gʻoyalar ekstremizm yoki radikalizm ayblovlar qoʻrqmay, siyosat amal qilish mumkin boʻladi. "Oyna" shift jamoatchilik fikrini oʻzgarishlar sodir boʻladi va u yoki bu siyosatni aholiga qilish.

Amerika sotsiolog Dzhozef Overton oyna, u Davlat siyosati markazi uchun Mackinac markazi vitse-prezidenti sifatida xizmat qildi.

"Overton Oyna" - jamoatchiligining bo‘yicha ta’siri qanday? Bu miya yuvish, va ko‘proq murakkab texnologiya emas. Samarali u tizimi izchil ariza, shuningdek fakt zavualirovannost qurboni ta’sir qiladi.

Misol uchun, insoniyat allaqachon turmushga va ularning jinsiy yo‘nalishini targ‘ib qilish, bolalarni qabul qilish buzuq pastki madaniyatning, shuningdek, ularning huquqini qabul qildi. Shu bilan bir vaqtda, barcha bu narsaning tabiiy Albatta, deb aslida haqida munozarasi bor edi. muallif axloqsizlik g‘oyalar legallashtirishga, natijada davlat muassasalari qirg‘in hissa qo‘shadi butun texnologiyasi nozil 1990 yilda biz ishonchli Dzhozef Overton, shunday qilib Biroq, u emas. Va kerakli natijaga erishish uchun, u 5 rivojlanish, barcha besh qadam qilish kerak "Overton Oyna". Bu jamiyatda birinchi tegishli unvoni uni harakat, unga har qanday fikr nomaqbul hukm boshlaydi, keyin favqulodda yaqinda narsa qadar mavjud huquqiga saqlab qolinadi qonun yangi parcha, bilan qo‘yish.

Sotsiolog har qanday g‘oyani legallashtirishga olib borib jamiyatni o‘zgartirishi mumkinligini ifodalaydi. "Overton Oyna"si muallif tomonidan taqdim etilgan emas. Texnologiyani faqat o‘z manfaaatinigina o‘ylovchi bir gurux tuban shaxslar tomonidan mazkur mazmunda qo‘llashga intilishgan.

BIRINCHI BOSQICHI

"Overton oyna" deb, bu nazariya dastlabki bosqichi - bu bosqichda nima, nima maqsad bu ko‘zlaydi? birinchi qadam kerak istalgan natijani olish uchun:

- Muayyan hodisaning muhokamasiga buyirishi bartaraf;
- fikr keng jamiyat a’zolari o‘rtasida ma’lum bo‘ldi qilish;
- Bu hodisaning muntazam muhokama qilish qo‘rg‘oshin;
- muhim universal mavzular holati uchun g‘oyasini ko‘tarish.

ma’lum bir hodisa bir radikal-qiluvchining sifatida axborot sohasida joriy etilgan bu maqsadga erishish uchun. g‘oyalar Bu davlat jamiyatning e’tiborini jalb qiladi.

Bundan tashqari, o‘z-o‘zidan muhokama mavzular asta-sekin tashkil kirib. "Unthinkable" asta-sekin "tubdan" ko‘chib. man zonasida bo‘lib jamoatchilik yoki hodisaga tomonidan bilinmagan, har qanday alohida misolida axborot manbalarini yozilmoq bo‘ladi. Bunday dahshatli bir hodisani bilish uchun va nima uchun bu ishni qilmayman, - bu Birinchi qarashda yaxshi maqsadda da qo‘yadi? Ular baxtli esa nima quyidagicha, ba’zi odamlar faqat buni natija hisoblanadi.

Bu nazariya "Overton Oyna" odamxo‘rlik "ketmoq" mumkin. radikal sohasida favqulodda hodisalar, uni tarjima qilish maqsadida, siz kabi bir mavzuni inobatga etnologik simpozium to‘plashi mumkin "Polynesian qabilalarining Ekzotik marosimlar". Bu yerda, olimlar deb nomlangan harakati boshlang‘ich nazariyasi bo‘ladi cannibalism hodisasi haqida gapirish lozim bo‘ladi "Overton Oyna". mavjud jamoatchilik fikrini ko‘rib belgilangan edi, bu qadam, ijobiy uchun murosasiz munosabatini o‘zgartiradi. Birinchi bosqichda erishilgan. Theme muomalaga kiritildi va uni muhokama haqida buyirishi halok qildik.

Mamlakatimizda bu nazariya uning yorqin misollar bor. "Overton Oyna" dagi savol so‘rab, ko‘chib o‘tishga harakat ommaviy axborot vositalari odamlarning katta sonining o‘limni oldini olish uchun Leningrad etkazib berish ehtimolini haqida, shuningdek, SS xodimi bilan Rossiya Olimpiya chempioni bir taqqoslash ko‘rsatadi. Bu mavzu chiqarish zonasi olingan, bu nazariy birinchi bosqichi, odatda hollari bor. Kompaniya bunday qadam rozi bo‘lsa, qolgan qadamlar avtomatik tarzda bo‘lib o‘tadi. Yaxshiyamki, ruslar ochiq haqoratlovchi ularni hisobga olib, ular tomonidan taklif etilgan mavzular muhokama qilmadi.

IKKINCHI BOSQICHI

Qanday yanada "Overton oyna" ochmoq mumkin? nazariyasi "ma’qul" uchun "radikal" dan o‘tish kabi harakatlar keyingi bosqichi deb hisoblaydi. Bu bosqichda asosiy maqsadlari orasida - jamiyati ilgari atamalar bir hissiy neytral euphemisms tarjima qilingan rad qaysi ilgari uyatsiz tushunchalar narsa. Bu gunohkor hodisaga o‘z asl ma’nosini o‘zgarmoqda. Bu ijobiy ma’noga beradi nom beriladi. Shu bilan bir vaqtda bir nomaqbul hodisani oldin bir yo‘l yoki boshqa ta’sir tarixiy shaxs yoki voqea haqida ma’lumot beradi. Bunday xatti-harakatlar oqladi emas, balki jamiyatning hali qismi, biz barcha gunohlarni bor g‘oyasini tomiziladi.

"Overton Oyna" olimlarni tayanib davom bilan harakat davom etadi. Bu mavzuni muhokama qilish istamaydi kimdir, bilim kengaytirish emas, degan g‘oya olib keladi. Bu majhul yoki munofiq, deb atash mumkin. ba’zi nafis nomi odamxo‘rlik parallel berilishi kerak. Bu nuqta aql bovar g‘oyalar legallashtirishga uchun juda muhim ahamiyatga ega. cannibalism natijasida endi mavjud bo‘lgan. odamxo‘rlik, masalan, bor. Bu ta’rif yaqinda haqoratli muhokama qilinadi bo‘lsa, u tez boshqa almashtiriladi.

Yangi shartlarini kashf maqsadi muammo va uning namoyish tabiat bir ketishi bo‘ladi. shakli nutq va mafkuraviy raqiblarini og‘ir vajlari mahrum uning mazmunini, qoldiradi. o‘yin bilan bir qatorda yozuvlar nomlari uzil bir yaratilishi bor. engil tanigan kerak mifologik, tarixiy, oqim, yoki faqat bir o‘ylab ishni, tushiriladi. Amalda, iloji odamxo‘rlik yasallaştırmak uchun, deb bir zaruriy "dalil" sifatida uni toping. Misol uchun, biz o‘z qoni bilan, tashnalikdan mast farzandlarini qutqarish uchun, bir onaning afsona esga mumkin. Va qadimiy xudolar! Ular odatda ketma-ket barcha eb. Rimliklarga bu hodisa oddiy va tabiiy iymon! Bu dalillarni tayanib, mualliflar odamxo‘rlik jinoiy jazodan qutulish Orgy taqdim etish niyatidamiz. u har qanday alohida tarixiy zumda ham faqat bir marta bo‘ldi, deylik.

UCHINCHI BOSQICH

Bu bosqichda Psixologiya "Overton Oyna" qaratilgan:

- tabiiy gaz va muhokama ostida hodisaning tabiiy xarakterdagi g‘oyasi tasdiqlash;

- mutlaqo nomaqbuldir sifatida mavzuga munosabat yo‘q.

Bu bosqichda "o‘rtacha" uchun "ma’qul" dan o‘tish bor. muammo, ilgari butun sifatida, juda ko‘p turlari bo‘linadi. Ularning ba’zilari dahshatli va ikkinchisi juda maqbul va shirin bo‘ladi. Bu holda, davlat, uning a’zolarini juda hurmatli bildirdi muammolar turlari har kuni har xil fikr ko‘p etiladi.

TO‘RTINCHI BOSQICH

"Mashhur" uchun "asosliligi" bosqichida olingan muammo o‘tkazish - qadam harakati "Overton Oyna" maqsadi. Bu bosqichda:

- Muhokama ostida ommaviy tus haqida ma’lumot tarqatish;

- yilda ijtimoiy ong muammosini real mavjudligi g‘oyasini joriy;

- taniqli odamlardan aniq misollar beradi, aholi rad sabab bo‘lmaydi.

Shunday qilib, hodisaning turli mashhurlik yaratish to‘rtinchi bosqichi. statistik boshlamasdan davomida. Bu hodisaga jalb va shunday xatti balki ko‘rinishi nafaqat yoqimli bo‘lgan odamlar haqida gapirish esa Media raqamlar g‘oyaning ommaviylashib o‘sishiga olib kelishi.

Va odamxo‘rlik nima ommalashtirildi mumkin? Anthropophagus xissa munozarasi namoyishlari va yangiliklar kiritildi. Odamlar videokliplar va xonandalar tomonidan ijro qo‘shiqlar filmlar keng tarqalishiga, bo‘ladi. Bu amal va chaqirdi texnikasi ommalashtirish biri, mumkin "tomon nazar sol." media odamxo‘rlik tegishli xabar mashhur bastakor yoki direktor va nuthouse yilda odamxo‘r vatandoshlar millionlab topish haqida ma’lumot beriladi.

Bu bosqichda mavzu yuqori keladi va inson jinoyatchilarni bu dahshatli g‘oyalar legallashtirishga tarafdorimiz oqlash uchun siyosatga samoproizvoditsya, va shuning uchun polubiznese. D

boshlang. Ular, ijobiy yo‘l beriladi kerakli xislatlarni topib. Bunday odamlar bor, ular, deb aytish mumkin ijodiy odamlar, ular shunday qilib, bir oliy IQ va bor. D.

BESHINCHI BOSQICH

Bu qadam "siyosiy" doirasida tarjima bosqichi "ommaviylashib" muammosi bor. Bu holda, maqsadlarni quyidagi:

- siyosiy kanal tarjima fenomeni;
- inson huquqlari buzilishi g‘oyaning lafzidan e’lon;
- odamlar ongida hodisaning inkor qilish salbiy munosabat kirib joriy etish.

Bu bosqichda harakati "Overton Oyna", u ijtimoiy-siyosiy, deb talqin qilinadi fenomenning olib, ko‘p ijtimoiy tadqiqotlarning natijasida mumkin. Bu holda, ilgari o‘xshaydi nomaqbul fikr kun tartibiga siyosiy yoki yuridik hal talab masalalarni muhokama kiritilgan bo‘lishi boshlaydi. Bu holda, muammo, tahdid ostida himoya qilish kerak "ozchilik", deb jamoatchilik taqdim etiladi.

Harakatining so‘nggi bosqichda, "Overton Oyna" qonunchilikni tayyorlanmoqda. Bu paytda jamiyat allaqachon mag‘lub bo‘ladi. Faqat uning eng ilg‘or qismi yaqinda favqulodda narsalar qadar qonun darajasiga bir oz yuqori qarshilik qiladi. Biroq, bir butun jamiyat singan edi, va ularning mag‘lub ko‘ra etdi.

TEXNOLOGIYA OQIBATLARI deb nomlangan beshta turli yo‘nalishlarda nazariyasi orqali sayohat natijasida "Overton Oyna" insoniyat o‘z ichki uyg‘unlik bilan vidolashmoqda. Buning o‘rniga, faqat ichki hasrat va munozara odamlar bilan qoladi. Kim bu texnologiya ta’minlaydi har bir kishi baxtli insonni qilish maqsad emas. "Oyna" harakati jamiyat rivojida kerakli bo‘lgan vektor olish amalga oshiriladi. Foydalanuvchilar shunday o‘z madaniyati va ildizlari bilan teginish yo‘qotish boshlanadi. Ular kuchsiz va berahm bo‘lib. Buning misoli kuzatilmoqda yuqori xudkushlik darajasi, bo‘lishi mumkin , rivojlangan mamlakatlarda. haqiqiy halokat texnologiyalar - biz yuqorida barcha, deb aytish mumkin, shuning

uchun. "Overton Oyna" halokat ularni etakchi, insoniyat odamlarni mahrum.

QARSHILIK

Agar hamma joyda etishmovchiligi va har doim "oddiy" bo‘lishi mumkin, soxta g‘oyalar ta’siriga qarshi. Faqat o‘z xosligini saqlab, biz noto‘g‘ri qo‘lida o‘zi nazorat bermaydi. bojxona, axloqni va diqqat bilan saqlanadi va himoya qilinishi kerak, ularning ota-bobolari, madaniyatini beradi jamiyat katta manipulyatsiyasi tomonidan urdi etmaymiz. Bu abadiy qadriyatlarni har bir insonning o‘ziga xosligini saqlab qolish uchun yordam beradi. Bu, albatta, uzoq-ketdi an’analarni amal yo‘q. Ularni va do‘kon hurmat qilish uchun etarli. Va u texnologiyasi Overton, eng oson, hech qanday g‘oya, yaxshilik va yomonlik o‘rtasida hech qanday aniq farq bor tolerant jamiyat qo‘llaniladigan tasvirlangan, deb eslash o‘rinlidir.

Overton Oynasi: qanday qilib siyosiy kontsepsiya fitna ekraniga aylandi

Hatto g‘alati fitna nazariyalari ularning ostiga pseudoscientific bazasini qo‘ysangiz mashhur bo‘lishi mumkin. Masonlarning fitnasi yoki boshqa sayyoradan sudralib yuruvchilarni bosib olish kabi bahslar endi etarli bo‘lmaganda, turli xil siyosiy va ijtimoiy tushunchalarni shubhali talqin qilishdan foydalaniladi, ulardan biri "Overton oynasi" deb ataladi. Rossiyada u ko‘pincha liberal g‘oyalarning tarqalishini tushuntirish uchun ishlatiladi, masalan, gomoseksualizm normal holat: gomofob odamlar sayyoradagi barcha odamlarni gomoseksuallarga aylantirmoqchi bo‘lgan ma’lum bir "gey lobbi" mavjud deb taxmin qilishadi.

Biroq, "Overton oynasi" liberal mamlakatlarda deyarli har qanday hodisani konservativ axloq meyorlariga mos kelmasa tushuntirish uchun ishlatiladi. Fitna nazariyalari sotsiologik va siyosiy tushunchalarni qanday qoplashini tushunish.

"Overton oynasi" ning ko‘rinishi (birinchi "o" ni ta’kidlagan holda) amerikalik siyosatchi Jozef Overtonning nomi bilan bog‘liq.

Soddalashtirilgan shaklda g‘oya shunday ko‘rinadi: bir xil muammoli mavzuga tegishli har xil pozitsiyalar spektrga ajralishi mumkin, bu erda haddan tashqari nuqtalar o‘ta o‘ng va o‘ta chap tomonlar bo‘ladi. Ularning o‘rtasida ma’lum bir vaqtda jamiyat uchun eng maqbul fikrlarga ega bo‘lgan segmentni ajratib ko‘rsatish mumkin, ammo vaqt o‘tishi bilan ushbu segment turli sabablarga ko‘ra gorizontal ravishda harakatlanishi mumkin. Spektrning "maqbul" qismiga tegishli bo‘lgan fikrlarni siyosatchilar mansabdan qo‘rqmasdan qo‘llab-quvvatlashlari mumkin, chunki jamiyat ularga odatiy munosabatda. Boshqa, tushkunlikka tushgan pozitsiyalarni himoya qilish uchun chiqish, oldindan aytib bo‘lmaydigan reaksiyalar tufayli xavfli bo‘lishi mumkin. Bunday holda, "Overton oynasi" ruxsat etilgan narsalarning ushbu ramkasini tavsiflashga harakat qiladi.

Jozef Overton 90-yillarning o‘rtalarida Michigan shtatidagi konservativ Makin jamoat siyosati markazida ishlagan paytida turli xil siyosiy fikrlarning joizligi kontsepsiyasini kiritdi. Overton 2003 yilda avtohalokatda vafot etdi, so‘ngra uning markaziy hamkasbi Jozef Lehman bu g‘oyani o‘z zimmasiga oldi, so‘ngra Jorj V.Bushning amerikalik siyosiy maslahatchisi va nutq muallifi Joshua Trevinyo. 2006 yilda u turli xil g‘oyalarning maqbulligini o‘lchash uchun ma’lum bir o‘lchovni taklif qildi, bu erda pastki chegara "joriy meyor", yuqori qismi esa "aqlga sig‘maydigan". 2010 yilda amerikalik jurnalist Glenn Bekning "Overton oynasi" kitobi nashr etildi - fitna vositasi sifatida fitna nazariyasiga ega bo‘lgan siyosiy triller. Aynan o‘sha paytda marginal siyosiy kontsepsiya asosiy oqimga kirib, har qanday ijtimoiy jarayon uchun tushuntirish mexanizmiga aylangan deb taxmin qilinadi.

Overtonning kontsepsiyasi fitna nazariyalarini yashirishni boshlaydi, aslida konservativ g‘oyalarni qo‘zg‘atish uchun fuqarolik erkinliklarining o‘sishiga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risida Donald Trampning Amerika prezidenti etib saylanishi bilan "Overton

oynasi" ning yangi mashhurligi paydo boʻldi. Taniqli oʻng qanot qarashlariga ega respublikachi bu lavozimda demokrat Barak Obamaning oʻrnini egallab, siyosiy dastur sifatida populist konservativ gʻoyalarni taklif qildi. Meksika bilan chegarada devor qurish yoki ayrim mamlakatlardan kelgan musulmonlarning AQShga kelishini taqiqlash toʻgʻrisidagi radikal takliflar tufayli Oq uyda siyosiy munozaralar keskin ravishda oʻng tomonga shoshildi. Muloqotning bunday oʻzgarishi, baʼzi siyosiy tahlilchilarning fikriga koʻra, "Overton oynasining asosiy prinsipi" ga yaxshi misol boʻlishi mumkin: koʻpchilikning fikrini yoʻnaltirish uchun mayda yoki progressiv choralar etarli emas. Qiyin mavzularga munosabatni keskin oʻzgartirish uchun radikal yondashuvlarni amalda qoʻllash zarur.Xuddi shu mantiqqa koʻra, nafaqat Amerika siyosati "Overton oynasi" tomonidan baholanadi: Britaniyaning oʻng qanot burilishi va mamlakatning Evropa Ittifoqidan chiqishi, ular aytganidek, "soʻzlashuv oynasi" tushunchasiga ham toʻgʻri keladi. Bu yil "Overton oynasi amalda" pandemiya bilan bogʻliq cheklovlar deb nomlandi.

Overtonning oynasi nafaqat siyosiy nutqning oʻzgarishini, balki turli ijtimoiy harakatlarning tobora ommalashib borayotganligini tasvirlash uchun ishlatilgan. 2011 yilda amerikalik xristian faoli Djo Karter jamiyatning dehumanizatsiyasini ushbu kontsepsiya bilan izohladi, bu uning fikriga koʻra, abort qilish huquqida, LGBT odamlarga nisbatan bagʻrikenglikning oshishi, gomoseksual nikohlarning qonuniylashtirilishi va ularning koʻpayishi. ateistlar. Karter "Overton Window" ni har qanday gʻoyani nomaqbuldan ommabopga oʻzgartiradigan, jamiyatni bosqichma-bosqich madaniyatni buzishga yoʻnaltirish uchun ishlatilishi mumkin boʻlgan texnologiya deb biladi. Va uning matnida kim buni amalga oshirishi mumkinligi toʻgʻrisida toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatmalar mavjud boʻlmasa-da, Overtonning kontsepsiyasi fitna nazariyalarini yashirishga va aslida fuqarolik erkinliklari oʻsishiga yoʻl

qoʻyilmasligi toʻgʻrisida konservativ gʻoyalarni ilgari surishga kirishmoqda.

Karter gʻoyasi Rossiya jamiyatida joy oldi. 2014 yilda LiveJournal-dagi blogger @zuhel ushbu kontsepsiya haqida uzoq post yozdi va uning ma’nosida u xristian faolining e’tiqodlariga juda yaqin: Overton oynasi yordamida ba’zi kuchlar jamiyatni "insoniylashtirmaydi". U dalil sifatida u kannibalizmni qonuniylashtirishning nazariy jarayonini keltiradi va bu matnni fitna nazariyalaridan boshqa narsa deb atash mumkin emas. Xuddi shu ritorika Rossiyaning konservativ kuchlari tomonidan qoʻllab-quvvatlanadi: Pravoslavie.ru veb-saytida ushbu kontsepsiya Gʻarb mamlakatlari aholisi gomoseksualizmning odatiyligi gʻoyasiga qanday qilib majburan majburlanganligini tasvirlash uchun ishlatiladi.

"Overton oynasi" haqida nafaqat tematik saytlarda, balki federal kanallarda ham gapirishadi. Masalan, Nikita Mixalkov oʻzining "Besogon" mualliflik dasturida kannibalizmni legallashtirish toʻgʻrisidagi fikrlarni takrorladi. Dasturning ushbu qismi 2014 yilda chiqarilgan, ammo bugungi kunda ham siyosiy kontsepsiyaga munosabat juda oʻzgarmagan: YouTube-dagi "Overton oyna" videofilmlari millionlab tomoshalar va oʻn minglab layklarni toʻplaydi.

Ushbu kontsepsiya bugungi kunda marginal deb hisoblanadi va bir nechta sabablarga koʻra ilmiy emas

Hatto rus siyosatchilari ham bu fikrdan foydalanadilar. Masalan, uning yordami bilan 2015 yilda Davlat Dumasining jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar qoʻmitasining sobiq raisi Yaroslav Nilov fohishabozlikni dekriminallashtirishni aqlga sigʻdirmaslik sababini tushuntirdi. «Bizda ma’lum manfaatlar, fikrlar va qarashlar toʻqnashuvi mavjud. Shuning uchun bu masalani koʻtarish notoʻgʻri. Bu bizning koʻp sonli fuqarolarimiz tomonidan noaniq qabul qilinadi. Ammo tashkilot Rossiyada vakili boʻlganligini va buni

allaqachon ochiqchasiga aytganligini hisobga olsak, men radikallikdan qabul qilinishi mumkin bo‘lgan holatga o‘tgandan keyin Overton oyna texnologiyasi ishga tushirilganligini istisno qilmayman. umuman qonunchilik darajasida tartibga solinadi”, - dedi Liberal-demokratik partiyadan deputat. "Overton oynasi", masalan, Davlat Dumasining Oila, xotin-qizlar va bolalar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan o‘tgan yilning oktabr oyida tashkil etilgan "Oilaviy va maishiy munosabatlar sohasidagi jinoyatlarning oldini olish to‘g‘risida" gi parlament eshituvlarida muhokama qilindi. U erda ushbu g‘oya yordamida ular geylarning tashviqotiga yo‘l qo‘yilmasligini ta’kidladilar.

Bugungi kunda ushbu kontsepsiya bir necha sabablarga ko‘ra marginal va ilmiy bo‘lmagan hisoblanadi. Olimlarning ta’kidlashicha, "Overton oynasi" o‘zining mashhur versiyasida ijtimoiy fanlarda ramka tushunchasini soddalashtiradi va u, o‘z navbatida, ushbu modelni o‘zgartirish texnologiyasini emas, balki xatti-harakat modelini tavsiflaydi. Hatto uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri yaratuvchisi Jozef Lehman ham kontsepsiya talqinlarining qarama-qarshiliklari haqida gapirdi. "U shunchaki g‘oyalar modaga qanday kirishi va chiqib ketishini tushuntiradi", - deya uning so‘zlarini keltiradi New York Times. - Xuddi tortishish kuchi nima uchun bir narsaning erga tushishini tushuntiradi. Men sizlarga anvil otib, buni universal jalb qilish qonuni bilan tushuntira olaman, ammo bu to‘g‘ri bo‘lmaydi.Ammo men sizga qutqaruv nayzasini ham tashlashim mumkin va bu juda yaxshi bo‘lar edi."

Rossiyada siyosatshunos Yekaterina Shulman buzg‘unchi ijtimoiy o‘zgarishlarning asosiy kuchi sifatida "Overton oynasi" ga qarshi chiqdi. Shulman ushbu kontsepsiya "simpatik sehr" g‘oyasiga yaqin va muammoli masalalarni muhokama qilish odamni o‘ziga yaqin bo‘lmagan fikrni qabul qilishga majbur qilish usuli emas deb hisoblaydi. "Agar u bunga tayyor bo‘lmasa, jamiyatga yangi meyorni kiritish mumkin emas", dedi u "Exo Moskvi" radiosining jonli efirida.

- Aslida buning aksi yuz bermoqda. Jamiyatda ijtimoiy norma o‘zgarishni boshlaydi va shu sababli munozara paydo bo‘ladi. Ha, ushbu munozarani olib boradiganlar, ayniqsa, ular hokimiyatdan foydalanadigan va ijtimoiy ierarxiyada yuqori mavqega ega bo‘lgan odamlar bo‘lsa, ular ma’lum bir mas’uliyatni o‘z zimmalariga olishadi, chunki ularning so‘zlariga e’tibor berishadi. Ammo odamxo‘rlikning maqbulligini muhokama qilishni boshlash mumkin emas. Endi sinab ko‘ring. Ushbu munozarada faqat hech kim ishtirok eta olmaydi. Shu sababli, qabul qilinadigan chegaralarning kengayishi shu tarzda paydo bo‘lmaydi. Umuman olganda, Overton oynasi ostida, qanday ishlatilgan bo‘lsa, mening fikrimcha, ular Pandoraning qutisini anglatadi. Shuningdek, "oyna" so‘zi tufayli. Derazani ochsangiz, unga qandaydir musofir va yirtqichlar ko‘tarilishadi, chunki Pandoraning qutisidan har xil baxtsizliklar ham sakrab chiqdi. Bularning hech biri mavjud emas. O‘zingiz muhim deb bilgan narsani muhokama qiling."

Overton oynasi - Overton window

Ushbu maqola siyosiy kontsepsiya haqida. 2010 yilgi roman uchun qarang Overton oynasi. Milliardlar epizodi uchun qarang Milliardlar seriyasining ro‘yxati § 4-fasl (2019).

The Overton oynasi ma’lum bir vaqtda asosiy aholi uchun siyosiy jihatdan maqbul bo‘lgan siyosat doirasi. Shuningdek, u nutq oynasi. Bu atama nomini oldi Jozef P. Overton G‘oyaning siyosiy hayotiyligi, asosan, siyosatchilarning individual istaklariga emas, balki shu doiraga kiradimi-yo‘qligiga bog‘liq deb aytgan. Overtonning so‘zlariga ko‘ra, oyna siyosatchining iqlim sharoitini inobatga olgan holda davlat lavozimini egallash yoki ushlab turish uchun haddan tashqari ko‘rinmasdan tavsiya qilishi mumkin bo‘lgan siyosat doirasini belgilaydi. jamoatchilik fikri shu vaqtda.

Overton chap-o‘ng siyosiy spektr bilan taqqoslanmaslik uchun o‘qga vertikal ravishda yo‘naltirilgan hukumat aralashuviga nisbatan "ko‘proq erkin" dan "kamroq erkin" gacha bo‘lgan spektrni

tavsifladi. Spektr harakatlanayotganda yoki kengayganda, ma’lum bir joyda g‘oya siyosiy jihatdan ozmi-ko‘pmi maqbul bo‘lishi mumkin. Overton vafotidan keyin uning Mackinac jamoat siyosati markazi hamkasbi Jozef Lehman bu g‘oyani yanada rivojlantirdi va uni Overton sharafiga nomladi. Siyosiy sharhlovchi Joshua Treviño jamoat g‘oyalarini qabul qilish darajasi taxminan quyidagicha:

Aqlsiz

Radikal

Qabul qilinadi

Aqlli

Ommabop

Siyosat

Yangi g‘oya jamoatchilik aqlga sig‘maydigan narsalar oynasini to‘ldiradi va kerakli g‘oyalar jamoatchilikni aqlli deb hisoblaydigan oynaga o‘tishiga olib keladi, chunki uning tarafdorlari kerakli g‘oyaning biron bir foydasini tushuntirishlari shart emas.

"Overton Window" - bu hukumat siyosatining qabul qilinadigan spektrini belgilaydigan g‘oyalarni aniqlashga qaratilgan yondashuv. Siyosatchilar faqat maqbul doirada harakat qilishlari mumkin. Overton oynasini almashtirish oynadan tashqarida siyosat tarafdorlarini o‘z ichiga oladi, bu jamoatchilikni oynani kengaytirishga ishontiradi. Amaldagi siyosat tarafdorlari yoki deraza ichidagi o‘xshash siyosat, odamlarni undan tashqarida siyosat qabul qilinmasligi mumkin deb hisoblashlariga ishontirishga intilishadi. Ushbu atamani yaratgan Lehmanning so‘zlariga ko‘ra, "eng keng tarqalgan noto‘g‘ri tushuncha shundaki, qonun chiqaruvchilarning o‘zlari Overton oynasini almashtirish bilan shug‘ullanishadi. Bu mutlaqo yolg‘on. Qonun chiqaruvchilar aslida oyna qaerdaligini aniqlash bilan shug‘ullanishadi va keyin ko‘chib o‘tishadi. unga muvofiq bo‘ling".

Leymanning so‘zlariga ko‘ra, kontsepsiya shunchaki g‘oyalar qanday ishlashini tavsiflashdir, o‘ta siyosiy takliflarni targ‘ib qilish

emas. Bilan intervyuda The New York Times"U shunday dedi:" Bu shunchaki g‘oyalar modadan qanday paydo bo‘lishini va qanday tortishish kuchi erga tushishini tushuntirib beradigan tarzda qanday paydo bo‘lishini tushuntiradi. Men sizning boshingizga anvil tushirish uchun tortishish kuchidan foydalanishim mumkin, ammo bu noto‘g‘ri bo‘lar edi. tortishish kuchidan foydalanib, sizni qutqaruvchiga tashlasangiz yaxshi bo‘ladi. "[8] Ammo u siyosiy nutqqa qo‘shilgandan beri, boshqalar g‘oyalarni maqbulroq qilish niyatida, uning tashqarisidagi g‘oyalarni targ‘ib qilish uchun oynani almashtirish kontsepsiyasidan foydalanganlar. [9] The "eshik oldida" texnikasi ishontirish shunga o‘xshash.

1998 yilda, Noam Xomskiy dedi:

Odamlarni passiv va itoatkor tutishning aqlli usuli - qabul qilinadigan fikrlar spektrini qat’iy cheklash, lekin shu doirada juda qizg‘in munozaralarga imkon berish - hatto tanqidiy va dissident qarashlarni rag‘batlantirish. Bu odamlarga erkin fikr yuritish borasida tushuncha beradi, shu bilan birga tizimning har doimgi taxminlari munozara doirasiga qo‘yilgan chegaralar bilan mustahkamlanadi.

Zamonaviy sharhlovchilar ommalashib borayotgan, ammo qonun yoki siyosatda hali kodlanmagan g‘oyalarni targ‘ib qilish vazifasini osonroq va o‘z vaqtida amalga oshirish uchun "Overton eshigi orqali yurish" tushunchasini bekor qildi.

OAV jamiyat hayotiga ta’sir etuvchi qudratli kuch. Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan mustahkam huquqiy asos yaratilgan. Uning tobora takomillashib borishi, shubhasiz, soha taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Ommaviy axborot vositalari imkoniyatlarining yanada kengaygani, Internet-jurnalistikaning tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgani, ayni paytda mamlakatda olti mingdan ortiq sayt mavjudligi, ular orasida

gazeta va jurnallar, axborot agentliklarining ham elektron versiyalari borligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida qilgan ma’ruzasida ommaviy axborot vositalari faoliyatining normativ huquqiy bazasini takomillashtirish masalasiga alohida to‘xtaldi. Axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy etish, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, ommaviy axborot vositalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, jurnalistlarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llabquvvatlash, milliy matbuotimizning sifatini, mahorat va ta’sirchanligini rivojlangan davlatlarning ommaviy axborot vositalari erishgan yuksak talab, mezonlar darajasiga bosqichma-bosqich ko‘tarishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni yaratish vazifalarini ustuvor qilib qo‘ydi.

Ta’kidlash kerakki, bu parlament zimmasiga ham katta mas’uliyat yuklaydi. Ayni paytda, siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari o‘z dasturiy g‘oyalaridan kelib chiqib, mazkur masalada qarashlarini ilgari surmoqda. Shu o‘rinda biz O‘zLiDeP vakillarining ayrim nuqtai nazarlarini va fikrlari bilan kelisha olmasligimizni ta’kidlamoqchimiz. Masalan, ularning OAVni liberallashtirish, yirik mediakorporatsiyalar, mediaxoldinglar tashkil etish to‘g‘risidagi fikrlarini olaylik.

«Rivojlangan mamlakatlar allaqachon shunday yo‘l tutishgan. Demak, biz ham shunga o‘tishimiz kerak. Qolaversa, bozor munosabatlariga o‘tishning o‘zi shuni taqozo etayapti», deb ular o‘z fikrlarini isbotlashga urinishlari mumkin. To‘g‘ri, rivojlangan mamlakatlarda yirik mediakorporatsiyalar, mediaxoldinglar faoliyat ko‘rsatadi. Ammo, masalaning ikkinchi jihatini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Modomiki, biz ommaviy axborot vositalarimizni rivojlangan davlatlar OAV darajasiga olib chiqmoqchi ekanmiz, ularning tajribasini, yutuq va kamchiliklarini haqiqatan ham chuqur o‘rganishimiz talab etiladi.

Bugun OAV rivojlangan, liberallashgan, xususiy nashrlar koʻp boʻlgan mamlakatlardagi axborot tarqatish usullari va masʼuliyati qay darajada ekani hamda buning yaxshi-yomon tomonlaridan xulosa chiqarib olmogʻimiz kerak. Koʻpgina mutaxassislar AQSH, Yevropa, Osiyo va Afrikaning qator mamlakatlarida yuzaga kelgan maʼnaviy inqiroz oʻsib kelayotgan avlod taqdiriga tahdid solayotganiga aynan OAVni ayblashmoqda. Hech kimga sir emas, xususiy nashr yoki telestudiya egasi avvalo koʻproq foyda koʻrishni oʻylaydi. Pul topish va boylikka mukkasidan ketgan ayrim OAV egalari hech narsadan tap tortmayotganiga ham koʻplab misollar keltirish mumkin.

Bizda maʼnaviyat masalalariga alohida eʼtibor qaratiladi. Qizlarimizning hayoli, iboli boʻlishi, yigitlarimizdagi oriyat, gʻurur eng oliy qadriyatlarimizdan hisoblanadi. Ota-ona va farzand, ustoz va shogird oʻrtasidagi oʻziga xos fazilatlar, yoshlarning qariyalarga hurmati — bular hammasi biz asrab-avaylaydigan milliy qadriyatlarimiz-ku. Ammo tashkil etiladigan korporatsiya va xoldinglar biznes maqsadlarini birinchi oʻringa qoʻyib, axborot tarqatishni pul topishning asosiy manbaiga aylantirib olsa, istagan axborotini, ayniqsa shov-shuvli, odamlar orasiga nifoq soladigan, milliy manfaatlarimizga zid xabarlarni tarqata boshlasa buning oqibati yaxshilikka olib kelmaydi. Ana shu mulohazalarni hisobga olib, biz axborot tarqatish sohasida raqobatni rivojlantirish bilan birga, bu borada masʼuliyatni oshirish, axborotning ishonchli manbasini yaratish masalasini ilgari surayapmiz.

OAVni liberallashtirish jarayonida ijtimoiy-siyosiy nashrlar, radio va telekanallar faoliyatini takomillashtirish hamda ularni qoʻllabquvvatlashning maqbul mexanizmlarini yaratish tarafdorimiz. Avvalgi chaqiriqda parlamentimiz Soliq kodeksini yangi tahrirda qabul qildi. Kodeks loyihasining Qonunchilik palatasidagi muhokamalari chogʻida bizning fraksiyamiz aʼzolaridan biri jurnalistlar, ijodkorlarning qalam haqi (gonorar)ga soliq

imtiyozini kuchaytirish masalasini koʻtargan edi. Bugun ham biz ijtimoiy-siyosiy yoʻnalishdagi ommaviy axborot vositalariga moliyaviy imtiyozlar berish tarafdorimiz. Qolaversa, tahririyatlarning zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytirish zarur.

Bizning fikrimizcha, OAV nafaqat axborot tarqatuvchi tizim, ayni chogʻda xalqimizning maʼnaviyati va madaniyatini yuksaltirish, milliy gʻoyani oʻsib kelayotgan avlod ongiga singdirish, ular qalbida Vatanga muhabbat tuygʻularini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, faoliyatini takomillashtirish masalalariga liberallarcha yondashadigan boʻlsak, yaʼni ular aytayotgandek, oʻngu soʻlga qaramay OAVni liberallashtirishga kirishib ketsak, ertaga qator muammolarga duch kelishimiz mumkin.

Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega boʻlgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmogʻidagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonunchilikda belgilangan tartibda roʻyxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir.

Reklama va seriallarning yoshlarga taʼsiri.

Xorij seriallarining mafkuraviy va psixologik taʼsirlari xususida soʻz yuritsak.

Qutb ayigʻi holidamizmi?

Ovchilar qutb ayiqlarini qanday ovlashi haqida hech eshitganmisiz? Turk psixologi Said Chamlijaning bir risolasida oʻqiganlarim, ochigʻi, meni hayratga soldi.

Ovchilar qutb ayiqlarining terisiga hech qanday zarar yetkazmagan holda ularni ovlay olishar ekan. Xoʻsh, qanday qilib?

Qutb ayiqlari tabiatan qonni yaxshi koʻrishadi. Ovchilar esa ularning aynan mana shu nozik nuqtasidan ustomonlik bilan foydalanishadi. Ular oʻtkir bolta yoki uchi oʻta keskir bir qurolni tuproq ostiga uchi xiyol koʻrinadigan qilib koʻmib qoʻyishadi. Keyin esa qurolning ana shu uch qismiga biroz qon surtishadi. Qon hidi atrofga obdon tarqalguncha kutib turishadi. Tabiiyki, bu orada qon isini olgan ayiqlar ushbu hududga atrofni iskalay-iskalay yetib kelishadi va kela solib, qonni yalashga tushishadi.

Tuproq ostiga koʻmib qoʻyilgan oʻtkir tigʻ ayiqlarning tilini kesib, tilkalab tashlaydi. Lekin ayiqlar qon isidan shunchalar sarmast va karaxt boʻlib qolishadiki, hatto oʻz tillarining yaralanganini ham sezishmaydi. Ayiq qonni yalayveradi, tilidan esa qon oqaveradi. Aslida, oʻzining qonini oʻzi yalayotganini bilmayotgan ayiqni endi bu ajal tuzogʻidan hech kim va hech narsa qutqara olmaydi. Alaloqibat, u koʻp qon yoʻqotgani tufayli yerga yuztuban yiqilib jon beradi. Shafqat nimaligini bilmagan ovchilar esa ayiqning jon taslim qilganiga ishonch hosil etgach, uning terisini osonlikcha shilib olishadi.

Nima uchun buni esga oldim? Sababi – bugun televideniye orqali namoyish etilayotgan, biz va farzandlarimiz kiprik qoqmay, teleekranga «mixlanib» tomosha qilayotgan seriallar ham, aslida, odamlarni ana shunday makkorona tuzoqqa tushirishga oʻxshaydi.

YA’ni serialning birinchi qismini tomosha qildingizmi, tamom – tuzoqqa ilindim, deyavering. Endi bu changakdan osonlikcha qutula olmaysiz. Ayniqsa, koʻrayotganingiz xorij seriallari boʻlsa...

Eng dahshatlisi, ovchilar panada payt poylab turgani hatto xayolimizning bir kunjagiga ham kirmasligidir.

Siyosiy fanlar doktori Baxtiyor Omonov AQSH tarixidan shunga oʻxshash real bir misol keltiradi.

Olimning aytishicha, 1970 yillarda Amerikada yangi elitaning hukmronligi oʻrnatiladi. Bu davrda televideniye, san’at, tomosha industriyasi kishilar ongiga gʻoyalar, timsollar, qarashlar va

qadriyatlarni singdirib, tamoman yangi millatni shakllantirishga intiladi. Buning oqibatida esa millionlab odamlar o‘z yurtida o‘zini begonadek his eta boshlaydi. Hayvoniy mayl va gedonistik – hayotning mazmun-mohiyati aysh-ishrat va lazzatlanishdan iborat, deb hisoblaydigan qarashlar tizimi ildiz otadi. Qadimiy bayramlar yo‘qoladi. Ilgarigi qahramonlar timsoli so‘nib, madaniy maydonni kuch, zo‘ravonlik, behayolikni targ‘ib etayotgan super qahramonlar egallaydi.

Odamlar garchi ajdodlaridan meros qolgan azaliy ma’naviy qadriyatlar tag-tomiri bilan yulib tashlanayotganini ko‘rib turishgan bo‘lsa-da, xuddi qutb ayiqlari singari ilojsiz qolishadi. Oxir-oqibat, Kipling tasvirlagan «bozor hukmdorlari» jinsiy mayl, shuhrat, boylik, hokimiyat bilan yangi Amerikaning yangi hukmdorlariga aylanishadi.

Bugun telekanallarimizda efirga uzatilayotgan ayrim ko‘rsatuv va seriallar ham hashamatli hayot, jon koyitmay pul topish, nikohdan tashqaridagi g‘ayriaxloqiy munosabatlar, jirkanch illatlar va qadriyatlarimizga mos kelmaydigan xatti-harakatlarni aks ettirmoqda. Bu esa jamiyatda jinoyatchilikning ortishi, ma’naviy-axloqiy buzilishlar va oilalarning parokandalikka yuz tutishi kabi misollarda aks-sado bermoqda. Bu aks-sadoni eshitish shart emas, shundoq yon-atrofingizga qarang, o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rasiz...

Uzoqqa borishning keragi yo‘q, bugun telekanallarimizni «ishg‘ol» qilib olgan xorijiy seriallarning salbiy ta’siri hatto u suratga olingan mamlakatlarda ham yaqqol sezilmoqda. Masalan, Turkiyaning Ona-bola sog‘lig‘ini saqlash va oilani rejalashtirish markazi o‘tkazgan so‘rovnomada seriallar oila birligini buzadi, degan xulosaga kelindi.

Chorum advokatlar assotsiatsiyasining advokatlaridan biri Derya O‘ztekin esa ajralish holatlari bo‘yicha bir tadqiqot o‘tkazdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2012 yilda Turkiyaning Chorum shahrida 656 juftlik turmush qurgan bo‘lsa, 640 juftlikning nikohi

bekor qilingan. YA’ni muayyan bir hududda turmush qurgan va ajrashgan yoshlarning soni deyarli teng holga kelib qolgan. Advokat ushbu dahshatli manzara oilaviy ajrimlarni oddiy hol sifatida ko‘rsatgan seriallarning natijasi ekanini ta’kidladi.

«Er-xotinlar ajrashishni xuddi teleseriallardagi kabi oson va sodda deb bilishadi va nikohlarini bekor qilishadi. Ba’zi seriallardagi voqealar zanjiri odamlarni halokat jari tomon sudrayapti. Shu nuqtai nazardan, seriallarning foydadan ko‘ra zarari ko‘proqdir», – deydi u.

Yana bir tadqiqot so‘rovnomasida ishtirok etgan insonlarning katta qismi, ya’ni 33,8 foizi muayyan serialni oxirigacha ko‘rmasligining sababini uning axloqiy qadriyatlarga zid ekani bilan izohlagan.

Oppoq qog‘ozdagi dog‘...

Atrofingizga sinchiklab nazar soling, g‘arbona dunyoqarash va madaniyatimizni sintez qilishga urinish bizning ham qadriyatlarimizni yo‘q qilmoqda. Endilikda nafaqat bolalar va o‘spirinlar, hatto kattalar ham ekranda ko‘rganlarini o‘z hayotlariga olib kirishga harakat qilishmoqda.

Ammo gap bolalar haqida borar ekan, masalaning naqadar og‘riqli va dolzarb ekani yanada oydinlashadi. Bu – barchamizni sergak va hushyor torttirishi lozim. Chunki bolalar bamisoli oppoq qog‘oz. Ammo, afsuski, bu oppoq qog‘ozga bugun ajnabiy seriallarning dog‘i va nuqsi urmayapti, deb hech kim ayta olmaydi.

Seriallarning yoshlar ongi va ruhiyatiga, ma’naviy dunyosiga jiddiy raxna solishi ko‘plab ilmiy misollar bilan isbotlangan. Nottingem universitetining bolalar psixologi, professor Elizabet Nyusonning aytishicha, bola balog‘at ostonasiga qadam qo‘ygach, o‘zi uchun namuna izlaydi. Ushbu model uning o‘z oila a’zosi yoki biron san’atkor va hatto u tomosha qilgan filmlardagi zo‘ravonlik timsoli ham bo‘lishi mumkin. Bola o‘zi intilgan ushbu modelga beixtiyor taqlid qilishga urinadi.

Endi yaqin oʻtmishimizga qaytamiz. Esingizda boʻlsa kerak: «Ramayana» seriali namoyish etilganda, aksar bolalar Ram va Lakshmanga aylanib, kamon-paykon bilan bir-birining koʻzini chiqargan, «Jumong» namoyish etilganda esa oʻzicha qilich yasashga tushib ketgandi. Bu – bizning xulosa chiqarishimiz kerak boʻlgan, yosh avlod oʻzining boy tarixi boʻlgani holda oʻzga yurtning oʻtmishi va madaniyatiga mahliyo boʻlib oʻsgan yaqin tariximizdir.

Xoʻsh, bugun-chi, bugun? Bolalarimiz nimalarni tomosha qilib ulgʻayyapti? Kunning necha soatini ijtimoiy tarmoqlar yoki televizor qarshisida oʻtkazyapti? Maktab darsliklaridan tashqari oxirgi marta qaysi kitobni oʻqidi?

Qancha umrimiz yelga sovurilmoqda?

Aslida, barcha seriallarning mushtarak bir xususiyati bor: serialning har bir qismi, odatda, eng kulminatsion nuqtada yakunlanadi va «Keyingi qismda nima boʻlarkin?» degan savol tomoshabin miyasida aylanaveradi... Bu holda u keyingi qismni eng kamida bir kun, ba’zan esa haftalab yurak hovuchlab kutishiga toʻgʻri keladi. Bunga esa hammaning ham sabri dosh bera olmasligi aniq va tabiiyki, endi uyda, koʻcha-koʻyda va hatto ishxonada ham serial muhokama mavzusiga aylanadi.

YA’ni qiziqish maroqqa, maroq hayajonga, hayajon esa telbavor tutqunlikka aylanadi. Kunlar shu yoʻsin oʻtaveradi, oltinga teng umr esa yelga sovurilaveradi.

Agar bugun televizor, internet va ijtimoiy tarmoqlarda kechirayotgan vaqtimiz hisoblab chiqilsa, ishonaveringki, labimizga uchuq toshiradigan darajadagi dahshatli raqamlar paydo boʻladi.

Tadqiqotlarga koʻra, kuniga uch soat televizor tomosha qiluvchi inson bir yilda 45 sutkani, aytaylik, u 75 yil umr koʻrsa, shundan naq 9 yilini televizor ekraniga termilib oʻtkazadi.

Bugun yangi multimedia platformalarining umumlashtirilishi biz odatlangan televideniye iste’moli oʻrnini ham egallab bormoqda: endi ayrim odamlar har hafta serialning yangi qismi chiqishini

kutish o‘rniga, butun bir mavsumni bittada tomosha qilib tugatib qo‘ya qolyapti. Netflix xizmati, hatto buning uchun yangi atama ham o‘ylab topdi: binge-racer (qaram poygachi).

Xo‘sh, binge-racer kim? Bunday odam dastur yoki serial qismlarini ketma-ket tomosha qilgan holda hatto tunlarini uyqusiz o‘tkazadi. YA’ni uning ashaddiy giyohvanddan deyarli farqi qolmaydi.

Netflix ma’lumotlariga ko‘ra, 2013 yilda bunday foydalanuvchilar soni qariyb 8,4 million kishini tashkil etgan.

Agar bu raqam kundan kunga ortib borayotganini hisobga olsak, afsuski, bugun butun boshli «zombi» avlodlar yetishmoqda, deb aytish mumkin.

Seriallarning mafkuraviy ta’siri

Hukmron siyosiy elita va uning fikri teleseriallarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Buni biz tomosha qilayotgan turk seriallari misolida ham ko‘rish mumkin. Bugungi kunda hukmron partiya – AKP (Adolat va taraqqiyot partiyasi) vakillari Turkiya Respublikasini Usmonli imperiyasidan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi, deb bilishadi.

Ularning fikricha, Turkiya – Usmonli imperiyasining davomidir. Shuning uchun Usmonli imperiyasining ulug‘vorligi, ustunligi va umumiy merosini bot-bot eslatib turishadi va ular bugun Usmonlilar ruhini tiklashga harakat qilishmoqda.

Ushbu neo-usmonizm kontsepsiyasiga parallel holda so‘nggi o‘n yillikda ko‘plab film va seriallar suratga olindi. «Tirilish: Ertug‘rul», «Muhtasham yuz yil», «Fotih» kabi seriallar shular jumlasidandir.

Ta’kidlash joizki, inson dunyoqarashi va mafkurasiga xorijiy seriallarning ta’siri salmoqli. Chunki ular kishiga giyohvand moddaday ta’sir ko‘rsatib, uni haqiqiy hayotdan uzib qo‘yadi.

Ayon haqiqat shuki, bugungi kunda kino industriyasi pardasining ortida turganlar faqat reyting yoki pul ishlash uchungina film suratga olishmaydi. Shubhasiz, ularning boshqa bir

maqsadi bor. Shuning uchun ham aksar seriallarda ijtimoiy qadriyatlarning umumiy negiziga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan mavzular targ‘ib etiladi.

BBC ciyosiy muharriri Xardiman Skott ta’kidlaganidek, siyosatchilar televideniyening qudratini yaxshi bilishadi va undan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga intilishadi. Xususan, seriallarda siyosiy qarashlar va mafkuraviy gegemonizm kontsepsiyasi turli yashirin tashviq-da’vatlar, manipulyatsiyalar orqali «eksport» qilinadi.

Bir so‘z bilan aytganda, og‘u singdirilgan qand zarqog‘ozga o‘ralgan holda taqdim etiladi. Natijada esa jamiyatning ijtimoiy tuzilishi asta-sekinlik bilan tanazzulga yuz tutadi. Tili, dini, madaniyati g‘orat qilingan millatni esa osonlik bilan yengish mumkin.

Seriallarning psixologik ta’siri

Serialning yangi qismini tomosha qilish va miyadagi mukofot tizimi o‘rtasida bog‘liqlik borligi aniq. Kataloniya universiteti nevrologi Diyego Redolarning fikricha, oldinda bemalol ko‘rsa bo‘ladigan seriyalarning mavjudligi asab tizimiga yordam beradi, chunki asab tizimi kutishga, faollikka va serialga qaram bo‘lib qolishga toqat qilolmaydi. Keyingi qismni tomosha qilolmaslik bezovtalikni keltirib chiqaradi va kundalik hayotdagi boshqa vazifalar haqida o‘ylashni qiyinlashtiradi.

Bir o‘tirishda serialning juda ko‘p qismlarini tomosha qilish esa kognitiv va psixologik zararning yuzaga kelishiga sababchi bo‘ladi. Bunday xatti-harakatlar oxir-oqibatda yakkalanishga va hatto kundalik shaxsiy hayotning qadrsizlanishiga ham olib kelishi mumkin.

Shuningdek, serial tomoshasidan so‘ng jismoniy charchoq va hissiy tushkunlikka tushish holatlari ham ko‘p kuzatiladi. Shu bois olimlar har qanday serialni tomosha qilishdan oldin bu haqda obdon o‘ylab ko‘rishni maslahat berishadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, seriallar, ayniqsa, yoshlarning axloqi, ruhiy-ma’naviy dunyosiga jiddiy salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Ular bolalarning o‘z ota-onalari bilan o‘zaro munosabatiga, ularning o‘qishi va fikrlashining chegaralanishiga, madaniy begonalashuvga, tilning buzilishiga, bolalik va beg‘uborlikning erta yo‘qotilishiga sababchi bo‘ladi.

Masalan, Angliyadagi bir maktab-internatda 13–16 yosh toifasidagi bolalarni ikki guruhga bo‘lgan holda tadqiqot o‘tkazildi. Birinchi guruh 15 kun davomida hajviy va ijtimoiy dasturlarni, ikkinchi guruh esa zo‘ravonlik aks etgan dastur va seriallarni tomosha qildi. Qizig‘i shundaki, ushbu tadqiqot natijalari birinchi guruhdagi bolalarda bag‘rikenglik va kirishimlilik, ikkinchi guruhdagilarda esa aksincha, jismoniy zo‘ravonlik, axloqiy buzilishga moyillik ortganini ko‘rsatdi.

Nima qilmoq kerak?

Har qanday dastur va serial efirga uzatilar ekan, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, urf-odatlari, qadriyatlari, axloqiy fazilatlari suiiste’mol qilinmasligi shart. Televideniye tizimi uchun mas’ul bo‘lgan mutasaddilar masalaning mana shu jihatini hech qachon esdan chiqarmasliklari lozim.

Shu bilan birga, dastur yoki serialni televideniye efiridan olib tashlash bu hali yechim degani emas.

Eng avvalo, biz saviyasiz, yengil-elpi, real hayotdan yiroq, faqat maishiy masalalar atrofidagina o‘ralashib qolgan milliy «serial»larni suratga olishni bas qilishimiz, o‘zaro raqobatda auditoriyani xorijiy seriallarga boy berib qo‘ymaydigan haqiqiy kinoasarlarni yaratish ustida jiddiy bosh qotirishimiz lozim.

Agar biz diniy, milliy va axloqiy qadriyatlarimiz, shuningdek, tarixiy qahramonlarimiz hayoti haqida o‘tkir syujetli seriallar va filmlar yaratmas ekanmiz, ertaga ham kimlardir tomonidan suratga olingan va otning kallasiday mablag‘ evaziga xarid qilingan xorijiy

seriallarning jamiyatimizga koʻrsatayotgan salbiy taʼsiri haqida nolib oʻtiraveramiz.

Unutmaylik: koʻp qon yoʻqotmaslik va qutb ayiqlarining holiga tushib qolmaslik oʻz qoʻlimizda!

Mass-media fondi raisi Komil Allamjonov aksariyat telekanallarimizda asosan xorij seriallari namoyish etilayotgani, milliy seriallar esa deyarli yoʻq ekani haqida fikr bildirdi va bu – bugun eʼtibor qaratilishi, hal qilinishi lozim boʻlgan muhim masala ekanini taʼkidladi.

«…Seriallar tomoshabin ongiga toʻgʻridan toʻgʻri taʼsir koʻrsatuvchi kuchli vosita hisoblanadi. Agar uning meyori boʻlmasa, bu ketishda ideologik suverenitetimizni yoʻqotib qoʻyishimiz hech gap emas», – deya oʻz xavotirini bildirdi fond raisi.

Xoʻsh, bu xavotir qanchalik oʻrinli? Xorijiy seriallar oʻzbek auditoriyasiga qay darajada xavf solmoqda? Bu xavfning oldini olish uchun nima qilishimiz kerak? Xorijiy seriallarni koʻrib «diydasi qotgan» avlod ertaga kim boʻladi?

Boshqa tarafdan, taqiqlar ish beradimi? Har tomonlama sifatli milliy seriallarni yaratish uchun oldimizda qanday toʻsiqlar turibdi? Jahon ekranlariga chiqa oladigan milliy seriallarni yaratish bizga nima beradi? Bu vazifaning uddalanishi davlatimiz iqtisodiyoti va imijiga qanday ijobiy taʼsir oʻtkazishi mumkin?

Albatta, ushbu savollarning har biri alohida mavzu. Ularning barchasi ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan tadqiqotlarni, fikr-mulohazalarni talab qiladi. Bugungi maqolamizda esa kirish qismi sifatida turk serialchiligiga oid qator muhim maʼlumotlarga eʼtibor qaratamiz.

Turk seriallarini «yotvolib» tomosha qiladigan faqat bizmi?

Turkiya hozirga kelib AQShdan keyingi eng koʻp serial sotuvchi ikkinchi mamlakatga aylangan.

Bugungi kunda turk seriallari nafaqat Oʻzbekistonda, balki Oʻrta Sharqdan Bolqongacha, Afrikadan Markaziy Osiyogacha, Uzoq Sharq

va Janubiy Amerikagacha bo‘lgan juda katta jug‘rofiy miqyosda namoyish etiladi.

Aniqrog‘i, turk seriallarini 146 mamlakatda 700 milliondan ziyod insonlar tomosha qiladi. Turk seriallari eng ko‘p sotilgan va tomosha qilingan mamlakatlar orasida esa Chili, Meksika va Argentina davlatlari yetakchilik qiladi.

Turkiya bu sohadan qancha daromad ko‘radi?

Birgina 2018 yilning o‘zida Turkiya seriallar sotuvidan 500 million dollar miqdorida daromad qilgan. 2023 yilga qadar bu ko‘rsatkichni 1 mlrd dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Raqamlar gapirganda...

Xalqaro miqyosda eksport qilingan birinchi turk seriali 1975 yilda yaratilgan «Taqiqlangan sevgi» (Aşk-ı Memnu) seriali bo‘lib, u 1981 yil Fransiyaga sotilgan. E’tibor qiling, Turkiya o‘zining ilk serialini sotganiga hali 40 yil ham bo‘lgani yo‘q.

Ilk qismi 1999 yilda chiqqan «Telba yurak» seriali Qozog‘istonga sotilgan.

2008 yildan e’tiboran turk seriallarining arab dunyosidagi mashhurlik darajasi sezilarli tarzda osha boshlagan. Masalan, 2008 yil «Kumush» serialining arabcha dublyajdagi so‘nggi qismi 85 million tomoshabinni qamrab olgan.

«Ming bir kecha» nomli serial esa namoyish etilgan 80ga yaqin mamlakatda mavjud reytinglarni yangilagan holda dunyo e’tiborini jalb qilgan ilk turk serialiga aylangan.

Eng ko‘p xorijiy mamlakatga sotilgan serial esa «Muhtasham yuz yil»dir. Ushbu serial Yaqin Sharq mamlakatlari, Yaponiya, shu jumladan, yurtimizda ham shuhrat qozongan. Shu tariqa, ushbu kinoasar 70 mamlakatda 500 milliondan ortiq tomoshabinni qamrab olishga erishgan.

Turk seriallarining keng «quloch ochayotgani»ga sabab nima?

Turk seriallarini o‘zbeklar sevib tomosha qilishining turli obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta. Turklar esa buning

sababini ikki omil – voqealarning real hayotdan olingani va kartinalarning o‘zbeklar madaniyati hamda tushuncha tarziga mos ekani bilan izohlashmoqda.

«Sevgi iztirobi», «Muhtasham yuz yil», «Ko‘sem», «Chuqur», «Ichkarida», «Istanbullik kelin», «Gullar iztirobi», «Malikam, endi qara», «Abdulhamid», «Hovli» kabi seriallar o‘zbek tomoshabinlar tomonidan sevib tomosha qilingani bor gap. Zotan, O‘zbekistondagi davlat va xususiy telekanallar tomonidan namoyish etilgan turk seriallari faqat mana shular bilangina cheklanib qolmagan. Ayni paytga qadar «Osiyo», «Arg‘uvonlar ostida», «Achchiq yolg‘on», «Zerda», «Ishkomli uy», «Kumush», «Qashqirlar makoni», «Xinali qor» singari ko‘plab turk seriallari efirlarimiz yuzini ko‘rib ulgurgan.

Turk seriallarining dunyo bo‘ylab eksport qilinishini yengillashtirgan va ayniqsa, yoshlar e’tiborini tortayotgan asosiy sabablaridan biri shuki, ushbu seriallarning aksariyati nafaqat telekanallarda, balki YouTube, Netflix va Puhu kabi muqobil tomosha kanallarida ham namoyish etilmoqda.

YA’ni internetdagi film va seriallar tomoshasiga ixtisoslashgan platformalar, 190dan ortiq mamlakatda 150 milliondan ziyod obunachiga ega Netflix ham turk seriallarining yanada keng «quloch ochish»ida muhim rol o‘ynamoqda.

Turk seriallari qaysi mamlakatlarda taqiqlangan?

Turk seriallari bugun hatto dunyo siyosatchilarini ham befarq qoldirmayotganini ko‘rish mumkin. Masalan, Venesuela prezidenti Nikolas Maduro «Ertug‘rul» serialini tomosha qilganini ijtimoiy tarmoqdagi shaxsiy akkauntida yozib qoldirgan; Turkiyaga kelganida esa serial suratga olingan pavilyonga borib, u yerni ko‘zdan kechirgan.

Mashhur futbolchi Lionel Messi esa ijtimoiy tarmoqdagi sahifasida farzandlarining «Qora pul sevgisi» teleserialini tomosha qilganini aytgan.

Iordaniya, Iroq, Qatar, Marokash, Tunis va Jazoir kabi arab mamlakatlarida eng koʻp tomosha qilingan kinoasarlar qatoriga kiruvchi turk seriallari Saudiya Arabistoni va Misrda taqiqlangan. Ammo shunga qaramay, seriallarni ushbu davlatlarda ham internet orqali tomosha qilishda davom etishmoqda.

Oʻzbekiston uchun ham bu mavzu yangi emas. 2012 yil turk seriallari «milliy qadriyatlarga zid deb topilgani uchun» butunlay toʻxtatib qoʻyilgandi. Taqiq besh yil davom etdi va yana turk seriallari namoyishiga ruxsat berildi. Biroq Zoʻr TV xususiy kanalida namoyish etilayotgan «Sevgi iztirobi» («Kara Sevda») seriali atrofidagi koʻplab muhokamalar ortidan serial namoyishi toʻxtatib qoʻyildi.

Ayni paytda Turkiyada qaysi seriallarga nisbatan e’tiroz bildirilmoqda?

Ta’kidlash joizki, ayrim seriallar hatto Turkiyaning oʻzida ham keskin e’tirozlarga sabab boʻlmoqda. Shu bois keyingi paytlarda Turkiyaning asosiy davlat senzurasi turk seriallarini faol ravishda kuzatishni boshladi. Kuzatuvlar natijasida esa bir nechta serial axloq-odob qoidalari, diniy qadriyatlarga zid deb topilgani uchun jarimaga tortilgan, loyiha ijodkorlari esa ogohlantirilgan.

Xususan, «Taqiqlangan olma», «Moʻjiza doktori», «Janob Xato» kabi seriallar turk jamiyati oilaviy tuzilmasi poydevori ostiga «dinamit» qoʻyishda ayblanmoqda.

Shuningdek, turk auditoriyasi shafqatsizlik aks etgan sahnalar oldingi planga chiqarilgan seriallarga qarshi munosabat bildirish barobarida RTÜK (radio va televideniye mahsulotlarini nazorat qiluvchi tashkilot)ga murojaat bilan ham chiqishmoqda. Masalan, «Taqiqlangan olma» (serialda bolalar va yoshlar uchun salbiy rol modellari yaratilgan, muqaddas qadriyatlarga hurmatsizlik qilingan va insoniy munosabatlarning buzilishi odatiy hol sifatida koʻrsatilgan) va «Yangi hayot» seriali (unda oilaviy qadriyatlar yaqqol kamsitiladi, turmush qurgan erkak oilali ayolni sevib qoladi)

jarimaga tortildi. Uzoq davom etishi kutilayotgan ushbu serialning so‘nggi qismi esa o‘tgan hafta namoyish etildi. YA’ni loyiha muddatidan oldin yakunlandi.

«Sadoqatsiz» seriali bo‘yicha ham shunday fikr bildirish mumkin. Serial bosh qahramonlari ustidan juda ko‘plab shikoyatlar kelib tushgan. Nazorat qiluvchi tashkilot serialning birinchi qismini namoyish etmaslik sharti bilan prodyuserlik kompaniyasiga murojaat qilgan. Shunga qaramay, 2020 yil 7 oktabr kuni kartinaning premyerasi o‘tkazildi. Namoyishi ortidan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari ushbu serial turk axloqiy qadriyatlariga putur yetkazayotganini aytishmoqda. Ularning e’tirozlari RTÜK va Şikayetvar («Shikoyat bor») kabi platformalarda ham aks-sado bermoqda. Minglab odamlar esa serialning efirdan olib tashlanishini talab qilmoqda.

Jiddiy va og‘riqli masala – oldinda...

Ayrim turk seriallariga nisbatan hatto Turkiyaning o‘zida ham e’tiroz va tanqidlar kuchayib borayotgan bir paytda telekanallarimizda ularning soni va efir hajmining tobora ortib borayotgani, albatta, kishini o‘yga toldiradi. Ushbu nuqtada esa yanada jiddiy va og‘riqli masala – seriallarning mafkuraviy ta’siri o‘rtaga chiqadi.

Aytish joizki, «parda orti»dagi jarayonlarni yaqindan kuzatib borish, ulardan o‘z vaqtida voqif bo‘lish keyinchalik sahnalashtiriladigan tragik vaziyatlardan bizni ogoh etishi mumkin. Shu bois loyihamizning keyingi sonida ayni mana shu mavzu – ya’ni seriallarning mafkuraviy va axloqiy-psixologik ta’sirlari xususida fikr yuritamiz.

O‘zbekistonda axborot xafvsizligi masalalari.

Axborot xavfsizligi bu axborot foydalanuvchilariga va ko‘plab axborot tizimlariga zarar keltiruvchi tabiiy yoki sun’iy xarakterga ega tasodifiy va uyushtirilgan ta’sirlardan axborotlarni va axborot kommunikatsiya tizim obyektlarining himoyalanganligidir.

Axborot xavfsizligi deganda biz tasodifiy yoki oldindan ko‘zlangan tabiiy yoki suniy xarakterga ega bo‘lgan ta’sirlardan, qaysiki axborot subyektlariga noma’qul ziyon keltiradigan, shu jumladan infrastrukturani qo‘llab quvatlovchi axborot foydalanuvchilaridan va egalaridan axborotni himoyalanganligini tushinamiz.

Axborotni himoyalash - bu axborotni xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar.

Axborot xavfsizligini asosiy tashkil qiluvchilari quyidagi kategoriyalardan iborat: infrastrukturani qo‘llab quvatlovchi va axborot resurslarini maxfiyligini, butunligini va foydalanuvchanliligini ta’minlash.

Foydalanuvchanlik - bu ma’lum vaqt oralig‘ida kerakli axborot xizmatini olish imkoniyatidir.

Butunlik - axborotni aktulliligi bo‘lib, uni yo‘q qilinishidan va ruxsat etilmagan o‘zgartirishlardan himoyalanganliligidir. Axborotni o‘zgartirish imkoniyatiga faqat tegishli huquqi bo‘lgan shahslar ega bo‘lishi kerak.

Maxfiylik - bu axborotni ruxsat etilmagan murojatlardan himoyalash. Axborot bilan tanishish imkoniyatiga faqat tegishli huquqga ega bo‘lgan shahslar ega bo‘ligi kerak.

Jamiyatda axborotlashtirish sohasidagi munosabatlarning kengayishi bilan bir qatorda, mamlakatimizda ushbu sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan yangi ijtimoiy munosabatlar — axborot xavfsizligini ta’minlash dolzarb masalalardan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi “Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi” davlat muassasasi O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2013 yil 27 iyundagi PQ-1989-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi huzurida “Elektron hukumat” tizimini rivojlantirish markazi hamda Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2013 yil 16 sentabrdagi 250-sonli qarorlariga muvofiq tashkil qilingan.

Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi kompyuter hodisalari bo‘yicha axborotni yig‘ish va tahlil qilish, axborot xavfsizligini ta’minlashga texnik va konsultativ yordam berish bo‘yicha O‘zbekistonda yagona davlat muassasasi hisoblanadi.

Markaz faoliyatining asosiy maqsadi – iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalarida axborotni muhofaza qilishning zamonaviy vositalari va metodlarini yanada rivojlantirish va keng joriy qilishni ta’minlash, shuningdek, Internet milliy foydalanuvchilarini hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarini axborot xavfsizligiga tahdidlar to‘g‘risida ogohlantirishdan iborat .

“Axborot xavfsizligiga tahdid manbalari tasodifiy va oldindan ko‘zlangan bo‘lishi mumkin”. Dastur ta’minotidagi kamchiliklar, texnik vositalarning nosozligi, malakaning yetishmasligi yoki foydalanuvchining xatolari tasodifiy tahdidlar hisoblanadi. Oldindan ko‘zlangan tahdidlar esa axborot zahiralariga zarar yetkazish maqsadida atayin amalga oshiriladi. Ular faol(aktiv) va nofaol(passiv) bo‘ladi. Nofaol tahdidlarga axborot zahiralaridan ularning vazifalariga ta’sir ko‘rsatmagan holda ruxsat berilmagan foydalanishga bo‘lgan intilishlar kiradi. Texnik va dastur vositalariga, axborot zahiralariga ta’sir qilish yo‘li bilan tizimning mo‘tadil faoliyatini buzishga qaratilgan tahdidlar faol tahdidlar hisoblanadi.

Tajribadan ma’lumki, xavfni bartaraf etishning eng oson yo‘li, shu xavfni oldindan aniqlab, unga qarshi ehtiyot choralarini qo‘llash hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, axborot xavfsizligini ta’minlash

borasida ham sohaga nisbatan potensial tahdid manbalarini aniqlash va himoya choralarini qo‘llash birlamchi vazifalardan hisoblanadi.

Axborot xavfsizligiga tahdid manbalari ichki va tashqi manbalarga bo‘linadi. Mutaxassislarning e’tirof etishicha, axborot xavfsizligining dolzarb muammoga aylanishiga asosan tashqi manbalar sabab bo‘lgan. Chunki, bugun zamonaviy dunyoga egalik qilish uchun kurashning asosiy vositasi sifatida axborot tilga olinmoqda. Bunday vaziyatda axborot texnologiyalari va axborot boshqaruvi yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlar o‘zidagi bu ustunlikdan ijtimoiy ongga ta’sir ko‘rsatish yo‘lida foydalanishdan tom ma’noda manfaatdor hisoblanadi.

Axborot xavfsizligiga tahdidning tashqi manbalari:

— chet el josuslik va maxsus xizmatlarining faoliyati;

— chet el ommaviy axborot va global kommunikatsiya vositalari;

— xalqaro guruhlar, tuzilmalar va alohida shaxslarning noqonuniy harakatlari;

— axborot tarqatish va foydalanish bo‘yicha xorijiy davlatlar siyosatining amalga oshirilishi

— tabiiy ofatlar va fojealar.

Axborot xavfsizligiga tahdidning ichki manbalari:

— siyosiy, iqtisodiy va jamoat tashkilotlarining, alohida shaxslar va guruhlarning axborot to‘plash, tarqatish va foydalanish sohasidagi noqonuniy faoliyatlari;

— axborot sohasida fuqarolar va tashkilotlar huquqlarining buzilishiga olib keluvchi davlat tizimlarining qonuniy harakatlari va ko‘zda tutilmagan xatolari;

— axborot tizimlarining dasturiy-texnik vositalarining bazaviy texnologiyalarini yaratish, sinash va ishlab chiqarish bo‘yicha mahalliy sanoatning talab darajasida emasligi.

Axborot makonining vujudga kelishi nafaqat uni boʻlib olish, balki unda kechayotgan jarayonlarni nazorat qilish va boshqarishni hoxlovchi tomonlarning paydo boʻlishiga olib keldi. Bu guruhlarning kurash vositasi ham aynan axborot qurolidir. Tahlilchilar axborot quroli deganda odamlarga ruhiy ta’sir koʻrsatadigan va ularning ustidan nazorat qilish imkonini beruvchi vositalarni, kompyuter viruslarini, mantiqiy bomba, telekommunikatsiya tarmoqlarida axborot almashinuvini bostiruvchi moslamalarni, davlat va harbiy sohalarni boshqarishda axborotlarni soxtalashtirish kabi harakatlarni nazarda tutishadi.

Axborot xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning asosiy ta’sir vositasi bir martalik tashviqot aksiyalari, uzoq muddatli targʻibot kampaniyalari, mafkuraviy tazyiq, madaniy ekspansiya, axborot blokadasi kabi ruhiy-informatsion ta’sir vositalari hisoblanadi.

! Ruhiy-informatsion ta’sir asosan quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

— diskreditatsiya – voqeaning ahamiyatini pasaytirib berish;

— dezinformatsiya – axborotning ma’nosini oʻzgartirgan holda taqdim etish;

— tuhmat;

— e’tiborni chalgʻitish;

— faktlarni manfaat uchun buzib talqin qilish.

Ruhiy-informatsion ta’sir ommaviy axborot va global kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi hamda davlatning ichki siyosatiga ishonchsizlik uygʻotish, ichki ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, muxolif kayfiyatlarni qoʻzgʻotish, hattoki isyonga undash kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Globallashgan axborot maydonida ruhiy-informatsion ta’sir vositalarini toʻliq cheklash yoki nazorat qilish imkonsiz. Demokratik boshqaruv, fikrlar xilma-xilligi bunga yoʻl qoʻymaydi. Aslida tarqatilayotgan har bir axborot qayta-qayta tekshirilgan boʻlishi

kerak. Ammo reallik bu sarobni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun muammoning boshqa yechimlarini izlagan ma’qul.

Birinchidan, tashqi tahdid kuchlariga nisbatan munosabatni shakllantirish.

Ikkinchidan, fuqarolarning bilimini va tahlil qilish mahoratini o‘stirish lozim. Toki ularning o‘zi oqni qoradan ajratib olish imkoniyatiga ega bo‘lsin.

Uchinchidan, axborot oqimida jamiyat va davlat manfaatlariga mos bo‘lgan axborotni odamlar tezroq qabul qiladigan va ishonadigan darajaga olib chiqish. Agar bu vazifa yetarli darajada amalga oshirilsa, salbiy axborotlarning ijtimoiy ongga ta’siri keskin tushib ketadi.

To‘rtinchidan, milliy OAVga ishonchni oshirish. Chunki, axborot xavfsizligini ta’minlashning eng muhim shartlari jamiyatda axborot taqchilligini bartaraf etish masalasi bilan bog‘liq. Agar aholi mahalliy OAVga ishonmasa, ularni asosiy axborot manbai sifatida qabul qilmasa, boshqa manbalarni izlashi tabiiy.

Beshinchidan, axborot boshqaruvi va texnologiyalari sohasini malakali kadrlar bilan ta’minlash.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvining kuchayishi ulardan global axborot maydonida o‘z imijini yaratishni talab qilmoqda. Chunki globallashuv inson hayotini qanchalik shiddatkor qilmasin, har bir millatning o‘ziga xosligi, milliy qadriyat va an’analariga sodiqligi, umuman, uning millat sifatida o‘zligini saqlab qolishiga jiddiy tahdid solmoqda. Shuning uchun ham axborot xavfsizligini ta’minlash muammolari bugun nafaqat rivojlanayotgan, balki dunyoning yetakchi davlatlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ho‘sh, axborot xavfsizligi nima? O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuniga muvofiq “subyektlarning axborotni yaratish, qayta ishlash va undan foydalanish bilan bog‘liq faoliyat sohasi — axborot sohasidir”[2],

hamda “axborotni muhofaza etish — axborot borasidagi xavfsizlikka taxdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari”.

Axborot borasidagi xavfsizlik — axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holati.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. 12.12.2002 y. 3-modda.

“shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish; Shuningdek “har qanday axborot, agar u bilan qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lish axborot mulkdori, egasi, axborotdan foydalanuvchi va boshqa shaxsga zarar yetkazishi mumkin bo‘lsa, muhofaza etilmog‘i kerak” [2, 11-modda], ya’ni bunday axborotlarning xavfsizligi ta’minlanishi qonun bilan belgilangan bo‘lib, axborotlarni muhofaza qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

axborotning maxfiyligini ta’minlash, tarqalishi, o‘g‘irlanishi, yo‘qotilishining oldini olish;

axborotning buzib talqin etilishi va soxtalashtirilishining oldini olish”.

Shaxsning axborot xavfsizligiga daxl qilganlik uchun javobgarlik normalarini qo‘l¬lash axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, mamlakatimizda 2007 yilda “Axborotlashtirish va ma’lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekis¬ton Respublikasining qonuni qa¬bul qilindi[6].

Axborot xavfsizligi jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlanishi muhimdir. “Jamiyatning axborot borasidagi xavfsizligiga quyidagi yo‘llar bilan erishiladi:

demokratik fuqarolik jamiyati asoslari rivojlantirilishini, ommaviy axborot erkinligini ta’minlash;

qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta’sir ko‘rsatishga, uni chalg‘itishga yo‘l qo‘ymaslik;

jamiyatning ma’naviy, madaniy va tarixiy boyliklarini, mamlakatning ilmiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatini asrash hamda rivojlantirish;

milliy o‘zlikni anglashni izdan chiqarishga, jamiyatni tarixiy va milliy an’analar hamda urf-odatlardan uzoqlashtirishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni buzishga qaratilgan axborot ekspansiyasiga qarshi harakat tizimini barpo etish”.

Davlatning axborot borasidagi xavfsizligi quyidagi yo‘llar bilan ta’minlanadi:

“axborot sohasidagi xavfsizlikka tahdidlarga qarshi harakatlar yuzasidan iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va boshqa tusdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;

davlat sirlarini saqlash va davlat axborot resurslarini ulardan ruxsatsiz tarzda foydalanilishidan muhofaza qilish;

O‘zbekiston Respublikasining jahon axborot makoniga va zamonaviy telekommunikatsiyalar tizimlariga integratsiyalashuvi;

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, hududiy yaxlitligini, suverenitetini buzishga, hokimiyatni bosib olishga yoki qonuniy ravishda saylab qo‘yilgan yoxud tayinlangan hokimiyat vakillarini hokimiyatdan chetlatishga va davlat tuzumiga qarshi boshqacha tajovuz qilishga ochiqdan-ochiq da’vat etishni o‘z ichiga olgan axborot tarqatilishidan himoya qilish;

urushni va zo‘ravonlikni, shafqatsizlikni targ‘ib qilishni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovat uyg‘otishga qaratilgan, terrorizm va diniy ekstremizm g‘oyalarini yoyishni o‘z ichiga olgan axborot tarqatilishiga qarshi harakatlar qilish”[8].

Albatta axborot xavfsizligini ta’minlashning eng dolzarb masalalaridan biri internetdagi axborot xavfsizligi bo‘lib, undan

himoyalanishning bugungi kunda koʻplab usullari mavjud. Shulardan eng oddiysi parol qoʻyishdir. Simsiz tarmoqni samarali himoya qilish uchun avvalo unga qanday xatar xavf solayotganligini foydalanuvchi bilishi lozim. Bular:

1. Bepul internet. Bugungi kunda internet provayderlar arzon tariflarni taklif etayotganliklariga qaramay, ayrim kimsalarda sizning internetingizga yashirincha ulanish fikri toʻgʻilishi mumkin.
2. Traffikni yoʻlda tutib olish, elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntingizni buzish va boshqa huquqbuzarliklarni amalga oshirish. Wi-Fi parolini bilgan huquqbuzar uzatilayotgan trafik orqali olinayotgan axborotga ega boʻla oladi.
3. Ishlab chiqarishdagi josuslik. Koʻp holatlarda oʻz ishiga nisbatan masʼuliyatni toʻla qonli his etmagan maʼmur tomonidan qoʻl uchida sozlangan ishxonadagi Wi-Fi huquqbuzar uchun "ochiq eshik" vazifasini oʻtaydi. Natijada huquqbuzar kompaniyaning maxfiy axboroti hamda xodimlarning shaxsiy maʼlumotlari uchun yoʻl ochiladi.
4. Pentesting (ing. penetration testing – yashirincha kirish uchun testdan oʻtish). Pentesterlar – soʻnggi yillarda paydo boʻlgan zamonaviy xakerlar. Ammo ular buyurtma asosida, tarmoq egasining roziligi bilan ish koʻradilar.
5. Qiziqish. Tarmoqni buzish uchun eng keng tarqalgan sabablardan biri. Aksariyat holatlarda mazkur huquqbuzarlikni yoshlar amalga oshirib, keyin tengdoshlari oʻrtasida maqtanib yuradilar[9].

Axborot xizmati xodimlari tashkilot saytini turli xil kompyuter xujumlaridan saqlash uchun, avvalo ularning eng keng tarqalgan turlaridan xabardor boʻlishlari maqsadga muvofiqdir.

Bugungi globallashuv jarayoni kimki axborotga egalik qilsa, oʻsha dunyoga hukmronlik qiladi, degan fikr bejizga aytilmaganligini tasdiqladi. Darhaqiqat, hozir dunyoning bir qancha davlatlarida yadro quroli ishlab chiqarish boʻyicha harakatlar davom etayotgan

bo‘lsa, bir qator mamlakatlarda esa axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib borilmoqda. Ayniqsa, ma’naviy tahdid va yoshlar ongini egallashga qaratilgan axborot xurujlari kun sayin avj olmoqda. Ba’zi bir g‘arazli kuchlar tomonidan bu borada turli usul va uslublardan foydalanib kelinmoqda. Axborot xurujlarining yolg‘on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetga mutlaqo yot bo‘lgan qadriyatlarni targ‘ib etish, xalqning tarixiy xotirasini buzish va o‘zgartirish, kiberterrorizm kabi turlari keng tarqalmoqda.

Jahon tajribasidan ma’lumki, davlat axborot infrastrukturasining rivojlanishi barcha sohalarni, shuningdek, odamlarning dunyoqarashi va ularning ijtimoiy hayotiga jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan tizimlar va ma’lumotlar bazasi davlat strukturalarini, iqtisodiyotni va mamlakat xavfsizligini boshqarishning ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda. Shu bois O‘zbekistonda ham axborot manbalari va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan milliy qonunchilik asoslari yaratildi, u davlat axborot infrastrukturasining shakllanishida ijobiy rol o‘ynamoqda. Shunga qaramasdan axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va uzatish tizimlaridan foydalanishda himoya va kirishni cheklash vositalaridan minimal holda foydalanilmoqda. Bunda milliy xavfsizlikka ta’sir qiluvchi ma’lumotlarning chiqib ketishi va davlat axborot maydoniga kirib kelish xavfi o‘sib boradi.

Zamonaviy axborot bozorini shakllantirishda axborot xavfsizligi, ayniqsa, bolalarning axborot xavfsizligini ta’minlash muammolari alohida o‘rin egallaydi. Shunday ekan, jamiyatning axborot xavfsizligini ta’minlash davlat va uning vakolatli organlarining asosiy vazifasi bo‘lib qolaveradi. Axborot xavfsizligi deganda - shaxs, jamiyat va davlatning xavfli axborotlardan himoyalanganlik holati tushuniladi.

Axborot texnologiyalari turli axborot tarqatish manbasi ekan, bunda axborot xavfsizligini ta’minlash bir tomondan davlatning ushbu sohadagi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lsa, jamiyatda bolalarning axborot xavfsizligini ta’minlash ikkinchi asosiy va muhim davlat ustuvor siyosati hisoblanadi.

Bugungi kunda kitob, ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda bolalarga Internet global tarmog‘i behisob va turli mavzudagi axborotlarni jamiyatga, xususan, bolalarga taqdim etib kelmoqda. Axborot bozori salohiyati, xavfli yoki foydaligidan qat’iy nazar bolalarga tovar sifatida axborotni taklif etmoqda. Bu axborotlar bolalarni yo saodatga yetaklaydi, yoki falokatga duchor qiladi.

Bugungi kunda kitob, ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda bolalarga Internet global tarmog‘i behisob va turli mavzudagi axborotlarni jamiyatga, xususan, bolalarga taqdim etib kelmoqda. Axborot bozori salohiyati, xavfli yoki foydaligidan qat’iy nazar bolalarga tovar sifatida axborotni taklif etmoqda. Bu axborotlar bolalarni yo saodatga yetaklaydi, yoki falokatga duchor qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolalarimizning kitob bilan muloqotda bo‘lishi, internet tarmog‘idan axborot olishi, ruhiyatini sog‘lom va bunyodkorlikka undovchi axborotlar bilan mustahkamlab borishida davlat xavfli axborotlarning erkin aylanishining oldini olish, bunda esa mavjud qonunchilikni takomillashtirish, ta’lim tizimini mustahkamlash, bolalarda erkin fikr yuritish va o‘zini qiziqtirgan barcha savollarga javob oladigan muloqot maydonini yanada kengaytirish muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda axborot xavfsizligi konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda O‘zbekiston

Respublikasining axborot xavfsizligi kontsepsiyasi ishlab chiqilmoqda. Unda kiberxavfsizlikka qarshi kurashish sohasidagi strategik vazifalar va kontseptual yo‘nalishlar belgilanadi. Bu haqida «O‘zA» xabar berdi.

Vazirlikdan ma’lum qilishlaricha, kontsepsiya loyihasida axborot xavfsizligiga asosiy tahdidlar belgilangan bo‘lib, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan amaliy chora-tadbirlarga e’tibor kuchaytirilmoqda. Loyihada axborot makoni imkoniyatlaridan foydalanishning yangi tamoyillariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kontsepsiyada axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari, shuningdek, internet tarmog‘idan foydalanishda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish tamoyillariga asoslangan axborot makonidagi milliy manfaatlar o‘z aksini topadi.

Yaratilayotgan kontsepsiya axborot xavfsizligi sohasida davlat siyosatining strategik vazifalarini belgilab beruvchi va muvofiqlashtiruvchi muhim hujjat hisoblanadi. U o‘zaro axborot hamkorligi uchun xavfsiz muhitni shakllantirish hamda axborot, kommunikatsiya va texnologiya tizimlarining milliy axborot makonida barqaror ishlashini, ulardan shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida xavfsiz foydalanishni rag‘batlantiradi. Buning uchun nafaqat mavjud tahdidlarga qarshi kurashish, balki mamlakatimizga qarshi dushmanlik va buzg‘unchilik harakatlarini amalga oshirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish xavfini kamaytirishga yo‘naltirilgan milliy axborot xavfsizligi tizimini rivojlantirish va takomillashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Mazkur tizimni shakllantirishda davlat organlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faol ishtiroki kutilmoqda.

7-mavzu. MILLIY G‘OY, IJTIMOIY TARAQQIYOT VA MAFKURAVIY JARAYONLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Reja:

1. Milliy g‘oya mohiyatida xalq manfaatining ifodalanishi.

2. G‘oyaviy tahdidlarning yo‘nalishlari. Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi.

3. Mafkuraviy faoliyat - milliy g‘oyani amalga oshirish vositasi.

4. Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari.

5. Jamiyat barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-g‘oyaviy asoslari.

6. Tafakkur o‘zgarishi va ma’naviy yangilanishda milliy g‘oyaning roli. Milliy g‘oyani rivojlantirishning institutsional tizimi.

O‘zbekistonda yangi jamiyat barpo etilmoqda. Jamiyat deganda biz odamlar uyushib, jamoa va xalq bo‘lib yashaydigan ijtimoiy-siyosiy tuzumni tushunamiz. Yangi jamiyat deganda esa xalqning maqsad-muddaolari va manfaatlari asosida barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati tushuniladi. O‘zbekistonda barpo etilayotgan ana shu jamiyatning ma’no-mazmunini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida quyidagicha ifodalab berdi: «Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi - bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lidan og‘ishmay, izchil va qat’iyat bilan borishdir».

Strategik maqsad - uzoqqa mo‘ljallangan umumiy aniq rejani ifodalaydi.

Xalqimizning yangi jamiyat barpo etish yo‘lidagi orzu-intilishlari uning milliy g‘oyasi va mafkurasini shakllantirishni hayotiy zaruratga aylantirdi. «Chunki milliy g‘oya bo‘lsa, maqsad oydinlashadi. Ezgu maqsad esa har bir kishini safarbarlikka da’vat etadi, jamiyatni yanada birlashtiradi. O‘z milliy g‘oyasi, milliy mafkurasiga ega bo‘lgan davlat mustahkam, qudratli va obod bo‘ladi».

Tushuncha deb, narsa-hodisaning asosiy qonuniyatlari, belgi-xususiyatlarini o‘zida aks ettiradigan bilim va tasavvurlarga aytiladi.

Tamoyil deganda esa narsa-hodisalarning mohiyati va namoyon bo‘li-shiga xos ustuvor xususiyatlar tushuniladi. Demak, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari deganda, milliy g‘oyamizning asosiy qonuniyat hamda belgilarini o‘zida aks ettiradigan bilim va tasavvurlarni, uning mohiyati va namoyon bo‘lishiga xos ustuvor xususiyatlarni anglaymiz.

Har qanday mafkura muayyan asosiy maqsadlarga xizmat qiladi, bu yo‘lda xilma-xil vazifalarni bajaradi. Mustaqillikni mustahkamlashda milliy g‘oyadan ko‘zlangan maqsad jamiyatdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini, mamlakatimiz hududiy yaxlitligini ta’minlashdan iborat. Bu yo‘lda, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mafkuraning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Odamlarni muayyan g‘oyaga ishontirish va mo‘ljallash funksiyasi.

Shu g‘oya atrofida kishilarni uyushtirish va birlashtirish funk-siyasi.

Foyani amalga oshirish uchun safarbar etish.

Kishilarni ma’naviy-ruhiy jihatdan rag‘batlantirish.

Foyaviy tarbiyalash.

Foyaviy immunitetni shakllantirish.

Harakat dasturi bo‘lish.

Amortizatsiyalash, ijtimoiy keskinlikni yumshatish funksiyasi.

Muayyan ijtimoiy guruh manfaatlarini ifoda etish va himoyalash funksiyasi.

Milliy g‘oyada O‘zbekiston xalqining mamlakatimiz rivojida belgilab olgan asosiy maqsad va muddaolarining ifodasi mujassamlashgan.

Birinchidan, o‘z kelajagini ko‘rmoqchi va qurmoqchi bo‘lgan har qanday davlat yoki jamiyat, albatta, o‘z milliy g‘oyasiga suyanishi va tayanishi zarurligi bilan bog‘liq. Davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat aniq ifodalangan mafkura asosida qurilmog‘i lozim. «...Oldin g‘oya paydo bo‘ladi, undan keyin g‘oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo‘ladi» (Karimov I.A. Asarlar. T.8. 464-465-betlar). Demak o‘z milliy g‘oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga uchrab, o‘z yo‘lini yo‘qotadi.

Ikkinchidan, milliy g‘oya asosida O‘zbekiston xalqining, odamlari ongi, tafakkurini o‘zgartirmasdan turib ko‘zlangan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni, erkin va farovon hayotni barpo etib bo‘lmaydi. Buning uchun esa, odamlar muayyan g‘oyaga ishonishi va tayanishi zarur. Bu jarayon o‘z-o‘zidan harakatga kelmaydi. Ishontirmoq uchun u ilmiy va hayotiy, to‘g‘ri ekanligiga e’tibor berish kerak, maqsad va muddaolarni ifodalashi lozim.

Uchinchidan, milliy g‘oyaning zarurligi millatning o‘zligini to‘la anglash jarayoni bilan bog‘liq. O‘zligini anglagan millat ajralib ketishga emas, balki millatlarning ma’rifatlashish jarayoni mustahkamlanib boradi. Milliy g‘oyada bugungi hayotning eng dolzarb muammolari, strategik maqsadlari bilan dialektik bog‘lanishi uning yashash shartidir.

To‘rtinchidan, bugun bizning tarixiy o‘zgarishlar davrida totalitar tuzumdan erkin demokratik bozor munosabatlariga asoslangan demokratik tuzumga o‘tish sharoitida yashayotganligimizdan kelib chiqmoqda. O‘tish davrida o‘ziga xos murakkab g‘ov va to‘siqlarga duch kelish tabiiy jarayon. Demak,

milliy g‘oya mustaqillikni mustahkamlash g‘oyasining o‘zagi bo‘lgan - tanlagan taraqqiyot yo‘limizning to‘g‘ri, adolatli va haqqoniy ekanligiga ishontirish orqali bunyodkorlik ishlariga xalqni safarbar etish uchun xizmat qiladi.

Mustaqillikni mustahkamlash, avaylab-asrash, himoya qilishda milliy g‘oyaning o‘rnini boshqa biron bir omil bosolmaydi. Shu boisdan ham davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, maqsad va vazifalarini ma’naviy jihatdan ta’minlash, bugungi kunda mamlakatimiz uchun o‘ta dolzarb masaladir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» ma’ruzasida ta’kidlaganidek, «mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun hamisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo‘lib qolaveradi».

Ana shu asosiy maqsadlardan tashqari, milliy istiqlol mafkura-sining mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan o‘ziga xos maqsad va vazifalari ham bor. Bularni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ko‘rsatib bergan va ular quyidagilardan iborat:

«Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish;

mamlakatimizda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat’iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun mas’uliyat sezib yashashga chorlash;

ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an’analari-mizga munosib bo‘lishga erishish;

yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat etish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish - milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir» (Karimov I.A. Asarlar. T.9. 222-bet).

Ana shu yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun bir qator quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

Mustaqil va erkin tafakkurni shakllantirish. Buning uchun tafakkur to‘la ozod bo‘lishi lozim.

Jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni yaratishdan iborat. Bu hurfikrlilik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Millatning o‘zligini anglashi, muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylashi, vatanparvarlik kabi tuyg‘ularni kamol toptirish.

Imon-e’tiqod, insof-diyonat, sahovat, halollik, mehr-oqibat, sharmu hayo kabi fazilatlarni yuksaltirish.

Mamlakat ko‘p millatli xalqi ongi va qalbida «O‘zbekiston - yagona Vatan» degan tushunchani shakllantirish va mustahkamlash.

Milliy istiqlol g‘oyasini xalq ongi va qalbiga singdirish uchun eng zamonaviy, qulay mafkuraviy vosita va usullardan foydalanish lozim.

Milliy mafkura hayot hodisalariga hozirjavob bo‘lishi, yot va zararli g‘oyalarning hurujiga o‘z vaqtida javob berishi kerak.

Har bir yurtdoshimizning intellektual-ma’naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarish zarur.

Kishilarni yaratuvchilik faoliyatiga safarbar etishi darkor, chunki u g‘oyaviy himoya vositasi hamdir.

Umuman, milliy istiqlol mafkurasining barcha vazifalari yagona maqsadga - Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, yurtimizda ozod va obod Vatan barpo etish, erkin va farovon jamiyat qurish uchun xizmat qiladi. Mafkuraning asosiy maqsadi ushbu yo‘lda xalqimizni jipslashtirish, kishilar ongida mustaqil dunyoqarash va ogohlik xissini tarbiyalash, komil insonni voyaga etkazish, fuqarolarimizda begona va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetni tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lib qolaveradi.

Milliy istiqlol g‘oyasining tarixiy ildizlari - xalqimizning moziy sinovlaridan o‘tib kelayotgan boy madaniy va ma’naviy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odat va an’analari, qo‘shiqlari, bayram va marosimlaridagi ozodlik, erkinlik uchun ruhi, ota-bobolarimizning

mustaqillik yo‘lida ko‘rsatgan jasorati, bunyodkorlik ishlari hamda ularni amalga oshirishda ma’naviy ruh bergan tafakkur tarzida namoyon bo‘ladi.

Milliy istiqlol g‘oyasining tarixiylik tamoyili xalqimiz ruhini, dahosini aks ettiruvchi o‘lmas qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, buyuk ajdodimiz, sohibqiron Amir Temurning sog‘lom ma’naviyat mahsuli bo‘lgan «Kuch - adolatdadir» degan shiori milliy g‘oyaning tarkibiy qismiga aylanib ketgan. U mamlakat birligini ta’minlash, markazlashgan davlat barpo etishda, ayoniqsa, uni odillik bilan boshqarishda ma’naviy - mafkuraviy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Bundan necha asrlar avval yaratilib, hozirga qadar yurtimiz ko‘rkiga-ko‘rk bag‘ishlab kelayotgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an’analaridan dalolat bo‘lib qolmoqda. Ular Vatanimizning shonli tarixi to‘g‘risida yaqqol tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g‘urur-iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi. «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo‘ldiki, - deb yozgan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, - biz bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o‘tmishimizdagi boy an’analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog‘imiz kerak». (Karimov I.A. Asarlar. T.3. 7-b.) Bu vazifa esa tarixiy xotirani tiklash evaziga amalga oshadi.

Mustaqillik tafakkuri va yangicha dunyoqarashni shakllantirishning ma’naviy-ma’rifiy negizlari.

Istiqlol mafkurasi - har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o‘zi va oilasi oldidagi burch va mas’uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma’naviy mezon hamdir.

Milliy istiqlol mafkurasining yurtimizda yashovchi har bir fuqaro uchun qadrliligi shundaki, uning mohiyatida umuminsoniy tamoyillar yotadi.

Milliy istiqlol mafkurasi manfaatlar tizimi bilan uyg‘un bog‘langan bo‘lib, u quyidagi holatlar bilan ifodalanadi:

1. Mamlakat hududiy yaxlitligi va mustaqilligini saqlab, chegaralarimiz butunligi va daxlsizligini ta’min etishga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda bu yurtimizning fazo va vaqtdagi umumiy birligini ta’minlovchi manfaat.

2. Yurtning tinchligi va osoyishtaligi, ya’ni davlatimizning harbiy, iqtisodiy (energetik), ekologik, informatsion va g‘oyaviy tahdidlardan muhofazalanganligi.

3. Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik muhitini ta’minlash manfaati.

4. Har bir oila va butun xalqning farovonligini ta’minlash, ya’ni badavlatlilik manfaati.

5. Jamiyatda adolat ustuvorligi, demokratiya, o‘z-o‘zini boshqarish tamoyilini ta’minlanishi.

«Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen - ijtimoiy hodisadir. Bu mafkurada biron-bir dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylan-tirilmaydi». Balki, u o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, millat va qavmlar, guruh va qatlamlarning yuqorida qayd etilgan umumiy manfaat-larini ifodalaydi.

Har qanday mafkura singari milliy istiqlol mafkurasi ham o‘ziga xos amal qilish tamoyillariga ega. Bu tamoyillar, umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg‘unligi, xalqaro andoza va talablarga moslik, xalqning barcha qatlamlari maqsad-muddolarini o‘zida ifoda etish

bilan tavsiflanadi. Ular bir-birini taqozo etadi, o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda namoyon bo‘ladi.

Mafkuramiz tom ma’nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- inson qalbi va ongiga ijobiy ta’sir etadigan tushuncha va tuyg‘ular, go‘zal va hayotiy g‘oyalar tizimini o‘zida mujassam etishi, ya’ni bu mafkura har bir fuqaroning ezgu niyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratadigan eng maqbul yo‘lni ko‘rsata olishi;

- millat, xalq va jamiyatni birlashtiruvchi kuch, yuksak ishonch-e’tiqod manbai bo‘lishi, ya’ni u tom ma’noda so‘z bilan ishni, nazariya bilan hayotni birlashtira olishi, O‘zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillariga birday taalluqli bo‘lishi;

- har qanday ilg‘or g‘oyani o‘ziga singdirishi va har qanday yovuz g‘oyaga qarshi javob bera olishi, ya’ni ikkiyuzlamachilikdan holi va jamoatchi-likning obyektiv fikriga tayanuvchi mafkura bo‘lishi;

- zamon va davr o‘zgarishlariga qarab, o‘zi ifodalaydigan manfaat, maqsad-muddaolarni amalga oshirishning yangi-yangi vositalarini tavsiya eta olishi, ya’ni yangicha vaziyatga tez moslasha oladigan hozirjavob va ijodiy bo‘lishi.

Milliy istiqlol g‘oyasining O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda namoyon bo‘lishi va uning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari

Milliy istiqlol mafkurasi keng xalq ommasining manfaatlarini, maqsad va ideallarini ifoda etadi. «Milliy istiqlol mafkurasi, o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi, barcha siyosiy partiyalar, guruh va qatlamlarning-butun xalqimizning umumiy manfaatlarini ifodalaydi».

Milliy istiqlol mafkurasi

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi.

2. Xalqning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviyati, an’ana va udumlari, ulug‘ bobokalonlarning o‘lmas merosidan oziqlanadi.

3. Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g‘oyalari hamda xalq-ning ishonch va e’tiqodini aks ettiradi.

4. Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

5. Jamiyat a’zolarini, aholining barcha qatlamlarini O‘zbekiston-ning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi.

6. Millati, tili va dinidan qat’iy nazar, mamlakatning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik g‘oyalariga sadoqat va o‘zaro hurmat tuyg‘usini qaror toptiradi.

7. Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi tamoyillariga rioya qilgan holda ma’rifiy yo‘l bilan singdiriladi.

8. U har bir vatandoshimizning oilasi, jamiyat, el-yurt oldidagi burch va mas’uliyatini qay darajada ado etayotganini belgilaydigan ma’naviy mezondir.

9. Bu - O‘zbekistonda istiqomat qiladigan va o‘z taqdirini shu muqaddas zamin bilan bog‘lagan har bir kishining «Vatanim menga nima berdi» deb emas, balki «Men Vatanim ravnaqi uchun nima qilyapman» degan mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashi demak.

Mafkura dunyosida bo‘shliqqa yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki bo‘sh qolgan mafkura mafdonini bizga begona, yot g‘oyalar egallashi ayon bo‘ldi. «Hozirgi paytda ro‘y berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojo‘ya xatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo‘shliq tufayli sodir bo‘lmoqda», degan edi Prezidentimiz Islom Karimov.

Milliy istiqlol g‘oyasining mustaqillikni mustahkamlashda namoyon bo‘lish jarayoni o‘zining bir qator quyidagi xususiyatlariga ega:

1. Bugungi kunda odamlar «Mafkura poligonlari yadro poligonlari»ga nisbatan koʻproq kuchga ega ekanligini anglab etmoqda.

2. Harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiqni sezish, koʻrish, oldini olish mumkin. Ammo gʻoyaviy tazyiqning ta’siri va oqibatlarini tezda ilgʻab olish qiyin.

3. Ongni, tafakkurni oʻzgartirmasdan turib hech bir jamiyat oʻz oliy maqsadiga erisha olmaydi, chunki milliy gʻoya - millat tafakkuri va ongining mahsuli, siyosiy ong darajasi har bir millatning rivojini belgilaydigan omillardandir. Milliy mafkura, avvalo, oʻzligimizni, muqaddas an’ana-larimizni anglashga yordam berishi shart.

4. Jamiyatimizda mavjud boʻlgan xilma-xil fikrlar, har qanday insonning e’tiqodi va dunyoqarashidan qat’iy nazar ularning barchasini milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan boʻlishi lozim.

5. Milliy mafkura har qanday tajovuzkor millatchilik va shunga oʻxshagan unsurlardan, boshqa xalq, millat, elatlarni kamsitish kabi qarashlardan xoli boʻlib, jahon hamjamiyatida munosib izzat qozonishi zarur.

6. Milliy gʻoya, birinchi navbatda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalamogʻi darkor.Mustaqil Oʻzbekistonning taraqqiyoti va buyuk kelajagi bir qancha muhim vazifa va muammolarni hal etishga bogʻliq. Shunday vazifalardan biri milliy istiqlol mafkurasiga ishonch va e’tiqodni mustah-kamlashdan iborat. Bu bir qator shart-sharoitlardan kelib chiqadi:

1) Mustaqillikning dastlabki yillarida eski, yagona mafkuradan butunlay voz kechilayotgan, hali yangi mafkura ishlab chiqilmagan va shakllanmagan, ilmiy asoslanmaganligi bilan bogʻliq edi.

2) Hech qanday jamiyat mafkurasiz yashay olmaydi. Odamlar qandaydir sogʻlom bir gʻoyaga muhtoj boʻladi.

3) Demokratik jamiyat qurish jarayonida mustaqillikni mustah-kamlash uchun milliy mafkura suv va havodek zarur. Milliy gʻoya -

jamiyat hayotining barcha sohalarini oʻzida qamrab oladi. Shu boisdan ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning ilk yillarida, 1993 yildayoq «Milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etish» zarurligini uqtirgan edi (Karimov I.A. Asarlar. T.1. 203-bet).

Oʻzbekiston uchun milliy istiqlol mafkurasining tarixiy zarurligi va uning demokratik jamiyat qurishdagi oʻrni bir qator quyidagi muammolarni hal etish bilan ham bogʻliqdir:

1. Milliy istiqlol mafkura kishilarda milliy madaniyatning, milliy ongning, milliy gʻururning usishi va rivojlanishini taʼminlash omili sifatida mustaqillikni mustahkamlashda muhim yahamiyatga ega.

2. Milliy istiqlol mafkurasi kishilarda milliy birdamlik va hamjihatlik tuygʻusini shakllantirishga, tarbiyalashga xizmat qiladi.

3. Milliy istiqlol mafkurasi xalqni sevishga, qadrlashga daʼvat etadi, mustaqillik barqarorligini taʼminlab odamlar ongi va qalbiga chuqur singdiradi.

Oʻzbekiston Konstitutsiyasi loyihasini yaratishda 30 ga yaqin xorijiy davlatlardagi qonunchilik tajribalari oʻrganildi. Kommunistik mafkuradan, sinfiylikdan, partiyaviylikdan holi boʻlgan asosiy qonun yaratildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov milliy istiqlol gʻoyasi va mafkurasini yaratishda koʻplab asarlar yozdi va ularni sharxlab bera oldi.

4. Mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish borasida bir talay ishlar amalga oshirildi.

5. Koʻppartiyaviylik yanada shakllanib bormoqda.

6. Muxolifat konstitutsiyaviy mezon doirasida faoliyat koʻrsatib, aniq dasturiy hujjatga ega boʻlishi kerak.

7. Haqiqiy muxolifatning vujudga kelishi uchun, uning hokimiyat bilan gʻoyaviy va amaliy takliflar kirita oladigan boʻlishi lozim.

Mustaqillikni mustahkamlashda O‘zbekiston milliy istiqlol mafku-rasining ilmiy-nazariy jihatlari quyidagi xulosalarda o‘z ifodasini topadi:

- Mafkura O‘zbekiston jamiyati hayotida juda zarur, chunki mafkura bo‘lmasa, odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar.

- XX asrda yashagan zamondoshlarimiz ko‘p sinovlar, azob-uqubatlar, fojialar, urushlar, qatag‘onlarni boshidan kechirdi.

- Insoniyat tarixida axborot asri deb tan olingan XXI asrda ham turli mafkuralarning o‘zaro kurashi shiddatli tus olmoqda.

Milliy istiqlol g‘oyasi butun jamiyat, butun millat, butun o‘zbekis-tonliklar uchun xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarimizni baholaganda, ularning milliy g‘oyaga nechog‘lik mos ekanini nazarda tutamiz. Lekin biz baholash jarayonida faqat alohida bir inson, muayyan ijtimoiy guruh manfaatini emas, balki umuminsoniy jamiyatimiz, barcha o‘zbekistonliklar manfaatini nazarda tutamiz. Shu bois, yuqorida zikr etilgan mezon va tamoyillardan foydalanib, O‘zbekistonimizni jahondagi eng ilg‘or davlatlar qatoriga qo‘shishga harakat qilinmoqda. Bu mamlakatimizning jahondagi nufuzini, uning kelajagini belgilaydi.

Terrorizm shakllari: mintaqaviy va xalqaro terrorizmdan g‘oyaviy – mafkuraviy asoslari.

Terrorizm — jamiyat va shaxsga qarshi jinoyat.

1975-yildan 1994-yilgacha lunyoning turli mamlakatlarida 9 mingdan ortiqroq terroristik ha-rakatlari sodir etilgan. Yoki boshqacharoq qilib aytsak, kuniga,3 martadan yovuz kuchlar o‘zini namoyon etgan. Bugungi kun-terroristik harakatlarning yanada faollashish jarayoni yuz ber-)qda. U XXI asrning global masalasiga ayianib qoldi.

Terrorizm

Terrorizm — avvalambor, siyosiy-huquqiy, tarixiy, ijtimoiy-psixologik, dinlararo va boshqa muammoiarga borib taqaluvchi juda

murakkab, turli koʻrinishli, oʻzgaruvchan va kundan-kunga avj olib borayotgan mudhish hodisa. lining bartaraf qilinishi, bu muammolarning yechimi bilan ham bogiiq. Zero, hozirgi kunga qadar terrorizm ta'rifi haqida yakdil xulosaga kelinganicha yoʻq. Shu oʻrinda Oʻzbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrida qabul qilin-gan «Terrorizmga qarshi kurash toʻgʻrisida»gi Qonunida berilgan izohlarni keltirib oʻtish muayyan tushunchalami shakllantiradi.

Terrorchi — terrorchilar faoliyatini amalga oshirishda ishti-rok etayotgan shaxs.

Terrorchi — terrorchilar faoliyatini amalga oshirishda ishti-rok etayotgan shaxs.

Terrorchilik guruhi — oldindan til biriktirib, terrorchilik harakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik koʻrgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilgan shaxslar guruhi.

Mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu gʻoyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada kishilarimizda yot va zararli gʻoyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil gʻoyani zoʻr berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oqqorani ajratish, zararli gʻoyalarga qarshi hushyor va ogoh boʻlish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir.

Mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu gʻoyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iboratdir. Bu borada kishilarimizda yot va zararli gʻoyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongiga bir xil gʻoyani zoʻr berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oqqorani ajratish, zararli gʻoyalarga qarshi hushyor va ogoh boʻlish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir.

2004 yilning 29-30 mart va 1 aprel kunlari mamlakatimizda sodir etilgan mudhish terrorchilik harakatlari to‘g‘risida so‘z yuritar ekan, I.A.Karimov yuqorida zikr etilgan masalalarga alohida to‘xtalib o‘tdi. Yurtboshimiz hozirgi vaqtda terrorizmning tajovuzidan o‘zini xoli his qiladigan birorta qit’a yoki davlatning o‘zi yo‘qligini, bizning yurtimizda ro‘y bergan qo‘poruvchilik holatlari ana shu xalqaro terrorchilik harakatlari bilan bevosita bog‘liqligini qayd etdi.

2004 yilning 29-30 mart va 1 aprel kunlari mamlakatimizda sodir etilgan mudhish terrorchilik harakatlari to‘g‘risida so‘z yuritar ekan, I.A.Karimov yuqorida zikr etilgan masalalarga alohida to‘xtalib o‘tdi. Yurtboshimiz hozirgi vaqtda terrorizmning tajovuzidan o‘zini xoli his qiladigan birorta qit’a yoki davlatning o‘zi yo‘qligini, bizning yurtimizda ro‘y bergan qo‘poruvchilik holatlari ana shu xalqaro terrorchilik harakatlari bilan bevosita bog‘liqligini qayd etdi.

Milliy istiqlol g‘oyasi xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, ijtimoiy hamkorlik millatlararo totuvlik dinlararo bag‘rikenglik komillikka tayanar ekan, ana shu g‘oyalarga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar tashqi va ichki tahdidlarning oldini oladi. Tashqi tahdidlar O‘zbekistonning davlat chegarasidan tashqaridan kirib keluvchi, ichki tahdidlar esa O‘zbekiston davlati, mamlakatning ichidan chiqayotgan tahdidlardir.

Milliy istiqlol g‘oyasi xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, ijtimoiy hamkorlik millatlararo totuvlik dinlararo bag‘rikenglik komillikka tayanar ekan, ana shu g‘oyalarga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar tashqi va ichki tahdidlarning oldini oladi. Tashqi tahdidlar O‘zbekistonning davlat chegarasidan tashqaridan kirib keluvchi, ichki tahdidlar esa O‘zbekiston davlati, mamlakatning ichidan chiqayotgan tahdidlardir.

Ichki tahdidlar

Ichki tahdidlar — o‘z Vataniga, vatandoshiga, vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g‘oya, fikr, xattiharakatlardir. Nosoglom mahalliychilik yonidagilarni mensimaslik

vatandoshlarning haqqiga xiyonat qilish, "ma’naviy emigrasiya" (baxtini oʻz vatanidan emas, oʻzga joylarda qidirish), odamlarni boy kambagʻalga boʻlib muomala qilish, poraxoʻrlik korrupsiya, qoʻpollik ashaddiy millatchilik merkantilizm, ortiqcha moldunyoga hirs qoʻyish, befarqlik loqaydlik oʻzligini anglamaslik va boshqa illatlar bilvosita ichki tahdidlar vazifasini bajaradi.

Mahalliychilik, millatchilik urug aymoqchilik, korrupsiyasiga qarshi kurash, mafkuraviy mustaqillik kafolati

Mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlamasdan Oʻzbekistonda fuqarolik jamiyati poydevorini barpo etish mumkin emas.

Oʻtmishdan salbiy meros boʻlib qolgan nuqson va illatlardan xalos boʻlish, millatchilik, mahalliychilik, urugʻ-aymoqchilik koʻrinishlariga qarshi kurashish bilan bir qatorda, xalqaro terrorizm va ichki ryaksiyaga qarshi murosasiz kurash olib borish masalalariga ham alohida e’tibor berish kerak deb oʻylaymiz.

Gʻoyaviy tahdidlarning asosiy yoʻnalishlari

XXI asrda mafkuraviy munosabatlar keskinlashuvining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sabablari. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mafkuraviy tahdidlar, ularning mazmun-mohiyati va asosiy yoʻnalishlari haqida. (Oʻzbekiston XXI asrga intilmoqda, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari asari asosida)

Shovinizm, genotsid, fashizm, neofashizm, neokommunizm, irqchilik, diniy ekstremizm, fundamentalizm, terrorizm gʻoyalarining reaksion mohiyati va ularga qarshi kurashning tarixiy zaruriyati. Terrorizmning shakllari: mintaqaviy va xalqaro terrorizmning gʻoyaviy-mafkuraviy asoslari.

Mahalliychilik, millatchilik, urugʻ aymogʻchilik, korrupsiyaga qarshi kurash mafkuraviy mustaqillik kafoloti.

Mafkuradagi mutloq jamoaviy va mutloq individual yondashuvlarning salbiy oqibatlari. Yevroosiyo va Sharq mafkurasining xususiyatlari.

Jahon moliyaviy inqirozining mafkuraviy jarayonlarga ta’siri. XX asrda mafkuraviy hamkorlikning ahamiyati, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy asoslari hamda milliy, hududiy va umumbashariy darajalari.

Mafkuraviy tajovuz va axborot xavfsizligi

Mafkuraviy tajovuz va unga qarshi milliy xavfsizlikni ta’minlash zarurati. Jamiyatning mafkuraviy muqobillashish sabablari. Mafkuraviy gegemonizmning vujudga kelishi. Gegemonizmning shakllari. Muqobil mafkuraviy qarashlarning jamiyat rivojlanishiga ta’siri va ularni muvofiqlashtirish imkoniyatlari.

Mafkuraviy tahdidning oshkora va yopiq xarakteri. Axborot xavfsizligi va biologik xavfsizlikning mutanosibligi. Axborot kommunikatsiyalarida mafkuraviy xurujlarning namoyon bo‘lishi va unga qarshi himoya (profilaktika) vositalari. Internet mafkuraviy xuruj obyekti. Virtual mafkuraviy xurujning oqibatlari. Axborot xurujiga qarshi axborot xavfsizligini ta’minlashning zaruriyati va ahamiyati. Mintaqaviy va global axborot xavfsizligi.

Axborot xavfsizligining lokal va global ahamiyati. Axborot xavfsizligining ijtimoiy madaniy meros bilan bog‘liqligi va uning yangi voqelikka mutanosibligi. Geosiyosiy manfaatlar axborot xavfsizligi omili. Biosiyosatda axborot xurujlariga irsiy munosabatning namoyon bo‘lishi.

Mafkuraviy faoliyat - milliy g‘oyani amalga oshirish vositasi

“Mafkuraviy munosabatlar” tushunchasi, uning mazmun - mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari. Milliy g‘oyaning ijtimoiy subyektlar orasidagi hamkorlik va hamjihatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati.

Mafkuraviy faoliyat” tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va namoyon bo‘lish xususiyatlari. “Har qanday mafkuraviy faoliyat-

muayyan g‘oyani amalga oshirish jarayonidir” tamoyili - ideologik aksioma. Mafkuraviy faoliyat tizimi, uning elementlari. Mafkuraviy faoliyatni tashkil qilishning usullari va yo‘llari. G‘oyadan mafkuraga, undan amaliy faoliyatga tomon borish dialektikasi. Mafkuraviy faoliyat maqsadli va mo‘ljalli harakat sifatida. Mafkuraviy faoliyatda individualizm va ijtimoiylikning namoyon bo‘lishi. Formalizm, kompaniyabozlik, qog‘ozbozlik kabilarning ma’naviy-mafkuraviy oqibatlari.

Bunyodkor g‘oyalarni amalga oshirishga qaratilgan mafkuraviy faoliyat tamoyillari: yaratuvchanlik, gumanizm, plyuralizm, tolerantlik, ezgulik tomon harakat. Vayronkor g‘oyalar asosidagi buzg‘unchilik, aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizmga moyillik kabi mafkuraviy faoliyat tamoyillariga qarshi kurashning zarurligi.

Mafkuraviy faoliyatni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari. Ommaviy axborot vositalari, internet va boshqa axborot vositalarining mafkuraviy faoliyatdagi o‘rni.

Mafkuraviy faoliyatda milliy g‘oyani aholi ongiga singdirish, Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g‘oyalarining namoyon bo‘lishi.

Globallashuv jarayonida mafkuraviy immunitetni shaklantirish vazifalari

Hozirgi davrda dunyoning mafkuraviy manzarasi. Mafkuraviy munosabatlarning texnologik va intellektual asoslari.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurash usullari va vositalari. SHo‘ro siyosiy mafkurasining rasmiy andozalaridan, uning shiorlari va ramzlaridan voz kechilishining obyektiv sabablari. “Ommaviy madaniyat”ning oqibatlariga nisbatan immunitetni shakllantirishning zaruriyati.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Mafkuraviy maydon” tushunchasining shakllanish va namoyon bo‘lish xususiyatlari to‘g‘risida. Turli ko‘lam va manzaraga ega bo‘lgan mafkuraviy maydonlarda xilma- xil g‘oya va mafkuralar to‘qnashuvi, ziddiyati va

oʻzaro hamkorligining aks etishi. Mafkuraviy maydonni tashkil etuvchi omillar, vositalar va gʻoyaviy manbalar. Mafkuraviy maydonlardagi gʻoyaviy ta’sir va aks ta’sir jarayonlari, ularga xos xususiyatlarni aniqlash imkoniyatlari.

“Mafkuraviy poligon” tushunchasi, uning namoyon boʻlish xususiyatlari. Mafkuraviy poligonlarning zahirasi, ta’sir koʻrsatish usullari va vositalari. Mafkuraviy poligonlarning yadro poligonlaridan xavflilik sabablari. Mafkuraviy poligonlarning gʻoyaviy xuruji va ularning asl maqsad-muddaolarini aniqlash usullari.

Mafkuraviy poligon va mafkuraviy profilaktikaning ijtimoiy siyosiy zaruriyati. Mafkuraviy jarayonlarning milliy taraqqiyotga ijobiy va salbiy ta’siri. Oʻzbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni keskinlashtirishning gʻoyaviy maqsadlari.

Mafkuraviy jarayonlarning millat mentalitetiga, siyosiy ongiga, diniy e’tiqodiga, ijtimoiy ruhiyatiga ma’naviy-madaniy saviyasiga ta’siri.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari. Bilim xalq ma’naviyatida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning nazariy asosi. Bilimni amaliyotda qoʻllash malakalarini rivojlantirish vositalari. Individual ongda gʻoya va mafkuraga munosabatni shakllantirishda ijtimoiy muhitning roli va uning intellektual asoslari. Mafkuraviy immunitet va siyosiy madaniyat mutanosibligi. Mafkuraviy immunitetda aql teranligi va xulq atvorning namoyon boʻlishi.

Mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlikning mafkuraviy

immunitetni shakllantirishdagi oʻrni. Siyosiy hushyorlik va siyosiy madaniyat mafkuraviy immunitetning muhim omili. Tashqi siyosiy voqelikka nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishning oʻziga xos jihatlari. Oʻzbekiston xalqaro mavqeini mustahkamlashning mafkuraviy, ijtimoiy tarixiy ahamiyati va zaruriyati

Jamiyat barqarorligini ta’minlashning ijtimoiy-g‘oyaviy asoslari

Jamiyat barqarorligini ta’minlashda iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy - ma’naviy omillarning mushtarakligi.

Milliy g‘oyaning etnosiyosat va etnomadaniyat rivojiga ta’siri. O‘zbekistonda milliy siyosatning amalga oshirilishi va unda etnik birliklar manfaatlari himoya qilinishining huquqiy va ijtimoiy asoslari. O‘zbekistonda yashayotgan etnik birliklar tafakkurida milliy g‘oyaga sadoqatni shakllantirishning obyektiv va subyektiv omillari. Mamlakatda millatlararo (totuvlik), hamkorlik, va dinlararo bag‘rikenglik, (tolerantlik) - ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash sharti, uning siyosiy va qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlashda davlatning bosh islohotchilik roli. "O‘zbekiston - yagona vatan" g‘oyasi barqarorlikni ta’minlashning nazariy asosi.

O‘zbekistonda milliy madaniy markazlarning tashkil qilinishi millatlararo barqarorlikni ta’minlash vositasi. Madaniy muloqot ko‘p millatli aholi orasidagi barqarorlik omili. Til madaniy muloqot va barqarorlikning muhim vositasi.

O‘zbekistonda rasmiy tan olingan diniy konfessiyalar faoliyatining millatlararo totuvlikni ta’minlashdagi roli. 2007 yilda “Toshkent -islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishining tarixiy ahamiyati.

Toshkent Islom universiteti va Toshkent Islom institutining aholi ongida dinga munosabatni shakllantirishdagi roli.

O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi va siyosiy mavqei mustahkamlanishida millatlararo va dinlararo tolerantlikni mustahkamlash tajribalarining demokratik xarakteri va xalqaro ahamiyati.

Mustaqillik va huquq, demokratiya va oshkoralik - milliy o‘z-o‘zini anglash, axloqiy yangilanish, milliy ma’naviy tiklanishning asosi. “Bu muqaddas vatanda azizdir inson ”, “Buyuk va muqaddassan mustaqil Vatan” g‘oyalarining ijtimoiy ma’naviy ahamiyati.

Dunyo mamlakatlarida yashovchi etnik birliklarning milliy o‘zligini anglashi uchun yaratilayotgan shart sharoitlarning mafkuraviy ahamiyati. Ba’zi mamlakatlarda millat va elatlar kamsitilishining oqibatlari.

Ayrim MDH davlatlarida siyosiy institutlar va liderlarga xalq ishonchi yo‘qolishining sabablari. Dunyo mamlakatalaridagi beqarorlik sabablari. Beqarorlik hukmron mamlakatlarda qochoqlarning ahvoli.

Dunyoda tinchlik o‘rnatishda barqaror demokratik taraqqiyot, erkinlik, ijtimoiy-siyosiy hamkorlik, milliy va diniy totuvlik g‘oyalarining ustuvor ahamiyati.

Tafakkur o‘zgarishi va ma’naviy yangilanishda milliy g‘oyaning roli

Bozor munosabatlariga o‘tishning inson tafakkuriga ta’siri. Tafakkurga jamiyat, maktab, oila va tarbiyani amalga oshiruvchi boshqa omillar ta’sirining o‘zaro nisbati. Milliy g‘oyaning tafakkur konservatizmini bartaraf qilishdagi o‘rni.

Taraqqiyotning milliy modellari va ularning mazmuni. “O‘zbek modeli”-evolyutsion taraqqiyot g‘oyasining gumanistik xarakteri. Ijtimoiy ong va tafakkur yangilanishiga milliy taraqqiyot modelining ijobiy ta’siri.

Milliy g‘oya qonun ustivorligiga asoslangan demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy omili. Davlat boshqaruvini demokratlashtirish va jamiyat hayotini modernizatsiyalashning g‘oyaviy asoslari. “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyili, uning barcha sohalardagi ma’naviy yangilanish va tafakkur o‘zgarishidagi o‘rni va ahamiyati.

Milliy g‘oya va ma’naviy hayot. Istiqlol yillarida ma’naviy tiklanish va yuksalish sohasidagi islohotlar jarayoni. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarining yangi dunyoqarash va zamonaviy tafakkurni

shakllantirishdagi ahamiyati. Yuksak ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar.

Milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy yuksalishning strategik va taktik vazifalari. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlari - milliy ma’naviy taraqqiyot g‘oyasining konseptual asosi va ularning ahamiyati. Mafkuraviy munosabatlarda milliy va umuminsoniy manfaatlar birligini ta’minlash imkoniyatlari.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobining tafakkur yangilanishiga ta’siri. Milliy g‘oya-ma’naviy yangilanishning nazariy va amaliy asosi. Barkamol avlod tarbiyasida mafkuraning ta’sirchanlik rolini oshirish vazifalari.
Milliy g‘oyani rivojlantirishning institutsional tizimi

Dunyoning elitar mafkuraviy tizimi. G‘oyaviy ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlariga kompleks-sistemali yondashish tamoyillari.

“Mafkuraviy tarbiya” tushunchasi, uning mazmuni va namoyon bo‘lish xususiyatlari. “Mafkuraviy ta’sir”, “mafkuraviy tarbiya” va “mafkuraviy profilaktika” tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi. “Yuksak ma’naviyat -yengilmas kuch” asarida ma’naviy tarbiya, ezgu g‘oyalarga ishonch va sadoqatni tarbiyalash masalalari. Mafkuraviy tarbiya tizimi, uning subyekti va obyekti.

Mafkuraviy tarbiyaning yo‘nalishlari va ijtimoiy funksiyalari. G‘oya va mafkuralar sohasidagi plyuralizm va tolerantlikni tarbiyalash.
Ijtimoiy subyektlar, turli qatlamlar, partiyalararo munosabatlar uyg‘unligini saqlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati.

Ta’lim-tarbiya tizimida milliy g‘oyani rivojlantirish imkoniyatlari. Milliy g‘oyani inson ongi va qalbiga singdirishning yangi pedagogik-didaktik texnologiyasini takomillashtirish vazifalari. Ta’lim-tarbiya tizimida adabiyot, san’at, ommaviy axborot

vositalari, ma’naviy-madaniy va ma’rifiy muassasalar faoliyatlarini muvofiqlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari.

Ijtimoiy institutlarning an’anaviy, individual, jamoaviy mafkuraviy funksiyalari. Milliy g‘oyani rivojlantirishda ommaviy va siyosiy tashkilotlar, oila, mahalla, nodavlat-notijorat tashkilotlarning rolini oshirishning ahamiyati.

G‘oya haqidagi tasavvurlarning intellektual faollik darajalari, unda siyosiy voqelikning mantiqiy izchil va asosli manzarasini yaratish mo‘ljallari. Siyosiy xayol, siyosiy tasavvurlarni qayta ishlash va ijodiy o‘zgartirish yo‘llari.

Milliy g‘oya va mafkurani targ‘ib-tashviq qilishda mutaxassislar roli va mas’uliyati. Milliy g‘oyani ommaga transformatsiya qilishda kadrlar korpusini shakllantirishning zaruriyati.

Kadrlarning salohiyatini oshirishda "O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” da belgilangan vazifalarni amaliyotga tadbiq etishning ahamiyati.

8-mavzu. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING AHOLI SIYOSIY VA INFORMATSION MADANIYATIGA TA’SIRI

Reja

1. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari.

2. Kasb etikasi va axloq kodeksi.

3. Siyosiy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari.

4. Jamiyatning informatsion madaniyatga bo‘lgan ehtiyojining ortib borishi omillari.

5. OAV xodimlariga quyiladigan zamonaviy kompetensiyalar.

Bugungi kunda OAV jamiyat hayotida asosiy rolni o‘ynamoqda. Shu jumladan, OAV ning O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni ham tezlik bilan mustahkamlanib bormoqda. Ommaviy axborot vositalarining mamlakatimizdagi faoliyatining tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1991-yili mamlakatimizda bor yo‘gi 395 ta OAV faoliyat yuritgan. 2016- yilga kelib ularning soni 1437 taga yetgan bo‘lsa, bugun ularning soni 2 mingga yaqinlashdi va ularning aksariyati xususiydir. O’zbekistondagi ommaviy axborot vositalari uchun zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi.

O’zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Milliy matbuot markazi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi va Xalqaro press klub kabi tashkilotlar muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. O’zbekistonda yetakchi xorijiy OAV vakillari, jumladan Reuters, France Press, BBC, The Economist, Xinhua, «Amerika Ovozi», «Fergana.Ru», Eurasianet muxbirlari erkin ishlamoqdalar.

O’zbekistonda jamoatchilik bilan aloqalar, xalq bilan muloqot muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda. Jamoatchilik fikri – fuqarolik jamiyatini o’zida aks ettiradigan bamisoli bir ko’zgu ekanligi hayotda o’z isbotini topmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlariga yo’llagan tabrigida ta‘kidlanganidek, - Xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardu tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko’tarilayotgan bugungi kunda har bir ommaviy axborot vositasi chinakam muloqot maydonchasiga, erkin fikr minbariga aylangan taqdirdagina biz o’z oldimizga qo’ygan maqsadlarga erisha olamiz.

Hayot ko’zgusi hisoblanmish matbuot —to’rtinchi hokimiyat‖ darajasiga ko’tarilmog’i lozimligi ko’p bora ta‘kidlangan. Bu borada hali oldimizda turgan vazifalar juda ko’p. Mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari uzoq vaqt mafkuraviy va ma‘muriy nazorat ostida ishlagani tufayli ularning hali-beri bu holatdan chiqishi, avvalo psixologik jihatdan o’zini erkin his etishi qiyin kechmoqda. Shu sababli ular o’zi uchun yangi bo’lgan hozirgi vaziyatda ba‘zan hali ham nima qilish yoki nima qilmaslik haqida yuqoridan ko’rsatma kutib o’tirgandek ko’rinishi to’g’ri tanqid qilinmoqda. Shu o‘rinda ba‘zi tanqidiy-tahliliy fikrlarga e‘tibor qaratsak. www.kun.uz saytida berilgan xabarda quyidagilar bayon etilgan: —O’zbekiston Respublikasi bosh vaziri Abdulla Aripov OAV bo’yicha selektor o’tkazmoqda. Hukumat rahbari vazirlik, hokimlik idoralari va boshqa tashkilotlarda OAV bilan ishlash talab darajasida emasligini tanqidga oldi. «Bugungi kunda OAV mamlakatda sodir bo’layotgan dolzarb voqealarga tezkor munosabat bildirmoqda. Matbuotda ham turli mavzulardagi tanqidiy va tahliliy materiallar keskin ko’paydi. Bu esa jamoatchilik fikri shakllanishida muhim rol o’ynamoqda. Tan olish kerak,

bundan 2-3 yil avval OAVdagi bunday ochiqlikni ko’pchilik tasavvur ham qila olmasdi. Ammo davlat organlari va OAV o’rtasida hamkorlik qanday yo’lga qo’yilgani haqidagi savolga javob yo’q. To’g’risini aytish kerak, ba‘zi rahbarlar matbuot bilan ishlashni ikkinchi va hatto beshinchi darajali ish deb qaramoqda. Ba‘zi tashkilotlar Axborot xizmati vakillariga yetarli sharoit yaratib bermagan. Shu kungacha 20 ga yaqin davlat va xo’jalik boshqaruv organlarida, 150 dan ortiq tuman, shahar va viloyat hokimliklarida Axborot xizmatlari tashkil qilinmagan. Boriga ham yana boshqa ishlar topshirib qo’yilganki, u o’z ishi bilan shug’ullanishga ulgurmaydi ham…‖ deya Aripovning so‘zlarini keltirmoqda Kun.uz muxbiri‖[2].

Bunday tanqidiy-tahliliy fikrlarga yana bir misol tariqasida www.uza.uz saytida berilgan ―Saida Mirziyoyeva: ―Axborot xizmatlari tizimini tubdan takomillashtirish lozim!‖ sarlavhali xabarda yanada teranroq va tahliliy fikrlar bayon etilgan. Berilgan xabarga ko‘ra ―Hyatt Regency Tashkent‖ mehmonxonasida ―OAV sohasida milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishning dolzarb masalalari‖ mavzusida respublika konferensiyasi o‘tkazilgan. Konferensiyada agentlik direktor o‘rinbosari Saida Mirziyoyeva ham o‘z ma‘ruzasi bilan ishtirok etgan. Ma‘ruzada ta‘kidlanishicha, o‘tkazilgan tahlillar va o‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, sohada eng asosiy muammo, bugungi kunda yagona davlat axborot siyosati to‘g‘risidagi konseptual hujjatning mavjud emasligidir. Hozirda esa ushbu hujjat tayyorlanmoqda. Shuningdek, Saida Mirziyoyeva o’z nutqida davlat va xo’jalik tashkilotlari Axborot xizmatlari faoliyatidagi mavjud kamchiliklar xususida alohida to’xtaldi. Sohada ish hajmining ko’p, zamonaviy talablarga javob bera olmayapti. Mavjud sharoitlarning yetarli darajada emasligi sabab axborot xizmatlari faoliyati qoniqarsiz ahvolda qolib ketmoqda. O’ndan ortiq respublika darajasidagi tashkilotlar, ko’pgina tuman va shahar hokimliklarida haligacha axborot xizmati faoliyati tashkilotlari

etilmagan. Ko’plab davlat va xo’jalik tashkilotlari veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida axborotlar yetarli darajada emasligini ham tanqid qilindi.

– Ularning veb-saytlariga kiruvchilarning umumiy soni 400 ming, Facebook ijtimoiy tarmog’idagi rasmiy sahifalariga murojaat qiluvchilar soni 150 ming, Telegram tarmog’ida a‘zolar 300 ming nafardan oshmaydi,– dedi Saida Mirziyoyeva.– O’zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 20 milliondan ortiq ekanini hisobga olsak, yuqoridagi ko’rsatkichlardan o’zingiz xulosa olishingiz mumkin. Saida Mirziyoyeva shu va boshqa bir qator kamchiliklarni sanab o’tar ekan, «Axborot xizmatlari tizimini tubdan takomillashtirish lozim», deya qat‘iy ta‘kidladi‖[3].

Mamlakatimizda Axborot xizmatlari tizimini takomillashtirish borasida muhim qadamlar qo’yildi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 fevral kuni e‘lon qilingan ―O’zbekiston Respublikasi davlat va xo’jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida‖gi 125-sonli qarori sohani yanada rivojlantirish uchun huquqiy asos bo’lib xizmat qiladi.

Qarorda qayd etilganidek, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda axborot va bilim eng muhim milliy resurslarga, ularni yaratish va tarqatishni ta‘minlovchi tizimlar esa – barqaror rivojlanishning strategik omillariga aylanmoqda. Ushbu sharoitlarda O’zbekistonda demokratik huquqiy davlatni va ochiq adolatli fuqarolik jamiyatini qurish, shuningdek, insonning huquq va erkinliklari himoya qilinishini ta‘minlashdek strategik maqsadga erishish, davlat boshqaruvining sifati davlatning axborot, bilim va innovatsiyalarga asoslangan modeliga o’tishini ta‘minlaydigan axborotni va bilimni yaratish, qabul qilish va tarqatish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan davlat va xo’jalik boshqaruvi sohasida ochiqlik va shaffoflikka asoslangan samarali qarorlar qabul

qilish tizimini joriy etish, axborot olishda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi hisobdorligi, ochiqligi va mas‘uliyatini ta‘minlash zarur. Bu davlat va xo’jalik boshqaruvi apparatining samarali faoliyat yuritishi hamda jamiyatda adolatni qaror toptirishning muhim sharti hisoblanadi. Bunda jamiyatni davlat va xo’jalik boshqaruvi organlarining faoliyatidan keng xabardor qilish, ularning aholi oldidagi hisobdorligini ta‘minlash «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir» degan konstitutsiyaviy normani amalga oshirishning, «Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan ezgu g’oyani ro’yobga chiqarishning muhim sharti hisoblanadi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda OAV alohida o’rin tutadi. Chunki aynan OAV globallashuv sharoitida yurtimizda kechayotgan eng muhim voqealar, amalga oshirilayotgan yangilanishlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni keng yoritish orqali davlat va jamiyat o’rtasida o’ziga xos ko’prik vazifasini bajarmoqda. Mazkur qonun axborotdan foydalanish erkinligini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari mansabdor shaxslarining jurnalistga zarur axborotni, qonunda belgilanganidek, 7 kunlik muddatda taqdim etish majburiyatini ta‘minlash orqali ushbu kafolatlarni yanada mustahkamlaydi. Bu axborot olishdagi ba‘zi paysalga solish holatlarini bartaraf qiladi, shuningdek, jurnalist materialining tezkorligini, ishonchliligini hamda sifatli bo’lishini ta‘minlaydi.

Jamiyatda oshkoralikni ta‘minlash oson kechmaydi. Unga to’sqinlik qiladiganlar uchrab turishi sir emas. Biroq, qandaydir to’sqinlik bor ekan, deb qo’l qovushtirib o’tirish ham yaramaydi. Burgaga achchiq qilib, ko’rpaga o’t qo’yish – oshkoralikni ta‘minlash yo’lidagi sa‘y-harakatlarni chippakka chiqarib qo’yish bilan barobar. U holda nima qilmoq kerak, degan savolga qonuniy, ilmiy nuqtai nazardan javob topish yagona to’g’ri yo’ldir! Ana shundagina amalda

haqiqiy oshkoralikka erishish mumkin. Oshkoralik mohiyati – jamoatchilik fikri bilan hisoblashgan holda ish yuritish demak.

El-yurtimizning ezgu orzu-istaklarini ro'yobga chiqarish, bu yo'lda g'ov bo'lib turgan turli to'siqlarni, byurokratizm, loqaydlik, ta'magirlik, korrupsiya kabi salbiy illatlarni dadillik bilan ko'tarib chiqib, ularga qarshi murosasiz jamoatchilik fikrini shakllantirishni o'z kasbi, o'z hayotining ma'no-mazmuni deb biladigan jurnalistlarni men haqiqiy jurnalist deb hisoblayman, – deb ta'kidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Albatta, barchamiz yaxshi tushunamiz, buning uchun ommaviy axborot vositalari vakillaridan nafaqat professional bilim va malaka, hayotiy tajriba, o'z so'zi uchun mas'uliyat hissi, ayni vaqtda yuksak grajdanlik pozitsiyasi, ma'naviy jasorat ham talab etiladi. Bunday maqsadga erishish uchun ommaviy axborot vositalariga qonunchilik nuqtai nazaridan, moddiy-texnik, o'quv-uslubiy ta'minot nuqtai nazaridan yanada keng imkoniyatlar yaratib berishimiz kerak.

Darhaqiqat, jamiyatda, uning zamonaviy boshqaruv tizimida oshkoralikni ta'minlash, jamoatchilik bilan aloqalarni takomillashtirishda jurnalistlarning ana shu sa'yharakatlari jamiyat boshqaruvi tizimida o'z samarasini ko'rsatishi shubhasiz. Oshkoralik asosan matbuot erkinligi bilan chambarchas bog'liq ekan, mamlakatimizda bu borada ham qonun ustuvorligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasining «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi qonuni (yangi tahriri) 5-moddasi «Ommaviy axborot vositalari erkinligi» deb nomlangan bo'lib, uning ikkinchi bandi quyidagicha: «Har kim, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ommaviy axborot vositalarida chiqish, o'z fikri va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga egadir».

Qonun ijrosi bilan kuchli. Biroq, o'sha ijroni kim ta'minlashi kerak, degan haqli savol tug'iladi. Aytish mumkinki, har bir sohada faoliyat ko'rsatayotgan mutasaddilargina tegishli qonunlarda belgilangan vazifalarni bajarishlari taqozo etiladi. Yuqorida zikr

etilgan matbuot erkinligini ta‘minlash asosan jurnalistlar, OAV xodimlari zimmasiga tushishini izohlashga hojat yo’q. Haqiqiy demokratik matbuot ko’rsatma asosida yashay olmasligi haqida aytilgan fikrlar amalda o’z ifodasini topishi zarur. Bu o’z navbatida jamiyatda zamonaviy boshqaruvni yanada takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Bugungi kunda OAV ni davlatimiz rahbari shaxsan o‘zi qo‘llabquvvatlamoqda. 2020-yil 27-iyun kuni nishonlanadigan Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tabrigi davlat rahbari matbuot xizmati tomonidan e‘lon qilindi. —Eng asosiysi, ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko’lamli o’zgarish va yangilanish jarayonlarini har tomonlama tahlil qilib, joylardagi ijtimoiy muammolar, xato va kamchiliklarga davlat idoralari va jamoatchilik e‘tiborini qaratmoqda, — deya qayd etildi tabriknomada.

Shavkat Mirziyeyov bo’lg’usi jurnalistlar chuqur bilim va kasb mahoratini, ona tili bilan birga chet tillarni, faol fuqarolik pozitsiyasini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, notiqlik malakasini puxta egallashlariga alohida e‘tibor qaratishi kerakligini bildirdi. Xabarda aytilishicha, agar yuqori malakali kadrlar tayyorlashda — xalqimizning boy ma‘naviy merosiga tayansak, bu ish yanada samaraliroq bo’ladi. Jadidlar merosi, shu jumladan bu yil 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanayotgan ulug’ alloma va publitsist Mahmudxo’ja Behbudiyning milliy jurnalistika maktabi ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunga kelib O’zbekistonda ko’pchilikning e'tiborini o’ziga jalb qiluvchi muammoning yoki voqeaning xabari matbuotda chiqqanidan so’ng omma ichida qanday ijtimoiy rezonans yaratganini talqin qilish jarayoni jurnalistlarimizdan ulkan kasbiy mahorat talab qiladigan eng muhim ishlardan biri bo’la boshladi. O’zbekistonlik jurnalistlar tomonidan mustaqil jurnalistik tadqiqotlar olib borilib, jamiyatimizdagi mavjud muammolarning

tafsiloti mutasaddilar oldiga ko’ndalang qo’yish ishlari qanday amalga oshirilishini ommaga yoritish evaziga aholi orasida huquqiy savodxonlik rivojlanishi turgan gap. Natijada jamiyatimizdagi vaziyat hozirgidan mutlaqo boshqacha ijobiy tus olishi aniq.

O‘zi tarqatayotgan axborotning ishonchliligini tekshirish va xolis axborot taqdim etish jurnalistning majburiyatidir. Jurnalist haqqoniyligiga ishonch hosil qilgan axborotnigina tarqatadi va sharhlaydi (kamida ikkita mustaqil manba orqali axborotni tekshirib ko‘rishi tavsiya etiladi).

Ishonchsiz va dalillarga asoslanmagan axborot tarqatgan taqdirda jurnalist zudlik bilan o‘z xatosini tan olishi, uzr so‘rab, xatosini tuzatish chorasini ko‘radi.

Jurnalist kasb etikasi talablari va meyorlari buzilish holatlarini kuzatish, tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarish maqsadida ommaviy axborot vositalari bo‘yicha Jamoatchilik kengashi tuziladi.

Jamoatchilik kengashi nizomi O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi konferensiyasida tasdiqlanadi.

Jamoatchilik kengashi yetti kishidan iborat tarkibda besh yillik muddatga O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi konferensiyasida saylanadi.

Jamoatchilik kengashi:

— milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan (tarqatilgan) materiallarni jurnalistning kasb etikasi meyorlari nuqtai nazaridan o‘rganadi, tahlil qiladi, baholaydi, xulosa chiqaradi;

— jurnalistlik faoliyati bilan bog‘liq bahsli holatlarga oydinlik kiritilishida yordamlashadi;

— Kodeks meyorlariga rioya etilmaslik holatlari yuzasidan taqdim etilgan murojaatlarni ko‘rib chiqadi va qaror qabul qiladi;

jurnalist kasb etikasiga taalluqli boshqa masalalarni jamoatchilik e’tiboriga havola etadi.

Ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan Jamoatchilik kengashining qarori Ommaviy axborot vositalarida chop etiladi.

Jamoatchilik kengashi qarori jurnalistni intizomiy, ma’muriy yoki boshqa turdagi javobgarliklarga tortish uchun asos hisoblanmaydi, u tavsiya xususiyatiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tizimi xodimlarining «Odob-axloq» qoidalari (keyingi o‘rinlarda «Odob-axloq» qoidalari deb ataladi) egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar Mehnat vazirligi tizimi xodimlarining (keyingi o‘rinlarda “xodimlar” deb ataladi) kasbiy axloqining umumiy prinsiplari va xizmatdagi xulq-atvorning asosiy qoidalari yig‘indisidan iborat.

2. «Odob-axloq» qoidalari huquqbuzarlikning oldini olish, ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga, davlat xizmatchilarini yuksak huquqiy ong, O‘zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

3. Mehnat vazirligi va tizim tashkilotlariga ishga kirayotgan shaxslar «Odob-axloq» qoidalari bilan imzo qo‘ydirgan holda tanishtirilishi shart.

4. Xodimlar qonun hujjatlari va «Odob-axloq» qoidalari talablariga rioya etishlari shart.

«Odob-axloq» qoidalariga rioya etish xodimning kasbiy faoliyatini va xizmatdagi hulq-atvorini baholash mezonlaridan biri hisoblanadi.

Xodimlarning xizmatdagi xulq-atvorining asosiy prinsiplari va majburiyatlari.

Xodimlar o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishlari kerak:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylik;

davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;

adolatlilik, halollik va xolislik;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik.

Mehnat vazirligi va tizim tashkilotlari xodimlari quyidagilarga majbur:

xizmat vazifalarini bajarishda davlat prinsiplari va talablariga qat’iy rioya etish;

o‘z xizmat vaziflarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;

yuqori davlat organlari va mansabdor shaxslarning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

o‘z faoliyatini qonun hujjatlarida va ichki hujjatlarda belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;

o‘z xizmat vazifalarini amalga oshirishda biror shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta’siridan mustaqil bo‘lish, fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, kamsitish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik;

o‘z xizmat vazifalarini bajarishga to‘sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlarga barham berish;

normativ-huquqiy hujjat va idoraviy hujjatlarda belgilangan cheklashlar va taqiqlarga rioya qilish, o‘z xizmat vazifalarini vijdonan bajarish;

o‘z xizmat faoliyatiga biror-bir ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga barham berish;

O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar xalqlarining urf-odatlari va an’analarini hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka ko‘maklashish;

o‘zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo‘lgan xulq-atvordan o‘zini tiyish,

shuningdek o‘z obro‘siga yoki davlat organining nufuziga zarar yetkazishga qodir bo‘lgan vaziyatlarga yo‘l qo‘ymaslik;

xizmat mavqeidan davlat organlari, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta’sir ko‘rsatish uchun foydalanmaslik;

xodim yoki xodimga aloqador boshqa shaxs tomonidan Mehnat vazirligining muhri, rasmiy blanklaridan foydalangan holda muayyan huquq beradigan yoki muayyan majburiyatdan ozod etadigan rasmiy hujjatlar tayyorlamaslik;

ishda yuqori professional bo‘lishga bor kuchini sarflash, qo‘yilgan vazifalarni hal etishda qulay va tejamkor usullarni qo‘llash, o‘ziga biriktirilgan davlat mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, undan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish;

jismoniy va yuridik shaxslarning har qanday shakldagi (yozma, og‘zaki, elektron) va turdagi (ariza, shikoyat va taklif) murojaatlarini ko‘rib chiqishda byurokratizm va sansalorlikka yo‘l qo‘ymaslik, belgilangan muddatlarda ular bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish;

ish o‘rinlari tashkil etish va aholini bandligini ta’minlash dastur parametrlarini bajarishda qo‘shib yozmaslik va yuqori turuvchi tashkilotga noto‘g‘ri ma’lumot bermaslik;

kompyuterda ish faoliyatiga taalluqli bo‘lmagan ma’lumotlar (diniy ekstremistik va terroristik guruh faoliyatiga oid varaqalar, da’vatlar va h.k.) tayyorlamaslik va saqlamaslik, har xil o‘yinlar o‘ynamaslik;

ommaviy axborot vositalari va unga tenglashtirilgan axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda amaldagi konstitutsiyaviy tuzum va Mehnat vazirligi sha’niga zarar yetkazuvchi har qanday shakldagi materiallarni tarqatmaslik;

Davlat organlariga xabarlarni va xizmat axborotlarini taqdim qilishning belgilangan qoidalariga rioya etish.

Siyosiy, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlik, shuningdek shaxsiy vajlar va boshqa subyektiv sabablar xodimlarning qonun

hujjatlari talablarini va «Odob-axloq» qoidalarini buzish uchun asos bo‘la olmaydi.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, xodimlarning o‘z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan biror-bir moddiy boyliklarni olish yoxud jismoniy yoki yuridik shaxslardan boshqacha naf ko‘rish taqiqlanadi.

Xodimlar korrupsiya holatlariga qarshi kurashish va ularning profilaktikasiga faol ko‘maklashishi shart.

Xodimlar o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qilish organlarini ularni huqubuzarliklar sodir etishga og‘dirish maqsadida biror-bir shaxslarning qilgan murojaatlarining barcha holatlari to‘g‘risida, shuningdek, boshqa davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma’lum bo‘lgan har qanday holatlari haqida o‘rnatilgan tartibda xabardor qilishlari shart.

Mehnat vazirligi hududiy boshqarmalari va tasarrufiy tashkilotlari rahbarlari jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonunchilikning buzilishi faktlari to‘g‘risida murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikr va murojaatdagi tanqidi, xuddi shuningdek, boshqacha shaklda tanqid qilinganligi uchun ishdan bo‘shatilishiga yoki boshqacha shaklda ta’qib qilinishiga yo‘l qo‘yilmasligini ta’minlashi kerak.

Xodimlar kasbiy faoliyati davomida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan axborotning saqlanishini va maxfiyligini ta’minlash yuzasidan barcha choralarni ko‘rishlari shart, oshkor etilganligi uchun ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Mehnat vazirligi markaziy apparati boshqarma (bo‘linma) boshliqlari, hududiy boshqarmalari va tasarrufiy tashkilotlari rahbarlari o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionalizm, soflik va adolatda o‘rnak bo‘lishi, jamoada ma’naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko‘maklashishi, bo‘ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan

chiqib ketadigan topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

Rahbar kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo‘yicha tanlash va joy-joyiga qo‘yish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak, shuningdek rahbar guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizm ko‘rinishlarining, shuningdek o‘z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat’iy ravishda oldini olish lozim. Rahbar:

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o‘z vaqtida chora-tadbirlar ko‘rish;

korrupsiyaning oldini olish choralarini ko‘rish;

xodimlarni samarali boshqarish, o‘ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag‘larga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishi shart. Rahbar o‘ziga bo‘ysunuvchi, xizmatdagi xulq-atvori prinsiplari va qoidalarini buzayotgan xodimlarning xatti-harakatlariga (harakatsizligiga) yo‘l qo‘yilmasligi choralarini ko‘rmaganligi uchun javob beradi.

Xodimlar o‘zlarining xizmatdagi xulq-atvori bilan jamoada boshqa xodimlar bilan o‘zaro ishchanlik va amaliy hamkorlik qaror topishiga da’vat etiladi.

Xodimlar xushmuomala, iltifotli, odobli, e’tiborli, fuqarolar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo‘lishi, ularni hurmat qilishi shart, shuningdek o‘ziga bo‘ysunuvchilarga va fuqarolarga nisbatan qo‘pollik qilmasligi, odamlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta’sir ko‘rsatishi holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida ish sharoitlari va xizmat tadbirlarining shakliga bog‘liq holda, xodimlarning tashqi ko‘rinishi fuqarolarning davlat organiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga yordam berishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo‘lishi, ular rasmiyligi, vazminligi va tartibliligi bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

Xodimlar xizmatdan tashqari vaqtda umumiy qabul qilingan «Odob-axloq» normalariga rioya etishlari, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Manfaatlar to‘qnashuvi

Xodimlar o‘z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘ladigan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo‘l qo‘ymasliklari shart.

Manfaatlar to‘qnashuvi xodimlarning shaxsiy manfaatlari ularning o‘z xizmat vazifalarini holisona va beg‘araz bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlarda paydo bo‘ladi.

Xodimlarning shaxsiy manfaatlari ularning shaxsan o‘zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo‘ladigan boshqa shaxslar uchun har qanday naf ko‘rish yoki afzalikka ega bo‘lishni o‘z ichiga oladi.

Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda xodimlar o‘z rahbarini darhol xabardor qilishi kerak.

Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotni olgan rahbar uni tartibga keltirish bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi shart.

Xodimlarning xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi ta’qiqlanadi, garchi uning tadbirkorlik faoliyati vazirlik tizimi manfaati bilan bog‘liq (tegishli) bo‘lsa.

Xodimlar o‘zlarining o‘z xizmat vazifalarini sitqidildan bajarishi yoki xizmat vazifalariga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan faoliyatni amalga oshirmasligi kerak.

Xodimlar har qanday holatlarda ham o‘z xizmat mavqeidan mumkin bo‘lmagan shaxsiy foydani olishi mumkin emas.

Xodimlar o‘z rahbarini manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rish maqsadida tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etish to‘g‘risida xabardor qilishi shart.

Xodimlar lavozimiga tayinlanayotganda va xizmat vazifalarini bajarayotganda o‘zining xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligining mavjudligi yoki mavjud bo‘lish imkoniyati to‘g‘risida ma’lum qilishi shart.

Mehnat vazirligi tizimi xodimlari lavozimiga tayinlanayotganda o‘zaro qarindosh yoki quda-anda (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘il va qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va bolalari) bo‘lgan shaxslar faoliyati vertikal tartibda bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir tizim (boshqarma, bo‘lim yoki bo‘linma)da ishlashlari mumkin emas.

«Odob-axloq» qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik

Xodimlar tomonidan «Odob-axloq» qoidalarining buzilishi uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Xodimlar tomonidan «Odob-axloq» qoidalariga rioya etilishi attestatsiya (suhbat)lar o‘tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash uchun kadrlar zahirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

Ushbu «Odob-axloq» qoidalari normalarning buzilishlari maxsus tarkibiy bo‘linma yoki «Odob-axloq» komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Bunda:

«Odob-axloq»ning komissiyasi, maxsus tarkibiy bo‘linma mavjud bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tizimi xodimlaridan kamida 5 kishidan iborat tarkibda tuziladi. «Odob-axloq» komissiyasining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va uning faoliyatini tashkil etishning boshqa masalalari O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vaziri tomonidan tasdiqlangan «Odob-axloq» komissiyasi to‘g‘risidagi Nizomda belgilanadi;

«Odob-axloq» qoidalarining buzilishi holatlari maxsus tarkibiy bo‘linma yoki «Odob-axloq» komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha intizomiy yoki boshqacha tarzda qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida xulosa chiqariladi;

Ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tizimidagi rahbarlarning ko‘rib chiqishi uchun qoidalar buzilishini sodir etgan xodimni javobgarlikka tortish to‘g‘risida taklif kiritiladi;

Yo‘l qo‘yilgan qoida buzilishining xarakterini hisobga olgan holda, «Odob-axloq» komissiyasi xodimga nisbatan «Odob-axloq» qoidalarining buzilishiga yo‘l quymaslik to‘g‘risidagi ogohlantirish bilan cheklanadi;

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tizimi xodimlari o‘zlari yo‘l qo‘ygan qoida buzilishi, ko‘rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o‘zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish huquqiga ega.

Mustaqil O‘zbekistonda kechayotgan jamiyatning yangilanish hamda davlat boshqaruvini modernizatsiyalashtirish, mamlakatimizni jahon taraqqiyotining yuqori bosqichlari tomon yuksaltirish taqdiri ko‘p jihatdan ma’naviyatga bog‘liq. Bu har bir sohaning o‘ziga xos kasbiy xususiyatlari, talablari qonun va qoidalari mavjudligidan dalolat beradi. Demak, huquq-tartibot, sud-huquq tizimi sohasining ham o‘ziga xos axloq qoidalari mavjudligi – bor haqiqatdir.

Yuristning kasbiy faoliyati o‘ta mas’uliyatli va og‘ir kasb sohalaridan biridir. Buning sababi – Ushbu soha vakillari o‘ta mas’uliyatli ishni - inson taqdiri bilan bog‘liq xatti-harakatlarga baho berish, davlat va jamiyat manfatlarining ustuvorligini ta’minlash bilan shug‘ullanishadi.ar ekan, Huquqshunoslik sohasi vakillariga yuksak ma’naviy talablar qo‘yilishi ushbu sohani tanlagan vatandoshlarimizdan avvalambor, yuksak ma’naviy fazilatlarni egallashni talab etib, ularning faoliyatini gan bo‘lishligi

davlat va hokimiyat obroʻyi, jamiyatni yangilash va zamonaviylashtirishga qaratilgan siyosat taqdiri bilan bogʻlaydi. iqdir.

Yuristning kasb etikasiga boʻlgan ehtiyoji asosan uch omil, aniqrogʻi - sabab bilan bogʻliq: Birinchidan, tanlangan dunyoviy taraqqiyot yoʻlimiz, - huquqiy davlatni va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. Bu esa, jamiyat a'zolarining axloqiy holatiga, ma'naviy madaniyati darajasiga uzviy bogʻliqdir. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati faqat yuksak axloqiy fazilatlar shakllangan, qaror topgan va amal qilayotgan ijtimoiy muhitda mavjud boʻladi.

Axloqiy tushuncha va tamoyillarning, ya'ni xususan tamoyillarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati shundaki, ular kishi ma'naviy faoliyatining ichki dunyosining turli koʻrinishlarini (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, oilaviy va h.k) idora qiladi. Shu bois kishilar ongida yuqori darajadagi axloq normalari, qoidalari va tamoyillari kishilar ongida shakllantirilmas ekan yuqori mehnat samaradorligiga ham, kishilar faolligiga ham, huquqiy davlat va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarishiga asoslangan jamiyatga ham erishib boʻlmaydi. Ikkinchidan, - huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati axloqqa zid illatlar (ichkilikbozlik, oʻgʻrilik, giyohvandlik, fohishabozlik, turli koʻrinishdagi jinoyatchilik) bor joyda qaror topa olmaydi.

Ma'muriy huquqbuzarlikka asoslangan, tenglik tamoyili tenglashtirish siyosatiga boʻysundiradigan, shaxsning jamiyatdan, xususan qoidadan begonalashtirilgan jamiyatda axloqqa zid illatlar koʻpayishi uchun shart-sharoitlar mavjud edi. Har bir sohada davlat monopoliyasi, xususan tadbirkorlik va ishbilarmonlik nafaqat ta'qib bilan taqiqlangan davrlarda - yuristning kasbiy ahvoli buzilgan edi.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni jazolash vositasi emas, balki kishilarga toʻgʻri yoʻl koʻrsatish vositasi sifatida namoyon boʻladi. boʻlishligini talab qiladi. Shu bois yuristning kasb etikasini

oʻrganish zamonaviy yurist kadrlar uchun asosiy maʼrifiy talablardan biridir. Uchinchidan, yuristning kasbiy etikasiga boʻlgan ehtiyoj sud-huquq tizimi xodimlari faoliyatida kuzatilayotgan eski tuzum illatlaridan tezroq qutulish, xodimlar faoliyatida axloq normalarining ustuvorligini taʼminlash, turli axloqiy ogʻishlarning oldini olish ehtiyoji bilan bogʻliq.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi 2016 yil 2 mart kuni qabul qilingan 62-sonli qarori davlatimizda kasb etikasi masalalarini huquqiy jihatdan rivojlanish masalasini kiritdi. 2017 yil 3 yanvar kuni qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida"gi qonunining 17-moddasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish masalasiga qaratilgan. Unga koʻra: "Davlat organlari va boshqa tashkilotlar oʻz mansabdor shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar koʻradi".

"Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida"gi qonunining 19-moddasi davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar masalasiga qaratilgan. Unga koʻra: "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini taʼminlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining oʻz zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan masʼuliyatini kuchaytirish; korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining

faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik; davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish; davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish; davlat organlari xodimlari manfaatlarining to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o‘tkazilishini ta’minlash;

davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o‘tashning shaffof tartibini o‘rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg‘arazlik, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo‘yicha saralash hamda xizmatda ko‘tarilish tizimini joriy etish; davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘rilishi ustidan nazoratni ta’minlash; davlat organlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu organlar tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o‘tkazish; normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish; davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta’minot olishini va rag‘batlantirilishini ta’minlash.

Qonun hujjatlarida davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin. Davlat organlarining va oʻzga tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlari qonun hujjatlariga rioya etishi, oʻz mansab yoki xizmat majburiyatlarini begʻarazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan oʻzini tiyishi shart".

"Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida"gi qonunining 21-moddasi manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar masalasiga qaratilgan. Unga koʻra: "Davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chogʻida manfaatlar toʻqnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin boʻlgan shaxsiy manfaatdorlikka yoʻl qoʻymasligi kerak. Manfaatlar toʻqnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat organlarining xodimlari oʻzining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar toʻqnashuvi mavjudligi toʻgʻrisida maʼlumotlar olgan rahbar bu toʻqnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan oʻz vaqtida choralar koʻrishi shart. Davlat organlarining maxsus boʻlinmalari yoki odob komissiyalari manfaatlar toʻqnashuvini hal etish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi. Davlat organlarining manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari buzilishiga yoʻl qoʻygan xodimlari, shuningdek ularning rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar boʻladi". Yuqoridagilar kasb etika institutining dolzarbligini koʻrsatmoqda. Yuristning kasb etikasi boshqa kasbiy faoliyat sohalari (tibbiyot, jurnalistika, diplomatiya,

Kasb etika institutining paydo boʻlishi "Etika" soʻzi qadimiy yunoncha «etos» (etos) soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, uy, birgalikdagi yashash makoni, insonlarning turar joyi maʼnolarini

anglatadi. Keyinchalik bu so‘zning ma’nosi odob, axloq ya’ni inson muomalasi doirasi va xarakteri o‘rtasidagi aloqalarni, insoniyat sifatining muhim belgilari, fazilatlari ma’nosini bildira boshlagan.

Etika – kishilarda odob-axloq munosabatlarining, tushunchalarning, qadriyatlarning, qonuniyatlarning vujudga kelishini, ularning odamlarni boshqarishdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganadi, umumlashtiradi.

Etika quldorlik davri falsafa ilmining ajralmas bir qismi sifatida vujudga kelgan, qadimgi dunyo donishmandlaridan bo‘lmish Arastu (miloddan avvalgi 384–322 yillar) tomonidan atama sifatida muomalaga kiritilgan. U birinchi bo‘lib axloqshunoslikni ruhshunoslik bilan siyosatshunoslik oralig‘idagi alohida falsafiy fan sifatida taqdim etgan va uni “Etika” deb nomlagan. Arastu o‘z davrida mavjud fanlarni ta’riflarkan, ularni uchta guruhga ajratadi: nazariy fanlarga falsafa, matematika, fizikani; ijodiy fanlarga san’at, badiiy hunarmandchilikni; amaliy fanlarga esa etika va siyosatni kiritadi. Shu tariqa Etika falsafa doirasidan ajralib chiqadi va mustaqil fan sifatida shakllana boshlaydi. Hozirgi vaqtda «Etika» ijtimoiyfalsafiy fanlar tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan fandir. «Etika» (axloqshunoslik) – axloqning kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi fandir. U boshqa ijtimoiy fanlar singari o‘z qonunlari va kategoriyalariga ega bo‘lib, ular orqali o‘z xulosalarini bayon qiladi.

«Axloq» so‘zi aslida arabcha so‘z bo‘lib, xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya degan ma’nolarni anglatadi. Hozirgi vaqtda bu tushuncha jamiyatning axloqiy hayotida yuz beradigan barcha jarayonlarning majmuini aks ettiradi.

Jamiyatning axloqiy hayoti deb kishilarning ijtimoiy, siyosiy va xuquqiy faoliyatida, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan o‘ziga xos munosabatlari shakliga aytiladi. Axloq tushunchasini ikki xil ma’noda ko‘rish mumkin: axloq umumiy tushuncha sifatida etikaning tadqiqot obyektini anglatsa, yakka

tushuncha sifatida inson fe’l-atvori va xattiharakatining o‘ziga xos ko‘rinishini anglatadi. Xususan «odob», «xulq-atvor» ma’nolarida ham ishlatiladi. Aslida «axloq» va «odob» tushunchalari bir-biridan mazmun jihatidan farq qiladi. Axloq to‘g‘risida Sharq mutafakkirlari va davlat arboblari ko‘plab qimmatli fikrlarni bildirganlar. Ulardan Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida, Kaykovus “Qobusnoma” asarida, Amur Temur “Tuzuklar”ida, ko‘plab asarlarida davlat rahbari, vazirlar, qozilar axloqi haqida ibratli so‘zlarni keltirgan. Markaziy Osiyoda Uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida bu shaharga hokim bo‘ladigan odam shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo‘lib, u tabiatan o‘n ikki xislat-fazilatni o‘zida birlashtirgan bo‘lishi zarur, degan edi. Fozillar shahri hokimi avvalo to‘rt muchasi sog‘ bo‘lib, o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarishida biror a’zosidagi nuqson halol bermasligi lozim, aksincha, u sog‘-salomatligi tufayli bu vazifalarni oson bajarishi lozim, deb ta’kidlagan.

Ikkinchidan, bunday shahar hokimi tabiatan nozik farosatli bo‘lib, suhbatdoshining so‘zlarini, fikrlarini tez tushunib, tez ilg‘ab olishi, shu sohada umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi zarur. Uchinchidan, u anglagan, ko‘rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to‘la-to‘kis saqlab qolishi, barcha tavsilotlarini unutmasligi lozim. To‘rtinchidan, u zehni o‘tkir, zukko bo‘lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlari nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur. Beshinchidan, u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so‘zlar bilan ifodalay olishi zarur.

Oltinchidan, u ustozlardan ta’lim olishga, bilim, ma’rifatga havasli bo‘lishi, o‘qish, o‘rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo‘lishi zarur. Yettinchidan, taom yeyishda, ichimlikdan ochofat emas, o‘zini tiya oladigan bo‘lishi, (qimor yoki boshqa) o‘yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq

boʻlishi zarur. Sakkizinchidan, u haq va haqiqatni, odil va haqgoʻy odamlarni sevadigan, yolgʻonni va yolgʻonchilarni yomon koʻradigan boʻlishi zarur. Toʻqqizinchidan, u oʻz qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam boʻlishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tugʻma oliy himmat boʻlishi, ulugʻ, oliy ishlarga intilishi zarur. Oʻninchidan, bu dunyo mollariga, dinor va dirhamlariga qiziqmaydigan (mol-dunyo ketidan quvmaydigan) boʻlishi zarur. Oʻn birinchidan, tabiatan adolatparvar boʻlib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabrzulmni, mustabid va zolimlarni yomon koʻruvchi, oʻz odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barchaga yaxshilikni va oʻzi suygan goʻzalliklarni ravo koʻruvchi boʻlishi zarur.

Oʻzi haq ish oldida oʻjarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlarga murosasiz boʻlishi zarur. Oʻn ikkinchidan, oʻzi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat’iyatli, sabotli, jur’atli, jasur boʻlishi, qoʻrqoqlik va hadiksirashlarga yoʻl qoʻymasligi kerak. Mobodo biror zamonda fozillar shahrida hokimlik qilayotgan bir yoki bir necha kishida boshqa zarur xislatlar boʻlsa-yu, ammo donishmandlar boʻlmasa, fozillar shahri yaxshi hokimsiz qoladi, bunday shahar halokatga yuz tutadi.

Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida jamiyatning har bir a’zosi mansabi, tutgan oʻrni, ya’ni kim boʻlishidan qat’i nazar, fozil ma’naviyatli, ma’rifatli insondir. Fozil inson oʻz davlatining qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, lozim boʻlganda vatani uchun jon fido qiladi, deb bayon qilingan. Yusuf Xos Hojib “Qutadgʻu bilig” (“Qutga, ya’ni baxt-saodatga eltuvchi bilim”, 1069-yilda yozilgan) asarida mansabdor shaxslarning fazilatlari, ularga boʻladigan axloqiy talablarni bayon qilganlar. Jumladan, beklar, ya’ni mamlakat boshligʻi, vazirlar haqida gap yuritganlar.

Yusuf Xos Hojibning fikricha, bek dono, botir, sheryurak boʻlishi kerak. Uning bilimli, zakovatli, mulohazakor boʻlishi taqozo etiladi.

Ochiq yuzlik bekning fazilatlaridan biri. XI asrning 82–83-yillarida G‘arbiy eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o‘z o‘g‘li Gulonshohga bag‘ishlab “Nasihatnoma”sini yaratadi va o‘sha davr an’anasiga ko‘ra, uni bobosi podshoh Shams-ul Maoliy sharafiga “Qobusnoma” deb ataydi. Ana shu asarda “Ilm talabi va qozigarlik zikrida” deb nomlangan bob bo‘lib, unda bo‘lg‘usi qozilarga ularning axloqi qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida maslahatlar berilgan.

Jumladan, unda quyidagi fikrlar keltirilgan. : “Har kishi har ishni qo‘lga olsa, ul ishni yaxshi bilsin va uni ko‘p varzish (ya’ni mashq, odat) qilsin, toki ul ishdan ko‘p naf ko‘rgay”. “Ey farzand, agar donishmandlikda baland darajaga yetib, qozi bo‘lsang, ohista va tamkin bo‘lg‘il va tez fahm, sohibi tadbir, peshbin (oldindan ko‘ruvchi), mardumshunos (odamlarni tekshira oluvchi) va sohibi siyosat bo‘lg‘il, har guruhning urf-odatidin, yo‘l-yo‘rig‘idin xabardor, har qavmning mazhabidin ogoh bo‘lg‘il. Kerakdurkim, qozilik xiylalari senga ma’lum bo‘lg‘ay. Agar bir vaqt bir mazlum oldinga kelsa, uning gunohi bo‘lmasa va zulm etib, uning haqqi bekor ketar bo‘lsa, ul mazlumning faryodiga etg‘il va tadbir yuzidan ul mustahiqqa haqqin etkurg‘il” . Yuqorida berilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, qozilar, (ya’ni hozirgi kundagi sudyalar) donishmand kishilar sanalgan. Ular barcha insoniy fazilatlar egasi bo‘lib, qolgan kishilarga o‘z axloqlari bilan namuna bo‘lishlari lozim.

Abu Ali ibn Sino to‘g‘ri so‘zlash va ishlashni, halol mehnat qilishni, hammaga insof-adolat bilan muomala qilishni, nafsga berilmaslikni, olim-fozillar bilan suhbatlashishni, kattalarning izzat-hurmatlarini bajo keltirishni, chin do‘stlikni, muhtojlarga ehson etishni unutmaslikni hamma ezguliklarning manbai, haqiqiy insoniylik belgisidir, degan edi.

Hazrat Navoiyning «Nasoyim-ul-muhabbat» asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona xislat va fazilatlari batafsil sanab o‘tilgan. Bu xususiyatlar — halol luqma bilan qanoatlanish, shariat qoidalariga rioya etish, muloyim tilli, saxiy, sadoqatli, vafoli

bo‘lishdan iborat. Sharq mutafakkirlari o‘ziga xos Axloq kodeksini ishlab chiqish asosida insonparvarlik to‘g‘risidagi milliy va umumbashariy qadriyatlar rivojlanishiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar.

Har bir inson odamlar orasida o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot kechiradi, o‘zining butun hayoti va faoliyati davomida har xil toifadagi ko‘plab insonlar bilan muloqatda bo‘ladi. U insonning o‘z kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi. Zamonaviy tushunchada etika bu inson, jamiyat harakat faoliyatining muhim tomonlaridan hisoblangan odob-axloqni o‘rganadigan filosofik fandir. YA’ni etika fan sifatida axloqni, uning mohiyatini, tabiatini va tizimini, paydo bo‘lishi va rivojlanishini, boshqa ijtimoiy munosabatlar orasida tutgan o‘rnini o‘rganadi, ma’lum axloqiy tizimni nazariy asoslab beradi.

A. SHer «Etika» kitobida ko‘rsatishicha, «Odob-inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urfodatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi. Etika esa– jamiyat, zamon insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xattiharakatlar yig‘indisidir».

Etika inson va jamiyat o‘rtasidagi obyektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan prinsip va normalar majmuidir.

Etika ijtimoiy xodisa sifatida insoniyat jamiyati vujudga kelishi bilan bir vaqtda jamoalar bilan shaxslar o‘rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi aloqa tarzida vujudga kelib, o‘zining tarixiy taraqqiyotida: insonning tabiiy xislatlarini o‘zgartiruvchi, yaratuvchi faoliyati shaklida umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi;

▫ jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma’naviy-ijtimoiy omil asoslaridan biri;

kishilarning ichki tuyg‘ularini, hissiyotlarini o‘stirib, umuminsoniy moddiy va ma’naviy qadriyatlarini anglab yetish, ularni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo‘llaridan eng afzali;

▫ oila va kundalik turmushda mavjud bo‘lgan oilaviy burch, o‘zaro hurmat, sadoqat, or-nomus kabi an’analarni nasldan-naslga, avloddan-avlodga o‘tkazish asosida davom ettirish vositasi;

▫ adolatli jamiyat qurish va unda boy-badavlat, tinch-totuv, baxtli yashash g‘oyasi sifatida muntazam ravishda rivojlanib kelgan va rivojlanadi.

Etikaning negizini jamiyatning tarkibiy tuzilishi, xususan, undagi mulkiy munosabatlar, mehnat taqsimoti, aholining yoshi va ularning ehtiyoj va manfaatlari belgilaydi.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosini xilma-xil shakllardagi mulklar tashkil etayotgan bir vaqtda, uni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlarini: - umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish; - insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi; vatanparvarlikni tashkil qiladi. Shubhasizki, ana shu negizlar asosida O‘zbekiston xalqlarining yangicha mazmundagi ma’naviyaxloqiy dunyosi shakllanadi va qaror topadi. Bu esa, o‘z navbatida xalqimiz axloqining negizini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Etikaning jamiyat xayotida tutgan o‘rni u bajaradigan funksiyalar bilan belgilanadi.

Regulyativ funksiyasi – axloqning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Regulyativ funksiya shaxs, xizmat jamoasi, davlat va jamoat institutlari faoliyatini jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy normalar asosida boshqarib turishni anglatadi. Shu maqsadda bir qancha vositalarga tayanadi: axloqiy prinsiplar, jamoatchilik fikri, axloqiy avtoritet, an’analar, urf-odatlar va hokazo. Axloq nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyatning ham hulq-atvorini boshqaradi.

Aksiologik funksiyasi (baholash) – yuqorida ta’kidlaganimizdek, har qanday axloqiy xatti-harakat u yoki bu qadriyatlar sistemasi orqali baholanadi. «Axloqiy-axloqsiz», «yaxshiyomon» nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda xatti-harakatlar, munosabatlar, motivlar, qarashlar, shaxsiy sifatlar baholanadi. Axloq inson tomonidan qadriyatlarni o‘zlashtirish, ularni rivojlantirishni ham nazorat qiladi.

Informatsion (bilish) funksiyasi - axloqiy bilimlar hosil qilishga qaratilgan bo‘lib, axloqiy prinsiplar, normalar, kodekslar ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar haqidagi informatsiya manbai hisoblanadi. Shu bilan birga odatiy va ekstremal vaziyatlarda, konfliktli va tang holatlarda axloqiy tanlov masalasiga e’tibor qaratiladi. Demak, axloq olamni, insonni, uning mohiyatini, hayotining ma’nosini anglashga yordam beradi.

Tarbiyaviy funksiyasi –har qanday tarbiya tizimi – bu eng avvalo axloqiy tarbiya tizimi hisoblanadi. Axloqiy tarbiya axloqiy norma, odat, an’ana, umumiy xulq-atvor namunalarini aniq tashkiliy tizim holiga keltiradi, axloqiy bilimlarni axloqiy ishonch-e’tiqodga aylantiradi, konkret vaziyatlarda axloqiy bilim va ishonch-e’tiqodni qo‘llashda ijodiy yondashuvga o‘rgatadi. Demak, axloq nafaqat norma va qoidalarga rioya qilishni, balki o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatadi. Shu yerda, axloqning alohida funksiyalarini ajratish shartli xarakterga ega ekanligini qayd qilish lozim. Chunki real hayotda ular bir-biri bilan uyg‘un holda namoyon bo‘ladi.

Axloq bir vaqtning o‘zida boshqaradi, tarbiyalaydi, yo‘naltiradi va hokazo. “Etika”ning boshqa ijtimoiy-falsafiy fanlardan farqi shundaki, u aksiologik xususiyatga ega. YA’ni, axloqiy bilimlar insoniy munosabatlar va ijtimoiy voqelik hodisalarini baholash asosida vujudga keladi. Bu baholashning asosiy mezoni kishilarning «nima yaxshi-yu nima yomonligi» haqidagi tasavvurlari hisoblanadi. Bunday baholash ham jamiyatga, ham alohida shaxsga xosdir. Shu tariqa axloqiy qadriyatlardan ijtimoiy va individual tizimlar vujudga

keladi. Bu tizimlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir insonda turlicha namoyon bo‘ladi.

Shaxs faoliyatida ijtimoiy qadriyatlar tizimi ustun bo‘lsa, u ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadi, uning dunyoqarashida jamoatchilik tamoyili ustun bo‘ladi. Aksincha bo‘lsa, inson o‘zining shaxsiy manfaatlarini ustun qo‘yadi, dunyoqarashida individualizm prinsipi ustun bo‘ladi. Aslida etik ideallar, tamoyillar va normalar kishilarning adolat, insoniylik, ezgulik, yovuzlik, ijtimoiy farovonlik haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqqan. Bu tasavvurlarga mos keluvchi xatti-harakatlar axloqiy deb, zid keladigan xatti-harakatlar axloqsizlik deb e’lon qilingan. Boshqacha qilib aytganda, kishilar fikricha jamiyat va shaxs manfaatlariga mos keladigan, insonlar uchun foydali bo‘lgan xatti-harakatlar axloqiydir.

Albatta, bu tasavvurlar tarixiy taraqqiyot davomida o‘zgarib borgan, turli sinflar, ijtimoiy guruhlarda turlicha bo‘lgan. Xususan hozirgi vaqtda xuquqni muhofaza qilish idoralari kasb ahlokida uch turdagi axloqiy norma va tamoyillar amal qiladi: 1) huquqni muhofaza qilish idoralari kasb axloqining asosiy mazmunini umuminsoniy axloqiy normalar tashkil qiladi. Lekin ularning ba’zilari, masalan; jasurlik, burchga sodiqlik, adolatparvarlik asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi. 2) bu yerda yana faqat huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlariga xos axloqiy norma va prinsiplar amal qiladi. Masalan, ma’lumotlarning sir saqlanishi, boshliqlar va bo‘ysunuvchilar o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlar va shu kabilar. 3) Shu bilan birga huquqni muhofaza qilishning faqat u yoki bu xizmatiga taalluqli bo‘lgan axloqiy norma va prinsiplardir. Misol tariqasida fuqarolar bilan ishlash jarayonida qo‘llanadigan operativ xatti-harakatlar qoidalari, huquqni muhofaza qilish xodimlariga konfidensial yordam bergan fuqarolarning sirini saqlash va hokazo. Bu qoidalar shakl jihatidan umuminsoniy qoidalardan farq qilishi mumkin, lekin o‘zining axloqiy mazmunini saqlab qoladi.

Xulosa qilib aytsak bo‘ladiki, axloq ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Shu bilan birga u kasbiy xususiyatga ham ega. Jamiyat ma’naviy hayotining bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan ikki sohasi- axloq va huquqning o‘xshash va farqli tomonlari masalasi hozirgi kunda ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Shaxsning ma’naviy dunyosi, ongi va madaniyati shakllanishida axloq va huquq alohida o‘ringa ega. Chunki ular ijtimoiy munosabatlar tizimi taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadigan, shu orqali shaxs ongini rivojlantiradigan muhim ijtimoiy boshqaruvchi hisoblanadi.

Etika va huquq - inson munosabatining o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan muhim elementlaridir. Ularning tabiati jamiyatdagi konkret tarixiy sharoit, ijtimoiy tizimga bog‘liq bo‘ladi.

Demokratik fuqarolik jamiyatida axloq va huquqning o‘zaro aloqadorligi quyidagi qonuniyat tufayli obyektivlashadi – umumxalq huquqining axloqiy potensiali, qonunchilikning axloqiy asoslari o‘sib boradi.Yuqorida ta’kidlaganimizdek, etika - inson va jamiyat o‘rtasidagi obyektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan prinsip va normalar majmuidir. Shunday qilib, huquq – nafaqat siyosiy-yuridik, balki ijtimoiy-axloqiy xodisa.

Jamiyatning huquqiy hayoti insonparvarlik, adolat, vijdon va burch, or-nomus, erkinlik va mas’uliyat kabi axloqiy xodisalarsiz rivojlana olmaydi. Etika va huquq munosabatlariga qadim davrlardan mutafakkirlar o‘z e’tiborini qaratganlar. Suqrot, Aflotun, Arastu huquqiy mafkurani ishlab chiqar ekan, Etikani qonunchilik bilan bog‘lashga harakat qilganlar. Rim yuristlari: «huquq urf-odatlar ma’qullagan narsalarni tavsiya qiladi» degan postulatni ilgari surganlar. Yangi davrda axloq va huquq uzviy bog‘liqlikda olib qaralgan, hatto Gelvetsiy: ««Etika» va «Qonunshunoslik»ni men bitta fan deb tushunaman» ,-deb yozadi.

Nemis klassik falsafasi namoyandalari ham etika va huquq munosabatlariga o‘z e’tiborlarini qaratishgan. Kant huquq Etikaga

bo‘ysunadi deb hisoblagan. Gegel fikricha, etika va huquq bir-birini taqozo qiladi, farqi shundaki, axloq tashqaridan bo‘ladigan majburiylikka yo‘l qo‘ymaydi. Aslida, huquq inson xatti-harakatini boshqarish shakli sifatida tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida, axloq normalaridan kelib chiqadi. Huquq o‘z taraqqiyotining turli bosqichlarida etika bilan deyarli uyg‘un bo‘lgan. Faqat vaqt o‘tishi bilan yozma va shakllangan qonunchilikka aylangan. Boshqacha qilib aytganda, huquq o‘z ichiga axloqiylikni qamrab oladi.

Etika va huquqning munosabati quyidagilarga namoyon bo‘ladi: 1) birligi va o‘xshashligida; 2) farqli tomonlarida; 3) o‘zaro ta’sirida.

Etika va huquq ijtimoiy ong shakllari sifatida umumiy ijtimoiy funksiyani bajaradi; insonning jamiyatdagi faoliyatini boshqaradi, normativ xususiyatga ega va fuqarolar bu norma va prinsiplarga amal qiladilar. Bu norma va prinsiplar umumiy xarakterga ega va jamiyatning barcha a’zolariga taalluqlidir. Bayon etilganlardan kasb etikasi nima degan savolga quyidagi javob chiqadi: etikaning professional o‘ziga xosliklarini o‘rganadigan fan – kasb etikasi deyiladi. Har qanday kasb etikasi uch asosiy tayanch nuqtada turadi. Bular: umuminsoniy etika, muayyan kasb xususiyatlari va konkret tajriba. Mazkur uch tayanch nuqtani amaliyotga tatbiq etsak, u umuminsoniy etika talablarini davlat hizmatchisining kasb odobi meyorlari bilan boyitgan holda ularni konkret vaziyatda qo‘llay olishida aks etadi.

Axloq va huquqning farqlari Axloq Huquq Normalar yozma xarakterga ega emas, urfodat va an’analarda belgilanadi. Normalar aniq formal xarakterga ega rasmiy hujjatlarda belgilab beriladi. Normalar obyektiv ravishda kelib chiqadi. Normalar davlat tomonidan o‘rnatiladi. Amal qilishini ta’minlash mexanizmijamoatchilik fikri Amal qilishini ta’minlash mexanizmi-davlat organlarining sanksiyasi. Ixtiyor erkinligi mavjud. Ixtiyor erkinligi normativ hujjatlar bilan qat’iy chegaralanadi.

„Siyosiy madaniyat“ tushunchasi, uning tuzilishi na turlari XX asrning oxiri XXI asr boshlarila Mustaqil Davlatlar Hamlo‘stligiga kiruvchi mamlakatlarda siyosiy madaniyat fenomenini o‘rgatshsh jadallashdi. Jumladan, demokratik jamiyat barpo etish jarayonida O‘zbekiston Respublikasida ham siyosiy madaniyatga bo‘lgan qiziqish keskin ortdi. Bu bejiz emas, chunki, hokimiyat munosabatlarida, siyosiy tizim va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarda yuzaga kelgan vaziyatni ko‘pincha „siyosiy madaniyat“ iborasi orqali tushuntirish mumkin.

Siyosiy madaniyatni o‘rganishning muhimligi umuminsoniy qadriyatlarni e’tiborga olmasdan biron-bir jiddiy mastshani ko‘rib chiqib bo‘lmasligi bilan izohlanadi. Siyosiy madaniyat an’ana, milliy meros, geografiksissiy omil, tarixan vujudga kelgan ijtimoiy va etnik tuzilish, diniy e’tiqod kabilarni qamrab oluvchi ijtimoiy-tarixiy negizning tarkibiy qismidir. Ularning barchasi hal qiluvchi asoslar bo‘lib xizmat qiladi. Insonlar o‘z siyosiy tarixini yaratuvchisi ekanligi ma’lum, ammo ular bu tarixni o‘zboshimchalik bilan emas, balki o‘zlari bevosita yashovchi, o‘zlariga meros qolgan sharoitlarda yaratadilar.

„Siyosiy demokratiyani vujudga keltirish ishtiyoqida bo‘lgan davlat arboblari ko‘pincha asosiy e’tiborni demokratik hukumat institutlarining rasmiy majmuini tuzish va konstitutsiya yozishga qaratadilar. Vaholanki, barqaror va samarali demokratik boshqaruv rivojlapishi uchun hukumat tuzilmalari va siyosiy jarayonning o‘zi kifoya qilmaydi. U... siyosiy madaniyatga bog‘liqdir. Agar bu madaniyat demokratik tuzumni qo‘llab-quvvatlashga qodir bo‘lmasa, mazkur tuzumniig muvaffaqiyat qozonishi jula mushkul“'. Bu haqiqat hozirgi O‘zbekistom uchun ham juda dolzarbdir.

Mamlakatimnzda mavjud smyosiy madaniyat dsmokratiyaning qad rostlashi va rivojlamishiga qanday hissa qushadi? Umuman, bu ikki tushuncha bir-biriga qay darajada bog‘liq? Siyosiy madaniyat bilan bog‘liq muammoning dolzarbligi hozirgi kunda uming saviyasi

ancha pastligi bilan izohlanadi. Bu faqatoddiy fuqarolargagina emas, balki hammaga — davlat idoralari, snssiy partiyalar va jamoat birlashmalariga ham taalluqlidir. Ko‘pchilik jamiyatshunos olimlarning fikrncha, davlatning rivojlaiishi aynan sissiy madaniyatning ahvoli bilap bog‘liq bo‘lib, siyosiy madaniyatning rivojlanganlik darajasiga qarab, jamiyat siyosiy tizimining qanchalik mukammal tashkil qilinganlngi to‘g‘risida xulosa chiqarish mumkin. YA’ni, sissiy madapiyat fuqarolarning siyesiy va huquqiy lasqatini ifoda etuvchi, siyosiy institutlarning shakllanishiga, faolnyat ko‘rsatishiga, davlat va jamiyat o‘rtasilagi munosabatlarning tashkil qilinish jarasiiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida iamoyon bo‘lali.

Siyosiy madaniyat — jahoi umumiy madaniyatining tarkibiy qismi, siyosiy tajriba, siyosiy bilimlar va his-tuyg‘ular darajasi, siyosiy subyektlar xulq-atvori va faoliyati namunalarinipg bosh ko‘rsatkichi, mamlakat, sinf, millat, ijtimoiy guruh siyosiy turmush tarzinimg umumiy ta’rifidir. Chunki insonnyat o‘z tarixiy-siyosiy taraqqiyoti jarayonida siyosiy tajriba orttirdi. Mazkur tajriba ta’sirida siyosiy ong shakllandi. Odamlarning siyosiy ongi esa, o‘z navbatida, ijtimoiy tabaqalar, xalqlarning siyosiy xulqatvorini belgilaydi. Bipobarin, siyosiy madaniyattarixiysiyosiy tajriba, siyosiy ong va siyosiy xulq-atvorning mushtarakligidir.

Siyosiy madaniyat — jamiyat siyosiy tiziminnng eig muhim elementlaridan biri bo‘lib, jamiyatning boshqa kichik tizimlari — iqtisodiy, diniy, huquqiy, tashkiliy, boshqaruv va boshqa tizimlar bilan o‘zaro aloqadordir. U jamiyat. undagi ijtimoiy guruhlar va individlarning sissiy tajribasiii, ularnipg siyosiy hokimiyat, siyosiy munosabatlar haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy hodisalarga baho berish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Qisqa qilib ta’riflaganda siyosiy madaniyat iisonning siyosiy institut va qadriyatlarda qayd etilgan ijodiy faoliyatiiing tavsifi va ip’ikosidir. „

Umuman olganda, madaniyatni insonning tabiatni o‘zgartirish borasilagi aqlga muvofiq faoliyati, shuningdek mazkur faoliyatning modliy va ma’naviy sohalarda ifodalapgap, o‘z aksipi topgai natijasi lsb tushunishimiz mumkin.

Madaniyat va siyosat bir-biri bilan chambarchas bog‘likdir. Chunki siyosiy madaniyat insoniyatning uz tarixiy taraqqiyoti jarayonida tuplagan siyosiy tajribasidir. Siyosiy madaniyat o‘z kelib chiqishiga ko‘ra siyosiy munosabatlarning vujudga kelishi bilap bevosita bog‘liq. Ammo bu bog‘liqlik siyosatdagi jamiki narsalarni „siyosiy madaniyat” deb atashga imkon bsrmaydi. Chunki madaniyat doirasidan tashqaridagi sissat ba’zai zuravonlik va o‘limga sababchi bo‘lali. Madaniyatning siyosat bilan o‘zaro aloqasi, kesishishi va to‘qpashishi sissiy hokimiyatning legitnmligi hodisasida kuzatiladi. Legitimlashtirish jarayoni esa bevosita yoki bilposita siyosiy muposabatlar qadriyatlarga asoslanishini nazarda tutali. Lsgitimlikka ega bo‘lish jarayonida hokimiyat madaniylashadi, bu esa unga zo‘ravonliksiz va samarali tarzda ramziy vositachi vazifasini bajarish imkonimi beradi. Shuping uchun ham hokimiyatning legitimligiga qarab jamiyat siyosiy madaniyatining xususiyati va darajasi haqida xulosa chiqarish mumkin. Yuqoridagi jihatlarga kura, siyosiy madaniyat jamiyatda siyosiy barqarorlikni saqlash, mustahkamlash hamda uni demokratlashtirishda muhim vosita bulib xizmat qiladi.

Siyosiy madaniyat tushunchasi u yoki bu tarzda Platon, Aristotel, Konfutsiy, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, N. Makiavelli, Sh. L. Monteskyo, A.Tokvil, M. Veber, N. Y. Danilevskiy, N. A. Berdyayev va boshqalar tomonidan ma’lum darajada talqin qilingan.

„Siyosiy madaniyat“ atamasi esa ancha keyinroq — XVIII asrda nemis faylasufi va ma’rifatparvari I.Gsrder (1744 —1803) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

XX asrning 50—60 yillarida siyosiy madaniyat hodisasini o‘rganishga e’tibor tobora kuchaydi. Chunki bu davrda

mustamlakachilik zulmidan qutulgan mamlakatlar AQSH siyosiy institutlaridan andoza olishga intildilar, ammo ularping bu urinishi muvaffaqiyatsiz tugadi. Buning sabablarini aniqlashga urigggan amerikalik siyosatshunoslarning siyosiy madaniyat tahliliga bag‘ishlangan yirik tadqiqotlari samarasi sifatida 1956 yilda amerikalik nazariyotchi X.Faysrning „Yevropaning buyuk davlatlari boshqaruv tizimi“, G. Almond va S Verbaning AQSH, Apgliya, Gsrmaniya, Meksika va Italiya sissiy jarayonlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan „Fuqarolar madaniyati“, 1965 yilda esa L. Pay va S. Verbaning 10 ta mamlakat jamiyati siyosiy madaniyati tahliliga oid „Siyosiy madaniyat va siyosiy taraqqiyot" nomli asarlari nashr qilindi. Mazkur ilmiy ishlarda siyosiy madaniyatning hozirgi zamon konsepsiyasi yaratildi. Bu konsepsiyaga tayanib, „siyosiy madaniyat“ atamasiga quyidagicha umumiy ta’rif berish mumkin: Siyosiy madaiiyat — siyosiy tafakkur va siyosiy faodiyat madaniyati, shuningdek, siyosiy institutlar xarakterining, faoliyat tartibining va jamiyat siyosiy hayoti barcha jabhalarining sivilizatsiyalashganligi darajasi. Umumiy nuqtai nazarga ko‘ra, siyosiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatiningtarkibiy jihatlaridan biri bo‘lib, odamlarning o‘z manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kurashda ishtirok etish, hokimiyatga ta’sir ko‘rsatish yoki uni egallash uchun boshqa tabaqalar va siyosiy kuchlar bilan tortishishga moyilligi va tayyorligining ifodasi hisoblanadi.

Insonlarning bevosita ma’naviy hayoti, qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘luvchi siyosiy hodisa bo‘lgan siyosiy madaniyat bir joyda qotib turmaydi, u doimo o‘sishda, o‘zgarishda bo‘ladi. Ayni paytda siyosiy madaniyat bo‘sh joyda, o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib ham qolmaydi. Uning shakllanishida rol o‘ynovchi ko‘plab omillar mavjud.

Siyosiy madaniyatning tuzilishi.

Siyosiy madaniyat o‘ziga xos ichki tuzilishga ega bo‘lib, siyosiy tajriba, siyosiy ong va siyosiy xulq-atvor uning tarkibiy qismini

tashkil etadi. Siyosiy tajriba: a) xalqning oʻziga xos milliy-maʼnaviy qadriyatlari; b) mentaliteti; v) tarixiy xotirasi va anʼanalari; g) milliy davlatchilikni amalga oshirish tajribasi hamda milliy qadriyatlardan kelib chiquvchi siyosiy maqsadlaridir.

Siyosiy ong: a) mafkuraviy, gʻoyaviy komponent; b) emotsional — psixologik komponentlardan iboratdir.

Siyosiy xulq-atvor: a) siyosiy vaziyat, siyosiy jarayondagi xatti-harakat, faoliyat yoʻnalishi; b) ijtimoiy-siyosiy faoliyat uslubining namunalari, turlarining xususiyatlaridir.

Siyosiy madaniyatning mazkur oʻziga xos tuzilishidan qanday mantiqiy xulosa chiqarish mumkin? Avvalambor, siyosiy madaniyatning asoslari har bir xalqda uzoq tarixiy davrni oʻzida qamrab oluvchi jarayonlar asosida shakllanadi. Bunda har bir xalqda shaolangan madaniy va maʼnaviy qadriyatlar, ulardagi oʻziga xos milliy fazilatlar hamda oʻziga xos tafakkur qilish uslubi hal qiluvchi fundamental asos boʻlib xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda, siyosiy madaniyatning shakllanishi faqatgina subyektiv holatning oʻzi bilangina bogʻliq boʻlmaydi.

Siyosiy madaniyatning shakllanishida odamlarning jamiyatdagi siyosiy reallik bilan hamkorlik qilishi va ularning siyosiy jarayonlarga qoʻshilishi muhim oʻrin tutadi. Masalan, jamiyatning siyosiy tizimi bilan ijtimoiy hayotning turli sohalari hamkorlik qiladi. Ularning har biri oʻz navbatida siyosiy madaniyatni shakllantirishda u yoki bu darajada ishtirok etadi hamda mazkur jarayonlarning yoʻnalishini belgilab beradi. Bu oʻrinda davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV, fan va taʼlim tizimining maʼlum maqsadga yoʻnaltirilgan siyosiy, tarbiyaviy, maʼrifiy, maʼnaviy va mafkuraviy ishlarini alohida taʼkidlab oʻtish lozim. Bularning barchasi mamlakatda oʻziga xos siyosiy madaniyat modelining shakllanishida hal qiluvchi oʻrin tutadi.

Siyosiy madaniyat turlari. Barcha ijtimoiy hodisalar singari, siyosiy madaniyatni ham turli mezon va asoslarga koʻra turkumlash

mumkin. So‘nggi yillarda ilgari surilayotgan turkumlash asosida siyosiy madaniyat quyidagi turlarga ajratiladi: Siyosat subyektiga ko‘ra: — umuminsoniy siyosiy madaniyat; — xalq, etnos, sivilieatsiya sissiy madaniyati; — milliy, mintaqaviy siyosiy madaniyat, submadaniyat1; — ijtimoiy tabaqa (ishchilar, dehqonlar, elita, byurokratiya, ziyolilar, rahbarlar) siyosiy madaniyati; — jins va yosh bilan bog‘liq siyosiy madaniyat, ijtimoiy-demografik, kasbiy, diniy va boshqa guruhlar siyosiy madaniyati.

Siyosiy jarayon sohalariga ko‘ra: — hokimiyat, boshqaruv siyosiy madaniyati; — siyosiy ishtirok etish madaniyati; — siyosiy muxolifat siyosiy madaniyati. Hokimiyatni amalga oshirish shakllariga va usullariga ko‘ra: — demokratik siyosiy madaniyat; — avtoritar siyosiy madaniyat; — totalitar sissiy madaniyat; — o‘tish tipiga xos siyosiy madaniyatlar .

Siyesatda ishtirok etish xususiyatiga ko‘ra: — fuqaroviy, demokratik siyosiy madaniyat; — tobelik siyosiy madaniyati; — qavmlar siyosiy madaniyati.

Siyosiy tizimdagi o‘rniga ko‘ra: — yetakchi yoki ergashuvchi siyosiy madaniyat (submadaniyat). Qamrab olish darajasiga ko‘ra: — ommaviy ski elitar siyosiy madaniyat. Sissiy madaniyatning boshqa tipologiyalari ham mavjud. Masalan, ayrim adabiyotlarda siyosiy madaniyatning „yopiq“ va „ochiq“ turlari tug‘risida ma’lumot beriladi: Siyosiy madaniyatning „yopiq“ turi — siyosiy madaniyatning boshqa turlariga nisbatan murosasizligi, ularni mutlaqo qabul qila olmasligi hamda o‘z tor milliy qobig‘ida qolib kstishligi bilan xarakterlanadi.

Siyosiy madaniyatning „ochiq“ turi — siyosiy madaniyatning boshqa turlarini ijobiy qabul qiladi. O‘zida boy an’analari bo‘lgan holda siyosiy voqelikdagi o‘zgargan yangi realliklarni qabul qila oladi. Doimiy ravishda o‘z - o‘zini boyitib borish xususiyatiga ega, shundan kelib chiqqan holda ijtimoiy va siyosiy jihatdan harakatchanligi bilan ajralib turadi. Aytish joizki, G‘arb

siyosatshunosligida siyosiy madapiyatni fuqarolarning o‘zlari yashaydigan davlatni rivojlantirishning bo‘lg‘usi konsepniyasini ma’qullashlari yoki ma’qullamasliklari nuqtai nazaridan turkumlashga ko‘proq e’tibor beriladi. Shu jihatdan siyosiy madaniyatni turkumlashda G.Almond va S. Verbaning „Fuqarolar madaniyati“ asarida tayutif etilgan usul fanda alohida e’tibor qozondi. Ular siyosiy madaniyatni quyidagi uch „sof“ turga ajratadilar:

Siyosiy madaniyatning patriarxal turi — unchalik rivojlanmagan ma’naviy madaniyati va qadriyatlarga ega bo‘lmagan xalqlarga xos bo‘lib, ushbu tur vakillarining siyosiy faollik holati deyarli bo‘lmaydi, ular siyosiy qadriyatlar, siyosiy normalar va institutlarga qiziq maydilar. Siyosiy madaniyatning bu turi aholining siyosiy tizimdan butkul uzilib qolganligi hamda hech qanday siyosiy bilimga ega emasligi bilan ajralib turadi. Bunday jamiyatlarda ixtisoslashgan siyosiy rollar mavjud bo‘lmaganligi uchun dohiylar, shomonlar va boshqalar asosiy „aktyorlar“ sifatida ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham diniy vazifani bajaradilar Masalan, Afrikaning markazlashgan qabila va knyazliklarida siyosiy madaniyat asosan patriarxal xususiyatga egadir.

Tobelik siyosiy madaniyati — siyosiy institutlarning ahamiyati katga, fuqarolarning faolligi esa past bo‘lgan siyosiy madaniyat. Passiv siyosiy xulq-atvor, hukmron rasmiy qadriyatlar va normalarga tayanish, bu qadriyatlarni mustaqil tushunishga intilishning yo‘qligi bunday madaniyatning asosiy belgilaridandir. Umuman olgapda, odamlarda siyosiy tizimga nisbatan o‘ziga xos boqimandalik — paternalistik munosabat ustunlik qiladi. YA’ni, jamiyat a’zolari siyosiy tizimdan ne’matlar kutadi yo jazodan qo‘rqadi.

Siyosiy madaniyatning bunday turiga siyosiy tizimga kirish yo‘llari aniq ajratilmagan, individlar esa o‘ziga „siyosiy aktyorlar" deb qaramaydigan jamiyatlarda duch kelish mumkin. Faol siyosiy

madaniyat turi — uning xususiyati shundaki, fuqarolar jamiyat siyosiy hayotiga faol ravishda shaxsan ishtirok etadilar. Bu ishtirokchilik fuqarolarning siyosiy jihatdan savodxonligi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga o‘z ishtiroki bilan ta’sir ko‘rsata olishiga bo‘lgan ishonchiga asoslanadi. Bu ishtirokchilik va ishonch orqali jamiyat siyosiy tizimida shaxsan ma’lum bir statusga ega bo‘lishlikni mo‘ljallaydilar. Siyosiy madaniyatning bu turi fuqarolarga siyosiy hayotda ishtirok etishdan, faollik ko‘rsatishdan manfaat ko‘rish imkonini beradi. Bunday jamiyatlar yuksak darajada funksional tabaqalashganligi bilan ajralib turadi: jamiyat hayotining turli sohalari nisbatan erkin, kichik tizimlar (tashkiliy, madaniy-mafkuraviy, meyoriy, axborotkommunikatsiya tizimlari) esa ancha rivojlangan va keng tarmoq otgan bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, real hayetda siyosiy madaniyatning faqat birgina turining sof holda namoyen bo‘lishi juda kam uchraydi. Jumladan, rivojlangan demokratik mamlakatlarda ham siyosiy madaniyatning faol turini sof ko‘rinishda uchratish mushkul va ulardagi fuqarolar kamdankam hollarda bu modelga amal qilib yashaydilar. Ularni siyosatdan yaxshi xabardor yoki siyosatda faol deb ham aytish qiyin. Kupincha siyosiy madaniyat aralashgan holda namoyon bo‘ladi. Masalan, „fuqarolik madaniyati“ tushunchasi ana shunga mos keladi.

Fuqarolik madaniyati siyosiy madaniyatning boshqa turlaridagi ijobiy elementlarni samarali tarzda o‘zlashtirib, siyosiy tartibotning konstruktiv ravishda faoliyat ko‘rsatishiga yordam beradi. Shu jihatdan qaraganda, milliy siyosiy madaniyatlar turli madaniyatlarning ijobiy xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, ya’ni aralashdir

Snyosiy madaniyatning darajalari. Hozirgi zamon siyosatshunos olimlari siyosiy madaniyatning quyidagi uch darajasini qayd etadilar: a) gaffakur qilish, anglash darajasi. Ba’zi adabiyotlarda bu daraja „dunyoqarash darajasi“ deb ham ataladi. Unga jamiyat, guruh

va alohida shaxsning siyosat hamda dunyoning siyosiy manzarasi haqidagi tasavvurlari, shuningdek, siyosiy hayot ishtirokchilari amal qiluvchi normalar, qadriyatlar, ramzlar, koʻrsatmalar kiradi. Bu darajada shaxs siyosat dunyosida oʻz oʻrnini aniqlab oladi; b) fuqarolik darajasi — bu darajada siyosiy madaniyatning asosiy oʻzagi shakllanadi, shaxs siyosiy hokimiyatga nisbatan uz munosabatini belgilaydi.

Inson siyosat dunyosi bilan duch kelib, unga jamiyat siyesiy tuzilishiga nisbatan, siyosiy hokimiyat imkoniyatlariga va vakolatlariga nisbatan oʻz munosabatlarini shaolantirali; v) siyosiy daraja — bu darajada insonning siyosat hodisasiga munosabatlari shakllangan qadriyat darajasiga yetadi. Inson oʻzini siyosatning subyekti sifatida qabul qila boshlaydi.

Siyosin madaniyat modellari.

Siyosatshunoslikda siyosiy madaniyatning quyidagi uch modeli qayd etiladi: 1. Siyosiy madaniyatning totalitar-antorigar modeli — unda shaxsning indipidual jihatlari sun’iy ravishda buziladi, siyosiy qadriyatlar pa siyosiy opg jamiyatla markazlashgan tarzda davlat tomonidan shakllantirilali va shuning asosida davlat manfaatlari inson, ijtimoiy guruhlar manfaatlaridan ustun qoʻyiladi. Bundan tashqari, jamiyatni axborot bilan ta’minlash hokimiyat tomonidan belgilanadi na faqat bir yoʻnalishda olib boriladi, faol siyosiy hayot bir xil qolipla kechadi, jamiyatning siyosiy madaniyati hech qanday muqobilsiz yuqoridan turib shakdlantiriladi, aholi aksariyat qismining siyosiy malaniyati nihoyatda past boʻladi, siyosiy madaniyat tashqi dunyodan sun’iy ajratilgan boʻlib, u „siyosiy-madaniy makon“ sifatida biqiqpigi bilan ajralib turadi.

Siyosny madaniyatning liberal-demokratik modeli — fuqarolar siyesiy huquq va erkinliklarini huquq asosila yuqori darajada roʻyobga chiqarishga yoʻnaltirilganligi bilan ajralib turadi. Bu modelning oʻziga xos xususiyatlari: — jamiyatning siyosiy ongi va qadriyatlari aksilmarkazlashtirilgan holda shakllantiriladi; —

jamiyat keng qamrovli siyosiy axborot tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega boʻladi; — siyosiy tizim yetarli darajala yuqori boʻladi. Umuman, siyosiy madaniyatning liberal-demokratik modeli tashqi siyosiy makonga nisbatan oʻz „ochiqligi“ bilan ajralib turadi. 3. Sharqona siyosiy madaniyat modeli va uniig asosiy xususiyatlari: — siyosiy malaniyatla axloq masalasiga yegakchi e’tibor beriladi;

— Sharq xalqlari siyosiy tafakkurida davlat rahbari siyosatidagi ssholat va insof masalasi hal qiluvchi, markaziy urinni egallaydi; — siyosiy toʻs-toʻpolonlarga nisbatan toqatsizlik, siyosiy muvozanatni saqlash, siyosiy tinchlik va barqarorlikka kuchli moyillik; — kundalik qayotda siyosiy raqbarga suyanish, undan doimo adolat kutib yashash va unga nisbatan chuqur hurmatehtirom koʻrsatish, siyosiy xulq-atvorda kuchli andishalilikni namoyon qilish; — siyosiy erkinlikni axloq meyorlari doirasida qabul qilish; — bagʻriksnglik (tolerantlik), xalqaro totuvlik va ishonchga kuchli moyillik1. I A. Karimov ta’kidlarini keltirish joiz: „Adolat va haqiqatga intilish esa xalqimiz tabiatining eng muhim fazilatlaridan biridir. Oʻtmishda oliy adolat gʻoyasi mansabdor shaxslarga qoʻyiladigan talab va bahoping asosi boʻlgan. U davlatchilik negizlarini belgilash, islomiy qoidalar va shariat meeonlarining poydevorini tashkil etgan“2. Xulosa qilib aytganda, siyosiy madaniyatni ikki murakkab ijtimoiy tizim — siyosat va madaniyat oʻrtasida bogʻlovchi boʻgʻin boʻlib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa deb ta’riflashimiz mumkin. U koʻproqjamiyatga xos boʻlgan siyosiy tasavvurlar, qaratplar, qadriyatlar, an’analar va siyosiy xulq-atvor ramzlarining majmui boʻlib, siyosiy tizimni barqarorlashtiruvchi, ma’rifiylashtiruvchi omil vazifasini bajaradi hamda siyosiy an’analar, urfodatlar. ijtimoiy-tarixiy tajribaning vorisiyligini ta’minlaydi. Siyosiy madaniyatning oʻziga xos jihatlari esa quyidagilardatt iborat: — ommaning siyosiy ongini va siyosiy xulq-atvorini belgilaydi; — jamiyat tarixiy rivojlanishiiiig, jamoaviy siyesiy ijodning mahsuli hisoblanadi; — mahalliy xususiyatga ega boʻlib, takrorlanuvchi barqaror aloqalarni,

siyosiy jarayonning elementlari oʻrtasidagi munosabatlarni qayd etadi, siyosiy tajribani mustahkamlaydi.

Siyosiy madaniyatning asosiy vazifalari Jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratlashtirish orqali har bir insonda oʻz huquq va majburiyatlarini har kuni roʻyobga chiqarishga intiluvchi fuqarolik histuygʻusini tarbiyalash siyosiy madaniyatning eng asosiy vazifasidir. Shaxsning fuqarolik his-tuygʻusi uning faol hayotiy pozitsiyasi bilan uzviy bogʻliq.

Siyosiy madaniyatni oʻzlashtirish jarayonida uning ijtimoiy faolligi ham ortib boradi. Biroq, insonning ijtimoiy faolligi ijtimoiy muhitning bu faollikni „haz.m qilish“ darajasiga ham bogʻliq. Ijtimoiy faolligi bir xil boʻlgan ikki olamni tasavvur qilaylik. Ulardan biri taiqid qabul qilinmaydigan, boshqaruvda fuqarolar ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan jamoada, ikkinchisi esa oʻta qulay sharoitlar yaratilgan jamoada mehnat qiladi. Ularning ijtimoiy faollik mezoni oʻzlariga bogʻliq boʻlmagan sabablarga koʻra har xil boʻladi. Bundan koʻrinadiki, ijtimoiy faollik ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyati boʻlib. u amaliy faoliyat jarayopida voqelikka aylanadi. Shu ma’noda ijtimoiy faollikni „faoliyat mezoni“ga tsnglashtirish toʻgʻri emasligi mutaxassislar tomonidan qayd etiladi.

Faol pozitsiyada shaxsniig muayyan ijtimoiy vaziyatlardagi ijtimoiy faolligi namoyon boʻladi. Bunday pozitsiyaga muayyan ijtimoiy harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki e’tiqodni, jamiyat rivojiga salbiy ta’sir etuvchi hodisalarga nisbatan murosasizlikni, bunday hodisalarga qarshi kurashga tayyorlikni, oʻzi bajarayotgan ish uchun yuksak ijtimoiy mas’uliyatni, jamoa manfaatlarini uz shaxsiy manfaatlari deb bilishni, egalik hissinipg rivojlanganligini kiritish mumkin.

Shaxsda bunday faol ijtimoiy poziiiyani shakllantirish siyosiy madaniyatning vazifasidir. Boshqacha aytganda, siyosiy madaniyat insonni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Vatanparvarlik tuygʻusi

esa nafaqat jang maydonida dushmanga qarshi kurashda, ayni paytda — kundalik tinch hastda ilm-fan sirlarini sabot bilan egallashda yoki uz korxonasida mshnat unumdorligini oshirishda namoyon bo‘ladi.

Siyosiy madaniyapiishg vazifalari. Amaliy siyosatshuposlik siyosiy madaniyat bajaradigan quyidagi vazifalarni e’tirof etadi: Normativ vazifa — individlar, guruhlar va jamoaga muayyan normalar, siyosiy tafakkur va xulq-atvor standartlarini belgilab beradi, siyosiy qadriyatlar ustuvorligining nisbatini o‘rnatadi.

Integrativ (birlashtiruvchilik) vazifasi — ma’naviy sog‘lom va boy jamiyatni, shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu vazifa siyosiy institutlar faoliyati uchun intellektual zamin tayyorlab, ijtimoiy ongning siyosiylashuvi, o‘sishiga yordam beradi, fuqarolarning siyosiy xulq-atvorlari shakllanishida katta rol o‘ynaydi.

Boshqaruvchilik vazifasi — o‘z-o‘zini boshqarish sharoitlarida shaxsiy manfaatlarning yangi bir turini shakllantiradiki, unda ijtimoiy maqsad va vazifalar, sotsial rsjadagi ehtiyojlar aks etadi. Regulyativ (yo‘naltiruvchilik) vazifasi — odamlarning xulq-atvorlari, xatti-harakatlariga va ularning tashkilotlariga bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkazishda o‘zini pamoyon qiladi. Bu vazifa odamlarning siyosiy voqea hodisalarni qanday qabul qilishlariga, siyosiy tizimlarni, uniig tarkibiy qismlarini baholashlariga, undagi siyosiy arboblar faoliyatlariga o‘z munosabatlariii bildirishlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Tarbiyalovchilik vazifasi — egallapgan va yangidan o‘zlashtirilgan siyosiy bilimlarning shaxs intellektual rivojiga ko‘rsatadigan ta’siri jarayonida maydonga chiqadi.

Kommunikativ (aloqa) vazifasi tufayli esa hukmron ijtimoiy ong va ijtimoiy hayotning siyosiy an’apalari yangi, yosh avlodga uzatiladi. Yuqoridagilardan tashqari siyosiy madaniyatning quyidagi vazifalari ham mavjud:

1. Aynan moslashtirish (identifikatsiya) vazifasi — siyosiy madaniyat shaxsda jamiyatga, mamlakatga yoki ma’lum ijtimoiy guruhga mansublik hissini mustahkamlaydi, siyosat institutlari va mexanizmlari orqali shaxs, guruh va jamiyat manfaatlarini ro‘sbga chiqarish vosita va usullarini aniqlashga yordam beradi.

2. Yo‘naltirish vaeifasi — shaxsning siyesiy hodisalarni ongli idrok etishini ta’minlaydi, unga siyosat sohasidagi o‘z o‘rni va imkoniyatlarini yaxshiroq tushunish, o‘z huquq va manfaatlarini muayyan siyosiy tizim doirasida muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishda yordam beradi.

3. Moslashtirish vazifasi — shaxsning o‘zgaruvchi siyosiy vaziyatga, yangi imkoniyatlarga, siyosiy faolnyatdagi u yoki bu cheklashlarga moslashuviga ko‘maklashadi.

4. Ijtimoiylashtirish vazifasi — shaxs jamiyatning siyosiy madaniyatini o‘zlashtirish jarayonida siyosatdagi uz manfaatlarini himoya qilish imkonini beruvchi ko‘nikmalar pa vositalarga ega buladi.

5. Siyosiy hayotni barqarorlashtirish vazifasi — aynap siyosiy madaniyat jamiyat a’zolarida mavjud siyosiy tizim va uning institutlariga nisbatan xayrixoh muposabat shaklanishiga yordam beradi.

6. Birlashtirish vaeifasi — jamiyatniig turli tabaqalari pa guruhlarini umumiy g‘oyalar, tasavvurlar va qadriyatlar asosida birlashtirish orqali davlat va jamiyatning mushtarakligini mustahkamlashga ko‘maklashadi.

7. Aloqalarni ta’minlash pazifasi — hokimiyat institutlari va boshqa siyosat subyektlari (siyosiy partiyalar. ijtimoiy-siyosiy va diniy harakatlar, ijtimoiy tabaqa va guruhlar) umumiy qadriyatlar va siyosatdagi o‘yin qoidalari asosida, shuningdek, umumiy tushunchalar va ramzlardan foydalanish hisobiga o‘zaro hamkorlikni ta’minlaydi.

8. Jamiyatning siyosiy tieimi va siyosiy hayotini yangilash vazifasi — siyosiy madaniyat doirasida shakllangan va qaror topgan jamiyatning sissiy tuzilishini o‘zgartirish haqilagi yangi g‘oyalar yangi siyosiy institutlar, jarasnlar va mexanizmlarning yaratilishiga olib keladi.

9. Siyosiy tuzilishda pa sissiy hayotda vorisiylikni ta’minlash vazifasi — siyosiy madaniyat bunga yangi g‘oyalarni avvalgi siyosiy tajriba bilan bog‘lash orqali erishadi1. Sissiy madaniyatning asosiy vazifalari ana shulardan iborat bo‘lib, jamiyatda bu vazifalarning hammasini birvarakayiga o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan boshqa biron-bir hodisa mavjud emas. Bu vazifalarning tahlili siyosiy madaniyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amal qilishini kursatadi, zotan har bir ijtimoiy hodisa siyosiy yondashuvga muhtojdir. Shuning uchun ham siyosiy madaniyatni ijtimoiy-siyosiy faoliyat sohasi bilan cheklai! mumkin emas. U, kasbi va mansabidan qat’i nazar, har bir odamga zarur.

Siyosiy madaniyat mamlakatimiz fuqarosi ijtimoiy va ma’paviy qisfasining muhim ifodasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekisgon mustaqilligi sharpitida siyosiy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari va uni yuksaltirish muammolari. Adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov ta’kidlaganilek, „Qadimgi Gretsiya Yevropada sivilizaiiya o‘chog‘i sifatida qanday o‘rin tutgan bo‘lsa, O‘ebekiston va o‘zbek xalqi Osiyoda, butun turkiy o‘lkalar va barcha turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday o‘rin egallagan“.

Biroq, XVI—XVII asrlardai boshlangan ijtimoiyiqtisodiy va siyosiy inqiroz tufayli Markaziy Osiyo mintaqasida fuqarolarning hokimiyatdan ajratib qo‘yilgaii, o‘zini-o‘zi idora qilish mexapizmlarining past darajadaligi bilan bog‘liq holda siyosiy madaniyatning o‘ziga xosligi shakllangan. Shu bilan birga, XX asrda totalitar rejim tomonidan butun ichki qatlamlar (savdogar. boy, o‘ziga to‘q dshqonlar. ziyolilar) va xalqning qatag‘on qilinishi, iqtisod rivojidagi bozor muiosabatlaridan voz kechish, kommunistik

mafkurani majburan kiritish siyosiy madaniyatga o‘zining kuchli salbiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Totalitar rejimning bunday siyosati sobiq Ittifoq respublikalarinipg dunyo hamjamiyati bilan madaniy aloqalariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Umuman bunday siyosat sobiq Iggifoqnipg boshqa hududlarida bo‘lgani singari O‘ebekistonda ham madaniyatning bir tomonlama rivojlanishiga olib ksldi. Buning ustiga tarixan jamoaviy qadriyatlar ustuvor bo‘lgan mintaqamizda guruh adolatining individ erkidan ustuvorligi tamoyili birinchi o‘ringa chiqdiki, bu hol hokimiyatni personifikatsiyalashgan holatda idrok qilishni, shuningdek, xarizmatik yetakchiga moyillikning kuchayishini keltirib chiqardi.

Markaziy Osiyo xalqlarining inson va davlat o‘rtasidagi muposabatlariga oid o‘ziga xos tasavvurlarida kundalik hayotda siyosiy rahbarga suyanish, undap doimo adolat kutib yashash va unga nisbatan chuqur hurmat va ehtirom ko‘rsatish, siyosiy xulq atvorda kuchli andishalilikni namoyon qilish an’anaviy xususiyatga egadir. Biroq XXI asr siyosiy sahnasidati ziddiyatli o‘zgarishlar va mavjud realliklar siyosiy madaniyat fenomeniga chuqur e’tibor bilan qarashni taqozo etmoqpa. Chunki, aholisi ongiga demokratik an’analar singib ketgan, hokimiyat ustidap pazorat yurituvchi samarali institutlar mavjud bo‘lgan davlatlarda ayrim fuqarolarping siyesatga befarqligi aytarli muammolar tug‘dirmasa-da, yaqindagina mustabidlik tartiblarini kechirgan mamlakatda fuqarolarping siyosatdan ommaviy uzoqlashishi og‘ir ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun demokratik sissiy ta’limni kuchaytirish lozim, zero demokratik tuzum aholining tegishli siyosiy madaniyatisiz o‘rnatilishi va samarali bo‘lishi mumkin zmas.

Demokratik siyosiy ta’lim qanchalik samarali bo‘lsa, fuqaro o‘zi yashastgan ijtnmoiy tuzumni shunchalik to‘g‘ri baholab, davlatdagi o‘z o‘rni va rolini, huquq va majburiyatlarini chuqurroq anglaydi. Yuksak sissiy madaniyatgina insonni hozirgi murakkab dunyoda

oqilona yo‘l topa bilishga. boshqalarning manfaatlarini yuzaga chiqarish va himoya qilishga, umumiy muammmolarni jamoa bilan hal qilishga imkon beradi.

O‘zbekistonning ko‘p asrlik tarixi davomida o‘ziga xos siyosiy madaniyat shakllangan. Bu quyidagi omillar ta’sirida sodir bo‘lgan: 1) respublikaning o‘ziga xos jug‘rofiy-siyosiy o‘rni, o‘tmishda o‘lkamizga qilingan bosqinchilik urushlari, uzluksiz urush tahdidi yoki mustamlaka zulmi natijasida o‘zbekistonliklarda siyosiy ong G‘arbdagiga nisbatan o‘zgacha shakllandi; 2) islom dini an’analari va madaniyati ta’sirida jamoaviy turmush tarzi va shakllari ko‘proq rivojlandi; 3) mustabid sho‘ro tuzumi davridagi ma’muriy-buyruqbozlik tazyiqi va cheklashlarning natijasi o‘laroq, jamiyatda kundalik turmush muammolarini hal qilishda o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi tartibga solish keng rivoj topmadi. Biroq, mustaqillik yillarida mamlakat xavfsizligini mustahkamlash, turli terrorchi guruhlar buzg‘unchiliklarini oldini olish va bartaraf etish jarayonida fuqarolarda jipslashish va o‘z kuchlarini safarbar etish qobiliyati ancha to‘liq shakllandi.

Mutaxassislarning bashoratlariga ko‘ra, XXI asrda iqtisodning rivojlanishi va jadal o‘sishi hisobiga O‘zbekistonning siyosiy madaniyati o‘zgarsa ham, u „ishtirokchilik“ (faol siyosiy madaniyat) elementlari yetakchilik qiluvchi „fuqarolar“ madaniyatini eslatsa kerak. Ammo hozirgi kunda O‘zbekiston fuqarolarining siyosiy madaniyati klassik tipologiyaga ko‘ra, argshash tipga mansubdir. Bir tomondan, xalq saylov jarayonlarida faol ishtirok etadi (respublikssha o‘tkaziladigan sayloplarda o‘rta hisobda ovoz berish huquqiga ega bo‘lgap mamlakat aholnsining 90— 92 % qatnashadi), ammo, boshqa tomopdan, odamlarda „aynan mening opozim umumiy natijada hech narsani hal qilmaydi“, degan qarash ham ancha keng tarqalgan.

Yuqoridagi omillar O‘zbekistondagi siyosiy madaniyatning quyidagi umumiy xususiyatlarini bslgilab berdi: birinchidap, alohida

shaxs manfaatlarinipg jamiyat va davlat manfaatlariga hamohangligi; ikkinchidan, ijtimoiy muammolarni hal qilishda davlatning va jamiyatning hal qiluvchi roli e’tirof etilishi; uchinchidan, hokimiyatga an’anaviy hurmat munosabatinint mavjudligi, rahbarning ma’naviy qisfasiga yuksak talablar quyish; to‘rtinchidan, parlamsnt va boshqa vakillik organlarining ijtimoiy hayotdagi roliga e’tiborli munosabatning mavjudligi. Hozirgi zamon O‘zbekiston siyosiy madannyatining xususiyati shundaki, unda ilg‘or fuqarolik madaniyatining elementlari teran ildiz otmoqsa, jadal rivojlanmoqda; siyosiy partiyalar parlament doirasida o‘z maqsadlariga erishish hamda bahslashish madaniyatini o‘zlashtirmoqdalar. Shu ma’noda siyosiy madaniyat yurtimizda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashning muhim omilidir.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni barpo etishning eng muhim vazifalaridan biri mavjud siyosiy madaniyatni demokratik qadriyatlar negizida rivojlantirish, ma’napiy erkinlik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonda fuqarolar faolligini oshirishga imkop yaratish masalasiga borib taqaladi. Bu vazifaning bajarilishi esa G‘arb davlatlaridagi kabi hokimiyat faoliyatini nazorat qilishning samarali mexanizmini shakllantirishga olib keladi.

Tayanch tushunchalar: madaniyat, siyosiy madaniyat, milliy meros, siyosiy tajriba, siyosiy opg, siyesiy xulq-atvor, demokratik siyosiy madaniyat, avtoritar siyosiy madaniyat, totalitar siyosiy madaniyat, utish davriga xos siyosiy madaniyat, patriarxal madaniyat, tobelik madaniyati, faol madaniyat, siyosiy madaniyatning „yopiq“ turi, siyosiy madaniyatning „ochiq“ turi, „fuqarolik madaniyati“, siyosiy madaniyat darajalari — tafakkur qilish, fuqarolik, siyosiy darajalar, siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar modeli, siyosiy madaniyatning liberal-demokratik modeli, sharqona siyosiy madapiyat modeli, normativ vazifa, integrativ (birlashtiruvchilik) vazifasi, boshqaruvchilik vazifasi, regulyativ

(yo‘paltiruvchilik) vazifasi, tarbiyalovchilik vazifasi, kommunikativ (aloqa) vazifasi, demokratik siyosiy ta’lim, volyuntarizm.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. „Madaniyat, „siyosiy madaniyat" tushunchalari mohiyati va ular urtasidagi uzviy aloqadorlikni tushuntiring.

2. O‘zbekistonda fuqarolar siyosiy madaniyatini oshirishning dolzarbligini Siz qanday izohlaysiz?

3 Siyosiy madaniyat demokratiyaning qad rostlashi va rivojlanishiga qanday hissa qushadi?

4. Hokimiyatning madaniylashuvida legitimlik qanday o‘rin tutadi?

5. Siyosiy madaniyat hodisasi tahliliga bag‘ishlangan qanday ilmiy adabiyotlarni bilasiz?

6 Siyosiy madaniyat qanday tarkibiy tuzilishga ega?

7. Siyosiy madaniyatni turkumlashda qanday mezonlarga asoslanish mumkin?

8. Siyosiy madaniyagning „yopiq“ va „ochiq“ turlarini o‘zaro taqqoslang.

9. Siyosiy madaniyatning patriarxal, tobelik va faol turlariga xos xususiyatlar nimalardan iborat?

10. Hozirgi zamon siyosatshunos olimlari siyosiy madaniyatning qanday darajalarini qayd etadilar?

11. Sissiy madaniyatning totalitar-avtoritar, liberal-demokratik va sharqopa modellarnni o‘zaro taqqoslang.

12. O‘zbekiston Respublikasida sharqona siyosiy madaniyatga xos qanday xususiyatlar ko‘zga tashlanadi?

13. O‘zbekiston fuqarolarining snyosiy madaniyati klassik tipologiyaga kura, aralash tipga mapsubdir. Siz bu jumlalarni qanday tushunasiz?

14. O‘zbskistondagi siyosiy madaniyat qanday umumiy xususiyatlarga ega?

15. Siyosiy madaniyatning asosiy vazifalari nimalardan iborat.

9-mavzu. MISSIONERLIK VA PROZELITIZM – TOLERANTLIKKA QARSHI G‘AYRIDEMOKRATIK JARAYON SIFATIDA

REJA

1. Missionerlik va prozelitizm tushunchalari hamda ularning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri.

2. Missionerlik va prozelitizm faoliyatiga huquqiy va diniy raddiyalar.

3. Tolerantlik.

4. Missionerlikka qarshi kurashda mavkuraviy immunitet.

Missionerlik deganda nima tushunamiz?

Missionerlik (missiya-lotincha yuborish, topshiriq)-biror dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dini targ‘ib qilish demakdir.

Missionerlik asosan, xristianlikka xos bo‘lib, bu xarakat xristianlik Vizantiya imperasida davlat dini sifatida e’lon qiliganidan e’tiboran olib boriladi. Mazkur xarakatning ilk davrida xristian missionerlari o‘zlarining missionerlik xarakatlarini Yevropa va Yaqin Sharqdagi ko‘p xudolikka sig‘inib kelgan aholini yakka xudolikka tarqib qilishdan iborat deb ko‘rsatganlar.

Keyinchalik bunday qarashlari eskirdi, xususan hozirgi vaqtda kelib, jahon aholisining deyarlik 80-90 foizi o‘z diniga, aksariyat hollarda yakka xudolikka ega bo‘lgan davrda «missionerlik» va ayniqsa, «prozelitizim» salbiy bir holatga aylanib qoldi.

Bugunki kunda O‘zbekiston misolida oladigan bo‘lsak, mahalliy xristian diniy tashkilotlarining «misionerlik» xarakatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahalliy-tub aholini «yevangelizatsiya» qilishga, ya’ni o‘z diniga og‘dirishga qaratilgani namoyon bo‘ladi.

O‘sha davrdagi yevangellashtirshni bugungi kunda hududimizda tatbiq etish to‘g‘ri bo‘larmikan va shartmikan? bugungi kunda mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamiz fuqarolarning 99 foizi

oʻzini qaysidir bir diniy yoʻnalishiga tegishligini maʼlum qilgan, shundan 90 foiziga yaqini musulmonlar, 7-8 foizini pravoslavlar va boshqa din vakillari tashkil etadilar. Mazkur fuqarorlarning deyarli hammasi yakka xudolikka ishonadilar. Garchi shunday ekan, ularni yana qanaqangi yakka xudolik, «haqiqiy» dinga yetaklash mumkin.

Xristian missionerlik tashkilotlarning maqsadlari asosan uch nuqtaga qaratilgan:

1.Xalqlarni xristianlashtirish. Shu orqali ularni iqtisodiy, siyosiy va maʼnaviy jihatdan gʻarb davlatlari taʼsir doirasiga tushurish.

2.Xalqlar oʻrtasida oʻz eʼtiqodiga shubha uygʻotish ishonch va eʼtiqoddan yuz oʻgirish va undan chiqqishiga olib kelish.

3.Xristianlikni qabul qilganlarni oʻz eʼtiqodida qattiq turishini taʼminlash va shu orqali ularning safini «Yangi xristianlar» bilan toʻldirish.

Bu maqsadlarga erishish uchun ular hech nimani ayamaydilar va doimo oʻz uslub va metodlarini takomillashtirib boradilar, jumladan mamlakatimiz hududida faoliyat yuritayotgan baʼzi xristian diniy tashkilotlari quyidagi usullaridan oʻzlarining missionerlik xarakatlarida foydalanadilar:

-xayriya yordamini koʻrsatish, bunga birinchi navbatda moddiy yordam kiradi, tibbiy yordam, dori-darmon topib berish hamda oziq-ovqat bilan taʼminlash ham xayriya yordami hisoblanadi. Bunday harakatlari bilan ular oʻzlari haqida ijobiy xulosa yoki bahoga ega boʻladilar. Hamkorlikni yoʻlga qoʻyishga muvaffaq boʻladilar:

-bepul xristianlikni targʻib qiluvchi mahalliy tilda chop etilgan, juda sifatli rangli ishlangan kitob va jurnallarni tarqatish.

-xristianlikga chaqiruvchi video-audio kassetalarni tarqatish;

-tibbiy, taʼlim-tarbiya sohasiga maxsus kadrlarni yuborish (tibbiy xizmatchi, oʻqituvchi-murabbiy);

-missionerlik ruhidagi kutubxona, ingliz tili va kompyuter oʻrgatish xonalarini tashkil etish;

-o‘z saflariga qo‘shilganlarni moddiy rag‘batlantirish, ularni xorijiy safarlarga yuborish va ish bilan ta’minlash.

Missionerlik harakatida yana bir holatini alohida ajratish lozim. Bu ma’lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olish va bilan maqsadli ish olib borish. Jumladan, yoshlar bilan ishlashning turli missiyalari mavjud bo‘lib, ulardan biri bolalar uchun xristian lagerlarini tashkil qilish. «Xalqaro xristian lagerlari» assotsiatsiyasining bugungi kunda 200 ga yaqin lagerlari mavjud. O‘zbekistonda ham ularning borligi 90-yillarda kuzatilgan. Nukusda «Emanuel» tashkiloti lager tashkil qilgan uchun yopilgan.

(Qozog‘istonda «Niva» lageri («Jatva» cherkoviga oid) da oxirgi 5 yil ichida 3000 ta bola dam olgan. Ularning 80 % e’tiqod qilmaydiganlar oilasidan bo‘lgan. Lager dasturiga ko‘ra, lager mavsumi tugashiga borib (15 kun ichida), dam oluvchilarning yarmi Iso Masihni tan olgan).

Missionerlikning bizning respublikaga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri-bu xristian diniy tashkilotlarida o‘zbek va boshqa mahalliy tillarda diniy ibodatlar olib borishga harakat qilishdir.

Ikkinchisi-bu mahalliy millat vakillari orasida o‘zbek va boshqa mahalliy tillardagi diniy adabiyotlarni tarqatish va ulardan foydalanish: «U murabbiydir», «Xudo tayin qilgan qurbonlik», «Iso Masihning shogirdlari «Xudo» so‘zi o‘rnida «Alloh» so‘zini ishlatilari mumkinmi?», «Xudo muqaddas uchlikda birlashgan», «Shaxsan menga Xudo murojaat qilyapti», «U sizni sevadi» va x.z.

Mazkur ko‘riinishdagi missionerlik harakatini eng ko‘p olib boradiganlar, hozirgi kunda, bu «Iyegov shohidlari» diniy tashkiloti vakillaridir. Ularning vakillarini jamoat joylarida, xiyobon va mahallalarda ochiqdan-ochiq missionerlik ruhidagi adabiyotlarini tarqatishlarini kuzatish mumkin.

Missionerlik bilan faol shug‘ullanuvchi «Iyegov shohidlari» sektasida ta’sir etish mexanizmlari aniq va lo‘nda qilib ishlangan. Bu

yo‘nalish 19-asrning 70-yillarida AQShda vujudga kelgan. Bugungi kunda jahonning turli mamlakatlarida 100 ga yaqin bo‘linmalariga ega. Bu tashkilot qat’iy markazlashgan bo‘lib, uning boshqaruvchi raisi cheklanmagan hokimiyatga ega. Yuqoridan pastga ko‘rsatmalar va adabiyotlar, pastdan yuqoriga hisobotlar yuborib turiladi. «Iyegov shohidlari» o‘zining matbuot organiga ega. «Posbon minora», «Uyg‘on». Bu jurnallar jahon xalqlarining 160 dan ziyod tilida nashr qilinib, dunyoning turli burchaklarida tarqatiladi.

Ularning tarqatayotgan adabiyotlari didli, rangli va chiroyli manzaralar bilan tasvirlangan. «Jalb etuvchilar»ning ovoz ohanglari tinchlantiruvchi va mehrli sado etadi. Mutaxassislarning aytishicha, «Iyegov shohidlari» sektasi a’zolari jalb etishning 86 xil usulidan foydalanar ekanlar.

Ular ko‘pincha quyidagi turdagi kishilarni o‘z ta’sir doiralariga olishga urinadilar.

-birinchi va to‘rtinchi kurs talabalari;

-keksalar, ayniqsa, endigina nafaqaga chiqqanlar va yolg‘iz qariyalar;

-o‘z o‘rnini topishga intilayotgan o‘smirlar;

-kuchli stressni (kasallik, yaqin odamining vafoti, ajralish va x.k.) boshidan kechirayotganlar;

-qochoqlar, bemorlar va ishsizlar.

Yana bir missionerlik harakati bilan shug‘ullanayotgan diniy tashkilot «To‘liq injil xristian cherkovi»dir. Ular ba’zi ibodat uylarida o‘zbek tilida ibodatlarni olib bormoqdalar, modiy yordam ko‘rsatish orqali o‘z dinlariga da’vat qilishga harakat qilmoqdalar.

Missionerlik faoliyatining eng cho‘qqisi bu prozelitizm. Prozelitizm - bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron bir dinga ishongan fuqaroni majburan o‘z dinidan voz kechtirish va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iborat.

Prozelitizm illatining ba’zi bir noxush natijalarini keltirish mumkin: bir qancha vaqt islom dinida yurib, keyin xristian dinini

qabul qilgan kishilar vafot etganda, jasadlarini musulmon qarlariga qo‘yish muammo tug‘dirmoqda. Sababi, mayitning musulmon ota-onalari o‘z farzandlarini xristian mozoriga dafn etishni xohlamaydilar. Musulmonlar esa, xristian dini vakili jasadini o‘z musulmon birodarlari yotgan joyga ular uchun haqorat deb biladilar. Natijada kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

Missionerlik qonun orqali ta’qib qilinib turiladi: O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligi qonunan kafolatlangan. Har bir fuqaro xohlagan diniga e’tiqod qilishi mumkin. Davlat va diniy tashkilotlar bir-biridan ajratilgan. Shu bilan birga diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik, totuvlik va daxlsizlikni ta’minlash maqsadida prozelitizm (bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qatilgan xatti-harakatlar) va har qanday missionerlik faoliyati qonunan man etilgan.

Ushbu qoidaning buzlishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun oldida javobgarlikka tortiladilar.(Jinoyat kodeksining 216(1), 216(2) moddalari)

Aholining, xususan soha mutaxassislarining, missionerlik xaqida ma’lumotga ega bo‘lishlari ularning burch va vazifalari sanaladi. Chunki yurtboshimiz ta’kidlaganidek: “Islom-bu ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz dini. Uni tashqi ta’sir, buzg‘unchi unsurlardan tozalash muqaddas burch sanaladi.”

Mustaqil respublikamizdagi ayrim oilalarning, xususan, yoshlarning ota-bobalarimizning muqaddas islom dinidan voz kechib, xristian missionerlari domiga ilinayotganini inobatga olsak, bu faoliyat tinch-totuv yashayotgan xalqimiz o‘rtasiga solinayotgan rahna-adovat ekani kunday ravshan bo‘lib qoladi.

Missionerlik ta’siriga tushib qolmaslik uchun ham uni bilishimiz, u haqida quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz lozim ekan.

Birinchidan, xushyor bo‘lishimiz, loqaydlikka berilmasligimiz kerak bo‘ladi, chunki “Vatan”, “millat”, “imon-e’tiqod” bu muqaddas tushunchalardir. Uni hech narsaga almashtirib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, har bir inson biror narsa haqida to‘g‘ri tushunchaga ega bo‘lishi darkor. Hech kimning biror narsani, hatto dinni ham noto‘g‘ri, yanglish va bo‘yab talqin qilishga xaqqi yo‘q va bo‘lmasligi kerak.

Uchinchidan va eng muhimi musulmonlar uchun nima kerak va muhim va nojoiz va kerak emasligini yana bir eslatib qo‘yish lozim bo‘ladi.

Missionerlik va prozelitizmning ma’naviy barqarorlikka tahdidi hamda uning oldini olish masalalari

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng barcha sohalarda bo‘lgani kabi shaxsning e’tiqod erkinligi sohasida ham bir qator huquqiy kafolatlar yaratildi. Xususan, yurtimizda shaxsning bunday huquqi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Binobarin, Konstitutsiyamizning 31-moddasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanishi, har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga egaligi va diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yildi.

Qolaversa, vijdon erkinligi sohasida maxsus qonun qabul qilinib, unda har bir shaxsning diniy e’tiqod huquqi, dinga munosabatidan qat’i nazar, fuqarolarning tengligini ta’minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog‘liq munosabatlar tartibga solindi.

Jumladan, 1998 yil 1 mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi (yangi tahrir) Qonunining 5-moddasiga muvofiq, davlatning diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlashi kafolatlandi. Shuningdek, Qonunning mazkur moddasiga asosan bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etildi.

Xo‘sh, missionerlik o‘zi nima? Missionerlik lotin tilidan “missio”, ya’ni “jo‘natish”, “topshiriq” so‘zidan olingan bo‘lib, diniy tashkilot

shakllaridan biridir. Uning maqsadi hech qaysi dinga e’tiqod qilmaydiganlar yoki boshqa dinlarga mansub shaxslarni muayyan dinga kiritishdir. Aslida esa missionerlar muayyan ijtimoiy guruhning siyosiy maqsadlarini amalga oshirishni o‘z oldilariga vazifa sifatida qo‘yadilar.

Missionerlik faoliyati boshqa davlatlarda amalga oshirilishi bilan ta’riflanadigan “tashqi” missiya hamda dinsiz va boshqa dinga mansub shaxslar orasida davlatning o‘z hududida amalga oshirilishini nazarda tutuvchi “ichki” missiyaga bo‘linadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, missionerlik faoliyati turli dinlarga mansub guruh va jamoalar faoliyatida kuzatilganligini ko‘rish mumkin. Masalan, buddizmda missionerlik ko‘plab hollarda sayyor monaxlar tomonidan amalga oshirilib, miloddan avvalgi III asrdan boshlab tarqalgan. Xristian missionerligi milodiy IV asrda paydo bo‘lib, XIII-XIV asrlarda u Hindiston, Xitoy va Yaponiyagacha kirib kelgan.

Katoliklar cherkovining missionerligi ispan va portugal mustamlaka imperiyalar vujudga kelishidan keyin o‘z faoliyatini kuchaytirgan (XV-XVI asrlar).

AQShda missionerlik tashkilotlari XIX asr boshida paydo bo‘lgan. Imperialistik davlatlar jahonni bo‘lib olish uchun kurash olib borgan davrni o‘z ichiga olgan XIX asrning oxirgi uchdan birida missionerlik faollashgan.

Missionerlik faoliyatining eng cho‘qqisi bu prozelitizm. Prozelitizm – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron bir dinga ishongan fuqaroni majburan o‘z dinidan voz kechtirish va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iborat.

Prozelitizm illatining ba’zi bir noxush natijalarini keltirish mumkin: Misol uchun, bir qancha vaqt islom dinida yurib, keyinchalik boshqa dinni qabul qilgan kishilar vafot etganda, jasadlarini musulmon qabrlariga qo‘yish muammo tug‘diradi. Sababi, mayitning musulmon ota-onalari o‘z farzandlarini noislomiy

din vakillarining mozoriga dafn etishni xohlamaydilar. Musulmonlar esa, noislomiy din vakilining jasadini oʻz musulmon birodarlari yotgan joyga dafn etishni istamaydilar. Natijada kelishmovchiliklar kelib chiqadi.

Missionerlik faoliyati bir nechta maqsadni koʻzlab amalga oshirilishi mumkin. Masalan,

- boshqa xalq vakillarini oʻz diniga kiritish. Ushbu gʻoya orqali oʻzga dinlarga e'tiqod qiluvchi shaxslarni iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan gʻarb davlatlari ta'sir doirasiga tushirib olish;

- ma'lum xalqlar oʻrtasida oʻz e'tiqodiga nisbatan shubha paydo qilish va asta-sekin ishonch – e'tiqodidan voz kechishga olib kelish va shu orqali oʻzlarining saflarini yanada kengaytirib borish va boshq.

Ushbu maqsadlariga erishish uchun missionerlar barcha uslub va metodlarni qoʻllashga tayyor boʻladilar. Jumladan, ular ataylab ayrim jismoniy xastalik (nogironlik) oqibatida ogʻir ruhiy holatga tushib qolgan va hayotda biroz moddiy qiyinchiliklarga uchrab turgan shaxslarni topib olib, ularga turli shakldagi moddiy yordamlar koʻrsatadilar. Ularning koʻnglini har tomonlama olishga urinadilar. Bunday "sa'y-harakat"lari bilan ular mahalliy aholi oʻrtasida oʻzlari haqida ijobiy fikr uygʻotadilar.

Shuningdek, mahalliy xalq oʻrtasida ularning ona tilida chop etilgan ancha chiroyli, rangli-bezakli muqovadagi kitob va jurnallarni bepul tarqatib, ularda bosilgan maqola – materiallarda tub aholiga mutlaqo yot boʻlgan oʻzga dinlar gʻoyalarini targʻib qiladilar. Missonerlar boshqa dinlarga kirishga chaqiruvchi lavhalar aks etgan video-audio kassetalarni aholiga bepul tarqatadilar.

Bundan tashqari, ular turli san'at asarlari koʻrgazmalarini, sport oʻyinlari musobaqalarini tashkil etish va ushbu tadbirlar ishtirokchilariga qimmatbaho sovgʻalar ulashish, ayrim tibbiyot va ta'lim-tarbiya muassasalariga malakali mutaxassis kadrlarni "ish"ga yuborish, yakka-yolgʻiz va oʻzgalar yordamiga muhtoj boʻlgan

shaxslarga koʻngilochar maktublar yoʻllash, yoshlar tashkilotlari bilan oʻzaro “hamkorlik” oʻrnatish, kompyuter yoki chet tillarini oʻrgatish klublarini tashkil etish, oʻz saflariga qoʻshilganlarni tez-tez moddiy ragʻbatlantirib turish va xorijiy mamlakatlarga oʻqish yoki malaka oshirish safariga yuborish hamda ishga joylashishga koʻmaklashadilar.

Biroq, ularning bunday harakatlari milliy ma’naviy barqarorlikka tahdid soladi. Bordi-yu missionerlar yuqorida koʻrsatib oʻtilgan maqsadlariga erishadigan boʻlsalar, mamlakatda xalqning parokandalikka yuz tutishi va ma’naviy tanazzulning kelib chiqishi tayin.

Chunki, din – bu milliy ma’naviyatning tarkibiy qismi, millatni birlashtirib turuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Missionerlik aynan shunday diniy qarashlarga oʻz ta’sirini oʻtkazib xalqning barqarorligini buzadi. Aynan shuning uchun ham respublikamizda prozelitizm va boshqa missionerlik faoliyati qonun bilan ta’qiqlab qoʻyilgan. Bunday faoliyatni amalga oshirgan shaxslarga Oʻzbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksning 240-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solinadi yoki oʻn besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olinadi.

Ushbu faoliyat takrorlangan taqdirda esa, aybdor shaxslar Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2162-moddasi ikkinchi qismiga asosan eng kam ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ta’kidlash joizki, missionerlik vujudga keltiradigan tahdidlardan bugungi kunda hech bir mintaqa, hech bir davlat xoli emas. Afsuski, faqat ayrim mamlakatlargina bunday illatning oldini olishga harakat qilib, boshqalari esa aksincha, missionerlik

faoliyatiga qonun bilan ruxsat berib qo‘yishgan. Masalan, Armaniston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunida (8-modda) prozelitizmning ta’qiqlanganligi ko‘rsatilgan bo‘lsa, Ukraina va Belorussiyaning bu boradagi qonunchiligida “missionerlik jamiyatlari” faoliyatiga diniy tashkilot sifatida rasman ruxsat etilgan.

Missionerlik insonning konstitutsiyaviy huquqi bo‘lmish fikrlash va vijdon erkinligiga qarshi chiqar ekan, uning oldini olishga qaratilgan harakatlarni davlat tomonidan olib borilishi taqozo etiladi.

Ta’kidlash joizki, milliy qonunchiligimizda missionerlik va prozelitizmga qarshi normalar hamda bunday harakatlar uchun jazo choralarining nazarda tutilishi bilan ushbu faoliyatga butunlay chek qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday holatlarning oldini olish uchun missionerlikning mohiyatini to‘g‘ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo‘lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo‘ladi. Ayniqsa, yoshlarimizning axborot bo‘shlig‘ini turli tashqi tahdidlardan asrashimiz, buning uchun esa ularda mafkuraviy immunitetning shakllanishiga sharoit yaratishimiz va ularni miliy-ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashimiz lozim bo‘ladi.

Ushbu so‘z lotin tilidagi «missio» fe’lidan olingan bo‘lib, «yuborish», «vazifa topshirish», missioner esa "vazifani bajaruvchi” degan ma’nolarni anglatadi. Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildiradi.

Umuman olganda, turli lug‘atlar va manbalarda bayon etilgan ta’riflar bir-biriga juda yaqin va o‘xshash bo‘lib, ularga tayangan holda quyidagi xulosani chiqarish mumkin: missionerlik - bir dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib qilishni anglatadi.

Prozelitizm - bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron bir dinga ishongan fuqaroni o‘z dinidan voz kechishga va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iboratdir.

Missionerlarning bugungi kundagi faoliyati hech bir mintaqa, hech bir davlat bunday tahdiddan holi emasligini ko‘rsatadi. Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini to‘g‘ri va chuqurroq anglash, uni bartaraf etish yo‘lida maqsadli, tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda missionerlar o‘z targ‘ibot faoliyatlarida yangi, zamonaviy usul va vositalardan, jumladan, zamonaviy tele, audio, video, radio va kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanmoqdalar.

Uyma-uy yurib «Xushhabar» yetkazish, ya’ni odamlar bilan kunning dolzarb muammolari haqida suhbatlashish, ularning dardlariga qiziqish bildirish va ushbu muammolardan chiqish yo‘llarini ko‘rsatib berishni taklif qilib, o‘z tashkilotlariga jalb qilish missionerlikdagi yaxshi samara beradigan usullardan biri hisoblanadi. Ushbu usuldan faol foydalayotgan "Iyegovo shohidlari” oqimi a’zolari, o‘zlarini Iso Masih o‘z havoriylariga buyurgan yo‘ldan foydalanayotganlarini ta’kidlashadi.

Missionerlikda mahalliy tillarda xristianlikni targ‘ib qiluvchi adabiyotlarni chop qilish va tarqatish ham eng ko‘p qo‘llaniladigan usullardan biri hisoblanadi. Kichik hajmdagi qo‘llanmalar juda ham ta’sirchan qilib yoziladi va odamlarning e’tiborini jalb qilish uchun chiroyli suratlarga boy bo‘ladi.

Ularda dinni qabul qilish ochiq-oydin taklif qilinmaydi. Ammo adabiyot oxirida qo‘shimcha ma’lumot olish uchun tashkilot manzili yoki telefoni keltiriladiki, risolani o‘qigan va diniy bilmi sayoz bo‘lgan inson bu narsaga uchishi mumkin.

Masalan, «Iyegovo shohidlari» tashkiloti tomonidan tarqatilgan kitobchalarning birida shunday yozilgan: "Albatta, Iyehovo shohidlarining butun ta’limotini ushbu kichik kitobda qamrab

olishning iloji yoʻq, lekin biz sizga qoʻshimcha ma’lumotga ega boʻlishingiz uchun turar joyingizda istiqomat qiluvchi Iyehovaning shohidlariga murojaat qilishingizni taklif etamiz”.

Yuzaki qaraganda, bunday usul yaxshi natija bermaydigandek tuyuladi. Aslidachi? Ma’lumotlarga koʻra, 200 dan ortiq mamlakatda Toʻliq Injil xristianlariga qarashli 120 dan ortiq Bibliya jamiyatlari faoliyat yuritadi. Ushbu oqimga kirgan yangi vakillarning yarmidan koʻpi dinni qabul qilishlarini xristian adabiyotlari ta’siri bilan bogʻlashlari esa yuqoridagi uslubning nechogʻlik samarali ekanini koʻrsatadi.

Adabiyotlarni olib kirish va tarqatish koʻpincha mavjud qonunlarga zid ravishda amalga oshiriladi. Masalan, Tojikistonda protestant diniy adabiyotlarini tarqatish bilan Ukrainadan kelgan "Din soʻzi” nomli tashkilot shugʻullanadi. Ushbu tashkilot Tojikistonda Bibliya yilini e’lon qilgani va har bir protestantga kamida bitta boshqa din vakilini Bibliya bilan tanishtirishni vazifa qilib qoʻygani bu yoʻldagi harakatlar aniq maqsadlarga qaratilgan holda tashkil etilayotganini koʻrsatadi.

Xayriya yordamlari koʻrsatish ham missionerlikdagi eng qadimiy va samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunda turli xil ma’rifiy tadbirlar uyushtirilib, ularga asosan yoshlar jalb etiladi.

Ishtirokchilarga xristian adabiyotlarini ham oʻz ichiga olgan sovgʻalar ulashiladi, tadbir soʻngida albatta ibodat va Bibliya oʻqish ham boʻladi. Zilzila, toshqin, ocharchilik kabi ofatlarning sodir boʻlishi missionerlar uchun ayni muddao hisoblanadi. Qayerda yuqoridagidek holatlar yuz bersa oʻsha yerga birinchi boʻlib missionerlar yetib borishadi.

Dastlab ular oʻzlarini begʻaraz yordam koʻrsatayotganlarini koʻz-koʻz qilib, asta-sekin asl maqsadlarini koʻrsatadilar. Aslida missionerlar hechqachon, hech kimga begʻaraz yordam koʻrsatmaganlari va koʻrsatmasliklarini ham unutmaslik lozim.

Tibbiy va ta’lim-tarbiya sohalariga maxsus kadrlarni yuborish ham eng qadimiy usullardan biridir. Hozirgi kunda bir qator missioner jamoalar ushbu usuldan samarali foydalanishmoqda.

Missionerlarning yoshlar bilan ishlashda bir necha usullari mavjud: talabalar, bolalar uchun missiyalar, yozgi oromgohlar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda "Xalqaro xristian oromgohlari” assotsiatsiyasiga MDH ning 7 mamlakatida 177 oromgoh a’zo bo‘lgan. Ushbu oromgohlar dasturi shunday ishlab chiqilganki, mavsum oxiriga borib u yerda dam olgan bola xristianliknini qabul qiladi.

Hozirgi kunda misssionerlik tashkilotlari xristianlikni targ‘ib qilishda audio, video va elektron mahsulotlar, ro‘znoma va oynomalar, teledasturlar, internetda onlayn o‘quv kurslari tashkil etish yo‘llaridan ham faol foydalanmoqda.

Internet tarmog‘ida ham missioner tashkilotlar o‘z sahifalariga ega. Ushbu saytlarda missionerlarga turli maslahatlar, jumladan musulmonlarni protestantlikka o‘tkazish haqida tegishli ko‘rsatmalar va missiologiya bo‘yicha o‘quv kurslari berib boriladi.

Din milliy ma’naviyatning tarkibiy qismi, millatni birlashtirib turuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bir tilda gaplashadigan, umumiy tarix va yagona davlatga ega bo‘lgan, ammo turli dinlarga yoki diniy yo‘nalishlarga e’tiqod qiladigan millatlar hamon ichki milliy birlikni ta’minlay olmayotgani, kichkina bir sabab qayta-qayta nizoli vaziyatlar va fuqarolar urushining kelib chiqishiga zamin yaratayotgani va mamlakatlar o‘z taraqqiyotida o‘nlab yillarga orqada qolib ketayotgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Shu sababli uchragan notanish shaxslarni dinni targ‘ib qilishga bo‘lgan intilishlari haqidagi qiziqishlariga karshi oilada kurashsak o‘zligimizni, milliy qadriyatlarimizni, bobolarimizdan me’ros qolib kelayotgan milliy bayramalarimizni va eng asosiysi "o‘zbek” xalqini kelajigini buyuk bulishiga katta hissa qo‘shgan bo‘lardingiz.

Missionerlik va prozelitizm salbiy oqibatlari

Missionerlik haqida gap ketar ekan avvalo ushbu tushunchaning lugʻaviy manosini tushunib olish muhim ahamiyatga egaligini alohida qayd etish lozim.Ushbu soʻz lotin tilidagi “missio”felidan olingan boʻlib “yuborish” “vazifa topshirish” missioner esa “ vazifani bajaruvchi” degan manolarni anglatadi.Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildiradi.

Umuman olganda turli lugʻatlar va manbaalarda bayon etilgan tariflar bir-biriga juda yaqin va oʻxshash boʻlib ularga tayangan holda quyidagi xulosani chiqarish mumkin ; missionerlik –bir dinga etiqod qiluvchi xalqlar oʻrtasida boshqa bir dinni targʻib qilishni anglatadi.

Prozelitizm-bu toʻgʻridan-toʻgʻri biron bir dinga ishongan fuqaroni oʻz dinidan voz kechishga va oʻzga dinni qabul qilishga majbur qilishdan iboratdir. Missionerlarning bugungi kundagi faoliyati hech bir mintaqa ,hech bir davlat bunday tahdiddan xoli emasligini koʻrsatadi.Bunday holatlarning oldini olish uchun esa missionerlikning mohiyatini toʻgʻri va chuqurroq anglash va uni bartaraf etish yoʻlida maqsadli,tizimli va tadrijiy faoliyat olib borish zarur boʻladi. Bugungi kunda missionerlar oʻz targʻibot faoliyatlarida yangi zamonaviy tele,audio,video,radio va kompyuter texnologiyalardan keng foydalanmoqdalar. Uyma-uy yurib “Xushxabar” yetkazish ,yani odamlar bilan kunning dolzarb muammolari haqida suhbatlashish ,ularning dardlariga qiziqish bildirish va ushbu muammolardan chiqish yoʻllarini berishni taklif qilib oʻz tashkilotlariga jalb qilish missionerlikdagi yaxshi samara beradigan usullardan hisoblanadi...Missionerlikda mahalliy tillarda xristianlikni targʻib qiluvchi adabiyotlarni chop qilish va tarqatish ham eng koʻp qoʻllanadigan usullardan biri hisoblanadi.Kichik hajmdagi qoʻllanmalar juda ham tasirchan qilib yoziladi va odamlarning etiborini jalb qilish uchun chiroyli suratlarga boy

bo‘ladi .Ularda dinni qabul qilish ochiq-oydin taklif qilinmaydi.Ammo,adabiyot oxirida qo‘shimcha malumot olish uchun tashkilot manzili yoki telefoni keltiriladiku ,risolani o‘qigan va diniy bilimi sayyoz bo‘lgan inson bu narsaga uchishi mumkin.Missionerlarning yoshlar bilan ishlashda bir necha usullari mavjud :talabalar,bolalar, uchun missiyalar yozgi oromgohlar shular jumlasidandir...

Missionerlik haqida gapirishdan oldin unga berilgan tariflarni bir eslab olsak .Quyida missionerlikka nisbatan berilgan bir necha tariflarni berib o‘tamiz;Missionerlik –biror dinga etiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib qilish.Buddizmda miloddan avvalgi 3-asrdan boshlab yoyilgan,Xristianlikda missionerlik 4-asrdan boshlab paydo bo‘lgan.

...Hozir ham missionerlar imperialistik doiralar manfaatini ko‘zlab ish olib bormoqdalar.Missionerlik asosan,xristianlikka xos bo‘lib,bu xarakat xristianlik Vizantiya imperasida davlat dini sifatida e’lon qilinganidan e’tiboran olib boriladi.Mazkur harakatning ilk davrida xristian missionerlari o‘zlarining missionerlik harakatlarini Yevropa va yaqin sharqdagi ko‘p xudolikka sig‘inib tarqib qilishdan iborat deb ko‘rsatganlar,keyinchalik bu qarashlari eskirdi,xususan hozirgi vaqtda kelib,jahon aholisining deyarlik 80-90 foizi o‘z diniga,aksariyat hollarda yakka xudolikka ega bo‘lgan davrda “missionerlik”va “prozelitizim” salbiy bir holatga aylanib qoldi.

Bugungi kunda O‘zbekiston misolida oladigan bo‘lsak ,mahalliy xristian diniy tashkilotlarning “missionerlik”harakatlari to‘g‘ridan to‘g‘ri mahalliy tub aholini “yevangelizatsiya”qilishga,yani o‘z diniga og‘dirishga qaratilgani namoyon bo‘ladi.

Missionerlikning mazmun-mohiyati

Bugungi kunda kishilik jamiyati rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatayotgan, unga o‘ziga xoslik baxsh etayotgan ijtimoiy omillar qatorida diniy omilning ham alohida o‘rni bor. Dinning yaratuvchilik va bunyodkorlik, uyushtiruvchilik va yo‘naltiruvchilik salohiyatidan

foydalanilganda u hamisha jamiyat rivoji, inson kamolotiga xizmat qilgan. Zamonaviy voqelik dindan g‘arazli maqsadlar yo‘lida foydalanish davom etishi barobarida u o‘ta nozik tus va hatarli ko‘rinishlar olayotganidan guvohlik beradi. Turli shakllarda namoyon bo‘layotgan missionerlik harakatlari bunga misol bo‘la oladi. Ayni paytda, ibtidoiy e’tiqod shakllarining mohiyati, milliy va jahon dinlarining o‘ziga xos xususiyatlari, aqidaviy asoslari, jug‘rofiy tarqalishi tahlil qilinib, diniy sektalarning inson hayoti va jamiyat taraqiyotiga tug‘dirayotgan tahdidi va dunyoning diniy manzarasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ko‘rsatib berilgan. Bu tahdidlardan biri missionerlik bo‘lib, missionerlik milliy birlik va jamiyat barqarorligiga tahdidga aylangan ekan, unga qarshi kurash, oldini olishga qaratilgan ishlarni tizimli tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimizda yetarli huquqiy asoslar ham yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi” va “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi” dagi ayrim moddalar, O‘zbekiston Respublikasining yangi taxrirdagi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi qonun bilan belgilab qo‘yilgan. Missionerlik haqida gap ketar ekan, avvalo ushbu tushunchaning lug‘aviy va istilohiy ma’nolarini tushunib olish muhim ahamiyatga egaligini alohida qayd etish lozim.

Missiya so‘zi lotincha yuborish, vazifa topshirish, missioner so‘zi- “vazifa bajaruvchi”- degan ma’noni anglatadi. Missionerlik – esa belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildirib, biror dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni

targ‘ib qilish demakdir.

Missionerlik asosan, xristianlikka xos bo‘lib, xristian missionerlik tashkilotlarning maqsadlari asosan uch nuqtaga qaratilgan:

1. Xalqlarni xristianlashtirish.

2. Xalqlar o‘rtasida o‘z e’tiqodiga shubha uyg‘otish ishonch va e’tiqoddan yuz o‘girish va undan chiqqishiga olib kelish.

3. Xristianlikni qabul qilganlarni o‘z e’tiqodida qattiq turishini ta’minlash va shu orqali ularning safini «Yangi xristianlar» bilan to‘ldirish

Missionerlik harakatlarining maqsadi;.

-bepul xristianlikni targ‘ib qiluvchi mahalliy tilda chop etilgan, juda sifatli rangli ishlangan kitob va jurnallarni tarqatish.

-xristianlikka chaqiruvchi video-audio materiallarni tarqatish;

-tibbiy, ta’lim-tarbiya sohasiga maxsus kadrlarni yuborish (tibbiy xizmatchi, o‘qituvchi-murabbiy);

-missionerlik ruhidagi kutubxona, ingliz tili va kompyuter o‘rgatish xonalarini tashkil etish;

-o‘z saflariga qo‘shilganlarni moddiy rag‘batlantirish, ularni xorijiy safarlarga yuborish va ish bilan ta’minlash.

Missionerlikning bizning respublikaga xos bo‘lgan xususiyatlardan biri - bu xristian diniy tashkilotlarida o‘zbek va boshqa mahalliy tillarda diniy ibodatlar olib borishga harakat qilishdir.

Ikkinchisi-bu mahalliy millat vakillari orasida o‘zbek va boshqa mahalliy tillardagi diniy adabiyotlarni tarqatish va ulardan foydalanish.

Vaholanki, butun dunyo musulmonlari orasida o‘z dini va e’tiqodidan kechib boshqa dinga e’tiqod qiladiganlarga Qur’oni karimda ochiq oydin bayon qilingan. Olloh taolo Qur’oni karimda marhamat qiladi: “O‘zlariga ochiq bayonotlar kelganidan keyin bo‘linib, ixtilofga tushganlarga o‘xshash bo‘lmanglar, ana o‘shalarga ulug‘ azob bordir” (Oli Imron 105 oyat). Payg‘ambarlar sayidi Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamga ushbu oyati karima nozil bo‘lganidan so‘ng u kishi ummatlariga ogohlantirib

aytganlarki: “Yahudiylar 71 firqaga, nasroniylar 72 firqaga bo‘linib ketgan edilar. Mening ummatim 73 firqaga bo‘lingaylar. Ulardan bittasigina najot topib omon qolur, qolganlari esa do‘zax ahlidurlar”.

Zamonaviy missionerlik

Biz bugun ma’naviy tahdidlar kuchaygan asrda yashayapmiz. Shunday ma’naviy tahdidlardan biri bu – missionerlikdir.

Missionerlik, sodda qilib aytganda, biror dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib qilishdir.

Bugungi kunda missionerlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi sekta vakillari sof diniy g‘oyalarni emas, balki siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan holda faoliyat olib borishmoqda. Dunyo bo‘ylab faoliyatini keng yoyishga intilayotgan missioner tashkilotlarning maqsadini ikki guruhga – iqtisodiy va siyosiy guruhga bo‘lish mumkin.

Iqtisodiy maqsad – odamlarning dindorlik tuyg‘ularidan foydalangan holda ularni go‘yoki xayr-ehson qilishga da’vat etish va shu orqali mo‘may daromadga erishishda kuzatiladi. Bunga misol qilib missionerlik sektalaridan biriga a’zo bo‘lgan yigitning onasiga bu uyni sotib pulini o‘zi e’tiqod qiladigan sektaga o‘tkazishini aytadi, onasi tabiyiki, bunga qarshilik qiladi. Shunda yigit o‘z onasini uradi. Ertasi kuni ona ishga borganda undan ko‘zining ko‘karishiga sabab nimaligini hamkasblari so‘rashganida bexosdan yiqilib tushdim deb javob beradi.

Bunga o‘xshagan misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin, lekin missionerlarning asosiy maqsadlaridan biri ergashuvchilari ortidan boylik orttirish ekanligini tushinib yetishimizdir.

Missionerlikdan ko‘zlangan ikkinchi maqsad esa, bundan ham daxshatliroq bo‘lib, u siyosiy maqsadlarga yo‘naltiriladi. Bunda, o‘z diniy ta’limotlarini targ‘ib qilish yo‘li bilan o‘zlariga xayrixoh bo‘lgan guruhlarni shakllantirish va shu orqali muayyan mamlakat va hududda o‘z ta’sirini o‘rnatish ko‘zlanadi. Buni ular olib borayotgan faoliyat, targ‘ibot-tashviqotlaridan ham anglash qiyin emas. Jumladan, ayrim sekta a’zolari tashqaridan kelayotgan barcha

ma’lumotlarni yolg‘on va zararli, deb bilishadi. Shuningdek, ba’zi missionerlik tashkilotlari o‘z a’zolariga oila qurishni man etadi, ular daromadlarining deyarli barchasini ushbu jamoa rahbariyatiga topshirish talabini qo‘yadi.

Missionerlar o‘z maqsadlariga yetish uchun bir nechta uslublarni ishlab chiqqanlar.

Jumladan: yoshlarga chet tillarini, kompyuterda ishlashni o‘rgatish bahonasida o‘quv kurslari ochish va mazkur joylarda o‘z diniga targ‘ib qilish, xorijga o‘qishga, ishga yoki chet el fuqarosi bilan oila qurish uchun jo‘natish bahonasidan foydalanish, o‘smirlarni cherkov qoshidagi yozgi oromgohlarga jalb qilish va shu yerda ta’sir o‘tkazish;

- nodavlat-notijorat tashkilotlar sifatida insonparvarlik yordami (pul, dori-darmon, kiyim-bosh, oziq-ovqat mahsulotlari tarqatish) ko‘rsatish niqobi ostida missionerlik harakatlarini olib borish, mahalliy tilda o‘z g‘oyalariga to‘lib-toshgan gazeta-jurnallarni nashr etish va aholi ichida tarqatish;

- bepul tibbiy yordam markazlarida bemorlar ichida targ‘ibot o‘tkazish yo‘li bilan odamlar orasiga kirishga urinishadi.

Alloh taolo Qur’oni karimning "Moida" surasida "...Ana, endi bugun, diningizni kamoliga yetkazdim, ne’matimni tamomila berdim va sizlar uchun Islomni din bo‘lishiga rozi bo‘ldim..." deya Islom dini arkonlarini mukammal etganini, dunyodagi insonlar uchun aynan uni din sifatida tanlaganini bayon etmoqda. Ana shu oyati karimaga ko‘ra, mo‘min-musulmonlar uchun islomiy aqida eng muqaddas qadriyat sanaladi. Shu bois ajdodlarimiz ana shu muqaddas dinning ta’limotini asrlar davomida mahkam tutib kelganlar. Bu diyordan yetishib chiqqan allomalar dinni sof holda saqlab qolish uchun umr bo‘yi fidoiylik ko‘rsatganlar. Bugunga kelib esa, ba’zi g‘arazli kuchlar tomonidan ota-bobolaridan islom diniga nisbatan yuksak hurmat va ehtirom bilan qarashni o‘ziga meros qilib olgan xalqimizning ana shu muqaddas e’tiqodiga rahna solishga harakat qilinmoqda.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, missionerlik - xalqimizning diniy va milliy qadriyatlariga umuman zid bo‘lib, oxir oqibat xalqimiz ichida diniy va milliy nizolar kelib chiqishiga qaratilgan harakatdir.

Ajdodlarimiz dunyo tamaddunіga tamal toshini qo‘ygan xalqning farzandlarimiz, bizning o‘z dinimiz va milliy qadriyatlarimiz borki, biz hech qanday noan’anaviy diniy ta’limot va aqidalarga muxtoj emasmiz.

Missionerlar ko‘zlagan maqsadlar

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ma’naviyatni yuksaltirish, diniy qadriyatlarni tiklash borasida katta ishlar qilindi. Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat, hamda 16 ta diniy konfessiya o‘rtasida totuvlik, bag‘rikenglik hukm surayotgani alohida tahsinga loyiq.

Shunday bo‘lishiga qaramay diniy qadriyatlar erkinligidan g‘arazli maqsadda foydalanuvchilar chiqib qolgani ham dilni xira qiladigan haqiqat. Bundaylardan ba’zilari muqaddas Islom dini nomidan ish yuritib, unga dog‘ tushirayotgan ekstremistik hamda terroristik oqim va tashkilotlar bo‘lsa, boshqalari xristian dinini niqob qilib olgan sektalar va ularning “missioner”laridir.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida barcha fuqarolar uchun vijdon erkinligi kafolatlangan. Bunga ko‘ra, har bir inson dinga munosabatini o‘zi belgilashi zarur. Bunda boshqalarning tazyiq ko‘rsatishi, majburlashi yoki qiziqtirishi man qilinadi. Ayniqsa, bir dindagi shaxsni boshqa dinga o‘tkazish harakatlari qat’iyan ta’qiqlanadi. Bu yo‘riq “Vijdon erkinligi haqidagi qonun”da aks etgan. Agar bir insonning o‘z dinini tashlab boshqa dinga o‘tishi aholining aksari shu dinda bo‘lgan o‘lkalarda diniy adovat keltirib chiqarishini hisobga olsak, buning jinoyat ekani ayon bo‘ladi.

Musulmon mamlakatlarida mahalliy aholini o‘zga dinlarga missionerlik yo‘li bilan targ‘ib etish dunyoda anchadan beri kuzatib

kelinayotgan holdir. Bunday harakat ayniqsa sobiq Sovet davlati hududida keng tarqaldi. Shundan kelib chiqib, missionerlik, uning tarixi, oʻz oldiga qoʻygan vazifalari haqida bilib olish har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir. Zero, Respublikamizning birinchi Prezidenti aytganlaridek: “Islom ota-bobolarimizning dinidir. Uni tashqi ta’sirlardan, yot unsurlardan tozalash barchamizning muqaddas burchimizdir”.

Missionerlik biror dinni oʻz yurtidagi yoki oʻzga yurtlardagi boshqa dindagilar oʻrtasida tarqatish sohasidagi cherkov tashkilotlarining faoliyatidir. Missionerlik davlatlararo urushlar paytida mustamlakachi imperiyalarni barpo etish va mustahkamlashda mafkuraviy hujum qurollaridan biri sifatida ishlatilgan. Missionerlar maxfiy ravishda Osiyo xalqlarini zabt etishda qatnashganlar va hozirda bu nayranglar oʻzgacha usulda davom etmoqda. II-Vatikan soborida (1962-1965) missionerlik masalalari muhokama qilinib, u haqida qonun tasdiqlangan.

Hozirda missionerlik “tabshir” (bashorat berish), “tansir” (nasroniylashtirish) kabi nomlar bilan ataladi. Ammo ular asl faoliyatlarini niqoblash uchun turfa chiroyli nomlardan foydalanadilar. Xususan, oʻzlariga va saflariga qoʻshilganlarga har xil ilohiy sifatlar berib (“xudoning oʻgʻli”, “muqaddas ruh bilan soʻzlashuvchilar” kabi), oʻzgalardan ajralib turishlarini ta’kidlab, shu tariqa ularni saflarida tutib turadilar. Bu yoʻlda ular ataylab Islom ahkomlarini buzib koʻrsatish, Qur’on oyatlarini bir-biriga teskari qoʻyish, paygʻambarimiz (S.A.V.) hadislarini notoʻgʻri talqin qilish kabi jirkanch usullardan foydalanadilar. Insonlarning diniy savodxonligi yetarli emasligidan juda unumli foydalanadilar.

Ularning maqsadlari asosan uch nuqtada jamlanadi:

1. Xalqlarni xristianlashtirish. Shu orqali ularni iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy jihatdan Gʻarb davlatlari ta’siri doirasiga olish.

2. Xalqlarda oʻz diniga shubha uygʻotish, ularni oʻz dinidan chiqarish va dinsiz qoldirish.

3. Azaldan xristian boʻlganlarni oʻz dinlarida mustahkamroq turishga chorlash va ular safini “yangi xristianlar” bilan toʻldirish.

Ular maqsadlari yoʻlida hech qanday vositani ayamaydilar, usul-nayranglari doimo takomillashib boradi. Mana ulardan bir nechtasi:

1. Insoniy yordamlar koʻrsatish. Bunga, albatta, moddiy yordamlar (tibbiyot, oziq-ovqat) va soʻzsiz, “ruhiy” yordamlar kiradi.

2. Jamiyat axloqini buzish (barlar, diskotekalar, tungi klublar tashkil etish va ularda ommaviy axloqsizliklar uyushtirish).

3. Mahalliy xalq tilida oʻsha xalqning urf-odatlarini hisobga olgan holda, sifatli, rangli, rasmli xristian da’vat kitobchalarini bepul tarqatish. Koʻpincha bu kitoblar Qur’on oyatlari bilan “bezaladi”.

4. Xristianlikni targʻib qiluvchi gazeta-jurnallar chiqarish.

5. Sport musobaqalari, koʻrgazmalar uyushtirish va qatnashuvchilarga bukletlar va hadyalar ulashish.

6. Musulmon oʻlkalarga turli (masalan hamshira, tarbiyachi) nomlar ostida missioner kadrlar joʻnatish.

7. Ingliz tili, kompyuter oʻrgatish niqobi ostida missionerlik kutubxonalarini, klublarini tashkil etish.

8. Oʻz saflariga qoʻshilganlarni moddiy ragʻbatlantirish, ularni chet ellarga joʻnatish, ularni ish bilan ta’minlash.

9. Oʻz yurtlariga kelgan sayohatchilarni ham nazardan chetda qoldirmaslik va hokazo.

Koʻrib turganingizdek, ularda gʻoya har qanday vositani oqlaydi. Ushbu nayranglar ta’siri ostida har bir kishida uchta holat kuzatiladi:

1. Targʻib qilinayotgan oʻzga dinni qabul qiladi.

2. Ba’zi hollarda oʻzga dinni ham haq yoʻlda deb oʻylay boshlaydi.

3. Ba’zi hollarda esa oʻz diniga boʻlgan sadoqati yoʻqola boshlaydi.

Bizga nima uchun bu mavzu kerak?

Avvalambor, xalqimizni ogohlikka chaqirish, zero “Vatan”, “Millat”, “Din” tushunchalari muqaddas tushunchalardir. Ularga e’tibrsizlik qilishga hech bir kishining haqqi yo‘q, chunki bularsiz inson o‘zligini yo‘qotadi.

Ikkinchidan, har bir inson biror narsa haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lmog‘i zarur. Biror narsani noto‘g‘ri talqin etishga, bo‘yab ko‘rsatishga hech kimning haqqi yo‘q, chunki bu yolg‘onchilik bo‘ladi, yolg‘onchi kishi musulmonchilikdan chiqishi haqida hadisi shariflarda ta’kidlangan.

Missionerlikning jamiyat uchun salbiy oqibatlari

Aholi o‘rtasida hamjihatlik va birdamlikning yo‘qolishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri bu bir e’tiqod vakilining boshqa bir e’tiqod vakiliga nisbatan salbiy qarashda bo‘lishidir. Yurtdoshlarimizning aksariyat qismi islom diniga e’tiqod qiluvchi insonlar bo‘lganligi sababli, boshqa bir din vakillari g‘oya va qarashlarining kirib kelishi ular o‘rtasida o‘zaro ziddiyat va parchalanishni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin. O‘zga din va e’tiqod g‘oyalarini aholi o‘rtasida targ‘ibot qiluvchilar-missionerlar bu jarayonda asosiy rolni o‘ynaydilar.

O‘zbekiston aholisining 90% dan ortiq qismini islom diniga e’tiqod qiluvchi kishilar tashkil etadi. Bu esa xalqning bir butun fikri, hayot faoliyati islom bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Xalqning tarixi, qadriyat va o‘zligini tashkil etadi. Endi shu qadriyat va o‘zligini tag tomiri bilan yo‘q qilib unga boshqacha rang berish nimalarga olib keladi? Butun boshli shonli tarix, asarlarining dastlabki jumlasini “bismilloh”siz boshlamagan zabardast siymolar sha’ni qayerda qoladi?

Alloh taolo Qur’oni Karimning Oli Imron surasida quyidagicha marhamat qiladi:

“Sizlar odamlar uchun chiqarilgan eng yaxshi ummat bo‘ldingiz”

Ushbu oyatning tafsirida ulamolarimiz quyidagi jumlalarni aytishadi: “Islom ummati o‘zi haqida bilib qo‘yishi zarur bo‘lgan

haqiqatlardan biri – bu ummatning odamlar uchun chiqarilgan eng yaxshi ummat ekanligidir. Bu haqiqatni hozir oʻzini bu ummmatga nisbat berayotganlar yaxshi tushunib olmoqlari lozim. Ajdodlarimiz xuddu shu haqiqatni toʻliq tushungan chogʻlarida butun dunyoga ustoz boʻlganlar. Dunyo xalqlarining peshqadami boʻlib, ularni ortlaridan ergashtirganlar. Boshqalarga tobe' boʻlmaganlar. Boshqalarning ortidan koʻr koʻrona ergashmaganlar. Boshqalar huzurida oʻzlarini xoru zor tutmaganlar."

Missionerlar talabalarni missionerlik faoliyatining asosiy obyekti deb bilishadi. Diniy qarashlari hali yaxshi shakllanmagan gʻoʻr, qiziqqon yoshlarni oʻz qarmoqlariga ilintirib olish juda oson kechadi. Ular bu yoʻlda yoshlarni turli moddiy boyliklar va puch va'dalar bilan koʻngillarini olishadi. Bu narsa yurtimiz uchun juda havfli holat xisoblanadi. Tasavvur qiling ertaga ana shunday missionerlar gʻoyalari bilan sugʻorilgan yoshlardan biri, yuqori davlat mansablaridan biriga koʻtarildi. Oʻsha mansabdor endi davlat manfaati uchun xizmat qilarmikin yoki chetdagi oʻz rahnamolari nagʻmasiga oʻynarmikan? Afsuski, yoshlarimiz orasida bundaylar yoʻq emas. Kuzatadigan boʻlsak, ularning tillaridan Vatan tanqidi va Yevropa taqlidi tushmaydi. Ular xorijdan kelgan missionerlarni oʻzlariga ideal qilib oladilar. Yuqorida eslab oʻtganimiz, butun olamga ustoz boʻlgan dinu diyonatda mustahkam, xalqlarning peshqadami boʻlgan ulugʻlarimiz yoʻlini esa oʻylab ham koʻrishmaydi.

Natijada davlatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini izdan chiqaradilar. Yaxlit bir xalq va millatni parokandalikka olib kelib, ularni guruh va tabaqalarga boʻlib yuboradilar. Oqibatda aholining asrlar osha shakllanib kelgan milliy va diniy qadriyatlari oyoqosti boʻlishiga va nihoyat, yoʻqolib ketishiga olib keladi. Gapimizning isboti sifatida, Indoneziyada harakat qilgan missionerlar yigirma besh yil mobaynida minglab odamlarni oʻz tomonlariga ogʻdirib olishdi va ular yashayotgan

Sharqiy Timorni mamlakatdan ajratishdi. Xuddi shunday g‘arazli uslub Sudan mamlakatining janubini, ya’ni Darfur viloyatini ajratib olganligini aytib o‘tishimiz mumkin.

Missionerlar o‘z faoliyatlari davomida Islom ahkomlarini buzib ko‘rsatish, Qur’on oyatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish, Payg‘ambar (sollallohu alayhi vasallam) hadislarini noto‘g‘ri talqin qilish kabi usullardan foydalanadi. Afsuski, ko‘p yoshlarning e’tiborsizligi, befarqligi ularning qabih niyatlarini amalga oshirishda qo‘l kelmoqda.

Missionerlar aldoviga uchib, o‘z dinidan voz kechayotgan bu kabi nodonlarga oxiratda alamli azob borligi aytilgan:

الْعَذَابَ فَذُوقُوا إِيمَانِكُمْ بَعْدَ أَكَفَرْتُمْ وُجُوهُهُمْ اسْوَدَّتْ الَّذِينَ فَأَمَّا وُجُوهٌ وَتَسْوَدُّ وُجُوهٌ تَبْيَضُّ يَوْمَ تَكْفُرُونَ كُنْتُمْ بِمَا

ya’ni: “Ba’zi yuzlar oqaradigan va ba’zi yuzlar qorayadigan kunni (qiyomatni) eslang: yuzi qorayganlarga (hujjat isboti uchun shunday deyilur): “Imon keltirgandan keyin yana kufrga qaytgan edingizmi? Kufringiz tufayli mana shu azoblarni totib ko‘ring, endi!” (Oli Imron, 106).

Agar ularning faoliyatiga qarshi huquqiy va ma’rifiy chora-tadbirlar o‘z vaqtida ko‘rilmasa diniy omil sababli oilalarning ajralib ketishi, kishilarning jamiyatdan ajrab qolishi va buning natijasida ularda insonlarga, boshqa e’tiqod vakillariga nisbatan nafratning paydo bo‘lishiga olib keladi. Misol uchon ahil bir oilada ota-ona yoki biror farzand missionerlarning targ‘iboti tufayli o‘z dinidan boshqa bir dinga o‘tsa qolgan oila a’zolari unga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishlari mumkin? Farzandi boshqa dinga o‘tib ketganini bilgan ota uni oq qilishi, bordiyu u vafot etsa mahalla ko‘y hattoki janozasini ham o‘qimasligi bu inson uchun eng og‘ir musibat emasmi?

E’tiqod ovchilari, shuningdek, o‘z ta’limotini boshqalarga yetkazishda uch muhim unsurga katta ahamiyat berishadi. Bular: vaziyatni yaxshi anglash; masalaga ehtiyotkorlik bilan yondashish;

maqsadlarning aniq bo‘lishi. Mazkur unsurlarni amalga oshirish uchun ular kishilar bilan yaqin munosabatda bo‘lishga harakat qiladi. Masalan, yoshlar davralari, tungi klublar, savdo va sport markazlari, madaniyat va xayriya jamg‘armalari kabi odamlar gavjum joylarda yoshlar bilan aloqa o‘rnatish, do‘stlar orttirish, asta-sekin ular ongiga ta’sir o‘tkazish payida bo‘ladi. Oldindan tanlab olingan kishilar dunyoning turli burchaklarida tashkil etilgan sayyohlik markazlariga ham yuboriladi. Bulardan maqsad, boshida asl niyatlarini pinhon tutib, ularni cho‘chitib yubormay, do‘stlashish va keyinchalik o‘z ta’limotini singdirishdir.

Missionerlar g‘arazli niyatlarini amalga oshirishda ommaviy axborot va aloqa vositalaridan ham keng foydalanmoqda. Missionerlik g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi risola, jurnal va matnlar mahalliy tillarga tarjima qilinib, aholi o‘rtasida tekin tarqatiladi. Sun’iy yo‘ldosh orqali uzatiladigan o‘nlab televideniye, radio, internet orqali keng targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilishi natijasida dunyoda missionerlik harakatlari yoyilmoqda.

Ayrim yurtdoshlarimiz daromad topish maqsadida o‘z kindik qonlari to‘kilgan yurtni tashlab, olis va notanish yurtlarga bormoqda. Ularning aksariyati aynan missionerlarning tuzog‘iga tushmoqdalar. Boshqa e’tiqod, boshqa mentalitet vakillari orasida yashagan yoshlarimiz o‘z milliy ma’naviyatlaridan uzilib, o‘zgalarning ruhiy-ma’naviy ta’siriga tushib qolishyapti. Hali imon-e’tiqodi shakllanib ulgurmagan yoshlar ish joylarida izg‘ib yurgan turli missionerlar tuzog‘iga ilinishmoqda. Xorijda ishlab kelgan yigitlar hikoyasiga ko‘ra, ayrim vatandoshlarimiz u yerda o‘zga din vakillarining aldovlariga uchishgan. Bunda diniy e’tiqod emas, ko‘proq berilayotgan pul va yaratilgan sharoitlar asosiy omil bo‘lgani aniq.

Yuqoridagilarni teran his etgan holda, aqiyda musaffoligi va elu yurt tinchligi uchun har bir shaxs, ayniqsa din ulamolari,

oʻqituvchilarimiz, mahalla faollari bu yoʻlda jonbozlik koʻrsatishlari lozimdir.

Prozelitizmning zararli oqibatlari

XX asr oxirlariga kelib, dunyo jugʻrofiy-siyosiy xaritasida yuz bergan katta oʻzgarishlar, yangi mustaqil davlatlarning paydo boʻlishi, missionerlik harakatining bu hududlarda ham jonlanishiga turtki berdi. Ular demokratiya va ozodlikning sof havosidan toʻyib-toʻyib nafas ola boshlagan xalqlar, maʼnaviy hayotiga osonlik bilan suqilib kirib olishga, ularning koʻp yillar mobaynida ozor topgan, boʻgʻilgan, toptalgan va vaqtincha paydo boʻlgan gʻoyaviy boʻshliqdan foydalanib, oʻzlarining zararli gʻoyalarini singdirishga faol harakatlar boshlandi.

Mana shunday shunday gʻarazli xarakatlardan biri missionerlik xarakatlaridir. Missionerlik – bu biror bir dinga mansub kishilarni boshqa dinga targʻib qilish, Prozelitzm esa bir dinga mansub kishilarni boshqa dinga majburan oʻtkazishdir. Missionerlik harakatlarining maʼnaviyatimizga nisbatan tahdidini yaxshi anglash va tasavvur qilish unga qarshi kurash yoʻllarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Missionerlik harakati, avvalo, aniq bir shaxsga, yaʼni iymon-eʼtiqodi mustahkam shakllanmagan, oʻz hayotini toʻgʻri yoʻlga qoʻya olmagan, shaxsiy muammolar girdobida qolib, tushkunlik kayfiyatiga tushib qolgan kishilarga yoki hayotiy tajribaga ega boʻlmagan yoshlarni oʻz domiga ilintirishga qaratilmoqda. Odatda bunday kishilarni muqim ish joyiga ega emasligi va yoshlarning qiziquvchanligi ularga juda qoʻl keladi. Shaxsiy manfaatlarni koʻzlab ish boshlovchi missionerlar uchun, ularni oʻz ortidan ergashtirish unchalik qiyinchilik tugʻdirmaydi.

Diniy rangli kitob sovgʻa qilish yoki maishiy xarajatlar uchun «beminnat» yordam qoʻlini choʻzish orqali, ular oʻz maqsadlariga osonlikcha erishmoqdalar ham. Bu harakatlar aslida uzoqni koʻzlab tashlangan sirtmoq ekanini dastlab ular darhol seza olmaydilar. Ammo bu qarmoq oʻtkir zaharlangan boʻlib, oxir oqibatda katta

hayotiy fojialarga olib kelishi aniq. Boshqacha aytganda, bu sirtmoq ularni «yangi din»ni qabul qilishga, ya’ni prozelitizm hodisasining yuz berishiga asos bo‘ladi.

Prozelitizm, avvalo, insondagi eng oliy qadriyat — iymon va e’tiqoddan, muqaddas tuyg‘ulardan, ongli fikrlashdan judo qiladi. Boshqacha aytganda, uyat va or — nomusini yo‘qotadi. Bunday odamni andishasizlik va buzg‘unchilik ruhiyati egallaydiki, u endi o‘z atrofidagi eng yaqinlari uchun xavfli shaxsga aylanadi. Prozelitizm ta’sirining ikkinchi qadami kishini oila a’zolari va yaqin qarindoshlariga katta muammolar tug‘dira boshlaydi. Oila munosabatlarida murosasiz kurash va ichki tahdidlar paydo bo‘ladi. Yangi dinni qabul qilgan shaxs o‘zi yakkalanib qolishidan qo‘rqib, yaqinlarini o‘ziga qo‘shilishga turli metodlar bilan da’vat qila boshlaydi. Oqibatda, oila va qon-qarindoshlik, do‘st-birodarlik aloqalari uzila boshlaydiki, bu holat oila hamda jamiyat uchun jiddiy ma’naviy tahdidlar tug‘diradi. Prozelitizm botqog‘iga botgan iymonsiz kimsalarning uchinchi qadami yashash tarzini tubdan o‘zgarishi bilan xarakterlanadi. Ular o‘z-o‘zidan oila va mahalla muhitidan ajralganligi bois jamiyat uchun xatarli va manfur kimsaga aylanadilar. Shaxsiy hayotida hech bir narsaning qadr-qimmati qolmay yakkalanib qolgan iymonsiz odam uchun millat va ona-Vatanga ham xiyonat qilish oddiy bir savdoga aylanadi. Afsuski, bunday kimsalar iymon va e’tiqodni sotish va sotib olish mumkin emasligini unutib qo‘yadilar.

Konstitutsiyamizning 31-moddasida alohida qayd etilganidek, «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi». Bosh qomusimizda belgilab berilgan aynan shu huquq missionerlik harakati mutlaqo noqonuniy ekanligini ko‘rsatadi. Chunki missionerlik va prozelitizm harakatlarida aldov va majburlash kabi metodlardan keng foydalanilmoqda.

Prozelitizmning zararlaridan biri shuki, ming yillardan buyon tinch va ahil, o‘zaro hurmatda yashab kelayotgan xalqlarni diniy va milliy nizolar girdobida qoldiradi. Natijada fitna sodir bo‘lib, tinch-totuv yashayotgan davlatlar parokandalikka yuz tutadi. Ayni vaziyat missioner va prozelitlar uchun kerak bo‘lgan vaziyatdir.

Bugungi kunda ular yurtimizga xar xil nomlar ostida kirib kelishga harakat qilmoqdalar. Masalan, til o‘rgatish kurslari ochish, xalqaro xayriya tashkilotlari tarkibida va boshqa boshqa ko‘rinishlarda.

Ularning ta’siriga tushgan kishilar o‘zligini yo‘qotadi. Dini, millati va shaxsiy menligini qo‘ldan boy berib qo‘yadi. Chunki e’tiqod ovchilarining maqsadi ham tobelarini manqurtlarga aylantirish va ular orqali jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarishdir. Shunday manqurtlar chiqargan fitnalar oqibatida shu davlatning boyligiga ega bo‘lish ularning asl maqsadlaridir.

Bunga misol qilib Afrikadagi bir davlat rahbarining so‘zlarini keltirishning o‘zi kifoya. U kishi shunday deydi: «Bizga bundan bir necha o‘n yillar ilgari missonerlar keldi. O‘shanda ularning qo‘lida injil bor edi, xolos. Bugun esa hamma yerlar va boyliklar ularniki bo‘ldi, bizning qo‘limizda injil qoldi xolos».

Payg‘ambarimiz alayhi salom hadislarining birida shunday bayon qiladilar: Abu Hurayra (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi. Rasulullоh (sollallohu alayhi va sallam): «Oxir zamonda dajjollar (firibgarlar) yolg‘onchilar (jamoasi) bo‘ladi. Ular sizlar ham, ota-bobolaringiz ham eshitmagan gaplarni gapiradilar. Bas, sizlar ulardan o‘zlaringizni uzoq tutinglar. Sizlarni adashtirib va aldab fitnaga (shirkka) solib qo‘ymasin», dedilar (Imom Muslim rivoyati).

Ko‘rinib turibdiki, missionerlik va prozelitizm dinimiz ahkomlari va xalqimizning asriy qadriyatlariga zid bo‘lib, oxir-oqibat diniy asosdagi nizolarga olib kelishi mumkin. Yurtimizning tub aholisi ko‘p asrlardan buyon Islom diniga e’tiqod qiladi. Islomiy qadriyatlar xalqimizning tarixiy-milliy qadriyatlari bilan

chambarchas bo‘lib ketgan. Xalqimiz boy madaniy-ma’rifiy, milliy-diniy tarixga ega bo‘lib, hech qanday noan’anaviy diniy aqida va tamoyillarga muhtoj emas.

TOLERANTLIK (lot. tolerantia — sabrtoqat) , bag‘rikenglik — o‘zgalarning turmush tarzi, xulqatvori, odatlari, histuyg‘ulari, fikrmulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish. Hoz. dunyoda Tolerantlik o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o‘zaro bog‘liklik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko‘chib yurishi va b. jamiyatda Tolerantlik tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi. Bag‘rikenglik tamoyili aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaklashtirihdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqarohuquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi. Bu tamoyilga ko‘ra, har kim o‘z e’tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozim. Bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. Tolerantlikni har tomonlama qo‘llabquvvatlash maqsadida YUNESKO «Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi»ni qabul qilgan (1995 y. 16 noyab.). Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o‘ziga xos xususiyatlariga nisbatan Tolerantlik munosabatini O‘zbekiston misolida ko‘rish mumkin. Mamlakatimizda turli toifadagi odamlar, siyosiy kuchlar va partiyalar o‘rtasidagi hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikengliktamoyili ijtimoii taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. O‘zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Ular o‘rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagan va bu xalqimizning azaliy bag‘rikengligini ko‘rsatadi. 10 dan ziyod konfessiyaga mansub din vakillari yurtimizda hamkor, hamjihat yashab kelayotgani esa dinlararo Tolerantlikning yaqqol namunasidir.

Xalqaro YUNESKO tashkilotining 1995 yil bo‘lib o‘tgan bosh konferensiyasida “Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi” qabul qilingan edi. Ko‘p o‘tmay bu deklaratsiyaga a’zo bo‘lgan mamlakatlar soni 185 taga yetdi. Vatanimiz O‘zbekiston ham ular safidan o‘rin oldi.

Xo‘sh, tolerantlik nima degani? Bu so‘z qanday ma’no kasb etadiyu, nimaga bugun tinchlik istayotgan barcha xalqlar uni qo‘llab-quvvatlamoqda? Qomusiy lug‘atlarda ta’riflanishicha, “tolerantlik” lotincha “tolerantio”, ya’ni “sabr-toqatlilik”, “keng fe’llik”, “bag‘rikenglik” ma’nolarini anglatar ekan.

Germaniyalik jamoat arbobi, Fridrix Nauman nomidagi xalqaro jamg‘armaning MDH davlatlaridagi vakili doktor Falk Bomsdorf bu haqda shunday yozadi: “2003 yil boshida O‘zbekistondagi hamkor tashkilotlar menga “tolerantlik” mavzusida seminarlar o‘tkazishni taklif etishdi. Ularning aytishicha, O‘zbekistonda hozir bu haqda ko‘p gapirishayotgan ekan. Biroq bu so‘zning ma’nosini hamma ham tushunavermas ekan. Bu menga o‘zimning yoshlik davrimni, o‘tgan asrning 50-yillarini eslatdi. O‘shanda biz ham Germaniyada tolerantlik konsepsiyasini muhokama qilishga urinardig-u, buning aslida nima ekanligini yaxshi anglamasdik. To‘g‘ri, men o‘zbekistonlik sheriklar xohishlarini darhol qo‘llab-quvvatlaganim yo‘q. Chunki, birinchidan yaxshi bilardimki, hamma narsani ham seminarlarda yoki kitoblardan o‘rganishning iloji yo‘q. Shunday narsalar borki, ularni faqat amaliyotda, faqat shaxsan o‘rganish asosida anglab yetish mumkin. Ikkinchidan, har bir ma’lumotli savodxon nemis singari men ham “tolerantlik” so‘zini eshitgan zahoti Gotxold Efraim Lessingning “Donishmand Natan” dostonini xotiramga keltiraman. Urushdan keyingi yillarda gimnaziyada o‘qigan nemislarning ko‘pchiligi Lessing ta’biri bilan aytganda, bu “dramatik she’r”ni o‘qigan. Yuqori sinflarda bu asarni mufassal o‘rgatishardi” (Qarang: Lessing. Donishmand Natan. Dramatik

poema. Ruschadan Mirpoʻlat Mirzo tarjimasi. — Toshkent: Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005, 2-bet).

Darhaqiqat, doktor Falk Bomsdorf ta'kidlaganidek, Germaniyada 1936 yil natsional-sotsialistlar hokimiyat tepasiga kelgach, Lessingning "Donishmand Natan" pyesasini teatrlar repertuaridan olib tashlashadi, hatto uni oʻqishni ham ta'qiqlab qoʻyadilar. Ikkinchi jahon urushining tugashi bilan yozuvchi vatanida fashizm ideologiyasi ham barham topadi va 1945 yilning sentabrida Berlin teatri oʻz mavsumini aynan Lessingning "Donishmand Natan" pyesasini namoyish qilish bilan boshlagan edi. Bu esa tinchlikparvar nemis ziyolilarining fashizm gʻoyalaridan tamomila voz kechganini tasdiqlagandi.

Xoʻsh, biz nemis adibi Efraim Lessing ijodi va uning "Donishmand Natan" dramatik dostoni haqida nimalarni bilamiz-u, bu asarning "tolerantlik"ka nechogʻlik aloqasi bor? Nimaga doktor Falk Bomsdorf "Donishmand Natan" pyesasi misolida "tolerantlik" gʻoyasini bizga tushuntirmoqqa urinayapti?

Gotxold Efraim Lessing (Gotthold Ephraim Lessing. 1729–1781) nemis mumtoz adabiyotining yirik vakili, gʻarbiy Yevropa ma'rifat falsafasi va adabiyoti salaflari Monteskyo, Didro va Volterlarning safdoshi va maslakdoshi boʻlgan. Lessing kambagʻal ruhoniy oilasida tavallud topdi, cherkov maktabida savodini chiqardi. Soʻngra Leypsig va Vittenberg universitetlarida tahsil oladi. Unda badiiy ijodga boʻlgan istak sohibjamol aktrisa Karolina Neyber bilan tanishuvidan boshlandi. Keyinchalik, Lessing teatrlar uchun ma'rifat gʻoyalarini targʻib etuvchi pyesalar yoza boshlaydi. 1750–1760 yillarda Lessing dramaturglik faoliyatini jurnalistika bilan bogʻlab olib boradi. U oʻzining "Yangi adabiyot" jurnalini nashr qildirarkan, ma'rifatchilik adabiyotini shakllantirish maqsadida astoydil mehnat qildi, oʻsib kelayotgan yangi avlodni himoyasiga oldi, ular ijodini qoʻllab-quvvatladi. Ayni paytda adib millatchi, aqidaparast ruhoniylarni, mamlakatni parchalab, mayda knyazliklarga boʻlib

yuborishga urinayotgan feodallarni, qolaversa, betayin qirol Fridrix II siyosatini oʻz maqolalarida keskin qoraladi.

1767–1769 yillar Lessing Gamburg teatrida dramaturg va adabiy emakdosh lavozimida faoliyat koʻrsatadi. Bu yillar adib ijodida barkamollik davri boʻldi. U teatr sahnasida oʻynalgan pyesalarga taqrizlar yozdi, ularni tahrir qilib "Gamburg dramaturgiyasi" nomi bilan alohida kitob holida nashr ettirdi. Bu kitob oʻsha davrda katta voqea boʻlib, yosh qalamkashlar ijodining yuksalishida muhim ahamiyat kasb etgan edi. 1769 yildan boshlab Lessing Vena teatrida dramaturg lavozimida faoliyat koʻrsatadi. Ayni paytda mashhur Volfenbyuttel kutubxonasida ilmiy xodim lavozimida ishlab, uning fondida saqlanayotgan qadim qoʻlyozmalarni oʻrganadi, ularga tartib berib, nashr ettirish bilan mashgʻul boʻladi.

Eng muhimi, adib bu yillarda oʻzining mashhur asari "Emiliya Galotti" (1772) dramasini yozib tugatadi. Asarda muallif Germaniyada hukmdorlik qilayotgan knyaz va feodallar sulolasining tajovuzkorligi, oʻzboshimcha gʻayri-insoniy harakatlarini keskin qoralaydi. Bu drama nafaqat Lessing ijodida, balki nemis dramaturgiyasi tarixida ham muhim voqea boʻlgan edi. Qolaversa, u Shiller dramaturgiyasining yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Ulugʻ Gyote oʻz davrida bu dramaga baho berarkan, "u tiranlar razolatiga qarshi qoʻyilgan ilk dadil qadam boʻldi", degan edi.

Dramaturg va teatr nazariyotchisi Lessing hayotining oxirgi oʻn yilligi Volfenbyuttel knyazligida kechadi. Adib gʻaribona hayot kechirganiga qaramasdan, badiiy ijod bilan muntazam shugʻullanadi. U hayotining soʻnggi damlarigacha faqat adabiyotgina insoniyatga roʻshnolik keltiruvchi, jamiyatni oʻzgartira oluvchi, zulmat va razolatga qarshi kurashuvchi qodir kuchdir, degan ishonch bilan yashaydi. Bu ishonch Lessingning diniy razolatlarga yetaklovchi cherkov qonuniyatlariga, diniy mazhablar oʻrtasidagi xunrezlik urushlarga qarshi murosasiz kurashuvida madad boʻldi. Shu

mavzuda adib oʻzining “Anti-Getse” (1779) falsafiy pamfletini, “Donishmand Natan” (1779) dramasini, “Inson nasli tarbiyasi” (1780) risolasini yaratdi. Bu asarlarida Lessing odamlarni diniy murosaga, sabr-toqatli boʻlishga, bagʻrikenglikka chaqirdi. Shu oʻrinda, yozuvchining “Donishmand Natan” (Nathan der Weise, 1779) she’riy dramasi oʻsha vaqtda Germaniyada murakkab ijtimoiy-siyosiy hayot jarayonini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan edi. Dramaturg cherkov va uning peshvolari bilan irqiy va diniy tenglik hamda tafovutlar mavzusida olib borgan bahs-mulohazalarini asar mazmuniga singdirarkan, “cherkovning koʻhna minbari (kafedrasi)dan soʻzamollik qilgandan koʻra, teatr sahnasidan ularga zarba bermoq ma’qulroq koʻrinadi”, degan mulohazaga keladi. Sababi oʻsha kezda ruhoniy-olimlar jam boʻlishib, diniy bagʻrikenglik tarafdori boʻlgan Lessingni siquvga ola boshlagan edilar.

“Donishmand Natan” pyesasi mazmunida Oʻrta asr diniy tafovutlar zamirida kechgan salb yurishlari (1096–1270 yy.) bilan bogʻliq voqealar tasvirlangan. Aniqrogʻi, dramada yevropalik ritsarlarning sharqqa, islom olamiga qarshi uyushtirishgan uchinchi salb yurishi (1189–1192 yy.) va bu yurishda ularning sulton Salohiddin tomonidan magʻlub etilib, muqaddas Quddus shahri xalifalik ixtiyoriga oʻtgan davr voqealari aks ettiriladi. Sahnada uchala din peshvolari-yahudiy Natan, cherkov peshvosi arxiyepiskop va musulmonlar sultoni Salohiddin toʻqnash keladilar.

Sulton Salohiddin valine’matlik qilib, oʻz asiri yosh nasroniy yigitni ozod qiladi va vatani Germaniyaga ketishiga ruxsat beradi. Daf’atan yahudiy Natanning uyi yonayotgan mahalda ritsar yigit oʻz hayotini xavf ostiga qoldirib boʻlsa-da, uning yolgʻiz qizi Rexani olov ichidan olib chiqadi. Qiz oʻz xaloskori olijanob ritsar yigitni koʻrishga nechogʻlik ishtiyoqmand boʻlmasin, u qizdan oʻzini olib qochib yuradi. Nihoyat, qiz ritsar yigit bilan uchrasharkan, uni nechogʻlik sevib qolganini tushunib yetadi. Yigit ham qizni yoqtirib qoladi.

lekin u bilan birga boʻlolmasligini yaxshi biladi. Sababi, Rexa va u turli dinga mansub kishilar edi. Nasroniy din himoyasiga jonini tikkan, qasamyod qilgan jangovar, ammo magʻlub ritsar qizaloqning sevgisini qabul qilishi aslo mumkin emasdi. Qolaversa, uni qalligʻ oʻrnida vatani Germaniyaga olib ketishga haddi ham sigʻmasdi.

Yahudiy Natanning oʻzi kim, uning hayotida ne voqealar kechgan? Aslida bu donishmand yahudiyni ham taqdiru azal dinlar oʻrtasidagi murosasizlik qurboniga aylantirgan. Savdogar Natan salb yurishlari paytida oʻz oilasi, farzandlaridan judo boʻlgan, dinlar toʻqnashuvidan aziyat chekkan odam. Shunday boʻlsa-da, u oʻzga dinga mansub kishining zurriyodi, nasroniy qizaloq Rexani asrab oladi va oʻz farzandidek tarbiyalab voyaga yetkazadi. Qizaloq ham yahudiy Natanni, oʻz otasi deb biladi, uni hurmat qiladi, farzandidek sevadi. Bu sirdan faqat Natan va qizaloqning egachisi nasroniy ayol Dayyagina xabardor edi. Voqealar davomida sir ochila boradi. Undan voqif boʻlgan Quddus shahri cherkovi peshvosi arxiyepiskop yahudiy Natanga bu oʻzboshimchaligi uchun oliy jazo, tiriklayin oʻtda kuydirishga fatvo beradi, oʻz hukmini amalga oshirish uchun sulton Salohiddindan izn soʻraydi. Sabr-toqatli, haqni qaror toptirish istagida boʻlgan sulton avvalo voqealar zamiriga yetmoq uchun yahudiy Natanni oʻz huzuriga chorlaydi. Suhbat chogʻida donishmand Natan unga uch uzuk haqidagi rivoyatni soʻzlab beradi. Hikoyada keksa ota bisotida ajdodlari ramzi boʻlgan oltin uzukni uch oʻgʻlining qaysi biriga meros qoldirishni bilmasdan zargarga yana unga oʻxshash ikki uzuk yasatibdi-da, oʻlimi oldidan uchala uzukni uch oʻgʻliga tortiq qilibdi. Uzuklar bir-biriga chunonam oʻxshar ekanki, ularni hech kim ajrata bilmabdi. Aka-ukalarning har qaysisi oʻz uzugini asl deb, da’vo bilan qozining oldiga kelibdi. Uzuklarni sinchkov qozi ham farqlay olmay, aka-ukalarga quyidagi maslahatini beribdi:

… Maslahatim esa mening
Shundayin: kim nimaga ega boʻlsa,

Shu bilan qanoat aylasin. Uzuk
Har kimda bor va mayli, har kim
Haqiqiy deb bilsin o‘z uzugini.
Balki padaringiz hech istamagan
Har kim o‘zidagi uzuk sehrini
Qanchalik qudratga ega ekanin
Anglashga intilsin hamisha, har vaqt!
O‘zingizga ishonch ortmog‘i uchun
Kattaroq bo‘lingiz some va komil
Yorug‘ yuzli bo‘ling xudo oldida!..

Bundan chiqdi, uzuklarning qaysi biri sehr-sinoatga ega bo‘lgan asl nusxayu, qaysilari soxta ekanligini biron kimsa aniqlashga qodir emas. Donishmand Natan uzuklar voqeasini so‘zlarkan:

… Na taftish, na-da arz,
Na bahsu talab — ojiz edi bunda:
Qaysi uzuk asl — isbotlamoqlik,
Dalillab bermoqlik mumkin emasdi.
(Sulton javobini kutib, sukunat saqlaydi.)
Xuddi shuning kabi qaydin haqiqat —
Bizga bilmoq mushkul, deya kalimasini kunlaydi.

Va nihoyat, yahudiy Natan uzuk hikoyasida nimaga sha’ma qilayotgani o‘quvchiga ayon bo‘ladi. Donishmand Natan aytmoqchi, yahudiy dini ham, nasroniy va musulmon dinlari ham o‘z bandalari uchun uzuklar kabi muqaddas va mo‘tabardir, odamzod esa qaysi dinga mansub bo‘lmasin, yagona Yaratgan Egamning quli hisoblanadi.

Drama yakunida nasroniy ritsar yigit va yahudiy Natanning asrandi qizi Rexa aslida bir ota va onaning zurriyodlari ekanligi ma’lum bo‘ladi. Ularning otasi sulton Salohiddinning daraksiz ketgan va Yevropaga borib yashab qolgan ukasi Asad bo‘lib chiqadi. Darvoqe, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, sulton Salohiddinning ukasi salb yurishlari va diniy murosasizliklarning oldini olish

maqsadida Damashqda Angliya qiroli, salb yurishi qoʻmondoni Richard I SHeryurak bilan muzokaralar olib borgan, u bilan doʻstlashib, sulh tuzishga erishgan. Kelishuvga binoan, sulton Salohiddin qirol Richard fuqarolarining muqaddas Quddus shahriga uch yil ziyoratga kelib-ketishlari uchun ruxsat bergan (Qarang: Istoriya srednix vekov — M.: Prosvesheniye, 1980, s.186). Bundan chiqdi, Lessing dramasidagi voqealar tasviri jarayonida bu tarixiy haqiqatni ham e'tiborga olgan.

Demak, sulton Salohiddin donishmand Natanning olijanobligi tufayli oʻz tugʻishgan inisi Asadning farzandlarini topishga muyassar boʻladi. Ularning jismida musulmon va nasroniy bandalarining qoni oqib, tarbiyasida yahudiy urf-odatlari mujassam ersa-da, bagʻrikeng sulton Salohiddin jigargoʻshalaridan tonmaydi, aksincha, ularni bagʻriga bosib, muruvvat ila otalik mehrini bagʻishlaydi.

Qissadan hissa, yahudiy Natandagi sabr-toqat, odamiylik va bagʻrikenglik dinlar oʻrtasidagi nizoga barham beradi, sulton Salohiddinda esa adovat shuurini uygʻotadi, nasroniy din peshvosi arxiyepiskop oʻz gʻayriinsoniy xatti-harakatidan mulzam boʻlib qoladi. Hatto, dinlar oʻrtasidagi gʻov-toʻsiq ramzida qurilgan sahnadagi "Yigʻi devori" borgan sari nurab, oxiri qulab tushadi. Asardagi bosh gʻoya — tolerantlik gʻoyasi ekani uning soʻngida oʻz yechimini topadi, tomoshabin sahna oxirida buni anglab yetadi.

Darhaqiqat, doktor Falk Bomsdorf tolerantlik haqida gap ketganda ne sababdan Lessingning "Donishmand Natan" pyesasini yodiga olgani, asarni oʻzbek tiliga tarjima qildirib, Milliy akademik teatrda sahnalashtirishni orzu qilganini endi tushunsa boʻladi. Bu olijanob ishni roʻyobga chiqarishda doktor Bomsdorfga Toshkentdagi Gyote instituti yaqindan koʻmaklashdi. Pyesani oʻzbek tiliga taniqli shoir Mirpoʻlat Mirzo tarjima qildi. Uni iqtidorli rejissor Avliyoquli Xoʻjaquliyev Milliy akademik teatrda sahnalashtirdi. Bosh rollarni taniqli artistlar Jamshid Zokirov (donishmand Natan), Mahmud Ismoilov (sulton Salohiddin), Tesha Moʻminov

(arxiyepiskop) ijro etdilar. “Donishmand Natan” pyesasining premyerasi 2003 yilning 16 sentabrida Milliy akademik teatrda bo‘lib o‘tdi. 2004 yil uni Samarqanddagi SHerdor madrasasining ochiq sahnasida ko‘rsatishdi. O‘tgan yillar davomida dramani Farg‘ona, Xiva, Buxoro, Marg‘ilon, Termiz, Qarshi va boshqa shaharlarda ham xalqimiz tomosha qildi. 2005 yil asarning ruscha va o‘zbekcha tarjimalari O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyotida alohida kitob holida bosilib chiqdi. Kitobga doktor Falk Bomsdorf so‘zboshi yozgan.

Xulosa qilib aytganda, “Donishmand Natan” dramasini o‘qigan, uni sahnada ko‘rgan tomoshabin tolerantlik, ya’ni hayotda sabr-toqatli bo‘lish, o‘zgalar fikriga ham quloq osish, eng asosiysi, diniy qadriyatlarni hurmat qilish kabi insoniy fazilatlarga ega bo‘lishni ko‘ngliga tugadi.

10-mavzu. SIYOSIY MENTALITET VA SIYOSIY JARAYONLAR DIALEKTIKASI

REJA

1. Siyosat – ijtimoiy hodisa sifatida.
2. Siyosiy jarayon tartib va turlari.
3. “Yumshoq kuch siyosati” – iborasining ahamiyati.
4. O‘zbekistondagi siyosiy jarayonlarning o‘ziga xosligi.
5. Yoshlarning siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish.

Tayanch so‘zlar: siyosat, totuvlik va barqaror taraqqiyot, strategema, davlatning mafkuraviy siyosati, “Yumshoq kuch siyosati”.

“Siyosat“ tushunchasi birinchi mavzuda keltirilganidek, qadimgi Yunonistonda (yunoncha ’olis – shahar) paydo bo‘lib, u davlat boshqaruvining turli shakllarini anglatgan. Siyosatga doir ilk nazariy qarashlar ham qadimgi Yunonistonda Aristotelning “La ’olitika” (“Davlatga nima tegishli bo‘lsa – u haqda”) asarida yaratilgan. “Siyosat” tushunchasini aniqlashtirish, uni mazmunmohiyatini ochib berish va tadqiq etish uzoq davrlar mobaynida monarxiya, respublika va davlatning boshqa shakllarini tadqiq etish, jamiyat va davlatni bir-biridan ajratish (N.Makiavelli), cherkov institutlari (xristianlik anhanalari) va fuqarolik jamiyati (J.Lokk), davlatni iqtisodiy va ijtimoiy tuzum bilan o‘zaro aloqadorligini aniqlashga doir (A.Smit) ilmiy izlanishlar jarayonida o‘z takomiliga yetdi. Qadimgi davrlardan boshlab shakllangan anhanalarga muvofiq siyosat mazmunini davlat qudratining manbai – hokimiyat bilan uzviy ravishda bog‘lab kelindi. Umuman, u davrlardagi davlatlarda siyosatning mazmuni hokimiyatning huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa resurslarini aniqlash bilan bog‘liq holda talqin etildi. Shuningdek, siyosat aktorlarining hokimiyatga doir xulqini o‘rganish, boshqarishning legitimligi va qonuniyligi mezonlarini

oʻrnatish, hukmdorlar va ularga boʻysunuvchilar rollarini ijro etish xususiyatlarini anglash (Parsons) , hokimiyatning guruhiy asoslarini yoritish (Bentli) asnosida siyosatning mohiyati yanada oydinlasha boshladi.

Siyosatni oʻrganishning turli-tuman usullari va yondashuvlari ichida funksional – maqsadli usul keng tarqaldi. Bu usul jamiyatdagi ijtimoiy hayotda yashashning u yoki bu mahnolarini izohlab berishga asoslandi. Bu jarayonda siyosat tushunchasi qandaydir etikaviy maqsadlarni amalga oshirishning shakli sifatida tahriflana boshlandi (masalan, “anglab yetilgan adolatga muvofiq boshqarish yoki farovonlikni rivojlantirish” (Platon); yoki “ratsional tafakkurlashni amalga oshirish” (Gegelgʻ); “jamiyatdagi kuchlarning ijtimoiy muvozanatini oʻrnatish va jamiyatning bir butunligini ushlab turish yoki ayrim kishilarning boshqalar ustidan oʻz hukmronligini saqlash vositasi” (Debre); “qadriyatlarni taqsimlash shakli” (Lasvell) yoki “umumiy irodalarni amalga oshirish” (Russo) va hokazo50 . Siyosat haqida nemis olimi M.Veber ham oʻziga xos talqinlarni amalga oshirgan. Uning quyidagi fikri siyosatning mohiyatini ochib berishga yordam beradi: “Shu tariqa, siyosat atroflicha muhokama qilganda, davlatlar oʻrtasidami, davlat ichidami, odamlar guruhlari oʻrtasidami, hokimiyatda ishtirok etishga intilish yoki hokimiyatni taqsimlashga tahsir koʻrsatishga intilish demakdir.

Insoniyatning dastlabki rivojlanish davrida, yahni hali jamiyatdagi turli manfaatlarni keskin bir-biriga qarama-qarshi qoʻyish, ishlab chiqarishda oʻzini oʻzi tashkil etish, mahsulotlarni taqsimlash mexanizmlari paydo boʻlmagan, diniy aqidaparastlik, urf-odatlar va xulqiy munosabatlar hukmron boʻlgan davrda kishilar oʻz manfaatlarini qondirish jarayonlarini tabiiy holatdan kelib chiqib muvofiqlashtirgan edi. Lekin moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi, ijtimoiy va demografik safarbarlikning kuchayishi, jamiyatda ijtimoiy, etnik va diniy differensiatsiyaning oʻsishi

natijasida bu tabiiy muvofiqlashtirish oʻz qobiliyatini yoʻqotib qoʻydi. Turli-tuman insoniy aloqalar va munosabatlar natijasida jamiyatni buzish xavfini keltirib chiqaruvchi oʻziga xos ixtiloflar, oʻzaro kelisha olmaydigan manfaatlar majmualari paydo boʻldi. Shu bilan birga, bu davrda guruhiy manfaatlarni qondirishga intilishlar sharoitida jamiyatning butunligini saqlash eng katta va xavfli muammolardan biriga aylandi. Ana shu tarixiy zaruratlar oqibatida jamiyatda oʻziga xos ijtimoiy institutlar shakllanib bordi. Bu institutlar aholi barcha tabaqalari ijtimoiy huquqlari shakllarini paydo boʻlgan zaruratlar darajasiga koʻtarilgan umummajburiy asosdagi itoatda turib tutish vositalari funksiyalarini bajara boshladi.

Davlatga xos oshkora hokimiyat tartibotlarining paydo boʻlishi bilan guruhlararo munosabatlarni muvofiqlashtirishning sifat jihatdan yuqori pogʻonasi - ijtimoiy hokimiyat shakllandi. Shu tarzda idora qiluvchi guruhlar va ularning ijtimoiy uyushmalari tarkib topdi. Bu jarayonlar oʻz oʻrnida ijtimoiy munosabatlarning siyosiy darajasini yaratdi. Natijada, jamiyatning bir butunligini urugʻchilik asosida tashkil etishga urinishlarga chek qoʻyildi. Siyosatning jamiyatda namoyon boʻlishi uchun alohida shaxslarning manfaatlari bir butun guruhda ifodalanib, bu manfaatlar boshqa guruhlar manfaatlari bilan ziddiyatga kirishishi lozim edi. Ana shunda bu ikki guruhlar oʻrtasidagi munosabatlarga uchinchi guruh – davlat ham tortiladi. Davlat vositasida ijtimoiy munosabatlar muvofiqlashtiriladi, shu tufayli jamiyatda siyosiy munosabatlar namoyon boʻladi. Ana shu tarzda siyosat guruhiy munosabatlarning bir turi sifatida paydo boʻladi. Agar qaysi yerda ijtimoiy tabaqalar, millatlar yoki boshqa ijtimoiy guruhlar oʻz manfaatlarini amalga oshira borib, aholining boshqa tabaqalari ijtimoiy imkoniyatlarini oʻzgarishiga tahsir qilsa, oʻsha yerda davlat hokimiyati ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga tortiladi, beixtiyor siyosiy munosabatlar jarayoni roʻy bera boshlaydi.

Ijtimoiy tabaqalar va guruhlar davlatdan tashqari bo‘lgan holatida o‘zlarining muvofiqlashtirish resurslarini tugatgan bir paytda davlatga vositachilik qilish uchun “ijtimoiy buyurtma”lar berishga ehtiyoj sezadi (masalan, iqtisodiy o‘z-o‘zini boshqarish, insoniy kooperatsiyalar, axloq mehyorlariga tahsir va h.k.) . Shuning uchun ham ijtimoiy guruhlarning doimo ham siyosiy faoliyat ko‘rsatishi shart emas. Ko‘pincha, bunday holat ijtimoiy xulq-atvorning o‘ziga xos, kutilmagan shakli sifatida ro‘y berishi mumkin. Bu o‘z o‘rnida guruhlararo munosabatlarning siyosiy darajasi har qanday ijtimoiy tizim uchun ham shart emasligini anglatadi.

Ijtimoiy munosabatlarning siyosiy xarakteri guruhlar va ijtimoiy birliklarni hokimiyatga taalluqli manfaatlarini baholab borishni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, xattiharakatning siyosiy motivatsiyasi faqat guruh tomonidan umuman (siyosiy dasturlar, maqsadlar, mafkuralar darajasida) , yoki uning har bir vakillari bilan alohida (mahlum bir guruhga taalluqli ekanligini anglash yo‘li bilan, yahni siyosiy o‘z-o‘zini aynanlashtirishni aniqlash) amalga oshirilayotgan manfaatlarni o‘ziga xos tarzda anglab yetish jarayonida shakllanadi.

Ijtimoiy ehtiyojlarni siyosiy anglab yetish mohiyati manfaatlarni guruhiy xarakterini tushunishdan, uni boshqa guruhiy subyektlar so‘rovlari bilan qiyoslashdan, shuningdek, bu birliklar dahvolarini tatbiq qilish va kelishish jarayonlariga davlat aralashuvining darajalari va vositalarini aniqlashdan iboratdir. Boshqacha so‘zlar bilan ifodalaganda, manfaatlarni siyosiy anglab yetish – unga davlat hokimiyati aralashuvisiz amalga oshirib bo‘lmaydigan mazmunlarni ajrata olish qobiliyatini shakllanganligi deganidir. Shu tarzda siyosiy ong guruhlarning boshqa subyektlar va hokimiyat institutlari bilan muloqotlarda ishtirok etishi uchun ularning ijtimoiy ehtiyojlarini rasmiylashtiradi va bir tizimga soladi. Siyosiy hayot subyektlarining bunday ongli ravishdagi tayyorgarligi zaruriyati prinsipial xarakterga egadir. Taniqli AQSH siyosatshunosi Robert Dalg‘

“siyosiy” va “nosiyosiy” qatlamlarni bir-biridan ajratib koʻrsatib, bu bilan subyektlarning hokimiyat institutlari bilan oʻzaro xarakteri darajalarini oʻzaro farqlanishlarini ham aniqlagan edi.

Siyosatning zamonaviy talqinlari R.Aron asarlarida yanada takomillashdi. U siyosat tushunchasini jamiyatning barcha jabhalari bilan aloqadorlikda tahlil qilishga harakat qildi. U “siyosat” tushunchasini bir-biridan farqlanishini chuqur tadqiq etib, quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Birinchi farqlanish shu bilan bogʻliqki, “siyosat” soʻzi ingliz tiliga har biri oʻz mazmuniga ega boʻlgan ikkita soʻzga tarjima qilinadi. Inglizlar amalda siyosatni “politics” va “’olitiss” soʻzlari bilan ifodalaydi – fransuzlar unisini ham, bunisini ham “siyosat” deb ataydi. ’olisy – konsepsiya, harakat dasturi, bu holda u harakatda, bir odamning, odamlar guruhining, hukumatning xatti-harakati... Shu tariqa, “siyosat” soʻzi oʻzining birinchi ahamiyatiga binoan – bu dastur, xatti-harakat usullari yoki odam yoki odamlar guruhi tomonidan biron-bir muammo, hamjamiyat oldida turgan muammolar yigʻindisiga nisbatan amalga oshayotgan xattiharakatning oʻzidir. Siyosat ikkinchi mahnoda (inglizcha “’olitiss”) turli siyosiy yoʻnalishlarda qarama-qarshi kurashayotgan yoki raqobatlashayotgan (’olisy ahamiyatiga molik ravishda) ijtimoiy hayot sohasiga taalluqlidir. Siyosat sohasi – bu shaxsiy “’olisy”ga ega boʻlgan, yahni oʻz maqsadi, manfaatlari va oʻz dunyoqarashiga ega boʻlgan, ichida shaxslar va guruhlar oʻzaro kurashayotgan jamuljamlikdan iboratdir”. Shu bilan birga, R.Aron siyosatni insonga, insonlararo munosabatlar mavjud boʻlishiga, insonlarni hamjamiyatga uyushib yashashiga bogʻliq holda talqin etadi: “Insonlar oʻrtasidagi har qanday oʻzaro xatti-harakat hokimiyat mavjud boʻlishini taqozo etadi; shu tarzda, siyosatning mohiyati hokimiyatni amalga oshirish va idora etuvchilarni tanlash yoʻlidan iboratdir. Siyosat – hamjamiyatning bosh xarakterli belgisidir, zero, u insonlar oʻrtasidagi har qanday oʻzaro xatti-harakatlar shartsharoitlarini belgilab beradi.

Siyosat – avvalambor, yunoncha “’oliteia” so‘zining tarjimasidir. Bu so‘z yunon tilida polis rejimi, deb atalib, u butun bir hamjamiyatni uyushtirishning ajralib turadigan belgisi, rahbarlikning tashkil etish yo‘li mazmunini anglatadigan tushunchadir. Agar siyosat o‘z mohiyatiga ko‘ra hamjamiyat tuzumi yoki uni uyushtirish yo‘li bo‘lsa, uning tor va keng mahnolardagi xarakterli belgilari namoyon bo‘ladi. Siyosat tor mahnoda – bu idora etuvchilarni va hokimiyatni amalga oshirishni belgilab beradigan o‘ziga xos tizimdir; lekin, shu bilan bir vaqtda, u har bir hamjamiyat ichidagi shaxslarning o‘zaro xatti-harakatlarining ro‘y berish tarzidir. Siyosatning ikkinchi belgisi birinchisidan kelib chiqadi. Har bir jamiyatning o‘z rejimi mavjud, lekin jamiyat rejimlarning turli-tumanligini, shunga mutanosib ravishda turli-tuman muammolarning paydo bo‘lishini tan olmasa, o‘zini o‘zi anglay olmaydi. endi siyosat – xatti-harakat dasturi va siyosat – soha o‘rtasidagi farqlar oydinlashadi.

Siyosat o‘zining birinchi ahamiyatiga binoan o‘zini turli yo‘llar bilan namoyon etadi: o‘z qo‘lida hokimiyatni to‘plagan va uni amalga oshirayotgan R siyosati; hokimiyatga ega bo‘lmagan, lekin unga ega bo‘lishdan umudvor bo‘lganlar siyosati; o‘z siyosiy maqsadlarini amalga oshirishga intilayotgan va o‘z shaxsiy usullarini qo‘llashga moyil bo‘lgan shaxslar yoki guruhlar; va nihoyat, tuzumni o‘zini o‘zgartirishga intilayotganlar siyosati. Bularning barchasi – gap rejimning ichki vazifalari to‘g‘risida yoki uning o‘zini yashashi bilan bog‘liq maqsadlari to‘g‘risida ketishiga bog‘liq holdagi tor yoki global xatti-harakatlar dasturidan boshqa narsa emas. Men yuqorida qayd etib o‘tganimdek, siyosat nafaqat ijtimoiy jamuljamlikning bir qismini, balki hamjamiyatning butun qiyofasini xarakterlaydi”. Hozirgi davrga kelib siyosatshunoslik fanida siyosat tushunchasiga turli nuqtai nazarlarni o‘rganish asosida aniqlik kiritish nazariyasi shakllandi. Bu kabi turlicha talqinlar Buyuk Britaniyaning Uyebst lug‘atida “Siyosat nima?” degan savol asosida quyidagi tahriflar

keltirilgan: Siyosat – axloqning davlat va jamiyatga daxldor qismi bo‘lib, hukumatning shaxs oldidagi axloqiy-mahnaviy majburiyatlarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Siyosat – siyosiy xatti-harakatlar yig‘indisi va siyosiy amaliyotdir. Siyosat – bir-biri bilan raqobatdagi manfaatlar guruhlari o‘rtasidagi musobaqadir. Siyosat – nodavlat tashkilotlarning hukumat ustidan nazoratni kengaytirish maqsadidagi xatti-harakatlaridir. Siyosat – jamiyatni boshqarish bilan bog‘liq faoliyatdir. Siyosat – alohida shaxsning siyosiy tamoyillari, maslaklari, mulohazalari yoki mayllari majmuasidir. Siyosat – jamiyatdagi insonlararo o‘zaro tahsir qilish va nizoli munosabatlar yig‘indisidir. Siyosat – yetakchilar va ularga ergashuvchilar o‘rtasidagi munosabatdir. O‘zlarining siyosiy hokimiyat vositasida qondiradigan manfaatlarini anglab yetish uchun qobiliyati bo‘lmagan kishilik birliklari o‘z xususiy elitalarining mutelariga yoki boshqa siyosiy subyektlar manfaatlarini qondirish vositasiga aylanadi va ularning ustomonligi qurboni bo‘ladi. Sobiq ittifoq davrida ishchilar sinfi ana shunday qurbonlardan biriga aylangan edi. Manfaatlarni siyosiy anglashning mazmunli munosabatlari davlat hokimiyatidan foydalanish vositalari va maqsadlarini ishlab chiqishda (yoki hokimiyatga tahsir etishda), ittifoqchilar va muxolifat bilan o‘zaro munosabatlar mehyorlarida yoki, qisqacha aytganda, guruhlar ijtimoiy ehtiyojlarini tatbiq qilishga qaratilgan siyosiy irodani shakllantirishda ifodalanadi. Siyosiy xatti-harakatning shakllanishi bosqichida manfaatlarni baholash jarayonlari ro‘y berib, unda subyektning o‘zboshimchalik qilishi imkoniyatlarining paydo bo‘lishi xavfli holatdir.

Ijtimoiy imkoniyatlarni oshirib yoki kamaytirib ko‘rsatish, guruhiy irodalarni shakllantirishdagi xatolar, muxolifat imkoniyatlarini to‘g‘ri baholamaslik kabilar inson ehtiyojlari siyosiy qiyofasini jiddiy buzib ko‘rsatishi mumkin. Agar guruhiy manfaatlarni baholashda davlat xatoliklarga yo‘l qo‘ysa, bu holat

siyosiy muvofiqlashtirish obhektlarini oʻzboshimchalik bilan tanlashda yoki boshqarishning toʻgʻri kelmaydigan vositalari va usullarini qoʻllashda koʻrinadi. ehtiyojlar va ularni siyosiy baholashlar oʻrtasidagi farqlanishlar qancha katta boʻlsa, siyosiy muvofiqlashtirishdagi sunhiylik shuncha yuqori boʻladi, siyosiy maqsadlarni ideallashtirishga ham keng yoʻl ochiladi. Siyosiy ahamiyatga ega manfaatlarni anglash xarakteri bevosita siyosiy soha chegaralari bilan bogʻliqdir yoki, boshqacha aytganda, siyosat ongli ravishda davlat-hokimiyat muvofiqlashtiradigan obhektlar sonini koʻpaytirish yoki ozaytirish imkoniyatlariga egadir. Shuning uchun ham fransuz olimi G.Yerme shunday deb yozgan edi: “... eng yaxshi hukmdor – bu davlatning oʻzicha jamiyat manfaati deb fuqarolar irodasiga zid ravishda amalga oshiradigan niyatlaridan fuqarolarni himoya qiladigan hukmdordir”. Shu tarzda siyosatni ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga kirib borishi (yahni, inklyuzivlik xususiyati) siyosiy ong xarakteri va sifatiga bogʻliqdir. Boshqacha aytganda, siyosat ularga bogʻliq holda insoniy munosabatlarning boshqa ijtimoiy muvofiqlashuvchi sohalariga ham oʻz oʻrnini boʻshatib berishi mumkin. Shuning uchun ham demokratik jamiyatlar doimo siyosatning ijtimoiy hayotga sunhiy ravishda kirib kelishiga yoʻl qoʻymasligi, siyosiy irodaning manfaatlar va sogʻlom fikrlashdan ustuvor boʻlishidan saqlanish muammolarini hal qilishga majburdir.

Guruhlar oʻzaro siyosiy harakatlarining ongli tarzda roʻy berish tabiati, murakkab irodalarni tizimlarga solishning obyektiv ehtiyojlari oʻz funksiyalarini amalga oshirishda koʻproq siyosiy elitalar bilan bogʻliq boʻlgan siyosatning oʻziga xos subyektlari boʻlishini taqozo etadi. Funksional nuqtai nazardan qaraganda elita professional faoliyat evaziga ijtimoiy jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi boshqaruvchilar qatlamidir (stratasidir). Koʻpchilik nazariyotchilar elitaning siyosiy kursni shakllantirish, guruhlar oʻzaro harakatlarini, kishilarni davlat bilan aloqalarini

tashkil etish sohasidagi o‘rnini tan olgan holda siyosatni jamiyatga rahbarlik qilish va boshqarish “sanhati” sohasiga mansub deb biladilar. Lekin siyosat tabiatini xolisona tushunish uchun elita tomonidan amalga oshirilayotgan funksiyalar qanchalik muhim bo‘lmasin, uning faoliyati bu sohadagi barcha zaruriy rollarni o‘ynashni qamrab ololmaydi. Yelitar konsepsiyalar tarafdorlari, “vakillik tizimi”, shuningdek boshqa nazariyalarning idora etuvchi guruhlarni noyobligini dahvo qiluvchi fikrlariga qarama-qarshi holda shuni aytish lozimki, siyosiy jarayon uchun elektoratning funksiyalari ham elitanikidan qolishmaydigan muhim zaruriyatdir.

Aholi guruhlaridan biri jamiyatni boshqarishga doir maxsus funksiyalarni amalga oshirishi (yelita yoki liderlar), boshqalarining funksiyasi esa nafaqat bo‘ysunishdan iborat bo‘lishi, balki ularning elita doiralarini tanlashiga va bu elitani amalga oshirayotgan faoliyati mazmuniga katta tahsir qilishi (omma, elektorat) siyosatni faqat boshqaruvchilar va boshqariluvchilar o‘zaro harakati va o‘zaro ishtiroki uyg‘unligi shaklida ro‘y berishini xarakterlaydi55 . Siyosat nafaqat ongli, balki stixiyali harakatlar, nafaqat ratsional, balki irratsional hodisa va siyosiy xatti-harakat shakllarida ham ro‘y berishi mumkin. Siyosatni tashkil etuvchi bu “moddiyotlar”ning o‘zaro munosabatlari va muvofiq kelishi ommaning o‘zgaruvchan omillarga egaligi sababli ham ko‘plab shartsharoitlarga uzviy ravishda bog‘liqdir.

Hozirgi davrga kelib fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat sharoitida siyosiy tizimlarning tubdan demokratiyalashuvi va globallashuvining avj olishi, davlat hokimiyati organlarini nomarkazlashtirish, siyosiy munosabatlarni liberallashtirish natijasida siyosatning mazmun-mohiyati va unga amal qilishga doir qator yangi nazariy qarashlar shakllandi. Rivojlangan mamlakatlarda siyosatning asosiy maqsadi va vazifasi shaxsga, uning manfaatlari va farovonligini tahminlash asnosida belgilana boshlandi. Bu yangilik asosiga fuqarolarning siyosiy jarayonlar va

siyosiy qarorlar qabul qilishdagi keng ishtirokini tahminlash ehtiyojlarini paydo bo‘lishi ham sabab bo‘ldi.

Taniqli ingliz siyosatshunosi endryu Xeyvudning fikricha, umuman “siyosat shunday bir jarayon bo‘lib, uning doirasida odamlarning o‘z xususiy hayotlari mehyorlarini tashkil etish, saqlash va boyitish amalga oshiriladi. Siyosat konflikt (sonflist) va hamkorlik (soo‘yeration) kabi hodisalar bilan uzviy ravishda bog‘liqdir. Shuning uchun ham, bir tomondan, jamiyatda mavjud bo‘lgan fikrlar, ehtiyojlar va manfaatlarning bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi o‘zaro kelishmovchiliklarga aylanadi, boshqa tomondan, hammaga Ma’lumki, bu holatni o‘zgartirish uchun yoki juda bo‘lmasa, uni saqlab turish uchun hamkorlikka zaruriyat tug‘iladi. Bundan Xanna Arendt taklif etgan siyosiy hokimiyatning “ham-faoliyat” qabilidagi tahrifi kelib chiqadi. Bu kabi barcha sabablar tufayli siyosatning mohiyatiga aksariyat holatlarda konfliktlarni hal etish jarayoni – manfaatlar va fikrlashlardagi kelishmovchiliklarni yarashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Shuningdek, siyosatga nisbatan keng yondashuvda uni faqat konfliktlarni hal etish, deb emas, balki ularni hal etish yo‘llarini izlash deb ham qarash kerak. Chunki jamiyatdagi barcha konfliktlar hal etiladi yoki hal etilmaydi. Shunday ekan, muqarrar ravishda bir tomondan, ijtimoiy turli-tumanlik (odamlar bir-birlariga o‘xshamaydi) , ikkinchi tomondan, ijtimoiy resurslarning taqchilligi (hech qachon barcha narsalar barchaga yetmaydi) tufayli ham siyosat insoniy jamiyatning ajralmas tarkibiy qismidir.

...Hozirgi kunga qadar eng obro‘li arboblar ham siyosiy fan predmeti nima ekanligiga doir o‘zaro kelisha olmay yashab kelayotganligi murakkab muammoga aylandi. Siyosat turlicha yo‘llar orqali talqin etilmoqda – hokimiyatni yuborish, jamoaviy qarorlar qabul qilish, taqchil resurslarni taqsimlash, manipulyatsiya tizimi va hokazo. Bizning ishimizda esa siyosatning, xususan, hayotning umumiy tarzini yaratish, saqlash va boyitish sifatidagi tahrifiga

ustuvorlik beriladi”56 . YE.Xeyvud o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqib, siyosatga nisbatan quyidagi yo‘nalishlarning har birini atroflicha talqin etadi: -siyosat davlat boshqaruvi sanhati sifatida; -siyosat ijtimoiy jarayon sifatida; -siyosat kelishuv va konsensus sifatida; -siyosat hokimiyat va resurslarni taqsimlash sifatida. Keyingi mavzularda bu yo‘nalishlarning mohiyati va ahamiyatiga doir turli nazariy qarashlar tahlil qilinadi.

2. Siyosatning tuzilishi Jamiyat hayotining siyosiy sohasi jamiyatning bir butunligini saqlash, unda paydo bo‘lib turadigan ziddiyatlarni o‘zaro muvofiqlashtirish maqsadidan kelib chiqqan holda majburlash vositasida ijtimoiy kuch ishlatish qobiliyatiga ega bo‘lgan, shu bilan birga, davlat hokimiyatining boshqa institutlari aralashuvini taqozo etadigan ijtimoiy va milliy birliklar ijtimoiy ahvoli va holatiga daxl qiladigan guruhlar manfaatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarda paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham siyosat – asosan guruhlar o‘rtasidagi ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan talablar va ehtiyojlarni amalga oshirish uchun hokimiyat institutlaridan foydalanishga doir maqsadlarga yo‘nalgan munosabatlar sohasidir.

Siyosat mahlum tuzilishga ega bo‘lib, u quyidagi tarkibiy qismlardan iboratdir:

1) Siyosiy munosabatlar. U jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar va hokimiyat institutlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning barqarorligi xarakterini ifodalaydi. U o‘z mazmuniga binoan elitalar va elektorat, elitalar va aksilelitalar, yetakchilar va turli qo‘llab-quvvatlash guruhlari, ijtimoiy va milliy birliklar, turli manfaatlar guruhlari va siyosiy institutlarning turli-tuman shakllardagi o‘zaro harakatlarini xarakterlaydi. Siyosiy hayotning muhim ko‘rsatkichlarini ifodalashda davlat hokimiyati sohasida ustunlik qilishni ifodalovchi quyidagi siyosiy munosabatlar xarakterlidir: siyosiy hukmronlik uchun murosasiz kurash yoki davlat avtoriteti va itoat ettirishdan optimal foydalanish maqsadlaridagi barcha ijtimoiy tabaqalar

intilishlarining ongli ravishdagi hamkorlik uchun o‘zaro uyushuvi, fuqarolar tinchligi yoki urush, barqarorlik yoki inqirozlik holati;

2) Siyosiy ong. U kishilarning hokimiyat ahamiyatiga molik bo‘lgan manfaatlarini anglab yetgan holatidagi munosabatlarini siyosiy hayot bilan uzviy bog‘liqligini ifodalaydi. U hokimiyatning muvofiqlashtiruvchilik samaradorligi va kuchini aniqlab boruvchi barcha asosiy va ahamiyat kasb etadigan siyosiy munosabatlarni ifodalovchilarni, shuningdek, subyektlarning hokimiyat masalasidagi o‘zaro bog‘liqligini xarakterlaydi. Siyosiy ongning o‘rni va roli nuqtai nazaridan qaraganda, har qanday siyosat siyosiy qarashlar va ideallar, dasturlar va maqsadlar, kishilar xulqidagi mehyorlar va ko‘rsatmalar, hokimiyat va o‘zini o‘zi boshqarish organlari, elitani rekrutlashtirish mexanizmlarini muttasil ravishda mujassamlashuvi va institutlashuvidan boshqa narsa emasdir;

3) Siyosiy tashkilot. U hokimiyat institutlarining ijtimoiy jarayonlarni muvofiqlashtirish va boshqarish markazlari sifatida xarakterlanadigan rolidir. Turli ijtimoiy tabaqalar va jamiyat siyosiy manfaatlarini ifodalovchi qonun chiqaruvchi, ijroiya, sud hokimiyatlari organlari majmui, partiyaviy va ijtimoiy-siyosiy institutlar, turli tahsir ko‘rsatish guruhlari va boshqa bo‘g‘inlar siyosatning tashkiliy qobirg‘asi hisoblanadi. Siyosiy tashkilotlar aholining hokimiyatga doir irodalarini mujassamlashtiradi, uni boshqaruv qarorlarida ifoda etadi, shu tariqa, barcha siyosiy jarayonlar uchun mahlum bir yo‘nalishlar baxsh etadi57 . Siyosatda bunday tuzilmaviy unsurlarninng o‘zaro xattiharakati va ularning mavjudligi ularning ichki bir butunligini tahminlaydi, shu bilan birga, siyosatni jamiyatda mahlum funksiyalarni bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

3. Siyosatning funksiyalari Siyosiy fanlarga muvofiq siyosatning turli-tuman funksiyalari mavjuddir. Olimlar bu funksiyalarni turlicha tahriflaydilar. Hozirgi davr siyosatshunosligida shakllangan xarakterli nuqtai nazarlarni umumlashtirganda, siyosatning

funksiyalari quyidagilardan iboratdir: -jamiyatning barcha ijtimoiy tabaqalari va guruhlarining hokimiyatga bog‘liq manfaatlarini ifoda etadi. Bu mahnoda siyosat kishilarga o‘z ehtiyojlarini qondirishlari va ijtimoiy maqomlarini o‘zgartirishlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar berish vositasidir; -siyosat fuqarolar manfaatlarini faollashtirish, ziddiyatlarni ochib berish, maqsadlarni qo‘lga kiritish jarayonini kuzatib borish natijasida jamiyatda paydo bo‘lgan ziddiyatlarni o‘zaro muvofiqlashtiradi va kelishtiradi, ularni davlat va fuqarolar o‘rtasidagi mahrifiy va madaniy muloqotlar oqimi sari yo‘naltiradi. Shuning uchun ham Platon siyosatni “birgalikda yashash sanhati” deb bejiz aytmagan; -siyosat ijtimoiy majburlash vositasidan foydalanish imkoniyatini nazarda tutgan u yoki bu aholi tabaqalari yoki barcha sotsiumning bir butun manfaatlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga rahbarlik qilish va boshqarish, yahni ziddiyatlarni muvofiqlashtirish va kelishtirishga doir o‘ziga xos funksiyani bajaradi; -siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni muvofiqlashtirish va boshqarish asnosida aholi turli tabaqalarining manfaatlarini bir butun manfaatlar tizimiga keltirishning ustuvorligiga muhim ahamiyat berish asosida ularni integratsiya qilishni mo‘ljallaydi.

Siyosat ijtimoiy tizim bir butunligini, ijtimoiy tartibni (hattoki idora etish rejimlari o‘zgarganida ham) tahminlaydi; -siyosat shaxsni ijtimoiylashtirishning muhim vositasi, uni ijtimoiy munosabatlarning murakkab olamiga olib kiruvchi omildir. Siyosat sohasida shaxsning ijtimoiy faolligining ustuvor motivi – bu uning muhitga moslashuvi emas, balki shaxs- ning o‘zgarish va takomillashish ehtiyojlaridir. Shu tariqa, inson siyosat vositasida o‘zining hayotiy ehtiyojlarini qondirish, hozirgi zamon dunyosini real tasavvurlash qobiliyatiga ega bo‘la oladi. Ana shu sababli ham siyosat o‘ziga xos bo‘lgan insonni kamolotga yetkazish funksiyasini ham bajaradi. U shaxsga o‘zini mustaqil ijtimoiy faol mavjudot sifatida rivojlanish imkoniyatlarini yaratib beradi; -siyosat

fuqarolarning individual maqsadlari va guruhiy manfaatlarini amalga oshirishga imkoniyatlar yaratib, jamiyat va shaxsning ijtimoiy rivojlanishini yangilanib turishini (innovatsiyasini) tahminlaydi. Boshqacha aytganda, jamiyat siyosiy muvofiqlashtirish usullaridan foydalangan holda hayotni ijtimoiy tashkil etishning yangi shakllarini barpo etadi, inson va tabiat, xalqlar oʻrtasidagi munosabatlarni kengaytirish uchun shart-sharoitlarni yaratadi.

Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlar siyosatning eng asosiy funksiyalariga doirdir. Chunki siyosat nafaqat aniq koʻzga tashlanib turgan, ochiq ifodalagan funksiyalarni, shuningdek, latent (yashirin) funksiyalarni ham bajarishi mumkinligini AQSH olimi R.Merton qayd etgan edi. Tirik organizmlarda boʻlgani kabi u yoki bu jamiyatlarda siyosatning mahlum funksiyalari rivojlanmagan xarakter kasb etishi mumkin. Masalan, jamiyatning u yoki bu sohalariga davlat aralashuvining ijobiy natijalarini tasavvur qila olmaslik holati siyosatni ijtimoiy jarayonlarni boshqarish imkoniyatlaridan butunlay yoki toʻla mahrum qilib, uni yuz berayotgan hodisalarga nisbatan doimo kechikib munosabat bildiradigan holatga solib qoʻyishi mumkin58 . Shuning uchun ham siyosatning asosiy funksiyalarini amalga oshish (yoki amalga oshmaslik) xarakterining yetukligi va rivojlanganligi toʻgʻrisidagi tasavvurga ega boʻlishga zaruriyat tugʻiladi.

4. Siyosatning ijtimoiy hayotning turli sohalari bilan oʻzaro munosabatlari Siyosat tabiatini tushunish uni jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan aloqalarini oʻrganishni taqozo etadi. Siyosat iqtisod, axloq, huquq, ruhshunoslik, badiiy madaniyat kabilar tahsirini his etadi, shuningdek, uning oʻzi ham ana shu va boshqa inson faoliyatiga doir sohalarga tahsir qiladi. Siyosat oʻzining tuzilmasi va mohiyatini toʻla ochib beradigan mahlum belgilar va xususiyatlarga egadir. Ma’lumki, siyosiy fikrlashlar jarayonida siyosatni jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan bogʻlash sekinlik bilan anglab yetilgan. Qadimgi Gretsiyadan to yangi davrgacha

siyosatni ijtimoiy organizm bir butunligini ta’minlovchi o‘ziga xos sotsium va inson o‘zaro munosabatlarining barcha shakllarini qamrab oluvchi, inson faolligining umumiy universal shakli sifatidagi qarashlar va sharhlashlar hukmron bo‘lib keldi. Faqat N.Makiavelli, J.Lokk va T.Gobbs asarlari bilan bog‘liq holdagina siyosatni fuqarolik jamiyatidan ajratgan holda va uni hayotning boshqa sohalari bilan bog‘liq tarzda tushunish davri boshlandi.

Siyosiy fikrlashning turli yo‘nalishlari va maktablari siyosatning boshqa ijtimoiy sohalar bilan munosabatlardagi rolini turlicha talqin etib keldi. Bahzi mutafakkirlar siyosatning yetakchi sohasini “insoniy hayot faoliyati” bilan (Moska) bog‘laydi; boshqalari uni “iqtisodga bog‘liq bo‘lgan ikkinchi darajali hodisa”, deb biladi (Marks) yoki uni “huquq” (Gobbs) , “axloq” (Aristotelg‘) yoki “din” (diniy-teologik anhanalar), deb biladi; uchinchi yo‘nalish esa siyosatni inson faoliyatining barcha boshqa turlari bilan qorishtirib, shu tariqa, boshqa ijtimoiy sohalardan ayri ekanligini bilib bo‘lmaydi, degan fikrda qoladi (Fryond) ; to‘rtinchi yo‘nalish vakillari esa uni nisbatan avtonom bo‘lgan, ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan teng huquqli yo‘nalish sifatida talqin etadi. Siyosatning boshqa ijtimoiy sohalar bilan munosabatlarini aniqlash va tushunish ikki tomonlama xarakter kasb etdi. Jumladan, real hayotda siyosatning iqtisod, huquq, din va hayotning boshqa sohalari bilan o‘zaro munosabatlari sabab-oqibatli va funksional xarakter kasb etdi.

Siyosatning sabab-oqibatli xarakteri vositasida siyosiy jarayonlarning determinallashganligi, uning kelib chiqishi yoki oqimi xarakterining qandaydir nosiyosiy (iqtisodiy, mafkuraviy, madaniy va boshqa) omillar bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Masalan, davlat hokimiyatini fuqarolarning mulkiy va ijtimoiy ahvoliga bog‘liq ekanligi to‘g‘risidagi g‘oyani dastlab Aristotelg‘ ilgari surgan edi. Asrlar davomida bu g‘oya boshqa olimlar tomonidan rivojlantirildi. Masalan, Adam Smit siyosiy munosabatlar iqtisodiy

tuzumga muvofiq bo‘lishi lozimligi g‘oyasini ishlab chiqdi. Marksistik doktrinadagi iqtisodiy determinizm g‘oyasi siyosatning mazmunini sayozlashtirib va uning shaklini moddiy munosabatlarning boshqacha turi, deb biladi, siyosat funksiyalarini go‘yoki undan ustunlik qiluvchi iqtisodiy uklad rivojlanishini tahminlash bilan cheklaydi. Iqtisodni shu tarzda determinatsiyalashtirishning mutlaqlashtirilishini shu bilan izohlash mumkinki, marksizm kishilarning siyosiy hayotdagi ishtiroklarining ideal motivlarini materialistik talqin qilishga harakat qilib, nafaqat boshqa ijtimoiy sohalarning (mahnaviy, diniy, huquqiy va boshq.) tahsirini inobatga olmadi, balki siyosiy ishtirokning individual va sotsiomadaniy mexanizmlari to‘g‘risidagi tasavvurlarni ham keskin tarzda siyqalashtirdi. Marksizm determinatsiyalovchi aloqalarni sunhiy tarzda bo‘rttirib, oshirib ko‘rsatish va ilmiy fikrlashda siyosatni iqtisodga bog‘liq qilib qo‘yish bilan bir qatorda, bu masalada yana boshqa tomonga og‘adi – siyosatni o‘z o‘zini determinatsiyalovchi hodisa sifatida talqin qilib, siyosatning ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga tahsir kuchini yo‘qqa chiqaradi. Bunday yondashuvlar “idora etuvchi sinf”da yoki elitalar xususiyatlarida “siyosiylikning” bosh manbalarini ko‘radigan elitar konsepsiyalarga yoki “iflos” siyosat va “toza” axloqning prinsipial bir-biriga qo‘shilmasligiga doir bahzi nazariyalarga xosdir.

O‘z navbatida, siyosatning va ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan o‘zaro funksional aloqalari va munosabatlari ularning o‘zaro bir-birlari bilan bog‘liqligini ifodalaydi, shu bilan birga, ular ijtimoiy jarayonlarni muvofiqlashtirishning nisbatan mustaqil tizimlaridir. Boshqacha aytganda, turli sohalarning funksional munosabatlari jamiyatdagi mavjud axloqiy, siyosiy, huquqiy va boshqa insoniy konfliktlarni boshqarish, guruhiy munosabatlarni muvofiqlashtirish, jamiyat birligini tahminlash vositalarining o‘zaro aloqadorligini namoyish etadi. Bu regulyativ tizimlar bir vaqtning o‘zida tarixiy vaziyatlarga bog‘liq holda, shakllangan mentalitet va yana boshqa

koʻplab sabablar tufayli xulq yoki xatti-harakatlar talab etgan ragʻbatlantirish shakli, ular taklif etgan mehyorlar va sanksiyalar turli xil samaradorliklarni namoyish etishi mumkin. Shu tariqa, jamiyatning insoniy ziddiyatlarni axloqiy yoki siyosiy, iqtisodiy yoki huquqiy regulyatorlaridan foydalanishi ijtimoiy hayot sohasidagi munosabatlarga oʻziga xos ustuvorliklarni yuklaydi. Ular oʻrtasida vaqtinchalik oʻrnatilgan bu aloqalar xarakteri ijtimoiy hayotning u yoki bu sohasining roli oshganligi yoki pasayganligini bildiradi.

Odatda, barqaror demokratik jamiyatlarda siyosatning boshqa ijtimoiy sohalar bilan funksional aloqasi mustahkam va dinamik xarakter kasb etadi. Bu sifatlar ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirishning siyosiy usullari rolining pasayishi, diniy va axloqiy mehyorlar avtoritetini, iqtisodiy hayotni oʻz-oʻzini tashkil etish usullarini kuchaytirish tamoyillarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, oʻtish davri sharoitlarida yoki avtoritar tamoyillarning oʻsish davrida ijtimoiy jarayonlarni muvofiqlashtirishning siyosiy usullarining roli kuchayadi. Totalitar rejimlarda esa boshqarishning siyosiy usullari vositasida idora etish iqtisodiy, axloqiy, huquqiy omillar tahsiri va qadrini tushirish hisobiga amalga oshiriladi. Bunda elita mafkuraviy mulohazalardan kelib chiqib axloqiy mehyorlarni pisand qilmaydi, shuningdek, iqtisodiy maqsadga muvofiqlikdan kelib chiqib, inson qadr-qimmatiga oid tushunchalarni nazarga ilmaydi.

Hokimiyatlarning fuqarolar shaxsiy hayotiga aralashuvi, ularning shaxsiy va jamiyatdagi hayoti toʻla nazorat qilinishi natijasida siyosat boshqa ijtimoiy sohalarni yutib yuborishi jarayonlari sodir boʻladi. Shuning uchun nafaqat sabab-oqibatli, balki ijtimoiy hayot sohalari oʻrtasidagi funksional aloqalarini mutlaqlashtirish siyosat tabiatini jiddiy salbiy oʻzgarishiga olib keladi. Siyosat va iqtisod. Siyosat bilan iqtisod oʻrtasidagi munosabatlarda siyosiy hokimiyatni shakllanish jarayonlarida iqtisodning sezilarli determinatsiyalash rolini kuzatish mumkin.

Iqtisodning bunday determinatsiyalash rolini developmentalistik ((fr. develo‘yement – rivojlanish) yondashuvi misolida ko‘rish mumkin. Bu yondashuv tarafdorlari siyosatning iqtisodga bog‘liq ekanligini mutlaqlashtirmagan holda iqtisodning kuchsiz rivojlanishi hokimiyatning markazlashuvi va avtoritar tamoyillarning kuchayishiga zaruriyat va ehtiyoj sezadi, deb biladi. Shuningdek, ular jamiyatdagi iqtisodiy o‘sish, jon boshiga o‘suvchi yalpi ichki mahsulot plyuralistik demokratiyaning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi, degan g‘oyani ham ilgari suradi. Taniqli olim B.Rasset qator ijtimoiy-iqtisodiy (O.Xolining aholi jon boshiga ko‘rilgan foyda, mahlumotlilik darajasi, maktab tahlimi bilan qamrab olinganligi, ommaviy axborot vositalarining tarqalishi va hokazo) va turli siyosiy (davlatning boshqaruvi uchun xarajatlar, saylov tizimining xarakteri va hokazo) ko‘rsatkichlarni to‘plab, ular asosida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tiplariga muvofiq keladigan jamiyatlarning turlarini ajratib ko‘rsatadi: anhanaviy, primitiv jamiyat; anhanaviy sivilizatsiya; o‘tish jamiyati; sanoat inqilobi jamiyati va yuksak ommaviy istehmol jamiyati59 . Albatta, “iqtisod doimo hayotning siyosiy sohasini aniqlaydi” qabilidagi qarashlar – bu uni haddan oshirib ko‘rsatishdir. U yoki bu davlat, sinf, millat, guruh siyosatining asosiy manbalarini iqtisodiy determinizmga bog‘lash ham to‘g‘ri emas. Ammo, shu bilan birga, siyosatning iqtisodga butunlay bog‘liqligini tarixiy rivojlanish tajribasi ham inkor qiladi.

Siyosat hokimiyati – davlatning itoat ettirish shakliga o‘tishi bilan xo‘jalik muammolari ijtimoiy ahamiyat kasb eta boshlaydi, shuningdek, davlat iqtisodning butun bir jamiyat manfaatlari bilan bog‘langan jihatlari uchun o‘zining muvofiqlashtirish qobiliyatini saqlaydi. Lekin bunday tahsir uch xil bo‘lishi mumkin: pozitiv, negativ yoki neytral. Iqtisodni nomonopollashtirish va nomilitarlashtirish, makroboshqaruvni takomillashtirish, faol ijtimoiy siyosat olib borish, korrupsiyaga qarshi kurash kabi hozirgi

zamon ijtimoiy taraqqiyoti ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal qilish davlatning iqtisodiy muvofiqlashtirish markazi sifatidagi rolini oshirishni talab etmoqda. Masalan, G‘arbdagi ham liberal, ham konservativ mafkuraga berilgan doiralar davlatning regulyativ qobiliyatini talab qiluvchi obyektiv ijtimoiy jarayonlar tahsirida davlat organlarining iqtisodiy jarayonlarga aralashuviga nisbatan murosasiz nuqtai nazarlaridan voz kechmoqda. Boshqa tomondan yondashganda esa tadbirkorlik, kichik va oilaviy biznes, fuqarolarning xo‘jalik tashabbuslari kabilarga bog‘liq holda jamiyat ijtimoiy tuzilmalaridagi ilgari siljishlar uchun davlatning xo‘jalik-iqtisodiy hayotini boshqarishdagi ishtirokini kengayishiga qarama-qarshi o‘laroq, iqtisodiy jarayonlarni va o‘z-o‘zini tashkil etish tamoyillarini kuchaytirish foydalidir. Lekin aniq bir mamlakat miqyosida fikr yuritganda, sababli va funksional munosabatlarni o‘rganish talab etiladi. Umuman, siyosat bilan iqtisod bir-biri bilan bevosita emas, balki bilvosita – ijtimoiy munosabatlar orqali o‘zaro bog‘liqdir. Iqtisod insonlar hayot faoliyatining moddiy asoslarini oldindan belgilab, bu bilan jamiyat ijtimoiy differensiatsiyasi xarakterini aniqlaydi. Turli xil guruhlar o‘z ijtimoiy manfaatlarini iqtisodiy mazmunlariga muvofiq holda qondirishni davlat faoliyatining u yoki bu xarakteriga yoki hokimiyat institutlarining o‘z manfaatlarini qondirishga undaydigan siyosiy shakllarga murojaat qilishlari tabiiy bir holdir.

Davlatning qatlamlar va guruhlar ijtimoiy so‘rovlariga u yoki bu shaklda aks-sado berishi siyosatni iqtisodiy hayot so‘rovlari va talablarini konsentratsiyalash, ularni qabul qilinayotgan hokimiyat organlari qarorlari mazmuniga aylantirishga majburlaydi. Lekin bu manfaatlar davlat siyosatida yangi yo‘nalishlar bo‘lishiga olib keladimi yoki hokimiyat o‘z siyosiy yo‘lini radikal modernizatsiya qilishga majburlaydimi (yahni, yangi siyosatni shakllantirishni shart qilib qo‘yilishi, davlatning o‘z vakolatlarini amalga oshirishning yangi yo‘nalishlariga zaruriyat sezishi) yoki jamiyat u yoki bu

guruhlar takror ishlab chiqarishini tahminlashning nosiyosiy vositalaridan foydalanishni afzal koʻradimi yoki mahlum strata va tabaqalar maqsadlariga erishishi uchun toʻsiqlar qoʻyadimi – bularning hammasi aniq tarixiy vaziyatga bogʻliqdir. Shuningdek, iqtisod bilan siyosat oʻrtasidagi munosabatlar xarakteri turli-tuman boʻlishi mumkin. Siyosat va huquq.

Huquqiy soha amaldagi qonunchilikda u yoki bu kuchlar siyosiy hukmronligining asosiy prinsiplarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, huquqiy mehyorlar oʻtkir va keskin siyosiy talablarni yumshatadi, bu bilan nafaqat siyosiy yoʻl tarafdorlari talablariga, balki davlatning barcha fuqarolariga moslashadi, partiyaviy ishtiyoqlari mavjudligi yoki yoʻqligidan qathi nazar ularga umummajburiy talablar qoʻyadi. Huquq jamiyatning tabiati oldindan belgilab qoʻygan, kishilarning hamkorlikda yashash talablari tizimi boʻlib, bu talablar amaldagi qonunlarda mustahkamlab qoʻyilganmi yoki yoʻqmi, undan qathi nazar, hamkorlikka yoʻgʻrilgan kishilar birliklari bu tizimsiz yashay olmaydilar. Shuning uchun ham huquq u yoki bu qatlam, millat, davlatning siyosati yetukligining oʻziga xos mezonidir. Shu tufayli ham huquq jamiyatdagi fuqarolarning farovonlik va mahlum tartibotda yashashiga nisbatan ijtimoiy oʻzaro talablarining quyi chegarasi boʻlib, usiz jamiyatning ham, individlarning ham bir-birlarini ijtimoiy va siyosiy faoliyatlariga ziyon keltirmaydigan holatdagi kishilik hayoti va hokimiyat jarayonlaridagi ishtiroklarini amalga oshirib boʻlmaydi.

Huquqiy shaklda (pozitiv huquq) fuqarolar ijtimoiy va siyosiy xulqi va xatti-harakatini huquqiy muvofiqlashtirishning ifodalanishi – bu inson individual xulqining yoʻl qoʻyilgan chegaralarda alohida oʻsish xarakteriga ega ekanligidir. Shu tarzda huquq idora etuvchi tuzilmalarning, shuningdek, muxolifatning ham faoliyat imkoniyatlari va chegaralarini aniqlab beradi. Shuning uchun hokimiyat doiralarining huquqqa boʻysunishi – siyosiy rejimning legitimligi va uning barqarorligini tahminlash uchun yaratilgan

jiddiy shart-sharoitlardan biri hisoblanadi. Albatta, aniq siyosiy tizimlarda siyosat bilan huquq oʻrtasidagi munosabatlar ziddiyatli, shuningdek, bir xil ahamiyat kasb etmasligi mumkin. Nafaqat totalitar yoki avtoritar, balki mahlum darajalarda demokratik mamlakatlarda ham koʻpincha siyosiy loyallik qonundan yuqori qoʻyiladi, buning natijasida esa qonunning huquqiy muvofiqlashuvi kuchsiz kechadi.

Sobiq ittifoq davridan Ma'lumki, partiya va davlat nomenklaturasi nafaqat qonunlarga boʻysunmadi, aksincha, undan oʻz siyosiy muxolifatlarini yoʻq qilish uchun unumli foydalandi. Bu davrda siyosiy qatagʻonga uchraganlar "jinoyatchilar", deb e'lon qilindi. Davlat repressiv apparatining barcha kuchi ularga qarshi qaratildi. Siyosat va axloq. Siyosat bilan axloqning oʻzaro mutanosibligi muammolari bir necha ming yillardan buyon mutafakkirlar ijodida muhim oʻrin egallab keldi. Gʻarb dunyosidagi siyosiy fikrlar tarixida bu masalani yechishning uch xil yondashuvi shakllandi. Birinchi guruh mutafakkirlar – Makiavelli, Moska, Mixelgʻs, Bentli, Byornxem, G.Kan kabilar siyosatda axloqning rolini inkor qilish nuqtai nazariga yaqin turdi. Platon, Aristotelgʻ, e.Fromm, L.Memford, J.Xaksli kabilar esa aksincha, siyosiy yondashuvlarni axloqiy-yetikaviy baholashlar bilan qorishtirib, axloqning ustuvorligi talqinini meros qilib qoldirdi. Uchinchi guruh vakillari – A.Shveytser, M.Gandi, A.Yepshteyn kabilar esa axloq vositasida siyosatning fazilatlarini oshirish tarafdori boʻldi.

Amaliy hayot koʻrsatdiki, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida boʻlgani kabi siyosatda ham dastlabki davrlardan boshlab manfaatlarni shakllantirish va ularni amalga oshirish jarayonlari insonda axloq ustuvorligi, uning hokimiyatga dahvogarlik qilishdagi adolatga amalga qilishga doir tasavvurlari davlatga nisbatan yoʻl qoʻyilgan va taqiqlangan munosabatlardagi erkinlik va tenglik chegaralarida kechishi anhanalari shakllandi, siyosiy institutlar bilan bogʻliq boʻlgan munosabatlarda oʻzaro mashullik kabi

qadriyatlarga amal qilish boshlandi. Boshqacha aytganda, siyosat dastlabki davrlardan boshlaboq o‘zida ikki xil o‘lchov – insonning davlat hokimiyati bilan bo‘lgan munosabatlaridagi baholash va mo‘ljal olish tizimlarini aks ettirdi: foyda va axloq. Agar siyosiy ong insonni maqsadga erishishi samarali yoki samarasiz, zararli yoki foydali hodisalar sifatida baholashga majburlasa, axloq bu masalalarni ezgulik va yovuzlik, mavjudlik va zaruriyat kabi o‘zaro munosabatlardan kelib chiqib hal qiladi va bu bilan baholash va mezonlash tizimidan yuqorida turadi. Albatta, siyosatning axloqiyligi nisbiy o‘lchovdir. Barqaror demokratik rejimlarda axloq xalq bilan elita o‘rtasidagi o‘zaro hurmatli muloqotning muhim manbalaridan biridir. Shu bilan birga, u yoki bu mamlakatlardagi ayrim siyosiy jarayonlar (urushlar, inqirozlar, inqiloblar, modernizatsiyalar) siyosiy xatti-harakatlarning axloqiy yo‘l qo‘yilgan chegaralarini buzishga moyil bo‘lib qolmoqda. Bahzi hollarda esa axloqiy qadriyatlar siyosiy hayot chegaralaridan butunlay chiqarib tashlanmoqda.

Siyosiy jarayonlarning barcha kengliklari ham axloqiy va siyosiy yondashuvlar ziddiyatlarini o‘zlarida teng ravishda ifodalamaydi. elitalar boshqaruv faoliyatining faqat kasbiy toifaga tegishli sohalari yoki insondan axloqiy tanlashni talab qilmaydigan fuqarolar majburiyatlarini amalga oshiruvchi texnologiyalar, odatda, axloqiy refleksiyaning (javob tahsir) minimal darajasiga egadir, xolos. Shu bilan bir vaqtda, bu ziddiyatlar subyektning siyosiy nuqtai nazari ishlab chiqilayotgan jarayon – qarorlar qabul qilishda ularga erishish maqsadlari va vositalari mutanosibligi ro‘y berayotgan paytlarda ancha keskinlashadi. Masalan, Germaniyada fashistlar hokimiyat uchun kurashayotgan davrda ishchilar huquqi va qadrini himoya qilish, ular institutlarini saqlashga vahda beradi. Lekin ular bir vaqtning o‘zida (1933 yil bahorida) ishchilarning kasaba uyushmalari, xazinalari, gazetalari tahririyatlarini o‘z binolaridan haydab chiqarib, ularning o‘rniga fashistlar boshchiligidagi “Nemis

ishchilar fronti” kasaba uyushmasini tuzdi. Bolg‘sheviklar dohiylarining siyosati ham xuddi shu kabi axloqsizlik asosida amalga oshirildi. Ular ham ishchilar manfaatlarini himoya qiluvchilar sifatida inqilob uyushtirdilar, ko‘p o‘tmasdan o‘z repressiv apparatini ishchilarga qarshi qarata boshladi60 . Axloq va siyosat o‘rtasidagi ziddiyatlarni, har qanday shakldagi ijtimoiy majburlashni, hattoki kuch ishlatishni o‘z tabiatiga ko‘ra axloqsizlikdir, deyish ham qiyin holatdir. Aslida subyekt tomonidan qo‘llanayotgan siyosiy usullar va vositalarni axloqiy baholash konkret vaziyatlarga bog‘liqdir. Masalan, agressor xattiharakatiga qarshi yoki insonning yashash mehyorlarini ochiq ravishda buzuvchi kishilar (va guruhlar) faoliyatini to‘xtatish bilan bog‘liq kuch ishlatish axloqiy jihatdan ehtirof etiladi. Sotsiolog R.Douzning fikricha, kuch ishlatish monopoliyasiga ega bo‘lgan davlat o‘z legitimligini tahminlay olsa, yahni xalqning axloqiy tuyg‘ulari rasmiy hokimiyat axloqiy mehyorlariga to‘g‘ri kelgandagina bu kuchdan samarali foydalana olishi mumkin61 .

Nemis olimi Maks Veber talqinicha, “dunyodagi hech bir etika, ko‘pchilik holatlarda, “yaxshi” maqsadlarga erishishda axloqiy jihatdan shubhali yoki, hech bo‘lmaganda xavfli vositalardan foydalanish va ortiqcha nojo‘ya va xunuk oqibatlarga olib kelish ehtimollari bilan bog‘liq zaruriyatlar bilan aloqadorlikda bo‘lish faktini chetlab o‘ta olmaydi”62 . Shuning uchun ham siyosat oldida doimo axloqiy talablar uchun begona bo‘lmagan “ozgina yovuzlik”ni tanlash muammosi, yahni konfliktlarni muvofiqlashtirishda paydo bo‘ladigan, muqarrarligi aniq, inqirozlik vaziyatlarini yumshatuvchi kabi maqsadga erishish vositalaridan foydalanish vazifasi turadi; o‘z xohish-irodasiga erishishda maqsadlarni pastroq ijtimoiy baholarda amalga oshirishga intilish barqarorlik va fuqarolik murosasozligini saqlash siyosatiga xos bo‘lgan belgilardir. Axloqiy refleksiyaga ega bo‘lmagan xarakterdagi rejimlar surbetlik, munofiqlik, insonga nafrat bilan qarash kabi illatlarni hokimiyat va boshqarishning

ustuvor mehyorlariga aylantiradi. Natijada, korrupsiya, kriminal tarzda idora etish va nihoyat, siyosat aholining turli guruhlari oʻrtasida bir-biriga nafrat uygʻotish, jamiyat birligini buzish manbalari va vositalariga aylanadi. Noaxloqiy siyosat shaxs ustidan kuch ishlatish, diktatura ifodasi boʻlish, bu yovuzliklarni toʻgʻridantoʻgʻri ragʻbatlantirish vositasidir.

Siyosiy va axloqiy mezonlarning zaruriy muvozanatini saqlash murakkab ishdir. Bunday ishni uddalash kuchli axloqiy fazilatlarga ega, turli xil siyosiy ishtiroklarda bevosita tajriba orttirgan siyosiy yetakchilarga nasib etadi. Axloqiy prinsiplarga ega boʻlmagan yetakchilar oʻzining hokimiyatga doir maqomini oshirish yoki uni saqlash uchun turli vositalardan foydalanishda ichki chegaralarni osonlik bilan buzadilar; qarorlar qabul qilishning siyosiy mashuliyati ogʻirliklarini oʻzida sinab koʻrmagan yetakchilar koʻpincha hokimiyatning hammani jalb qiluvchi tanqidlariga berilib ketib, bu bilan aholining ehtiros va his - tuygʻularini junbushga keltiradi. Siyosiy va axloqiy yondashuvlar oʻrtasidagi muvozanatlarni saqlashning qiyinligi sabablaridan biri – bu siyosiy ong tuzilishining murakkabligidir.

Siyosiy ongning individual komponentlari, odatda, shakllangan ehtiqodga berilishni saqlash, shaxsning hayotda mahlum bir fikrlar tahsiri ostida boʻlish qobiliyatlarini xarakterlaydi. Guruhiy axloq esa insonni u yoki bu birlikka qoʻshilganligi, uning qoʻyilgan jamoaviy maqsadlarni aynan oʻzlashtirishini, guruh ahzolariga aynanlashishini (identivlik) xarakterlaydi. Shu bilan bir vaqtda, axloqiy tasavvurlarning umuminsoniy mazmuni insonga uning umuman butun bir insoniyatga taalluqli ekanligini anglashga koʻmaklashadi. Shuningdek, bu jarayon har bir insonga mustaqillik baxsh etib, siyosiy kurashlarda uning atrofidagi kishilar safdoshi yoki muxolifati ekanligining hech bir ahamiyati yoʻq. Kishilarda faqat umuminsoniylik, universal mehyorlar, qadriyatlarning uygʻunlashuvigina shaxsning axloqiy ongini talablar darajasiga

koʻtara oladi. Siyosat mavjud ekan, uning ziddiyatli munosabatlarini axloqiy jihatlardan hal qilish qiyin jarayon boʻlib qolaveradi. Lekin, shunga qaramay, bu ixtiloflarga sivilizatsiyaviy shakl berishning imkoniyatlarini topish mumkin. Buning uchun avvalambor, elita yoki qandaydir ijtimoiy (milliy, diniy) yoki siyosiy guruhlarning imtiyozli turmush tarziga yoʻl bermaydigan, insoniylikka yoʻnaltirilgan siyosat yuritish hokimiyatning har bir jabhalarining vazifalari boʻlib qolishi lozim boʻladi. Hokimiyat fuqaroviy tinchlik, siyosiy kuchlar oʻrtasida muttasil murosa uchun izlanishga asoslangan siyosat olib borishi kerak63 . Shu bilan birga, bunday siyosat yoʻli elita va yetakchilar tanlash mexanizmlari, ular faoliyati ustidan jamoatchilik fikrining demokratik nazoratini kuchaytirish bilan toʻldirilib borilishi zarur. Bu jarayonlarda insonning oʻzi ham axloqiy mashullik yukini u yoki bu partiya, davlat yoki ishonchli vakillarini siyosiy tanlashi ustiga ortishga intilmasligi lozim. Ana shundagina axloq siyosiy rivojlanishning ishonchli manbasiga aylanadi, siyosat esa axloq qadriyatlari va universal mehyorlar maqomini mustahkamlash vositasi sifatida maydonga chiqadi.

“Yumshoq kuch” fenomeni va uning Oʻzbekiston tashqi siyosatidagi ayrim jihatlari

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar sifat jihatdan yangi mazmun-mohiyat kasb etmoqda. Tashqi siyosatning yangi aktorlari paydo boʻlishi bilan bir qatorda uning qonuniyatlari, strategiya va taktikalari ham takomillashmoqda. Globallashuv va raqamli texnologiyalarning keng yoyilishi mazkur tendensiyani kuchaytirib, davlatlar, xalqaro tashkilotlar, transmilliy kompaniya va birlashmalar oldiga zamonaviy vazifalarni yuklamoqda. Shunday omillardan biri bu shubhasiz – “yumshoq kuch” fenomenidir.

Xoʻsh, bugun Oʻzbekistonning xalqaro munosabatlarida “yumshoq kuch” siyosati mavjudmi? Mazkur omildan Oʻzbekiston qanday va qay shaklda foydalanmoqda? Bu borada mamlakatimizda siyosiy, madaniy-gʻoyaviy va intellektual resurslar yetarli

darajadami? Mazkur maqolada muallif ushbu savollarga javob topishga harakat qilgan.

“Yumshoq kuch” tushunchasining kelib chiqishi va nazariy jihatlari

“Yumshoq kuch” (soft power) yoki “yumshoq hokimiyat” – majburlashni anglatadigan “qattiq kuch”dan farqli o‘laroq, ixtiyoriy ishtirok etish, simpatiya va jozibadorlik asosida istalgan natijalarga erishish qobiliyatini nazarda tutadigan siyosiy konfiguratsiya modelidir.

So‘nggi yillarda “yumshoq kuch” atamasi ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, siyosatshunoslik va jamoatchilik bilan aloqalar sohasidagi turli mutaxassislarning bayonotlarida tez-tez uchray boshladi. “Yumshoq kuch” iborasi ilk bor XX asrning 90 yillarida amerikalik siyosatshunos Jozef Ney asarida (Bound to Lead: The Changing Nature of American Power) paydo bo‘lgan. Neyning takidlashicha, bugungi kunda yumshoq kuch siyosati dunyoning yetakchi davlatlari zamonaviy tashqi siyosatining muhim omillaridan biriga aylanib ulgurdi. Keyinchalik esa, u mazkur kategoriyani 2004 yilda chop etilgan “Yumshoq kuch: jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositasi” (“Soft Power: The Means to Success in World Politics”) kitobida yanada takomillashtirdi.

O‘ylaymanki, siyosiy jarayonlarda “yumshoq kuch”dan foydalanish amaliyotini faqatgina so‘nggi ikki asrga tatbiq etish xato bo‘lur edi. Bugungi kunda keng targ‘ib qilinayotgan xalqaro munosabatlar tizimida madaniy ta’sir qilish tajribasi ko‘p asrlar oldin ham o‘ziga xos shaklda mavjud bo‘lgan. Bunda quyidagi gipotezani ta’kidlash zarur: yumshoq kuch, ixtiyoriy harakatlarni madaniy rag‘batlantirish (qo‘zg‘atish) siyosati sifatida har doim “qattiq kuch” bilan yonma-yon qo‘llanilgan, ammo u o‘zining uslubi va rang-barangligi bilan tubdan farq qilgan.

Shu oʻrinda tabiiy savol tugʻiladi: nega insoniyat “yumshoq kuch” deb ataluvchi siyosiy hodisaga har doim intiladi? Buning tag zamirida inson tabiyati yotadi deyishimiz mumkin. Inson tabiatida, u yoki bu masalani nafaqat qurol kuchi bilan, balki soʻz kuchi yordamida hal qilishga tugʻma moyillik mavjud.

Qadimgi Rim faylasufi Sitseron ta’kidlaganidek: “Inson qadr-qimmatini eng yuqori darajaga koʻtarishi mumkin boʻlgan ikkita faoliyat turi mavjud: qoʻmondonlik yoki taniqli notiqlikdir. Birinchisi dushman tahdidini qaytarsa, ikkinchisi mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlaydi. Davlatning tom ma’nodagi gullab-yashnashi uchun “qilich va qalam ittifoqi” zarurdir”[1].

Shu oʻrinda Sharq mutaffakiri va shoiri Alisher Navoiyning:

“Olibmen tahti farmonimgʻa oson,

Cherik chekmay Xitodin to Xuroson”

deya ta’kidlashida ham qalam, soʻz, ma’naviyat va madaniyatning kuchi e’tirof etiladi.

Italiyalik mutaffakkir Nikkola Makiavelli oʻz asarida, har qanday davlat oʻz fuqarolariga nisbatan shunday siyosat yuritishi kerakki, fuqarolar oʻz hukumdoridan bir vaqtning oʻzida qoʻrqishi va uni sevishi lozim, deb yozadi. Makiavellining fikriga koʻra, maqsadga erishish uchun harakat qilishning ikki yoʻli mavjud: qonun yoʻli (insoniy yoʻl sifatida) va zoʻravonlik yoʻli (hayvoniy yoʻl sifatida). Ammo qonun yoʻli koʻpincha kam samarali boʻladi. Shuning uchun, odamlar ba’zan ikkinchi usulga murojaat qilishadi. Hukmdorlar oʻzlarida ham insoniy, ham vaxshiylik tabiatini rivojlantirib, ikkala usuldan ham bir xilda foydalanishni bilishi lozim[2].

“Yumshoq kuch”ning institutsionallashuvi

Yumshoq kuch – bu nafaqat ixtiyoriy harakatlar uchun imkoniyatlar va imtiyozlar, balki e’tiborni jalb qiladigan va boshqa aktorlar tomonidan amalga oshiriladigan institutlar, standartlar va qoidalar majmuidir. Bunday standartlar, institutlar va tuzilmalar yumshoq kuchning ajralmas yaxlit tizimini tashkil etib, ular asosan

uchta asosiy manbalarga tayanadi: mamlakat madaniyati va uning boshqalar uchun jozibali tomonlari; ma’lum bir mamlakatning o‘zgalar tomonidan qabul qilingan siyosiy qadriyatlari tizimi; legitim deb topilgan va axloqiy qoidalarga asoslangan tashqi siyosat modeli.

Biroq, “yumshoq kuch” ham, “qattiq kuch” kabi, o‘z ta’sir doirasi chegaralariga ega. Ular qanday tasvirlanadi? Qattiq kuchning, masalan, ommaviy qirg‘in qurollari, birinchi navbatda yadroviy qurollar va ularning halokatli natijasi xaqidagi tasavvurlar bu kuchni cheklaydi hamda ma’lum tizginda ushlab turadi. “Qattiq kuch” o‘zining qattiqligi darajasi tufayli o‘zini cheklaydi. Yumshoq kuchning chegaralari qanday belgilanadi? Ko‘p asrlik siyosiy tarix shuni ko‘rsatadiki, yumshoq kuchning tarqalishi va ta’siri, qoida tariqasida, aktor tomonidan boshqariladigan mintaqaning va unga yondosh hududlarning geografik chegaralari bilan ifodalangan, harakat doirasini kengaytirish yoki butun dunyoni qamrab olish imkoniyati bo‘lmagan. Masalan, ellinizm sobiq Makedoniyalik Iskandar imperiyasi chegaralaridan tashqariga chiqmagan bo‘lsa, Rim madaniyati o‘z hududi va unga madaniy yaqin mamlakatlar sivilizatsiyasiga ta’sir ko‘rsatdi. Buyuk Britaniyaning beshta qit’ada mustamlakalari bo‘lsa ham, ammo, ularni asosan harbiy vositalar yordamida saqlab turgan, bu esa oxir-oqibat ushbu kuchning muqarrar ravishda pasayishiga olib keldi.

Yumshoq kuch fenomeni shakllanishida 1930 yillarda italiyalik faylasuf Antonio Gramshi tomonidan yozilgan “Qamoqxona daftari” (Quaderni del carcere) asarida yaratilgan madaniy-g‘oyaviy gegemonlik konsepsiyasi asos bo‘lib xizmat qildi deyishimiz mumkin. Mazkur asar tez orada g‘arbiy Yevropa va amerikalik neokonservatorlar orasida keng tarqalib, shuxrat qozondi.

Shuni ta’kidlash kerakki, yumshoq kuchni faqat maqsadga erishish yo‘lidagi noharbiy uslub deb tushunish va yondashuv juda mavhumdir. Bu esa tadqiqotchiga hodisani o‘rganish va hech bo‘lmaganda shartli delimitativ chegaralarini belgilash uchun

haqiqiy imkoniyat bermaydi. Shunday qilib, agar biz yumshoq kuchni faqat maqsadlarga erishishning noharbiy usuli deb hisoblasak, tabiiy savollar tug‘iladi: ikkita antagonist o‘rtasidagi mafkuraviy kurash bir-biriga nisbatan yumshoq kuchning namoyon bo‘lishi hisoblanadimi? Diniy ta’limotlarni yoki diniy tashkilotni ijtimoiy institut sifatida yumshoq kuchning maxsus shakllari deb hisoblash mumkinmi? Shubhasiz, yuqorida aytib o‘tilgan keng ta’rif doirasida ushbu savollarga aniq javob berish qiyin.

Shuning uchun ham yumshoq kuchni tadqiq qilishda yanada aniqroq va samaraliroq yondashuv talab etiladi. J.Neyning ta’rifiga ko‘ra siyosiy tizimda uch turdagi kuch mavjud: (1) majburlash kuchi (qattiq kuch orqali o‘z irodasini singdirish va bosim berish); (2) ishontirish kuchi (pul va moddiyat orqali o‘ziga og‘dirish); (3) madaniy ta’sir kuchi, yoki madaniy rag‘batlantirish (insonni ixtiyoriy ravishda o‘zi xoxlagan tomonga rag‘batlantirish)[3]. Mazkur sharoitda aynan madaniy ta’sir kuchi, ya’ni faol aktorning nuqtai nazarini o‘zga tomonidan ixtiyoriy ravishda qabul qilinishi yumshoq kuch tushunchasining mohiyatini aniqroq ochib beradi.

XX asrda sodir bo‘lgan ikkita halokatli jahon urushi, ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi va boshqa omillar ixtilofli masalalarni harbiy yo‘llar bilan hal qilishning samarasiz ekanligini, xalqaro munosabatlarda iqtisodiy, mafkuraviy va madaniy ta’sir vositalaridan foydalangan noharbiy usullarining rolini oshirganligini isbotladi. Natijada, noharbiy ta’sir mexanizmlari va ularning ulkan salohiyati dolzarbligini tushunish, qattiq kuchning yumshoq kuchdan ustunligi to‘g‘risidagi tasavvurga ega bo‘lgan avlodlarning xatolarini qayta ko‘rib chiqishga va tegishli saboq chiqarganlar uchun muvaffaqiyat kaliti bo‘ldi.

“Yumshoq kuch” siyosatini samarali olib borishda uchta omil muhim hisoblanadi:

– **tashkiliy-institutsional asoslar** (“yumshoq kuch” strategiyasi va asosiy yo‘nalishlarini belgilab olish; uni amalga

oshiruvchi institutlarni tanlash; ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash);

– **axborot-madaniy makon** (g‘oyaviy-mafkuraviy targ‘ibot ishlarini tashkil etish; o‘ziga nisbatan ijobiy axborot makonini yaratish; jamoatchilik fikri monitoringi va h.k.);

– **kadrlar tizimi** (ya’ni “yumshoq kuch”ni amalga oshirishga qodir bo‘lgan mutaxassislar – siyosatshunos, xalqaro munosabatlar ekspertlari, imidjelog, polittexnolog va boshqalar guruhiga ega bo‘lish).

Bugungi kunga kelib xalqaro munosabatlarning subyekti hisoblangan deyarli barcha davlatlar “yumshoq kuch” siyosatidan foydalanishga intilib keladi. Ammo, uni xamma ham bir xilda va samarali qo‘llay olmaydi. Masalan, Portland-PR xalqaro tashkiloti tomonidan turli mamlakatlarning “yumshoq kuch” faktoridan foydalanishi doimiy ravishda tadqiq etib borilib, ularning reytingi e’lon qilinadi. The soft power index[4] reytingida faqatgina 30 ta

davlat qamrab olingan bo‘lib, ular o‘z tashqi siyosatida “yumshoq kuch”dan u yoki bu shaklda samarali foydalanib keladi.

O‘z navbatida mazkur indekslarda “yumshoq kuch” diplomatiyasining asosiy vositalariga siyosiy piar, info oqim, global marketing, davlat tilining dunyoda ommaviyligi, global iyerarxiyada davlat pozitsiyasi, madaniy almashinuv, sport, turizm, xalq diplomatiyasi, ta’lim tizimi, axborot urushlarini olib borish qobiliyati, madaniyatlararo muloqot, milliy diasporalar, migratsiya siyosati kabilar qamrab olingan.

O‘zbekiston tashqi siyosatida “yumshoq kuch” omili

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda faol tashqi siyosat yurgizish, mintaqaviy va global integratsiya jarayonlarida ishtirok etish tendensiyasi kuchayib bormoqda. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning 5.2. Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar bandida: O‘zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish kabi jihatlar mustahkamlab qo‘yilishi mazkur sohani naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2019 yil 15 noyabrdagi “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi” hamda bugungi kunda keng muhokama qilinayotgan “O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash konsepsiyasi” loyihasi kabi normativ-huquqiy xujjatlar bu borada alohida ahamiyat kasb etadi.

Lekin, bu masalaning bir tomoni. O‘zbekiston xalqaro munosabatlarda “yumshoq kuch” omilini qo‘llay olmoqdami yoki qo‘llashi uchun nimalarga e’tibor berishi kerak? degan savollarga

javob berish bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur holatda bir nechta jihatlarni tahlil etish lozim deb hisoblayman:

1. “Yumshoq kuch” siyosatini qo‘llamoqchi bo‘lgan aktor eng avvalo uning geografik chegaralarini (global yoki regional) belgilab olishi lozim. O‘zbekistonning endigina rivojlanish yo‘liga kirgan mamlakat sifatida uning “yumshoq kuch” makoni albatta bu – Markaziy Osiyo mintaqasi bulishi muqarrar. O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida hamkorlik va integratorlik vazifalarini o‘z yelkasiga olishi darkor. Bunga, eng avvalo, O‘zbekistonning Markaziy Osiyoning geografik markazida joylashganligi hamda barcha beshta davlat bilan chegaralarga egaligi kabi omillar asos bo‘lib xizmat qiladi. Endilikda O‘zbekiston siyosiy rahbariyati oldida barcha turdagi chegara muammolarini hal etish (delimitatsiya va demarkatsiya) masalalari ham turibdi. Kelajakda esa, bevosita O‘zbekiston tashabbusi bilan boshlangan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlari bu borada samarali vosita bo‘lishi mumkin. Mazkur “maslahat uchrashuvlari”ni yaqin kelajakda tom ma’nodagi integratsiyaviy uyushmaga aylantirish nafaqat O‘zbekistonning, balki butun mintaqaning geosiyosiy manfaatlariga to‘la mos keladi.

2. O‘zbekistonning so‘nggi yillarda amalga oshirayotgan mintaqaviy tashqi siyosatida Afg‘oniston faktori muhim o‘rin egallayotgani bor gap. 2018 yil mart oyida Toshkent shahrida Afg‘oniston muammolariga bag‘ishlangan “Tinchlik jarayoni xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi xalqaro konferensiya tashkil etilishi, 2019 yilning 7-10 avgust kunlari Toshkentda “Tolibon” harakati rahbariyati bilan muvafaqiyatli o‘tgan muzokaralar fikrimiz dalilidir. Mazkur siyosiy jarayonlar Afg‘oniston masalasiga taaluqli Rossiya boshchiligidagi “Moskva formatidagi” maslahatlashuv va Xitoy tashabbusi bilat tuzilgan “SHHT+Afg‘oniston” muloqot guruhiga muqobil shakldagi o‘zbek diplomatiyasining yutug‘i sifatida baholashimiz mumkin.

Oʻzbekistonning Afgʻonistonni ijtimoiy-iqtisodiy tiklash jarayonidagi faol ishtiroki, ta’lim va madaniyat sohalaridagi hamkorlik[5] uning imijiga ham ijobiy ta’sir oʻtkazmoqda. Endilikda esa Oʻzbekiston Afgʻonistonda tinchlik va barqarorlik oʻrnatish, uni Markaziy Osiyo integratsiyaviy orbitasiga tortishda bosh rolni oʻziga olishi lozim.

3. Ma’lumki, “yumshoq kuch” siyosatida millat va til faktori katta ahamiyatga ega. Biz oʻzbek tili, uning boy leksikologiyasi va korpusi haqida koʻp gapiramiz. Hozirda esa mazkur omildan foydalanish davri keldi. Statistik ma’lumotlarga koʻra oʻzbeklar Afgʻonistonda 3 millionga yaqin, Tojikistonda 1,3 million, Qirgʻizistonda 918 mingdan ziyod, Qozogʻistonda 576 ming, Turkmanistonda 250 mingdan ortiq nafarni tashkil etadi. Oʻzbek tili Oʻzbekiston va Afgʻonistonda rasmiy maqomga ega boʻlsa, mintaqaning boshqa davlatlarida mahalliy ahamiyatga ega.

Ayrim subyektiv sabablarga koʻra biz mazkur millatdoshlarimiz bilan aloqalarni uzib qoʻydik. Bugun esa, ular bilan madaniy aloqalarni mustahkamlash, oʻzbek tilini oʻrganish va kengroq targʻib qilish borasidagi ishlarni kuchaytirish zarur. Bu borada yetakchi davlatlar tajribasidan (masalan, Germaniyaning Gyote instituti, Fransiyaning “Alyans Fransez”, Rossiyaning “Russkiy mir” kabi proyektlari) unumli foydalanish lozim.

4. Oʻzbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining “madaniy-turistik xab”iga hamda “ta’lim xab”iga aylanish imkoniyatiga ega. Oʻzbekiston tomonidan bugungi kungacha YUNESKOning Umumjahon merosi roʻyxatiga 5 ta moddiy-madaniy meros obyekti va 8 ta nomoddiy madaniy meros nomzodnomasi kiritilgan boʻlib, 2030 yilgacha 10 ta madaniy meros obyekti va 5 dan ortiq nomoddiy meros nomzodnomasi kiritilishi rejalashtirilgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Qoʻqon, Shaxrisabz, Termiz kabi tarixiy shaharlar nafaqat Oʻzbekistonning, balki butun Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy me’rosi sifatida talqin qilish maqsadga

muvofiq. Bu borada ayniqsa ziyorat turizmini ommalashtirish, mintaqa davlat fuqarolariga imtiyozlar taqdim etish lozim.

Shuningdek, O‘zbekistonni mintaqa mamlakatlari yoshlari uchun ta’lim olish jozibadorligini oshirish juda muhimdir. Yangi oliy ta’lim muassasalarini tashkil etish, dunyoning yetakchi universitetlari filiallarini ochish va MO yoshlari uchun turli ta’lim grantlarini joriy qilish (Yevropaning “Erasmus” dasturi analogidagi loyihalarni ishlab chiqish) maqsadga muvofiq.

5. Ma’lumki, “yumshoq kuch” vositalaridan eng samaralisi bu nodavlat notijorat sektorni (NNT – NGO) qo‘llab-quvvatlashdir. “Yumshoq kuch” ustalari bo‘lgan yetakchi davlatlar xalqaro darajadagi NNTlar tarmog‘ini tuzish, yoki mahalliy NNTlar ijtimoiy loyihalariga grantlar ajratish orqali ijobiy imidj yaratish mahoratiga egalar. O‘zbekiston ham Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyat olib boruvchi NNTlar tarmog‘ini shakllantirishi lozim. Bu borada O‘zbekiston Parlamenti – Oliy Majlis huzuridagi NNTlarni qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi imkoniyatlarini oshirish bilan birga, milliy NNTlarning fandreyzing strategiyalarini kuchaytirish talab etiladi.

Shuningdek, kuchli g‘oyaviy va infratuzilmaviy asosga ega OAVlarini shakllantirish lozim. O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida yagona axborot makonini yaratish bo‘yicha ishlarni olib borishi maqsadga muvofiq bo‘lardi. Bunda nafaqat an’anaviy, balki zamonaviy ommaviy axborot va kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish talab etiladi.

6. “Yumshoq kuch” omilidan foydalanish, umuman samarali va faol tashqi siyosat olib borish, eng avvalo, kadrlar masalasiga ham bog‘liqdir. Bugungi kunda, mazkur tizimda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, faol va harakatchan yosh kadrlar yo‘qligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Shuningdek, eng asosiysi, O‘zbekiston tashqi siyosati falsafasini tubdan ko‘rib chiqish lozim. Unga zamonaviy siyosiy menejment va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etish, yangicha fikrlaydigan yangi avlod kadrlarini jalb qilish strategik

vazifalar sirasiga kiradi. Bu esa o‘z navbatida kelajakda O‘zbekistonning soft powerni smart powerga tranformatsiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, “yumshoq kuch” vositalari va siyosiy imidj bu, eng avvalo, mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy qobiliyatining bir qismidir. Balkim juda muhim, lekin faqat bir qismi. Salohiyat esa faqat ramziy qo‘rinishlarda emas, balki real voqe’likda aks etishi lozim. O‘zbekiston “yumshoq kuch” asosida o‘z mintaqaviy siyosatini yuritishi asosida, ichki siyosatida ham tub demokratik islohotlarni amalga oshirishi talab etiladi. Shu sabab, respublika o‘z ijtimoiy-siyosiy tizimida tom ma’nodagi demokratik qadriyatlarni implementatsiya qilsagina mintaqaviy yetakchilik maqomiga erishishi mumkin.

Yoshlarning siyosiy faolligini va huquqiy madaniyatini yuksaltirish

Mustaqil tanishish va fikr bildirish uchun

Mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash mustaqillikning dastlabki davridanoq davlat ahamiyatiga molik ustuvor masala bo‘lib kelmoqda. Yoshlarning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, huquqiy ongini yuksaltirish, bandligini ta’minlash va tadbirkorlikka jalb etish, iqtidorini rivojlantirish, axborot xurujlari va nosog‘lom muhitdan himoya qilish — bular yurtimizdagi yoshlarga oid davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari sirasiga kiradi.

Respublikamizda mazkur qaror ijrosini ta’minlash, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash, yuksak ma’naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirgan har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Ushbu dasturda ko‘zda tutilgan yoshlarni yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va

chuqur bilimlarga ega bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini shakllantirish, turli ma’naviy tahdidlar va axborot xurujlaridan yoshlarni himoya qilishga, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruxida tarbiyalashga, yosh avlodni ekologik va estetik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta’minlash va tadbirkorlikka jalb qilish ushbu dasturning o‘ziga xos bo‘lgan jihati bo‘lib hisoblanadi. Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ruyobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish ko‘zga tutilgan.

Yigit-qizlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish, barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni keng rivojlantirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, intilishlarini qo‘llab-kuvvatlash, ularni ma’naviy va jismoniy kamol toptirish, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash dasturning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mazkur qarordan kelib chiqadigan dolzarb vazifalarni amalga oshirishda biz huquqshunoslarning ham muhim o‘rnimiz bor. Zimmamizga bu boradagi mas’uliyatli vazifalarni amalga oshirish borasida mahallalar hamda o‘quv dargohlarida Guliston shahar FHDYO bo‘limi prokuratura, ichki ishlar idorasi, xotin-qizlar qo‘mitasi, “Mahalla” xayriya jamoat fondi bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan uchrashuv va davra suhbatlarida ahloq qoidalarimizga mutlaqo begona bo‘lgan odob saboqlari, yoshlarimizni to‘g‘ri yo‘llaridan adashtirayotgan giyohvandlik,

ichkilikbozlik singari holatlar, ayrim ota-onalarning o‘z farzandlariga har tomonlama ibrat, namuna bo‘lolmayotganliklari, ahloq mezonlariga rioya qilish borasida, ayniqsa, qizlar turmush tarzini shakllantirishdagi xatoliklar to‘g‘risida ochiqchasiga mulohaza yuritishga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birgalikda, intiluvchan, zamon bilan hamqadam bo‘lishni istagan, qobiliyatli yoshlarimizni ham alohida aytib o‘tish joiz. Har yili o‘tkaziladigan «Huquqingizni bilasizmi?» ko‘rik-tanlovi jamiyatning siyosiy hayotiga befarq bo‘lmagan, huquqiy bilimga ega ko‘plab yoshlar mavjudligini isbotlab beryapti.

Adabiyotlar

[1] Цицерон Марк Туллий. «Речи». В 2-х т. т. I-II. Изд-во академии наук СССР, М., 1962. –С. 30.

[2] Макиавелли Никколо. «Государь» Изд-во «Астрель», М., 2002. –С.85.

[3] Nye Jr. Joseph S. «Soft Power. The Means to Success in World Politics». First ed. New York: Public Affairs, 2004. p.2.

[4] The soft power index. https://softpower30.com/

[5] 2017 йилда Сурхондарё вилоятининг Термиз туманида афғон ёшлари таълим олишига мўлжалланган ўрта-махсус ўқув муассасаси фаолият бошлаган.

XULOSA

Ma’lumki, mamlakatimizda milliy-ma’naviy tiklanish, yoshlarimiz ongi hamda dunyoqarashini milliy qadriyatlar asosida boyitib borish, milliy ma’naviyatimizni turli tahdidlardan asrash, yoshlarni dunyoqarashi keng, kreativ fikrlaydigan, tashabbuskor, halol va jonkuyar hamda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qiladigan qilib tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning puxta bilim olishi, kasb-hunar egallashi, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida kamol topishi yo‘lida e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, bugungi globallashuv va tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan murakkab va shiddatli davrda mamlakatimiz yoshlari ma’naviyatini yuksaltirish hamda turli tahdidlardan asrash, ularning xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatini anglab yetishi, ushbu voqeliklar yuzasidan xolis va mustaqil fikrga ega bo‘lishi, yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini singdirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2019 yil 27 dekabrda O‘zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda yoshlar bilan o‘tkazilgan uchrashuvda yangi institut - «Vatan iftixorlari» institutini tashkil etish hamda 2019 yil 19 mart kuni Prezidentning 5 ta muhim tashabbusning qabul qilinishi.

Yoshlar ma’naviyati masalasi nafaqat bugungi kunda balki oldingi davrlarda ham muhim va ahamiyatli muammolar tarzida e’tibor berilgan. Ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini shakllantirish muammosi turli darajadagi jamiyat va falsafa, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarning ixtisoslashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan gumanitar bilimlarning birlashmasidan iborat.

O‘zbekiston birinchi Prezidenti I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ma’naviyat, yoshlar tarbiyasi, milliy o‘zlikni anglash, milliy ma’naviyat masalalariga e’tibor berilgan bo‘lsa, hozirgi prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” asarida yoshlarni ma’naviy yetuk inson etib tarbiyalash, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi, yoshlar bilimi, saviyasini oshirish uchun ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerakligi ilgari surilgan.

Respublikamizda yoshlarning intellektual madaniyatini rivojlantirish, yoshlarni turli xil tahdidlardan himoya qilish va ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun tashkilish-huquqiy va ijtimoiy-ma’naviy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, “Yoshlar - kelajagimiz” jamg‘armasi, “Yoshlar klubi”, “Yosh tadbirkorlar”, “Temurbeklar maktabi”, “Prezident maktablari”, “Ijod maktablari”, “Yoshlar kutubxonasi” kabilarning tashkil etilishi ham yoshlarning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarish orqali ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga yo‘naltirilmoqda.

Ma’lumki, mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, jahonda g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma’naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, zararli yot g‘oyalar ta’siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo‘shilib qolish holatlari hamon uchramoqda.

Darhaqiqat, mamlakatimizning bugungi siyosatida yosh avlodni axloqiy va ma’naviy tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri

hisoblanadi, chunki yangi dunyoqarashga ega bo‘lgan ma’naviy yetuk yoshlar jamiyat rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha besh muhim tashabbusda ilgari surilgan “ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo‘lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish” hamda “yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarish” orqali yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish, ularning faolligi, ma’naviyati va uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan axloqiy fazilatlar ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda integral omil bo‘lib xizmat qiladi, kelajakka bo‘lgan ishonchlarini mustahkamlaydi hamda ularni taraqqiyotga yo‘naltiradi. Bu esa har tomonlama bilimdon, ma’naviy jihatdan boy, barkamol avlodni tarbiyalash davlatimiz siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI

1. Milliy qadriyatlarimizga information xurujlarga misollar keltiring va ularni izohlang.
2. “Kuch adolatda”, “kuch bilim va tafakkurda” hamda “kuch axborotda” iboralari mazmunini yoriting.
3. Mafkura – jamiyat barqaror hayoti uchun muhimligini isbotlang.
4. Jamiyatning axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet fanining predmetini yoriting.
5. Yoshlar ongining zaharlanishiga misollar (ijtimoiy tarmoq ta’sirida) keltiring va ularga qarshi qanday profilaktik choralarni ilgari surasiz?
6. OAV laridagi butunlay salbiy xususiyatdagi ko`rsatuv dasturlari va shunday bo`lsada ular mavjudligining sabablari.
7. Turli manipulyatsion jarayonlar, ularning usul va vositalari.
8. Jamiyatimizda “Overton oynasi…” bevosita ta’sir etayotgan jabhalarni izohlang.
9. Mafkuraviy profilaktika nima va u qanday amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo`ladi?
10. Milliy istiqlol g`oyasining asosiy tamoyillari qaysilar, ularni izohlang?
11. Sizningcha, barkamol insonga xos asosiy xususiyatlar nimalardan iborat bo`lishi lozim?
12. Ma’naviy tahdid tushunchasiga I.Karimovning ta’rifini izohlang.
13. Sizningcha, bugungi kunda kuchli mafkuraviy immunitet nimalarda namoyon bo`ladi?
14. Inson ongiga ta’sir etuvchi omillar.
15. Jamiyatning axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet fanining maqsadi nimalardan iborat?

16. Insoniyat tarixida qanday manipulyatsion vositalar va usullardan foydalanilgan.

17. Mafkuraviy markaz va ularning maqsadi.

18. G`oyaviy tahdidlarga qarshi kurashishning hozirgacha ma'lum eng samarali usuli qaysi deb bilasiz va nima uchun?

19. Internet va uning jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri.

20. Yurtimizda amalga oshirilayotgan mafkuraviy profilaktika jarayonlariga misollar keltiring va ularni ahamiyatini yoriting.

21. Mafkuraviy tarbiya yo‘nalishlari va funksiyalarini ochib bering.

22. Globallashuv davridagi asosiy ma`naviy tahdidlar sifatida qaysi xurujlarni bilasiz?

23. Manipulyatsiya tushunchasini izohlang.

24. Zamonaviy manipulyatsion vositalarga nimalarni kiritasiz?

25. Missionerlik va prozelitizm tushunchalarini izohlang.

26. Jon Kexoning “G‘ayriixtiyoriy ong mo‘jizalari” asarining mazmunini mazkur fan maqsad va vazifalari bilan bog`lab talqin qiling.

27. Inson qalbiga yo‘l. Inson ongi uchun kurash. Bu iboralarni yoriting.

28. XXI asr – axborot asri.

29. Ta'lim va tarbiya uyg`unligiga erishish – barkamol shaxsni shakllantirisah omili sifatida.

30. “Ommaviy madaniyat” tushunchasini izohlang.

31. Sizningcha, XXI asrda sog`lom fikrli shaxsda bo`lishi lozim bo`lgan fazilatlar va ularning ahamiyati.

32. I.Karimovning “Yuksak ma'naviyat va yengilmas kuch” nomli asarining mazmuni va ahamiyati.

33. Jamiyatning axborotlashuvi fanining dolzarbligi nimada namoyon bo`ladi?

34. O`z mustaqil fikriga ega bo`lishlik deganda nimani tushunasiz?

35. Yoshlar faolligini oshirishning zamonaviy mexanizmlari.

36. I.Karimovning “Ma’naviy yuksalish yo‘lida” nomli asarining mazmuni va ahamiyati.

37. Argumentlash qoidalari, aftoritet manbadan foydalanishning mantiqiy samaradorligi.

38. Shaxs mafkuraviy immunitetida argumentlashning ahamiyati.

39. O`zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy islohotlarning ahamiyatini yoriting.

40. “Jamiyatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”ning mazmuninin yoriting.

41. “Yadro poligoni” hamda “Mafkuraviy poligon” tushunchalarining mazmuni va ahamiyati.

42. Mafkuraviy bo`shliq, mafkuraviy markaz, mafkuraviy evolyutsiya, mafkuraviy barqarorlik tushunchalarining mazmunini yoriting.

43. Intellektual faol yoshlar ongini shakllantirish mexanizmlari.

44. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi deganda nimani tushunasiz?

45. Jamiyatda shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg`unligini ta’minlash zarurati va mexanizmlari.

46. “Axborot xurujlaridan maqsad psixologik urushmi?“. maqolaga o`z munosabatingizni yoriting.

47. Uzoq yillik strategik reja deganda nimani tushunasiz. O`z shaxsiy rejangiz orqali izohlashga harakat qiling.

48. Mafkuraviy qurollar, mafkuraviy siyosat va mafkuraviy maqsad tushunchalarini mazmunini yoriting.

49. Gegemonlikka intilayotgan markazlar qo`llayotgan usullar va ularga qarshu kurash mexanizmi.

50. “Kuch adolatda”, “kuch bilim va tafakkurda” hamda “kuch axborotda” iboralari mazmunini yoriting.

51. Mafkura – jamiyat barqaror hayoti uchun muhimligini isbotlang.

52. Jamiyatning axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet fanining predmetini yoriting.

53. Yoshlar ongining zaharlanishiga misollar (ijtimoiy tarmoq ta’sirida) keltiring va ularga qarshi qanday profilaktik choralarni ilgari surasiz?

54. Blogerlik va bu faoliyatning jamiyat ma’naviy hayoti uchun ta’siri.

55. OAV laridagi butunlay salbiy xususiyatdagi ko`rsatuv dasturlari va shunday bo`lsada ular mavjudligining sabablari.

56. Turli manipulyatsion jarayonlar, ularning usul va vositalari.

57. Jamiyatimizda “Overton oynasi…” bevosita ta’sir etayotgan jabhalarni izohlang.

58. Mafkuraviy profilaktika nima va u qanday amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo`ladi?

59. Milliy istiqlol g`oyasining asosiy tamoyillari qaysilar, ularni izohlang?

60. Sizningcha, barkamol insonga xos asosiy xususiyatlar nimalardan iborat bo`lishi lozim?

61. Ma’naviy tahdid tushunchasiga I.Karimovning ta’rifini izohlang.

62. Sizningcha, bugungi kunda kuchli mafkuraviy immunitet nimalarda namoyon bo`ladi?

63. Inson ongiga ta’sir etuvchi omillar.

64. Jamiyatning axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet fanining maqsadi nimalardan iborat?

65. Manipulyatsion jarayonlar deganda nimani tushunasiz?

66. Ma’naviyat va madaniyat tushunchalarini bugungi kun misollarida izohlang.

67. Axborot oqimi, axborotlashgan jamiyat tushunchalarini mzmuni.

68. “Ma’rifat va diniy bag`rikenglik rezolyutsiyasi”ning mazmuni va ahamiyati?

69. Mafkuraviy tarbiya yo‘nalishlari va funksiyalarini ochib bering.

70. Globallashuv davridagi asosiy ma`naviy tahdidlar sifatida qaysi xurujlarni bilasiz?

71. Inson qalbiga yo‘l. Inson ongi uchun kurash. Bu iboralarni yoriting.

72. XXI asr – axborot asri.

73. Ta’lim va tarbiya uyg`unligiga erishish – barkamol shaxsni shakllantirisah omili sifatida.

74. “Ommaviy madaniyat” tushunchasini izohlang.

75. Sizningcha, XXI asrda sog`lom fikrli shaxsda bo`lishi lozim bo`lgan fazilatlar va ularning ahamiyati.

76. I.Karimovning “Yuksak ma’naviyat va yengilmas kuch” nomli asarining mazmuni va ahamiyati.

77. Sh.Mirziyoyevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining asosiy mezoni bo‘lishi kerak” nomli asarining mazmuni va ahamiyati.

78. Ommaviy madaniyatga qarshi kurashishning zamonaviy mexanizmlari.

79. G`oya, mafkura va maqsad tushunchalarini yoriting.

80. I.Karimovning “Ma’naviy yuksalish yo‘lida” nomli asarining mazmuni va ahamiyati.

81. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 7 ustuvor yo‘nalishi mazmunini ochib bering.

82. Argumentlash qoidalari, aftoritet manbadan foydalanishning mantiqiy samaradorligi.

83. O`zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’naviy islohotlarning ahamiyatini yoriting.

84. “Jamiyatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”ning mazmuninin yoriting.

85. “Yadro poligoni” hamda “Mafkuraviy poligon” tushunchalarining mazmuni va ahamiyati.

86. Mafkuraviy bo`shliq, mafkuraviy markaz, mafkuraviy evolyutsiya, mafkuraviy barqarorlik tushunchalarining mazmunini yoriting.

87. Intellektual faol yoshlar ongini shakllantirish mexanizmlari.

88. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi deganda nimani tushunasiz?

89. Jamiyatda shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg`unligini ta’minlash zarurati va mexanizmlari.

90. “Axborot xurujlaridan maqsad psixologik urushmi?“. maqolaga o`z munosabatingizni yoriting.

91. Yuksak ma’naviyatli avlodni shakllantirish uchun e’tibor qaratilishi lozim bo`lgan sohalarni izohlang.

92. Telefon va kompyuter o`yinlarini yoshlar ongiga ta’siri(hayotiy misollar yordamida izohlang.)

93. Ahloqiy madaniyat va uni shakllantirish omillari.

94. Terroristik va eksterimistik tashkilotlarning asl maqsadi.

95. I.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q” nomli asarining mazmuni va ahamiyati.

96. “Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari” g`oyasining mazmuni va ahamiyati.

97. Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishda diniy tarbiya.

98. “Agar qilcha nizo bo`lsa…” maqolaga o`z munosabatingizni yoriting.

99. 2017-2021-yillarga mo’ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirish Harakatlar strategiuasining ustuvor yo`nalishlari qaysilar va ular haqida nimalar bilasiz?

100. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ta’minlash masalalari?

GLOSSARIY

ALOQA – makon va vaqtda ajratilgan haqiqiy olamdagi oʻzaro bogʻliq, oʻzaro bogʻlangan materiallarni aks ettiruvchi falsafiy kategoriya. Ushbu atama borliqdagi barcha mavjudlikning oʻzaro bogʻlanganlik, bogʻliqlik mohiyatini aks ettirish uchun ishlatiladi. Aloqaning boshlangʻich xususiyati uchun aloqa asosi va sharti ajratiladi. Aloqa asoslari, ya’ni umumiy mohiyati, belgi, munosabat aloqa qilish imkonini beradi.

ATTRAKTOR (inglizcha attract - jalb qilmoq, oʻziga tortmoq ma’nosini bildiradi) - sinergetikaning asosiy tushunchalaridan, fundamental kategoriyalaridan biri. YA’ni, vaqt oʻtishi bilan dinamik sistema mavjud boʻlgan koʻp sonli holatlarga intiladi. Masalan, mayatnik havodagi ishqalanish bilan.

AXBOROT – (lot. «informatio» – tushuntirish, bayon qilish, xabar) – fanning eng umumiy tushunchalaridan biri. Axborot qandaydir ma’lumot, ba’zi bir dalillar, bilimlar va h.k.larni mohiyatini anglatadi. Dastlabki paytlarda axborot deganda odamlar bir-biriga ogʻzaki, yozma yoki boshqa usulda, ya’ni shartli signallar, texnik va shunga oʻxshash vositalar bilan uzatiladigan xabar va ma’lumotlarni tushunganlar.

AXBOROTLASHGAN JAMIYAT – ishlab chiqarish manbai bilim toʻplash texnologiyalari, axborotni qayta ishlash va axborot kommunikatsiyalariga bogʻliq boʻlib, jamiyat rivojlanishi bilim va axborotga asoslanadi. Shu bilan birga jamiyatda ishlovchilarning koʻpchiligi axborot, ayniqsa bilimni ishlab chiqarish, uni saqlab qolish, qayta ishlab chiqarish, yangilash va amaliyotga joriy etish bilan bandligidir.

AXBOROTLASHTIRISH (ingl. Informatization) – zamonaviy axborot-texnologik vositalari yordamida ilmiy, ijtimoiy tuzilmalarni rivojlantirish, takomillashtirish va keskin kuchaytirish jarayoni. Shu bilan birga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT)

foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish va bilim hamda axborotni tarqatishning jadal jarayoni deyish mumkin.

BILIM - falsafiy kategoriyalardan bo‘lib, tartibga solingan, ma’lum metodlar bilan olingan subyektlar va butun jamiyat uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi ma’lumotlardir. Bilim o‘ziga xos individual va ijtimoiy xotira bo‘lib, u ajdodlar tomonidan uzatilgan yoki yangitdan yaratilgan bo‘ladi. Bilim inson faoliyatining dasturi hisoblanadi. Inson bilim vositasida faoliyat olib boradi.

BILIM JAMIYATI - axborot inqilobi, globalizatsiya va yangi axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida shakllanayotgan ijtimoiy rivojlanish modeli hisoblanadi. Mazkur sohaga oid tadqiqotlarga asoslanib aytish mumkinki, bilim jamiyati global axborotlashgan jamiyatidan farq qiladi. Agar axborotlashgan jamiyat texnologik mezonlarga asoslangan bo‘lsa, bilim jamiyatining rivojlanishi ijtimoiy, ahloqiy, siyosiy mezonlarga asoslanadi. Agar axborotlashgan jamiyatda bilim, axborot tengsizligi mavjud bo‘lsa, bilim jamiyatida “bilim ijtimoiy boylik hisoblanadi va u har bir jamiyat a’zosining undan foydalanishi, bahramand bo‘lishi ta’minlanadi”.

YUNESKOning bilim jamiyatiga bag‘ishlangan ma’ruzasida ta’kilanganidek, bilim jamiyatida har bir jamiyat a’zosining axborot uzatishdagi to‘siqlar bartaraf etiladi, axborotning senzura va manipulyatsiya quroli bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Jamiyat a’zolarining bilimdonligining oshib borishi natijasida bilim jamiyatida axborotlashuv va etikaning birligiga erishiladi. Shu sababli zamonaviy axborotlashgan jamiyatining rivojlanib, bilim jamiyatiga aylanayotganligi ham e’tirof etilmoqda. “Bilim jamiyati” birinchi bor Maxlup tomonidan tadqiq etildi.

BIFURKATSIYA (lot. bifurcus – ikkilangan, bo‘lingan) ma’lum (aniq) nuqtada tizimning harakat trayektoriyasida bo‘lingani (ikkilangani), ya’ni tizimni funksional va evolyutsion yo‘nalishlarni tanlash holatini ifodalaydi. Bifurkatsiya holati sistemani

muvozanatli holatdan xaosga o‘tish jarayonida paydo bo‘ladi. Bifurkatsiya nuqtasida turli attraktorlar yo‘nalishi tanlanadi. Shuningdek, bifurkatsiya nuqtasi tizim muvozanatsiz holatda bo‘lib, kichkina fluktuatsiya yoki tasodif tizimni rivojlanish yo‘nalishini o‘zgartiradi.

DIALOG (grech. διάλογος - suhbat) – ikki yoki undan ortiq insonlarda og‘zaki yoki yozma so‘zlar (replika, savol va javob) almashuvining adabiy yoki teatr shakli. Shu bilan birga matnni yozish yoki boshqa metodlar vositasida ikki yoki undan ortiq insonlar orasida yozma dialog bo‘ladi.

Dialog – bu biror narsani gapirishda yoki muhokamasida qatnashuvchi ikki yoki undan ortiq qatnashuvchilarning savol va javoblari hamda kommunikatsiya va muloqotning alohida shakli. Adabiyotda dialog – dramatik janrlarning chegaralangan belgisi, ba’zida dramatik bo‘lmagan asarlar asosi hisoblanadi.

DISSIPATIV STRUKTURA (tarqalish, barbod bo‘lish) – bu ochiq sistema bo‘lib, u termodinamik muvozanatdan uzoq bo‘ladi. Bu muvozanatsiz muhitda paydo bo‘ladigan turg‘un holat, tashqaridan kelgan energiyaning dissipatsiyasi (tarqalishi) sababli namoyon bo‘ladi. Dissipativ strukturalar paydo bo‘lishi va funksiyasi, tartib va xaos bir-biri bilan munosabatda bo‘ladi. Sistemada tartibni paydo bo‘lishi atrof muhitda tartibsizlikni ko‘payishi bilan bog‘liq, ya’ni tizimda energiyani namoyishi atrof muhitda tartibsizlikni ko‘payishiga olib keladi.

Dissipativ strukturalarda I.Prigojin ta’limotiga ko‘ra, qaytarilmaslik konstruktiv ahamiyatga ega. Muvozanatdan uzoqda o‘z-o‘zidan yangi xil strukturalarda tartibsizlikdan tartibga o‘tish imkoniyati bor. Ushbu yangi strukturalarni I.Prigojin dissipativ struktura deb atagan.

Struktura - sistemada tartibligini, sistemani strukturalari orasidagi nisbiy turg‘unlikning mavjudligini bildiradi. Yangi strukturani dinamikasini uning strukturasi belgilaydi. Yangi

strukturalar shakllanishi uchun: tizim muvozanatli holtidan uzoqda bo‘lishi shart va tizim orqali materiya, energiya va informatsiya oqimi to‘xtovsiz o‘tishi kerak; tizimni elementlari orasida chiziqsiz o‘zaro bog‘lanish bo‘lishi, orqaga qaytuvchi aloqa asosida yangi strukturalarni paydo bo‘lishi tizimni barbod qilishi yoki tashqi muhitga moslashishga imkoniyat beradi. Muayyan sharoitda strukturaviy o‘zgarishlar tizimni sifatiy o‘zgarishlariga olib keladi.

DINAMIK XAOS – muntazam va dinamik qonunlar asosida rivojlanayotgan tizimdagi tasodifiy hatti harakatlarning vujudga kelishi. Ushbu tizimlar harakatini bashorat qilish mumkin emas.

IDENTIKLIK (lot. identicus - aynanlik, bir xillik) - shaxs tomondan o‘zining qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi hamda shu ijtimoiy guruh doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, maishiy, axloqiy stereotiplarga amal qilinishi. Ushbu tushuncha ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan har bir insonning hayotiy faoliyatini boshqaruvchi imperativdir.

INSON KAPITALI. Ushbu konsepsiya XX asrning ikkinchi yarmida T.Shuls, G.Bekker, S.Kuznets (Nobel mukofoti laureatlari) va boshqalar tomonidan rivojlantirildi.

Birinchi bor inson kapitali tushunchasi T.Shuls tomonidan ilmiy tushunchalar qatoriga kiritilgan. Uning fikriga ko‘ra, inson farovon yashashi, kambag‘allikdan qutilishi, yer, texnika va insonlarning sa’y harakatidan ko‘ra ko‘proq bilimga bog‘liq. “Insonlarning barcha qobiliyatlari yoki tug‘ma yoki orttirilgan bo‘ladi: har bir odam uning tug‘ma qobiliyatlarini belgilovchi individual genlar kompleksi bilan tug‘iladi. Inson ortirilgan sifatlari munosib sarflar bilan kuchaytirilishi mumkin, biz buni inson kapitali deb ataymiz” (Shuls).

Insonda mujasamlashtirilgan inson kapitali uning bilimi, bilimdonligi, mahorati, tartibligi, axloqligi va yaratuvchanlik faoliyati – har qanday davlatning milliy boyligini asosidir.

Inson kapitali xususiyati – investitsiyalarni doimligi va ularning natijalari ancha vaqtdan keyin namoyon bo‘ladi. Inson kapitali

rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillardan ijtimoiy muhitning ahamiyati o‘zgacha. Ijtimoiy muhit inson kapitali shakllanishining poydevori.

Inson kapitali jamiyatdagi intellektual madaniyat va mentalitetning ko‘rsatkichlariga bog‘liq. Ularni ko‘rsatkichi past bo‘lsa inson kapitaliga ta’sirning samarasi bo‘lmaydi.

INNOVATSIYA - lotincha “novatio” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tiliga u “o‘zgarish” “yangilanish” deb tarjima qilinishi mumkin. “Innovatsiya” so‘zi tarkibidagi “in” old qo‘shimchasi o‘zbek tilida”yo‘nalish”ma’nosini anglatadi. Shunday qilib, bu so‘zning lug‘aviy ma’nosi o‘zgarishlar yoki yangilanishlar yo‘nalishini anglatish bilan bog‘liq.

KLASTER (ingliz tilidan tarjima qilinganda cho‘tka, (grozd); to‘plash, konsentratsiya) guruh bo‘lib, ko‘plab tabiiy fanlardan iqtisodgacha muvofaqqiyatli qo‘llanilgan.

Birinchi bor klaster atamasi ilmiy muomalaga matematikada kirdi, ya’ni 1930 yilda ko‘p o‘lchovli ma’lumotlarni tahlili klaster apparati shakllangan edi. Neorganik ximiyada klaster quyidagi ma’noni bildiradi, ya’ni o‘tish metall atomlarining turli soni mavjud tuzilishdagi ximik bog‘lanishlar sinfi.

Hisoblash klasterlari - bir tipli kompyuterlar, dispetcherli (nazorat qiladigan) tizimi bilan birlashtirilgan, ta’limda va ilmiy tadqiqotlarda vaqt talab qiladigan hisoblash vazifalarini yechishda faol foydalaniladi.

KOGNITIVLIK (lot. cognitio - bilim, bilish) - insonning bilish va bilimini anglatadi, ya’ni inson bilish jarayoni va uning natijasi hisoblangan bilimning mohiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Darhaqiqat, inson o‘z kognitiv imkoniyatlari asosida tafakkurlaydi, faoliyat yuritadi, yaratadi va ijod qiladi hamda jamiyatni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oyalarni ilgari suradi. Shu sababli ham kognitivlik insonning bilish jarayonida namoyon bo‘ladigan shaxsiy mental qobiliyati hisoblanadi va yangi

bilim va axborotlarni qayta ishlash, qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etishi zamonaviy fan tomonidan e’tirof etilmoqda.

Kognitivlik shaxsning bilish jarayonidagi qobiliyati hisoblanadi. Inson kognitivligini xotira, idrok, tafakkur, tushunish, qaror qabul qilish

KOMMUNIKATSIYA – (lotincha communicatio – xabar, uzatish; communicara – umumiy qilish, suhbatlashish, xabar berish, bog‘lanish) – insonlar orasidagi murakkab jarayon bo‘lib, ma’lumot almashish, aloqa o‘rnatish, shuningdek suhbatdoshlarning bir-birini tushunishi va qabul qilishni bildiradi.

Hozirgi kunda kommunikatsiya atamasi o‘zgargan, ya’ni kengroq tadqiq etilmoqda. Bir tomondan, agar kommunikatsiya tushunchasi xabar va signallarni uzatishni nazarda tutilgan bo‘lsa, zamonaviy talqinda tabiiy va sun’iy tabiatdagi har qanday obyektlar orasida axborot almashish tushuniladi.

KOMPRATIVISTIKA (lotin. comparatius) – qiyoslash, falsafiy qiyosiy-tarixiy usul.

KONSTRUKTIVIZM (lotincha constructio – qurish) XX asrning 70 yillar oxiri 80 yillar boshlarida paydo bo‘lgan zamonaviy falsafa fani yo‘nalishlaridan biridir.

Konstruktivizm tushunchasi bugun fan falsafasida ikki xil ahamiyatda qo‘llanilmoqda, ya’ni tor ma’noda – bu psixologiya va sotsiologiyadagi aniq yo‘nalish sifatida, keng ma’noda – etika, metodologiya, epistemologiya, ontologiyadagi ijtimoiy fanlar o‘zining tadqiqotlarida yangi ko‘rinishdagi paradigma sifatida.

Konstruktivizm mohiyati jihatidan epistemologik yondashuv bo‘lib, olamni, subyektni interpretatsiyasini (modelini) faol qurish orqali bilimni qabul qiladi. Aytish kerakki, konstruktivizm – epistemologiya va falsafa fanidagi yo‘nalish bo‘lib, unda tasvirlar, tushunchalar va fikrlarni qurishda (tiklashda) maxsus jarayonlardan foydalanadigan, taniydigan subyektni bilish faolligining g‘oyasiga asoslanadi. YA’ni, falsafa doirasida «konstruktivizm o‘zida shunday

yondashuvni koʻrsatadiki, unga asosan barcha bilish faoliyati konstruksiyalangan hisoblanadi».

Bilish nazariyasida konstruktivizm – bu shunday yondashuvki, unda «inson tafakkuri va bilish jarayonida olamni oʻzida aks ettirmaydi balki faol yaratadi, konstruksiyalaydi». Unga koʻra, tushuncha va fikrlash jarayonidagi inson atrofidagi dunyoni aks ettirmaydi yoki kupaytirmaydi, balki faol ravishda yangilaydi, yaratadi, quradi.

KREATIVLIK (ingl. create –yaratish, creative – bunyodkorlik, ijod) – insonning yangi yangiliklarni yarata olish qobiliyati.

Kreativlik mavjud narsalardan yangiliklar yarata olish, muammoni noananaviy usulda hal qilishda namoyon boʻladi. Kreativlik shaxsning tafakkuri, hissiyotlari, muloqotida, turli faoliyat sohalarida, faoliyat natijalari va mazkur natijalarni yaratishda namoyon boʻluvchi ijod, yangilik yaratishga boʻlgan qobiliyatidir. Oddiy soʻz bilan aytganda kreativlik muammoni tez va noodatiy hal qilishdir.

MURAKKABLIK (lotincha complexus, bir-biriga chirmashishgan, qoʻshilib ketgan) toʻqima tufayli yagona toʻqima quriladi.

Murakkablik tushunchasi zamonaviy falsafada keng oʻrganilayotgan tushunchalardan biridir. Murakkablikni tadqiq etish koʻp jihatli muammo boʻlib, zamonaviy falsafada uning bir nechta modellari ishlab chiqilgan. Masalan, G. Xaken, I. Prigojin, E.Moren, U.Maturana va F.Varella, YE.N.Knyazeva va boshqa bir qator konsepsiyalar shular jumlasidandir.

MURAKKAB TIZIM – tizim turlaridan biri hisoblanadi.

Murakkab tizimning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: elementlarning dinamik tizimidir; tizimning oʻzgaruvchan holatlarda oʻz hatti-harakatini oʻzgarish qobiliyatiga, moslashuvchanlikka imkon beruvchi, tizimning elementlari yoki tizimchalarining xilma xilligidir; koʻp darajaviylikdir; murakkab

tizim ochiq tizim boʻlib u muhit bilan modda, energiya, axborot almashinadi; murakkab tizimda emerjent fenomenlar hosil boʻladi.

SINERGETIKA (yunon. sunergeia – hamkorlik, hamjihatlik) – hozirgi zamon oʻz–oʻzidan tashkil boʻlish nazariyasi, oʻz–oʻzini boshqarish, nochiziqli hodisalarni oʻrganishga, dunyoni yangicha izohlashga, murakkablikni oʻrganadigan, tabiiy va ijtimoiy–iqtisodiy jarayonlarninng tabiatini bilishga qaratilgan, ilmiy yoʻnalish, tafakkur uslubi.

Sinergetika oʻz-oʻzini tashkillashtirish jarayonini oʻrganadi. Tizim nochiziqli, ochiq va turgʻunlik holatidan uzoqda harakat qilishi kerak. oʻz-oʻzidan shakllanish uchun tizimda modda, energiya yoki informatsiya ta’sir etib turishi shart. Tizimda birdaniga qoʻqqisdan yangi strukturalarni paydo boʻlishi oʻz-oʻzini tashkillashtirishning muhim xususiyatidir.

OʻZ-OʻZINI TASHKILLASHTIRISH – nochiziqli ochiq tizimlarni xaotik, tartibsizlik holatidan tartib holatiga oʻz-oʻzidan (tashqi ta’sirsiz, ichki sabablar tufayli) oʻtish.

Oʻz-oʻzini tashkillashtirish gʻoyasini konseptual-metodologik yangiligi turli xil murakkab sistemalarning oʻz-oʻzidan rivojlanish tashqi ta’sir (energiya, modda, axborot) natijada sodir boʻlishi bilan birga tizimlarning ichki imkoniyatlari jarayoning sodir boʻlishiga ham sababchi boʻla oladi. Oʻz-oʻzidan ichki imkoniyatlar ta’siri natijasida tashkillashtirilgan tizimlarda murakkabroq va murakkabroq struktura paydo boʻladi. Yangi strukturalarni paydo boʻlishi, shakllanishi va faoliyat sistemani adaptatsion imkoniyatlarini koʻrsatadi.

SINERGIYA (grek. hamrohlikda ishlash, koʻmak, yordam, birga qatnashish, birlashish, uyushma) – birgalikda ta’sirni (effekt) kuchaytirish.

Sinergiya ikkita yoki bir nechta elementlarning oʻzaro ta’sirining natijasi, ushbu elementlarning alohida holatdagi harakatiga nisbatan samaraliroq boʻladi. Oʻzaro ta’sirning natijasida olingan farq,

sinergetik samaradorlik (effekt) deb ataladi. Ushbu samaradorlikning natijasi ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida: ijtimoiy sherikchiik, dialog, fan va ta’im integratsiyasi va hakozo.

STRUKTURA (lotin. structura - tuzilma) – tizimning ichki tuzilishi, elementlar orasidagi turg‘un, barqaror aloqalar birligi, majmuidir.

“Struktura” kategoriyasi tizimning ichki tuzilishini, tartibliligini tasniflab, tizim ichiga kirib borish imkoniyatini beradi.

TA’LIM – bu sistemalashtirilgan bilim, mahorat va malakani odamlar tomonidan o‘zlashtirish jarayoni va natijasidir. Ta’lim insonni hayotga, mehnatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlar to‘plamidir. Chunki, ta’lim, eng avvalo bilimlarni avloddan-avlodga uzatish vositasi hisoblanadi.

TEZARIUS - tizimning ushbu darajasida mavjud va keyingi darajada retsepsiya (yoki generatsiya) uchun zarur bo‘ladigan axborotdir.

TIZIM (yunoncha system – qismlardan tuzilgan, biriktirilgan, birlashtirilgan) o‘zaro aloqdorlikda bo‘lgan elementlar va struktura birligi bo‘lib, u muayyan taraqqiyot va funksional qonunlarga bo‘ysunadi. YA’ni, u ko‘plab o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat yaxlitlik, bir vaqtning o‘zida yagona obyekt hamda maqsadga erishish uchun to‘plangan elementlar yig‘indisi. Albatta, tizim atamasi “o‘zaro bog‘langan va belgilangan yaxlitlik, birlik”ni tashkil qiladigan qismlar yoki ko‘pgina elementlardan tashkil topgan bir butunlikni bildiradi.

FANLARARO YONDASHUV - zamonaviy ilmiy bilishda murakkab jarayonlarni poliparadigmal asosda tadqiq etuvchi yondashuv. Bir so‘z bilan aytganda fanlararo yondashuv – obyektni, har tomonlama, keng qamrovli turli fan, yo‘nalish va sohalarni muayyan metodologik nuqtai-nazaridan tadqiq etish. Bunday fanlarga biokimyo, geofizika, fizkimyo va h.k. misol qilish mumkin. Ma’lumki,

fanlararo yondashuvi asosida shakllangan yangi fanlarni paydo boʻlishi: ikkita fanning toʻqnashuvi natijasida, bitta fanning usullari ikkinchi fan tadqiqotlarida qoʻllaniladi.

FLUKTUATSIYA (lotincha fuctatio – tebranish maʼnosini bildiradi) – fizik kattaliklarning oʻrtacha holatidan (maʼnosi) tasodifiy ogʻishlar, u koʻp sonli qismchalarga ega tizimni xarakterlaydi. Bunday qismchalar issiqlik harakati yoki kvantmexanik effektlari yordami bilan yuzaga keladi.

Fluktuatsiya tushunchasini XX asrda Eynshteyn asos solgan va Bolsman fanga konsepsiya sifatida olib kirgan.

Fluktuatsiya tizimning muvozanat holatidan tasodifiy ogʻishi boʻlib, tizim rivojlanish jarayonida muvozanat holatidan uzoqlashib, tinchlik (kritik) nuqtasiga yaqinlashishi mumkin. Bu holatni sinergetikada bifurkatsiya nuqtasi deb ataladi. Natijada tizimning holati qalqib turuvchi, turgʻun emas boʻlib qoladi. Mana shunday davrda alohida olingan tasodif ham, kuchli boʻlmagan taʼsir ham, tizimning holatini oʻzgartirib yuboradi. Bu fluktuatsiya holati deb ataladi.

XAOS (gr. haos - tartibsizlik) - narsalarning tartibsiz, ochiq, shaklsiz, noaniq holati. Qadimgi grek mifologiyasga koʻra, xaos nihoyaciz, tumanli, shaklsiz, jarlik, boshlangʻich asos boʻlib, keyinchalik undan barcha mavjudot, jumladan batartib Kosmos ham paydo boʻlgan, qisqasi, xaos butun voqelik asosida yotgan ilk mohiyatdir.

EMERJENTLIK (lot. emergere – yuz bermoq, paydo boʻlmoq) - tizimning shunday sifatini va xususiyatni aytish mumkin, unga koʻra tizimning qismlariga munosabatida yangilikni aks ettiradi. Har qanday yaxlit holat e. sifatini keltirib chiqaradi. Masalan, xoʻjayradan tortib to organizmgacha, gendan tortib genofondgacha E. xususiyaga ega tizimli yaxlitlikni namoyon etadi.

Emerdj xususiyatlari kishilarni guruhga yoki jamoaga birlashganida, toʻsatdan yuzaga keladigan, ularga xos boʻlgan

umumiylikni e’tirof etadi va mazkur guruhga kiruvchi kishilar tavsifi bu xususiyatlar tavsifi bilan aynan bo‘lishi shart emas, deb qarashni anglatadi.

EPISTEMOLOGIYA (yun. episteme – bilim va logos – ta’limot)– bilish jarayonining mohiyati, bilimning voqealikka bo‘lgan munosabati, bilish jarayonining umumiy asoslari, uning haqiqatligini, shart-sharoitlarini aniqlovchi kabi muammolarni tadqiq etuvchi falsafaning qismi. Bilim nima, bilim qanday tuzilgan, bilimning qanday turlari mavjud kabi muammolar ham epistemologiyaga tegishli, ya’ni epistemologiya bilimni paydo bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganadi.

ENAKTIVIZM – falsafadagi konstruktivizmning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Konstruktivizmda subyektning faolligi, bilimning faol subyekt tomonidan yaratilishi g‘oyasi ilgari suriladi. Konstruktivizm asosan Piaje, Nayssarlarning g‘oyalariga asoslanadi.

Enaktivizmning asosiy g‘oyalari esa F.Varela, E. Rosh i E. Tompsonning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Enaktivizmda faol subyekt va tashqi muhit, ya’ni bilish jarayonidagi subyekt va obyekt muammosi yangicha talqin etiladi. YA’ni bu ilmiy nazariyaga asosan bilish jarayonida subyekt va obyekt o‘zaro birlik, bir-birini to‘ldiruvchi zanjirdir. Bu zamonaviy fan va epistemologiya uchun muhim metodologik samara beradi. Olamning bir butun murakkab tizim ekanligi e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

RAHBARIY ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. ”Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz” Toshkent.: “O`zbekiston” nashriyoti, 2017 yil. 91-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O`zbekiston. 2017. 141-bet

---

3. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi, Nyu York, 2017-yil 19-sentabr, “Xalq so`zi” gazetasi, 2017-yil 20-sentyabr.
4. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. Asarlar, 1-jild, 358 bet.
5. Karimov I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi” – Toshkent.: O`zbekiston”, 1997. – 384 bet.
6. Karimov I.A. “Olloh qalbimizda, yuragimizda” – Toshkent.: “O`zbekiston” 1999. – 47 bet.
7. Karimov I.A. O`zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. Toshkent, O`zbekiston, 1995, -B. 46
8. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid. – Toshkent.: O`zbekiston, 1997. – B.137.
9. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir / O`zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo`lmaydi. Toshkent.: O`zbekiston, 2005. -194
10. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent.: Ma’naviyat – 2016, – 123 бет.
11. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi – Toshkent, O`zbekiston, 2010, 7-bet

DARSLIK, O`QUV QO`LLANMA, MONOGRAFIYA, RISOLALAR:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent.: Abdulla Qodiriy, 1993, 188 bet
2. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. 47 bet(http://www.ferlibrary.uz)
3. Yusupov E. Falsafa. “O`qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi” Toshkent — 2005, 300 bet
4. Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. Darslik.Toshkent, 2017, 583 bet
5. Shermuxamedova N.A. Texnika falsafasi. Toshkent, Noshir. 2016. 467 bet
6. Yoqubova M.I. Madaniyatning axborotlashuvi. Toshkent, Nishon-Noshir, 2010. 47 bet
7. Komilov K. “Globallashuv va diniy jarayonlar”. Toshkent, “Movarounnahr”, 2014. - 128 bet.
8. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar lug`ati – Toshkent, “O`zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2009. 957 – bet.
9. Otamurodov S. Globallashuv va millat. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. - 304 bet.
10. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya.- Toshkent.: Movaraunnahr, 2016. -373 bet
11. Abdurahmonov M, Rahmonov N. Madaniyatshunoslik. Toshkent – 2008. 324-bet
12. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12 jildlar. T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2000-2005.
13. Politologiya lug`ati. –Toshkent. Sharq, 2007.- B.225
14. Имомалиева Р.М. Связи и отношения в возникновении нового// Цивилизация. Мустақиллик. Инсон. - 2001

15. Файзуллаев А.Ф. Мировой фонд методов научних исследований, его развитие и внедрение в Республике Узбекистан// Обшественние науки в Узбекистане. 1995 №10, - С. 179

16. Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - Toshkent: “Muharrir” nashriyoti, 2009. - 64 bet.

17. Абдуллаева М.Н. Методологические возможности научного познания// Методологические возможности развития науки -Т.: Фан, 1990, -С.165.

18. Falsafa qomusiy lug`at. –Toshkent. Sharq, 2004. -B.94

19. Q.Usmonov. O`zbekiston tarixi. Darslik. Toshkent-2016. – 225 bet

20. I.Siddiqov, F.Ibrohimov. Mustaqil O`zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida yoshlar faolligini oshirishning ijtimoiy-ma’naviy omillari. Farg`ona-2015. - 88 bet.

XORIJIY ADABIYOTLAR:

1. Винер Н. Кибернетика и общество. –Москва. Наука, 1991. -С.620

2. Fridrix Nitshe. Zardusht tavallosi. T, Yangi asr avlodi, 2015. -447 bet

3. ‘Measuring Globalization’ In, Foreign Policy, March-April 2009. - 54-69 pp.

4. Гаджиев К.С. Введение в геополитику. - М.: ЛОГОС, 2000. - 432 с; Глобализация и моделирование сотсиалной динамики. - М.: Институт социалних наук, 2001. - 237 с.

5. Камю А. Чужой. Москва, Наука, 1999.

6. Камю А. Бундуюхий человек. Философия. Политика. Искусство.: Пер. с Фран. –Москва. Политиздат, 1990.

7. Камю А. Избранное. Москва. Правда, 1990.

8. Камю А. Творчество и свобода: ст., Эссе: Пер.с. Фран. - М.: Радуга. 1990

9. Lokk J. “Inson aqli to'g'risida tajriba”. T, O`qituvchi. 1690 y

10. Белл Д. Сотсиалние рамки информационного обшества // Новая технократическая волна на Западе / Под ред. П.С. Гуревича. - М., 1986.

11. Russo J.J. “Tengsizlik sabablari to'g'risida”. Toshkent. Noshir. 1999 y

12. Фихте И.Г. Ясное, как солнце, сообшение широкой публике о подлинной сушности новейшей философии. Попитка принудитъ читателей к пониманию. — Ленанд, 2016. — 112 с. — (Из наследия мировой философской миысли. История философии). — ИСБН 978-5-9710-3281-6.Hobbas T. Seviathan Praha 1941. C. 205.

13. Марсел Г.Г. Сто лет одиночества. Москва. Наука. 2001.

14. Гринин Л.Й. Глобализация и националний суверенитет // История и современность. - 2005.- № 1. - С. 6-31

15. Абулханова К. А. Проблема индивидуальности в психологии / Психология индивидуальности: новие модели и концепции// Коллективная монография под ред. Й. Б. Старовойтенко, В. Д. Шадрикова. — М.: МПСИ, 2009. — С. 14-63.

16. Куритсин В.Н. Русский литературний постмодернизм – М.: ОГИ. – 2001. Ст 289.

17. Современная западная философия: Словар.М.: ТОН-ОСТОЖЪЕ, 1998

18. Огбёрн Г. Философия техники. –М.: Современние тетради, 2005. –С.35

19. Тоффлер Э. Новая технологическая волна на Западе. – Москва. Прогресс, 1986. –С.161

20. Белл Д. Грядуюшее постиндустриалное общество. Опит Социалъного прогнозирования. – Москва. Академия, 1999. –К.220

DISSERTATSIYA, AVTOREFERAT VA MAQOLALAR:

1. Шермухамедова Н.А. Социально-философские аспекти формирования стиля научного мишления: Дисс.д-ра. филос. наук. –Тошкент. Университет, 2002. -С.170
2. Yoqubova M. Jamiyat taraqqiyotida axborotlashuv va axborot texnologiyalarining ahamiyati. fals.fan. nomz. disser. Avtoreferati. –T.: Universitet, 2006. –B.14
3. Alber Kamyu. Isyon va san'at// "Jahon adabiyoti" jurnali. 1-son 1997.
4. Гринин Л.Й. Глобализация и националъний суверенитет. / История и современность. - М.: №1, 2005. Ст. 16-24.
5. Dalay-Lama XIV. "Haqiqiy dushmanimiz – o`z ichimizda"// Demokratlashtirish va inson huquqlari. – T., 1999. - №3-4. – 42 bet
1. Шендрик А. И. Глобализация в системе кулътурологических координат//Знание. Понимание. Умение. – 2004. – № 1. – С. 59–71.

INTERNET MATERIALLARI:

2. uz.wikipedia.org
3. https://www.gazeta.uz
4. http://kh-davron.uz/kutubxona/uzb
5. http: //regulation.gov.uz
6. https://books.uz
7. www.zamonaviy.com

MUNDARIJA:

KIRISH.....	**3**
1. Jamiyatning axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet fanining predmeti, maqsad-vazifalari, amaliy ahamiyati.	**6**
2. Mafkuraviy immunitet – barkamol inson xususiyatlarining asosiy sharti	**37**
3. Mafkuraviy tarbiya yo‘nalishlari va funksiyalari.	**74**
4. Ma’naviy taxdidlar, ularni oldini olish zarurati. Globallashuv davri va manaviy tahdidlar.	**103**
5. Internet: kecha va bugun.	**131**
6. Hozirgi davrning asosiy manipulyatsion vositalari va ularga qarshi chora-tadbirlar.	**163**
7. Milliy g‘oya, ijtimoiy taraqqiyot va mafkuraviy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi.	**208**
8. Ommaviy axborot vositalarining aholi siyosiy va informatsion madaniyatiga ta’siri.	**230**
9. Missionerlik va prozelitizm – tolerantlikka qarshi g‘ayridemokratik jarayon sifatida.	**278**
10. Siyosiy mentalitet va siyosiy jarayonlar dialektikasi.	**316**
XULOSA.....	**353**
NAZORAT SAVOLLARI.....	**356**
GLOSSARIY.....	**363**
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....	**374**

ОГЛАВЛЕНИЕ:

ВВЕДЕНИЕ.....	**3**
1. Предмет, цели и задачи, практическое значение науки об общественной информации и идеологической неприкосновенности.	**6**
2. Идеологический иммунитет – главное условие характеристики всесторонне развитой личности.	**37**
3. Направления и функции идеологического воспитания.	**74**
4. Моральные угрозы, необходимость их предотвращения. Эпоха глобализации и моральных угроз.	**103**
5. Интернет: вчера и сегодня.	**131**
6. Основные манипулятивные инструменты современности и меры против них.	**163**
7. Взаимозависимость национальной идеи, общественного развития и идеологических процессов.	**208**
8. Влияние средств массовой информации на политическую и информационную культуру населения.	**230**
9. Миссионерство и прозелитизм как недемократический процесс против толерантности.	**278**
10. Диалектика политического мышления и политических процессов.	**316**
ВЫВОД.....	**353**
КОНТРОЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ.....	**356**
ГЛОССАРИЙ	**363**
СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	**374**

INTRODUCTION	**3**
1. Subject, goals and objectives, practical significance of the science of public information and ideological immunity.	**6**
2. Ideological immunity is the main condition for characterizing a comprehensively developed personality.	**37**
3. Directions and functions of ideological education.	**74**
4. Moral threats, the need to prevent them. The era of globalization and moral threats.	**103**
5. Internet: yesterday and today.	**131**
6. The main manipulative tools of our time and measures against them.	**163**
7. Interdependence of the national idea, social development and ideological processes.	**208**
8. The influence of mass media on the political and informational culture of the population.	**230**
9. Missionary work and proselytism as an undemocratic process against tolerance.	**278**
10. Dialectics of political thinking and political processes.	**316**
CONCLUSION.....	**353**
VERIFICATION QUESTIONS	**356**
GLOSSARY	**363**
BIBLIOGRAPHY.....	**374**

GULCHEHRA G‘AFFAROVA
FARHOD IBROXIMOV

«MAFKURAVIY JAMIYATNING AXBOROTLASHUVI VA MAFKURAVIY IMMUNITET»

O‘quv qo‘llanma

Muharrir:	X. Taxirov
Tehnik muharrir:	S. Melikuziva
Musahhih:	M. Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й
Bichimi 60x84 1/16. “Cambria” garniturasi, kegli 16.
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog’i 24. Adadi 100 dona. Buyurtma № 2149

Zebo prints MCHJda chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar, Yashnobod tumani,
22-harbiy shaharcha

QAYDLAR UCHUN